



**Normurod AVAZOV,**  
*Alfraganus universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori*  
E-mail: [normurod.avazov.63@mail.ru](mailto:normurod.avazov.63@mail.ru)

*TDYUU professori, f.f.d Sh.Ko'chimov taqrizi asosida*

### JADID ADIBLARINING MILLAT VA MILLIYAT HAQIDAGI QARASHLARI

Аннотация

Muallif tomonidan jadid adiblari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriyning millat va milliyat haqidagi qarashlari ochib beriladi. O'zbek jadid adabiyotida millat taqdiri va uning kelajagi va taraqqiyotini o'zida aks ettirgan shoir va yozuvchilarimiz asarlari orqali tahlil etiladi. Millatning kelajagi uchun kurash milliy g'oyasi jadid adabiyotining boshqa vakillari asarlarida ham yaqqol namoyon bo'lganligi o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Millat, milliyat, o'lka, ilm, ma'rifat, talqin, g'aflat, muammo, istiqlof.

### ВЗГЛЯДЫ ПИСАТЕЛЕЙ ЖАДИДОВ НА НАЦИЮ И НАЦИОНАЛЬНОСТЬ

Аннотация

Автор раскрывает взгляды современных писателей Махмудходжи Бехбуди, Абдуруфа Фитрата, Абдуллы Кадири о нации и народности. Современная узбекская литература анализируется через произведения наших поэтов и писателей, отражающих судьбу нации, ее будущее и развитие. Изучено, что национальная идея борьбы за будущее нации ярко проявилась в творчестве других представителей современной литературы.

**Ключевые слова:** Нация, национальность, страна, наука, просвещение, интерпретация, небрежность, проблема, перспектива, умение.

### VIEWS OF JADED WRITERS ON AND NATIONALITY

Annotation

The author reveals the views of modern writers Mahmudkhozi Behbudi, Abdurauf Fitrat, Abdullah Kadiri about the nation and nationality. In modern Uzbek literature, the fate of the nation, its future and development are analyzed through the works of our poets and writers. It has been studied that the national idea of the struggle for the future of the nation is clearly manifested in the works of other representatives of modern literature. It has been studied that the national idea of the struggle for the future of the nation is clearly manifested in the works of other representatives of modern literature. Broadcasting, interpretation, ignorance, problem, independence.

**Key words:** Nation, nationality, country, knowledge, enlightenment, interpretation, negligence, problem, perspective, skill.

**Kirish.** Turkiston o'lkasida jadidlar Mahmudxo'ja Behbudiyning "millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmaydi" degan xulosasiga qo'shilgan edilar. hamda Millatning kelajagi uchun kurash milliy g'oyasi jadid adabiyotining boshqa vakillari asarlarida ham yaqqol namoyon bo'lganligini ko'ramiz. Ular Behbudiyning g'oyasi targ'ibotchilari bevosita davomchilari hisoblanadilar.

O'zbek jadid adabiyotida millat taqdiri va uning kelajagi hamda taraqqiyotini o'zida aks ettirgan shoir va yozuvchilarimiz orasida Abdurauf Fitrat ajralib turadi. Fitrat o'zbek jadid adabiyotiga she'rlari, nasriy, dramatik, adabiy-tanqidiy, publitsistik asarlari bilan katta hissa qo'shgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mahmudxo'ja Behbudiyning ijodi ijodining ta'siri ugranihladi [1]. Ya'ni, uning asarlari jadid adabiyotiga ta'siri alohida tadqiq etilmagan. Shuningdek, maqolada ayni davr ijodkorlarining ijodi, ularning asarlari tahlilga tortilgan. Ya'ni, Fitratning "Yurt qayg'usi (sochma)", "Yurt qayg'usi (bir o'zbek tilidan)", "Yurt qayg'usi (Temur oldinda)", "Kim deyay seni?", "Bir oz kul", "Achchig'lanma degan eding", "Mirrix yulduziga", "Ovunchoq", "Yana yondim", "Shoir", "Behbudiyning sag'anasini izladim", "O'git", "Sharq", "O'qituvchilar yurtiga", "Qor", "Mening kecham" she'rlari [2], Abdulla Qodiriyning "Ahvolimiz", "To'y", "Millatimga bir qaror" "Baxtsiz kuyov"i (1915), "Mochalov [3] asarlari o'rganildi.

**Matnlar va muhokama.** Fitrat qaiamiga mansub ijodining mazmunini millat taqdiri, istiqlof mavzusi, yurt qayg'usi, Vatan tuyg'usi tashkil qiladi. Jadid adabiyotining yetuk vakili hisoblangan Fitrat go'zal she'rlari bilan barimoq vazniga asos solgan. Fitratning "Behbudiyning sag'anasini izladim" she'ri millatning otasi va fidoyisi Mahmudxo'ja Behbudiyning vafoti munosabati bilan yozilgan.

She'r:

Cho'kmishdi yer uzra olam to'sug'i,

O'ksuklik boyqushi qanot qoqardi.

Botuvda qizarib turgan bulutdan

Ezilgan ko'nglima motam yog'ardi, misralari bilan boshlangan.

Shoir aytadiki, butun olam yer yuziga cho'kkan, ko'nglimda o'ksuk, g'amginlik hukmronidir. U boyqush kabi qanot qoqadi, ya'ni boyqushday joylashib olgan. Ko'nglimning to'rlarida ozgina bo'lsa-da qolgan (bo'lgan) umiddan, ya'ni u ham botib ketayotgan bulutday, ezilgan ko'nglimga yanada motam bo'lib yog'iladi.

Haqsizlik shahrining qon hidi yeli

Armonim gulidan bir yaproq uzub,

Bahorsiz cho'llarga sovurib qo'ydi.

Ul nozli yaprog'im so'lib, sarg'ayib,

Yo'qsul qolganlarday har yon yugurdi.

Mustabid tuzumning haqsizligidan qon hidlari sezilib turibdi, dunyo qadar bo'lgan ishonchimning katta bir qismini uzib tashladi. Bu armonimni gulsiz, quruq cho'llarga aylantirdi. Ko'nglimdagi nozik bo'lgan o'sha yaprog'im so'lib, sarg'aydi. Uning o'zi yolg'iz qolganidan har tomonga o'zini urib, yuguradi, chopadi.

Zolimlar, mazlumlar, zulumlarning-da,

Qayg'ular, alamlar, o'lumlarning-da

Bariga uchradi, barchasini ko'rди,

O'z yo'qotqonini izladi, so'rди.

Bir darak topmagach, birdan bir tikildi.

Milliy zulmga uchragan millatga nisbatan mustabid tuzumning ko'rsatgan zolimliklari, mazlumlarga nisbatan ularning ko'rsatgan tahqirliklarini, ular millatning jonidan o'tkazib yuborgan qayg'ularining barchasini ko'rди, bariga chidadi, hatto, millatning o'limlarini ham boshdan o'tkazdi (1898-yilgi Dukchi eshon qo'zg'oloni; 1916 - yil Jizzax qo'zg'oloni). Ammo o'zi yo'qotganini ya'ni millat haqni-huquqini izladi, qidirdi, so'radi, topdi, kurashdi. Millatdan bir madad kelmadi, Muxtoriyatda ham haqiqat amalga oshmaganidan keyin arosatda bir nuqtaga tikildi. Najotni topolmay to'xtadi, turdi. Zolim mustamlakaning zulmidan to'ydi.

Bor kuchini to'pladi.

Zolimning taxtini titratgan bir tovush

Qichqirdi:

Otamning qabrini qay yerga yoshurding?!

Bot so'yla!.. Kirli toj ko'b qo'rqdi botur tovushdan,

Seskanib, titrab ...yoshurundi

Bir javob bermasdan.

Ich-ichidan bor kuchini yig'di, to'pladi. Vujudlari junbushga keldi. Mustamlakachi zolimga qarshi, uning taxtiga qarshi, uni yo'qotmoqchi bo'lgan zulma mag'rur ovoz bilan baqirdi, qichqirdi. Millatning otasi qabrini qayerlarga berkitding?! Nega yashirding?! Nega uni yo'qotding! Javob ber, zolim hukumat! Shoirning shunday keskin tuyg'ulari she'rdada o'z aksini topdi.

Shoir hukumatni kirli toj deb atadi. Uning bir og'iz "kirli" so'zi – bu zolim mustamlakaning o'lkada olib borayotgan vahshiyona siyosati edi. Bu kirli toj dunyolarni larzaga soluvchi bu botir tovushdan seskanib ketdi, bir titrab oldi. Jimliklarga burkanib, sekin yashirindi. Hech qanday javob bermasdan, orqada turgan, yetilib kelayotgan millatdan qo'rqdi.

Abdurauf Fitratning she'rlarida ozor chekkan millat, millatning taqdiri, milliy zulm, yurtning qayg'usi o'ziga xos ravishda tasvirlanadi. Uning "Yurt qayg'usi (sochma)", "Yurt qayg'usi (bir o'zbek tilidan)", "Yurt qayg'usi (Temur oldinda)" asarlari shular jumlasidandir.

"Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti"[4] da: "she'rlar ruknning sarlavhasidan ko'rinib turganidek, yurt – Vatan qayg'usiga bag'ishlangan. Zamon inqiloblar zamoni edi. Chor hukumati quladi. Epchil millatlar darhol istiqloq rejalarini ko'ra boshladilar. Turkistonning taqdiri qanday bo'ldi? Ayniqsa, so'nggi asrlarda zalolatga botgan, dunyodan uzilib, fisq-u fujurga ko'milgan, o'z qiyofasini yo'qota boshlab, o'zga millat yetoviga tushgan Turkistonning Fitratni qiynaydigan dard – shu!"

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?

Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?

Temur bila Chingiz qoni toshdi tomirimizdan,

Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?

B.Qosimov ta'biri bilan aytganda: "She'rdada muxtoriyat g'alabasining nash'u namosi balqib turibdi. Uyg'ongan xalq bilan birgalik tuyg'usi, otalar sharafi va ular ruhi oldidagi burch, el-yurt xizmati sururi yaxshi ifodalangan"[5]. She'rdada lirik qahramon ona bu – Turkiston. U mustabidlikda, qaramlikda. Uni qutqarmoq uchun millatning joni, nomusi, vijdoni, imoni kerak. Lirik qahramon millatga qarata aytadiki, mening tomirlarimda Temur va Chingizlarning qoni oqmoqda, toshmoqda. Men millat uchun jasorat qilishga shaylanganman. Turkistonni qutqarish uchun qon zarur bo'lsa, qon berishga, ya'ni kurashib o'lmoqqa ham roziman. Agar sening yuragingga dushman o'z qilichini urgani kelgan bo'lsa, men unga ko'ksimni tutaman, qalqon bo'laman.

Ey, millat atrofingga boq, dushman Turkiston dunyosini, uning sabr-kosasini dengizday to'ldirib, toshqinlatib yubordi. O'lkada o'rmashib olgan bunday dushmanni yo'qotish, uni yo'q qilish uchun to'fon kabi katta kuch bo'lishi lozim. Turkistonim millatning chor atrofiga qarasin, oyoqqa tursin, kurashga otlansin. Yurtini, ulkani dushmandan himoyalash, tozalash uchun butun yurtini qo'riqlaydigan arsloni bo'lishi kerak!

Fitrat ijodida nasriy va dramatik asarlar ham millat taqdirini ko'rsatuvchi, yoritib beruvchi badiiy qiymatga egaligi bilan ham alohida ajralib turadi. Uning "Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarasi", muallifning qayd etishicha, 1909 - yili yozilgan[6].

Muallif asarning muqaddimasida: "Buxoroning najib (yorug') millati bo'lgan vatandoshlarim, birmuncha vaqtdan beri jadid va qadim o'rtasida ixtilof chiqqani ba'zi millat xoinlarining xato va fasodlaridan boshqa narsa emasdir. Muqaddas vatanimizni parchalab, uning ahli jamoasini jadid va qadim unvonlari ostida ikki firqaga ajratib, ularning birini ikkinchisiga dushman qilib qo'ydilar"[7].

Shuningdek, Fitratning "Chin sevis", "Hind ixtilochilari" asarlarida davrning voqealari ataylab boshqa mamlakatga ko'chirib qalanga olinadi. Ammo asarning ruhi va mazmunidagi ichki kechinmalar, botiniy ma'no, Turkistonda millatning ko'zini ochishga yo'naltiriladi. Muallifning "Abulfayzxon", "Shaytonning tangriga isyon" asarlarida ham voqealar ya'ni harakatlar o'tmishga ko'chirilib, o'tmishdagi voqealarni millatga ko'rsatish orqali Turkiston o'lkasida o'rnatilgan ijtimoiy-siyosiy tuzum, ya'ni ahvol yoritib ko'rsatiladi.

Behbudiy aytgan "Moziy – istiqbolning tarozisidir" mashhur iborasi, Abdulla Qodiriyning "Moziy'ga qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar" iborasi o'rtasida bog'liqlik tasodif emas, aksincha bu ikki ashrof zotlarning kelajakka bo'lgan murojaatlari edi. Shu jihatidan bu ikki siymoning ijodiga murojaat qilish, ularni o'rganish va taqqoslash xayrli ishdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdulla Qodiriy nomlarini bir-birlariga yonma-yon qo'yar ekanmiz, bu ahli solih insonlarning ijodidagi topqirliklar, jo'shqinliklar, nozik tuyg'ular, jasoratlar, islohot uchun kurashlar ularning ijodini yagona maqsadga birlashtiradi.

Behbudiy Turkiston o'lkasida ma'rifatsizlikdan ota qotiliga aylanib borayotgan farzandlarning tarbiyasini birinchi o'ringa qo'ydi. U qadimiylar va mustamlakachilar sirtmog'idan faqat ma'rifiy yo'l bilangina qutulishning tamoyillarini ishlab chiqdi. Uning "Padarkush"i o'lkada mavjud bo'lgan tarbiyasizlik illati uchun tipik asar bo'lgan bo'lsa, Qodiriy ham "Padarkush" ning orqasidan "Baxtsiz kuyov"ni yozdi (1915)[8].

Turkiston o'lkasida xalqning ma'rifatsizligi orqasidan yoshlar xatolarga yo'l qo'yayotgan bo'lsa, A.Qodiriyning "Baxtsiz kuyov"ida o'lkada mavjud bo'lgan illat, ya'ni orzu-havas deb yoshlar hayotlarini qurbon qilishi o'zbeklar hayotidagi tipik xususiyat ko'rinishi sifatida tasvirlanadi.

Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotining buyuk milliy yozuvchisidir. Uning asarlarida chuqur milliylik butunicha yarqirab turadi. Uning ijodi 1913 - 1914 - yillarda she'r yozish bilan boshlangan. Muallifning butun ijodida millat va uning kelajagi muammolari, milliylik aks etib turadi. Jumladan, uning "Ahvolumiz", "To'y", "Millatimga bir qaror", "Fikr aylag'il" she'rlari mavjud. "Fikr aylag'il" she'ri Behbudiyning "Oyina" jurnalining 1915 - yil 12-sonida bosilib chiqqan. Bu ham tasodif emas. Ikki buyuk ijodkorning munosabatini ko'rsatadi. Shuningdek, "Millatimga bir qaror" she'ri millatga xitobnoma tarzida yozilgan[9].

Kel, ey millat, bu kun bir maslahat birlan qaror o'lsun,

Bu kundan o'tgan ishlarga pushaymon birla or o'lsun,

Qilaylik bul kuni g'ayrat hama birdan qilib himmat,

Jaholat cho'l sahosiga minba'd savzovor o'lsun.

Abdulla Qodiriy millatga qarata xitob qiladiki, bu kundan e'tiboran maslahatlashib bir qaror qilinsinki, o'tgan ishlarga pushaymon qilmasdan, birlashib, himmat qilaylik, ishga g'ayrat bilan kirishaylik, cho'l sahosidagi jaholat ham gullagan maydonga aylansin!

Ayashmay kumush-oltunni hama boyonlar aslo,

Solub dorulfununlar ham makotiblar hazor o'lsun.

O'qushsun millat avlodi bizni doim duo aylab,

Qilib tahsil ulumlarni fununa yaxshi yor o'lsun.

Millat uchun kumush-oltinlarni ayamasdan ishlatib, ular uchun maktablar va dorulfununlar barpo etaylikki, millatimiz o'qib, fanlarni o'rganib, bizni har doim duo qilsinlar. Ularning tahsillari o'zlariga, millatga buyursinlar.

Qodiriyning "To'y" she'ri hajviy usulida yozilgan bo'lib, asarda zamona kulfati, millatning loqaydligi, mustamlakachilik illatlari qoralanadi. To'y boy-badavlatlar uchun pisan bo'lmasa-da, millat vakillari ya'ni beva-bechora hamda mehnat ahllari uchun fojeaga aylanayotganligi ochib beriladi.

A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida: "Mavzuni moziydan, yaqin o'tgan kunlardan, tariximizning eng kir, qora kunlari bo'lgan keyingi "xon zamonlari"dan belgiladim", deydi[10]. Bunday deyishga sabab ayni davrda o'lkada Chor bosqinchilari va mahalliy amaldorlarning zulmi kuchaygandan - kuchaygani edi. Romanda milliylik masalasi birinchi o'rinda turadi. Millatning taqdiri masalasi roman mavzusining tub negizini tashkil etadi. Bosqinchi mustamlakachilar o'zlarining shaxsiy manfaatlarini va boylik orttirish maqsadini birinchi o'ringa qo'yganini millatimizni zalolatda qoldirganlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Asarning "Qipchoqqa qing'in" deb nomlangan uchinchi bo'limida yoziladi: "Yolg'iz o'z manfaati shaxsiyasi yo'lida, bir-birini yeb ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi... Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadigan bo'lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusimizni o'ris qo'lga qoldirgan bo'larmiz. O'z naslini kofir qo'lga tutqun qilib topshiruvchi – biz ko'r va aqlsiz otalarga xudoning la'nati, albatta, tushar, o'g'lim!"[11]. Bunday misollarni romanda ko'plab uchratamiz. Shuni alohida ta'kidlash joizki, roman yetuk milliy asar ekanligi, uning milliy sharoini, urf-odatni, milliy qadriyatni, milliy qahramonlarni yoritganligiga olimlarimiz ko'proq e'tibor berib keldilar. Asar mustabid tuzumning ta'sirida yozilganligiga va shu tomondan asarning millatga bo'lgan ta'siri to'g'risida ham ko'proq to'xtalish maqsadga muvofiq bo'ladi. Asarning turli nashrlarida "ulug' millat"ga tegib ketadigan o'rinlarga o'zgartirish kiritilgan holatlarni kuzatish mumkin. Jumladan, yuqorida keltirilgan matnda: "Chor istibdodi Turkistonimizni egallar" jumlasini aslyatda "o'ris istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan"[12] tarzida yozilganini ko'ramiz.

A.Qodiriyning publistsistik merosiga qaraladigan bo'lsa, millat va uning taqdiri bilan bog'liq mavzulardagi hamohanglik, dadillik, topqirliklar, muammolari hal etishga qaratilgan kuchli tanqidiy qarashlari, Behbudiy boshlab bergan Turkistonni islohotlar

o'chog'iga aylantirish g'oyasi amaliy jihatdan maydonga chiqqanligi bilan ajralib turadi. Mustamlakachilik davridagi shafqatsizliklar ham ochib tashlanadi. Jumladan, "Saylovmi, bosqinchilikmi?", "Qimmatchilik hasrati", "Dumbasi tushub qolgan emish", "Tilanchilik yoxud yengil kasb", "Bozor surushtirmaydur", "Azob boqchasida yig'i-sig'i kechasi", "Qazoyi osmoniylar", "Haqiqat – ochib so'zlashdadir", "Qurbonlik o'g'rilari", "Mochalov", "Layli va Majnun", "Dardi yo'q kesak", "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan" kabilar shular jumlasidandir.

**Xulosa.** A.Qodiriyning "Mochalov"[13] nomli ( felyeton – muallif) asari ayni davrning voqeligini real ko'rsatib berishi bilan alohida ajralib turadi. Sarlavha nima uchun "Mochalov"? U Chor Rossiyasining generali, bosqinchilik davrining shafqatsizlikda tengi yo'q jallodi. Muallif u generalni "qahramon" qilib olgan. Uni butun Turkiston o'lkasida yetti yoshdan yetmish yoshgacha hamma tanigan. Taniganda ham qo'rquvdan tanigan. Chunki uning zolimligidan "homilalik xotunlar bola tashlar, yig'loq bolalar yig'idan to'xtar,

dag'dag'ali zolimonangni tatig'an benovalar dir-dir qaltirar edilar"[14]. Mochalov mardikorlikka olingan farzandlarini xizmatdan bo'shatilishini so'rab borgan millatning vakillarini (xalqni) o'qqa tutib qirib tashlagan. Uch mingdan ziyod millat vakillarining talabi bilan Arxip Mixail Mochalov ayblovchi Akmal Ikromov guvohligida sud qililib, otuvga hukm etilgan. Muallif yozadiki: "Albatta, qo'msaysan. Boshqalarini qo'msamasang-da, iftrovov gildi (boylikka qarab beriladigan daraja) ko'paslar mehmonxonasida yegan palovlaringni, norinlaringni qo'msaysan. Pudratchilar, zavodchilar uyularida ichkan aroqlaringni, hafta sayin qozilardan kelib turaturg'an paketlarni, ayniqsa, 1916 - yil rabochiy voqeasida davlatxonangga arz-dod uchun borg'anlarni otib, gunohsiz qonlarni suv o'rnig'a ichishlaringni qo'msaysan!.. Falakning gardishi qurib, uyi kuysunki, saning mash'um kunlaringni qaytub kelmaslik etub, tuzatdi"[15]. Qodiriyning publitsistikadagi jasorati tufayli bugungi avlod millatning dushmani bo'lgan "mochalov"larning vahshiyliklaridan xabardor.

#### ADABIYOTLAR

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. 1– jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 510.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1 – jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 46-93.
3. Qodiriy A. Diyorlari. 3 – jild. – Toshkent: Info Kapital Group, 2017. –B. 7-11.
4. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – B. 368.
5. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – B. 368.
6. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1 – jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 46-93.
7. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1 – jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 46-93.
8. Qodiriy A. Baxtsiz kuyov. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 173-194.
9. Qodiriy A. Diyorlari. 3 – jild. – Toshkent: Info Kapital Group, 2017. –B. 7-11.
10. Qodiriy A. O'tgan kunlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – B.3.
11. Qodiriy A. O'tgan kunlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B.301.
12. Qodiriy A. O'tgan kunlar. 1- jild. – Toshkent: Info Kapital Group, 2017. – B. 7-153.
13. Qodiriy A. Diyorlari. 3- jild. – Toshkent: Info Kapital Group, 2017. – B. 7-153.
14. Qodiriy A. Diyorlari. 3- jild. – Toshkent: Info Kapital Group, 2017. – B. 7-153.
15. Qodiriy A. Mochalov. – Toshkent: Info Kapital Group, 2017. –B. 7-154.



*Mavjuda ALIMBEKOVA,*  
*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail:alimbekovamavjuda18@gmail.com*

*PhD H.Ortiqova taqrizi asosida*

### FITRAT KORPUSI MATNLARINI YARIMAVTOMAT TEGTLASH

Аннотация

Ushbu maqola Abdurauf Fitrat asarlari korpusi matnlarini so'z turkumlari bo'yicha yarimavtomatik teglash xususida bo'lib, dastur yordamida teglangan matnlarni qo'lda tahlil qilish, aniqlangan xato va kamchiliklarni, ularning sabablarini o'rganish va tuzatish masalari yoritilgan. Maqolada muallif yashagan davr tiliga va so'z qo'llash uslubiga xos bo'lgan so'zlar, lug'atdan tashqari so'zlar, omonim so'zlar, qo'shma so'zlar, iboralarni teglash bilan bog'liq xatolar aniqlanib, izohlandi.

**Kalit so'zlar:** teg, yarimavtomat teglash, Fitrat korpusi, so'z turkumlari, morfologik teglash

### SEMI-AUTOMATIC TAGGING OF THE TEXTS OF FITRAT CORPUS

Annotation

This article is about the semi-automatic tagging of Abdurauf Fitrat's corpus of texts by word categories, manual analysis of the tagged texts using the program, the study of identified errors and shortcomings, their causes, and their correction. The article contains words specific to the language and usage of the author's era, out of vocabulary words, homonyms, compound words, phrase tagging errors identified and explained.

**Key words:** tag, semi-automatic tagging, POS tagging, Fitrat corpus, word classes, POS tagging

### ПОЛУАВТОМАТИЧЕСКАЯ РАЗМЕТКА ТЕКСТОВ КОРПУСА ФИТРАТ

Аннотация

В данной статье речь идет о полуавтоматической разметке текстов корпуса произведений Абдурауфа Фитрата по категориям слов, а также ручном анализе размеченных текстов с помощью программы, исследовании выявленных ошибок и недостатков, их причин и их исправлении. В статье приведены слова, характерные для языка и словоупотребления эпохи автора, нелексические слова, омонимы, сложные слова, выявлены и объяснены ошибки в разметке фраз.

**Ключевые слова:** метка, полуавтоматическая разметка, корпус Фитрат, части речи, морфологическая разметка.

**Kirish.** Bugungi texnologiyalar asrida kompyuter barcha sohalarni rivojlantirishga hissa qo'shmoqda. Kompyuter lingvistikasining korpus lingvistikasi sohasi ham til va adabiyot sohasidagi qimmatli manbalarni elektron shaklda saqlash bilan birga, matn ustida turli lingvistik amallarni bajarish, tilning o'tmishi, taraqqiyoti va bugunini tahlil qilish, tilda bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatish va tilning abadiyligini saqlashga xizmat qilmoqda. Shu maqsad yo'lida qilinayotgan tadqiqotlardan biri Fitrat asarlari korpusini yaratishdir. "...Taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojida g'orni va ta'sirini o'rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi bilan bog'liq masalalar... alohida ahamiyatga ega"[1], - deya mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yilning 11-12-dekabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya qatnashchilariga aytilgan tabrik nutqida jadidlarimiz ilmiy me'rosini o'rganish, tadqiq qilish millat kelajagi uchun ahamiyatli ekanini ta'kidladi. Ushbu tadqiqot ishining maqsadi Fitrat asarlari korpusi matnlarini yarimavtomat POS teglash va undagi xato va kamchiliklarni o'rganib, bartaraf etishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon tilshunosligida ko'plab tillarning morfologik teglovchi dasturiy ta'minotlari yaratilgan. Ularga Open NLP Part-of Speech Tagger, Stanford Phrase Structure Parser, NLTK, CLAWS, Asamese POS Tagger, Frog, HMM Tagger, Viterbi algorithm, Brill tagger dasturiy ta'minotlarni misol qilish mumkin [2]. O'zbek tilida ham morfologik teglashga doir bir necha tadqiqotlar yaratilmoqda. Morfologik analiz va so'zshakllarini lingvistik analizator yordamida analiz qilish [3], tilshunoslik qoidalari va chekli avtomatlar asosida so'zlarni morfologik izohlash[4, 5], so'z turkumlarini teglash usullari va yondashuvlar[6, 7], morfologik analizator va morfologik generator yaratish usullari[8], aglyutinativ tillarda POS teglash va stemming [9] kabi ilmiy tadqiqotlar POS teglashga doir qilinayotgan ishlarga yorqin namunadir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Korpus matnlarini dastur yordamida teglaganda lug'atda mavjud bo'lmagan, noma'lum

so'zlarni xato teglagan. Bunday so'zlarning turkumini topishda qoidalarga asoslangan teglash (Rule-based correction) usulidan foydalanishga to'g'ri keladi. Bunday yondashuvda noma'lum yoki noaniq so'zlarni teglashda kontekst ma'lumotlaridan foydalaniladi, ya'ni o'sha so'z bog'lanib kelgan so'z, uning atrofidagi so'zlarga va ularning grammatik va lisoniy xususiyatlariga qarab aniqlaydi.

**Tahlil va natijalar.** Morfologik teglash - korpus matnlarini so'z turkumlari bo'yicha teglashdir. Yana bir nomi POSTag bo'lib, part-of-speech so'zining qisqartmasidir. Bunda har bir so'zning qaysi turkumga oid ekanligi haqidagi ma'lumotlar kiritiladi. Abdurauf Fitrat asarlari korpusi matnlari yarimavtomat tarzda morfologik teglandi. Bunda [https://uznatcorpura.uz/\[10\]](https://uznatcorpura.uz/[10]) saytidan foydalanildi. Korpus yordamida teglangan matni tekshirib, xato teglangan, ochiq qoldirilgan so'zlar qo'lda teglab chiqildi.

O'zbek tilidagi POS teglar ot - N, sifat - JJ, fe'l - VB, son - NUM, ravish - RR, olmosh - P, bog'lovchi - C, ko'makchi - II, yuklama - Prt, modal so'z - MD, undov so'z - UH, taqlid so'z - IM, atoqli otlar - NER, iboralar - IB shartli qisqartmalari bilan belgilangan.

Fitrat korpusi matnlarini qo'lda tekshirib, qayta teglash jarayonida xato teglangan, ikki yoki undan ortiq morfologik belgi qo'yilgan, teglanmay ochiq qoldirilgan va ibora deb berilgan birliklar aniqlandi, ya'ni iboraning so'z turkumi ko'rsatilmay, "IB" belgisi bilangina izohlangan so'zlarni uchratdik.

Fitratning "Chig'atoy adabiyoti" nomli tadqiqotida so'zlar quyidagi sabablarga ko'ra xato teglangan:

lug'atda mavjud bo'lmagan;  
NER ekani aniqlanmagan;  
Atoqli ot bilan turdosh ot omonimligiga doir xato;  
NER tarkibi ajratilib teglangan;  
o'sha davr tiliga xos lemmani va fonetik farqli so'zni tanimagan uchun;  
omonim so'zlar;  
qo'shma so'z qilib teglangan so'z birikmalari;  
so'z birikma sifatida teglangan murakkab so'zlar;  
tarkibida qavs borligi uchun xato teglangan so'zlar;  
turkumini dastur topa olmagan birliklar.

Ushbu asarda chig'atoycha, xo'blariga, afkorga kabi so'zlar o'zbek tilining izohli lug'atida mavjud bo'lmaganligi uchun xato teglangan. Majlisiy, Kubroviya, Qalandariya, "Miftoh ul-adl" kabi

atoqli otlarning NER ekanini dastur topa olmagan. Tilda atoqli ot turdosh ot bilan shakldoshlik hosil qilishi kuzatiladi. Bunday o'rinda atoqli otning birinchi harfi bosh harf bilan yozilishi va gapning mazmuniga qarab ularni farqlash mumkin, ammo turdosh ot ham gapning boshida kelsa, bosh harf bilan yoziladi. Shu sababli dunyo, rizvon, oy, xurshid kabi so'zlar NER deb xato izohlangan. Ikki yoki undan ortiq qismdan tashkil topgan NERlar ajratilgan holda izohlangan o'rinarlar ham uchradi. Bunga Abul Qosim so'zini misol qilish mumkin. Fitrat yashagan davr tili fonetik jihatdan hozirgi o'zbek adabiy tilidan farq qiladi. Teshuk, ko'rsatmakda, burung'i, onglash kabi so'zlar imlosi adabiy tildagidan farqli bo'lganligi uchun xato izohlangan. To'g'ri, birla, bilan kabi so'zlar shakldosh so'z bo'lgani uchun xato teglangan. Bilan so'zi ko'makchi vazifasida kelganida bog'lovchi, bog'lovchi vazifasida kelganida ko'makchi deb belgilangan holatlar ham uchradi. Ko'rsatish olmoshlari payt 1-jadval

Chig'atoy adabiyoti			
Xato teganganlar	Teglanmay ochiq qolganlar	Ikkita teg qo'yilgan	Ibora deb berilganlar
Lug'atda mavjud bo'lmagan birliklar: chig'atoycha, xo'blariga, afkorga, Naqshbandiyalarning	Lug'atda mavjud bo'lmagan birliklar: Heylisen, nojizlardan, saroy-madrassa, nazzorda, muosir, xalifotidan, malfuz, mahzur, atrok, mushovira	Omonim : Chin	Iboralar: g'am yemoq, tarki dunyo, bo'yin tovla, ustiga oldi, ko'z tutar, turgan gap edi
Atoqli otlar (NER): 1. NER ekanini bilmagan: Majlis(iy), "Miftoh ul-adl", Kubraviya, Qalandariya, 1500 da, 1440 da, "Muhokamat ul-lug'atayn", "Devoni Husayn Boyqaro" 2. Atoqli ot bilan turdosh otning omonimligini bilmagan: dunyo, rizvon, oy, xurshid, 3. NER tarkibi ajratilib teglangan: Abul Qosim	Atoqli otlar (NER): "Qisas ul-anbiyo", Farruhning, Qashg'arda,	O'sha davr tiliga xos lemmani va fonetik farqli so'zni tanimagani uchun: oltun, so'kulalar, feodalliqlar, qilalar, harakoting, sanavbar, o'zung	Ibora deb teglangan, ammo ibora bo'lmagan birliklar: da'vat qilib, tasdiq qiladir, xabar beradir
O'sha davr tiliga xos lemmani va fonetik farqli so'zni tanimagani uchun: teshuk, ko'rsatmakda, burung'i, onglash, churikligini, ulardag'i	O'sha davr tiliga xos lemmani va fonetik farqli so'zni tanimagani uchun: professo'r, ko'rguzib, bo'lursen, mushfiqdirmen, muvofigdurmen, elisen, yovoch, bo'ldung, ko'brak, mung'a, mas'alaga, ko'blari, da'vosin, da'vo qiladir, feo'dalizm mustamlikalardan, mustamlikasi, shirindurur, saname, etilibsen	Bitta tegi to'g'ri, ikkinchisi xato teglangan so'zlar: uzoqroqlarda, beglar, chiqarmoq, yanglishdir, yangi Tutkanlaridan	
Omonim: to'g'ri, birla, bilan	Matnda xato yozilgan so'z: ma'lum, daxi	Turkumini topa olmagan: bir asrluk	
Qo'shma so'z qilib teglangan so'z birikmalari: bu davrda	Arabiy va forsiy jumlarlar: "Mavtu qabla anta mavtu", "Xilvat dar anjuman", "bazohir ba xalq"		
So'z birikma sifatida teglangan murakkab so'zlar: izoh qilg'an, e'tiroz qilar, kamolga yetgani, qayta bilmas, bo'yin tovlamoq, birlasha olmadilar, tayin bo'lib, izoh qilishning	Teglanmay qolgan so'z birikmalar: u zamonlarda		
Turkumini topa olmagan: eng, zo'r, o'yinli, qaytmas, turkcha, yana burungi, ozarbayjoncha, ning, nuqtai nazaridan	Turkumini topa olmagan: Yassaviylar, bor, mazmunicha, juda		

Teglanmay ochiq qoldirilgan so'zlarni qiyidagicha tasniflash mumkin: arabiy va forsiy jumlarlar, lug'atda uchramaydigan so'zlar, matnda xato yozilgan so'z, o'sha davr tiliga xos lemmani va fonetik farqli so'zlar, atoqli otlar, dastur turkumini aniqlay olmagan so'zlar. Fitrat ijodida arabiy va forsiy jumlarlar, iqtiboslar va adabiy-ilmiy maqolalarida ma'lum bir shoir ijodi tahliliga bag'ishlangan o'rinarlardagi fors-tojikcha satrlar uchraydi. Shunday o'rinarlarda so'zlar teglanmay ochiq qoldirilgan. "Chig'atoy adabiyoti" asarida "Mavtu qabla anta mavtu", "Xilvat dar anjuman", "bazohir ba xalq" jumlarlari teglanmay ochiq qoldirilgan. Biz ham bu so'zlarni ochiq qoldirishga qaror qildik. Lug'atda uchramaydigan so'zlar – adabiy tilda mavjud bo'lmagan, eski turkiy tildan, chet tilidan o'zlashgan so'zlar, shevaga xos so'zlardir. Ularga mushovira, malfuz, atrok kabi so'zlarni misol qilish mumkin. "Qisas ul-anbiyo", Farruhning, Qashg'arda, NERlari teglanmay ochiq qolgan. Fitrat tilimizni yot so'zlardan tozalashga, chetdan o'zlashgan so'zlarning muqobilini imkon qadar o'zbek tilidan, o'zbek shevalaridan topishga harakat qilgan. Uning ham imkoni bo'lmasa, fonetik jihatdan o'zbek tili qonuniyatlariga bo'ysundirish tarafdori bo'lgan[11]. Professo'r, feo'dalizm so'zlari olimma so'zlarga misol bo'lsa, etilibsen, ko'brak, shirindurur kabi so'zlar eski turkiy tildan olib qo'llanilgan so'zlardir. Bunday so'zlar adabiy tilda mavjud bo'lmagani, fonetik jihatdan farqli bo'lgani uchun dastur bularni teglamay ochiq qoldirgan.

So'zlarga ikki yoki undan ortiq teg qo'yilgan o'rinarlar mavjud. Ular omonim so'zlar, o'sha davr tiliga xos lemmalar va fonetik farqli so'zlardir. Fitrat ijodida qo'llangan Chin so'zining NER ekanini dastur topa olmagan va rost ma'nosida sifat va ravish doirasida

bildiruvchi otlarga bog'lanib kelgan o'rinarlarda ular bitta murakkab so'z sifatida belgilangan. Masalan, bu davr birligi RR tarzda teglangan, ammo bu – P, davr – N, tarzda alohida so'z turkumi sifatida teglanishi kerak. Ot+fe'l shaklidagi qo'shma fe'llar, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari tarkibi ajratilib, alohida teglangan o'rinarlar ham kuzatildi. Bunday xatolarga izoh qilg'an, e'tiroz qilar, kamolga yetgani kabi qo'shma fe'llarni va birlasha olmadilar kabi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari misol qilish mumkin. Dastur yasama fe'llarning birinchi qismini N, ikkinchi qismini VB tarzda izohlangan. Eng, yana, nuqtayi nazar kabi so'zlarning turkumi ham xato aniqlangan. Tarkibida qavs bor bo'lgan ke(l)tirilgan, forsi(y), dostonlari(mi), soqi(y)lik, voli(y)likni kabi so'zlarda qavs ichidagi y qo'shimchasi NUM sifatida teglangan, -ni qo'shimchasi UH, -lik qo'shimchasi NUM belgisi ostida xato teglangan. (1-jadvalga qarang).

shakldosh bo'lgani uchun ham sifat, ham ravishning shartli belgisi – JJ, RR bilan izohlagan.

Muallifning "Yurt qayg'usi" nomli she'rida oqizmoq – JJ, VB teglari; yoziqlarim – JJ, N teglari bilan teglangan. Ushbu o'rinda oqizmoq fe'lining lemmasi oqmoq sifat turkumidagi rang bildiruvchi oq so'zi bilan shakldoshlik hosil qilganligi uchun sifat va fe'ning belgisi qo'yilgan. Yoziqlarim so'zining lemmasi yoziq gunoh ma'nosida ot so'z turkumini, "yoziq dasturxon" so'z birikmasidagi yoziq esa sifat so'z turkumiga mansubligi uchun ikkita teg qo'yilgan. Ushbu so'zning tarkibidagi grammatik vositalar har ikki turkumga mansub so'zga qo'shila olish imkoniga ega bo'lganligi uchun dastur buni aniqlay olmagan. "Yurt qayg'usi" she'rida yoziq – gunoh manosida kelgan.

**Xulosa.** Fitrat asarlari korpusi matnlarini yarimavtomat tarzda POS teglab chiqildi. Avtomatik teglanganda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni o'rganib, qo'lda teglab chiqildi. Eng ko'p kuzatilgan xato muallif yashagan davr tilining fonetik jihatdan hozirgi o'zbek tilidan farq qilganligi bilan, dastur lemmani tanimagani bilan bog'liq ekaniga guvoh bo'ldik. Qo'shma so'z va so'z birikmasini ajratish bilan bog'liq xatolar ham ko'zatilganini o'rgandik. Fitrat ijodida qo'llangan NERlarni aniqlashga doir kamchiliklar, omonim so'zlarni qaysi turkumga oidligini aniqlashdagi xatolarni o'rganib tahlil qildik, xatolarni to'g'riladik. Fitrat asarlarining teglangan korpusi boshqa jaddilarning, XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmida ijod qilgan ijodkorlarning asarlari tilini korpus yordamida tadqiq qilishga yo'l ochadi.

## ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. <https://daryo.uz/2023/12/11/prezidentning-jadidlar-milliy-ozlik-istiqlol-va-davlatchilik-goyalari-mavzusidagi-xalqaro-konferensiya-ishtirokchilariga-tabrigi-elon-qilindi>
2. Rabbimov I., Umirova S., Xolmuhamedov B. O'zbek tili korpusida so'z turkumlarini teglash masalasi // O'zbek milliy va ta'limiy korpuslarini yaratishning nazariy hamda amaliy masalalari, Toshkent, 2021, Vol. 1. 97-bet. 97-100.
3. Mengliyev B., Shahabitdinova Sh., Khamroyeva Sh., Gulyamova Sh., Botirova A. Morphological analysis and synthesis of word forms in the linguistic analyzer // Linguistica Antverpiensia 2021, 2021(1), pp. 703 – 712.
4. Abdurahmonova N. A two –level morphological analysis of the uzbek corpus. Inostrannaya filologiya. Sotsialnaya i natsionalnaya variativnost yazika i literaturi. 2019, pp 425-430.
5. Abdurahmonova N. Dependency Parsing based on Uzbek Corpus. Proceedings of the International Conference on Language Technologies for All. 2019.
6. Abjalova M., Elova D. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da so'z turkumlarini teglash masalasi // O'zbekiston: til va madaniyat. 2021/1, 20-34 bb.
7. Ahmedova X., Yusupova D. So'z turkumlarini teglash usullari: muammo va yechimlar // “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” Respublika I ilmiy-texnikaviy konferensiya materiallari, 2021, 90-94 bb.
8. Elov B., Hamrayeva Sh. Elova D. Morfologik analizatorni yaratish usullari // O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy tilshunoslik masalalari. 2022, Vol 5(1), 67-82 bb.
9. Elov B., Adali E., Khamrayeva SH., Abdullayeva O., Xusainova Z., Xudayberganov N. The problem of Pos Tagging and Stemming for Agglutinative Languages. 8 th International Conference on Computer Science and Engineering UBMK 2023, Mehmet Akif Ersoy University, Burdur – Turkey.
10. <https://uznatcorpora.uz/>
11. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд. Т.: «Маънавият», 2006. – 336 б. – 124 – 131 Б.
12. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari.



Nazarbek ALQAROV,

Nukus innovatsion instituti o'qituvchisi

E-mail: alkarovnazarbek@gmail.com

Toshkent davlat transport universiteti professori I.T.Rustamov taqrizi asosida

## THE MIGRATION PERIOD AND THE SPREAD OF GERMANIC LANGUAGES

Annotation

This study examines the Migration Period (4th-8th centuries CE) and its significant impact on the spread and diversification of Germanic languages across Europe. Employing a multi-disciplinary approach that combines linguistic analysis, archaeological findings, and historical records, the research investigates how movements of Germanic tribes such as the Goths, Franks, and Anglo-Saxons contributed to the development of early Germanic dialects and their adaptation in new regions. Linguistic evidence from texts and inscriptions reveals dialectal changes and borrowing, particularly from Latin, as these languages encountered new linguistic environments. Archaeological data, including settlement patterns and burial customs, further confirms the migration and settlement of these tribes, while historical sources provide insights into the social dynamics that influenced language transmission. Findings suggest that the Migration Period was pivotal in shaping the Germanic linguistic landscape, illustrating the interplay of migration, cultural contact, and language evolution that continues to inform modern Germanic languages.

**Key words:** Migration Period, Germanic languages, Language spread, Linguistic evolution, Germanic tribes, Archaeology, Cultural contact, Language change, Historical linguistics, Anglo-Saxons, Goths, Old English, Old High German, Roman Empire.

## ПЕРИОД МИГРАЦИИ И РАСПРОСТРАНЕНИЕ ГЕРМАНСКИХ ЯЗЫКОВ

Аннотация

В этом исследовании рассматривается период миграции (IV-VIII вв. н. э.) и его значительное влияние на распространение и диверсификацию германских языков по всей Европе. Используя междисциплинарный подход, который объединяет лингвистический анализ, археологические находки и исторические записи, исследование изучает, как перемещения германских племен, таких как готы, франки и англосаксы, способствовали развитию ранних германских диалектов и их адаптации в новых регионах. Лингвистические свидетельства из текстов и надписей раскрывают диалектные изменения и заимствования, особенно из латыни по мере того, как эти языки сталкивались с новой языковой средой. Археологические данные, включая модели поселений и обычаи погребения, дополнительно подтверждают миграцию и поселение этих племен, в то время как исторические источники дают представление о социальной динамике, которая повлияла на передачу языка. Результаты показывают, что период переселения народов сыграл решающую роль в формировании германского языкового ландшафта, иллюстрируя взаимодействие миграции, культурных контактов и языковой эволюции, которое продолжает влиять на современные германские языки.

**Ключевые слова:** Период переселения народов, германские языки, распространение языка, языковая эволюция, германские племена, археология, культурные контакты, изменение языка, историческая лингвистика, англосаксы, готы, древнеанглийский язык, древневерхненемецкий язык, Римская империя.

## MIGRATSIYA DAVRI VA GERMAN TILLARINING TARQALISHI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda migratsiya davri (milodiy 4—8-asrlar) va uning Yevropa bo'ylab german tillarining tarqalishi va diversifikatsiyasiga sezilarli ta'siri ko'rib chiqiladi. Tilshunoslik tahlili, arxeologik topilmalar va tarixiy yozuvlarni o'zida mujassam etgan ko'p tarmoqli yondashuvni ko'llagan holda tadqiqot gotlar, franklar va anglo-sakslar kabi german qabilalarining harakati ilk german shevalarining rivojlanishiga va ularning yangi hududlarda moslashishiga qanday hissa qo'shganini o'rganadi. Matnlar va yozuvlardan olingan lingvistik dalillar dialektal o'zgarishlarni va ayniqsa lotin tilidan olinganligini ko'rsatadi, chunki bu tillar yangi lingvistik muhitlarga duch keldi. Arxeologik ma'lumotlar, jumladan, turar-joy namunalar va dafn marosimlari bu qabilalarning ko'chishi va o'rnamashishini yanada tasdiqlaydi, tarixiy manbalar esa tilning tarqalishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy dinamika haqida ma'lumot beradi. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, Migratsiya davri german til landshaftini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy german tillariga ma'lumot berishda davom etayotgan migratsiya, madaniy aloqa va til evolyutsiyasining o'zaro ta'sirini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Migratsiya davri, german tillari, tilning tarqalishi, lingvistik evolyutsiya, german qabilalari, arxeologiya, madaniy aloqa, til o'zgarishi, tarixiy tilshunoslik, anglo-sakslar, gotlar, qadimgi ingliz, qadimgi oliy nemis.

**Kirish.** Taxminan milodiy 4-8-asrlarni qamrab olgan migratsiya davri butun Evropada keng tarqalgan harakat va o'zgarishlarning dinamik davrini belgilab berdi. Ko'pincha "Varvar bosqinlari" deb ataladigan bu davr, gotlar, franklar, sakslar va vandallar kabi german qabilalari qulab tushayotgan G'arbiy Rim imperiyasi bo'ylab ko'chib o'tganligi sababli aholining sezilarli o'zgarishini ko'rsatdi[1]. Bu migratsiyalar turli bosimlar, jumladan, Hun bosqinlari, iqtisodiy stress va atrof-muhit o'zgarishlari bilan kuchayib, mojarolar va madaniy almashinuvlarga olib keldi.

Til nuqtai nazaridan, Migratsiya davri ilk german dialektlarining tarqalishi va xilma-xilligida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan[3]. Bu qabilalar yangi hududlarga joylashar ekan, ular mahalliy tillarga ta'sir o'tkazdilar va lingvistik landshaftda doimiy iz qoldirdilar. Misol uchun, anglo-sakslarning Britaniya orollariga ko'chishi qadimgi ingliz tilining rivojlanishiga yordam berdi, Galliyadagi franklar esa oxir-oqibat zamonaviy frantsuz tiliga olib keladigan lingvistik o'zgarishlarga hissa qo'shdilar. Bu davr shuningdek, Skandinaviyadagi qadimgi Nors tili kabi ba'zi german

tillarini ajratib olishda rol o'ynadi va ularning aniq rivojlanishiga imkon berdi.

Bu davrda german tillarining tarqalishi ko'plab zamonaviy Evropa tillari uchun asos bo'lib, Evropa tarixidagi ushbu o'zgarishlar davrida migratsiya, til va madaniyat qanday kesishganligini ko'rsatadi.

**Adabiyot tahlili.** Migratsiya davrining german tilining tarqalishiga ta'siri tarixiy tilshunoslik, arxeologiya va tarixshunoslikda yaxshi hujjatlashtirilgan bo'lib, ularning har biri til evolyutsiyasini shakllantirgan dinamik o'zaro ta'sirlarni tushunishga yordam beradi. Tarixiy tilshunoslar, jumladan Ringe va Teylor (2014) kabi olimlar qadimgi german tillaridagi dialektal parchalanishni ta'kidlab, qadimgi ingliz, qadimgi oliy nemis va qadimgi norveg tillariga ajralishni belgilovchi fonologik va sintaktik siljishlarni kuzatadilar. Ushbu tadqiqotlar, Robinsonning (1992) qadimgi ingliz tilini tahlil qilish va Lemanning (1994) proto-german lingvistik naqshlari bo'yicha ishlarida ko'rsatilganidek, geografik izolyatsiya va boshqa

madaniyatlar bilan aloqa qanday noyob dialekt rivojlanishiga turtki bo'lganini ko'rsatadi.

Arxeologik tadqiqotlar bu lingvistik nazariyalarni asoslaydi, Härke (2011) german qabilalarining turar-joylari, dafn marosimlari va artefaktlari migratsiya naqshlari va madaniy almashinuvlarni qanday ochib berishini ko'rsatadi. Anglo-sakslar, franklar va gotlar bilan bog'liq artefaktlar topilgan Britaniya, Galliya va Dunay bo'ylab qazilgan joylar tilning tarqalishiga mos keladigan migratsiyaga asoslangan madaniy assimilyatsiyadan dalolat beradi. Pohl (1997) buni shaxsning shakllanishi va madaniyatlararo integratsiyani o'rganish orqali to'ldiradi va yangi hududlarda german moddiy madaniyatining mavjudligi ko'pincha lingvistik integratsiya bilan qanday parallel ekanligini ta'kidlaydi.

Tarixiy matnlar tahlilining yana bir qatlamini taqdim etadi, Heather (1996) va Volfram (1988) german qabilalari va Rim imperiyasi o'rtasidagi ijtimoiy dinamikani tasvirlaydi. Bu manbalar tilning tarqoq guruhlar o'rtasida jipslashish uchun zarur bo'lgan qabilaviy o'ziga xoslik va birlik timsoli bo'lganligini ko'rsatadi. Ushbu adabiyotlar birgalikda ko'rsatilishicha, Migratsiya davri nafaqat german tillarini diversifikatsiya qilgan, balki ularni Evropaning madaniy doirasiga chuqur kiritgan va til evolyutsiyasi va madaniy integratsiyaning murakkab jarayonlarini tushunish uchun fanlararo o'rganish qiymatini kuchaytirgan.

Ussullari: Migratsiya davrining german tillarining tarqalishiga ta'sirini o'rganish uchun ushbu tadqiqot lingvistik tahlil, arxeologik tadqiqotlar va tarixiy tadqiqotlarni o'z ichiga olgan ko'p tarmoqli yondashuvni qo'llaydi. Har bir usul ushbu transformatsion davrda german tillarining Evropa bo'ylab tarqalishi, evolyutsiyasi va diversifikatsiyasini tushunishga o'ziga xos hissa qo'shadi.

1. Lingvistik tahlil: Bu usul dastlabki yozuvlar, joy nomlari va yozma matnlar kabi lingvistik dalillarni tahlil qilish orqali ilk german shevalarining evolyutsiyasi va tarqalishini kuzatishga qaratilgan. Proto-german shevalari bo'yicha fonologik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish tilning aloqa va farqlanish nuqtalarini aniqlashga yordam beradi. Misol uchun, qadimgi ingliz va qadimgi nemis tillari turli xil migratsiya yo'llarini aks ettiruvchi aniq, ammo bog'liq lingvistik ma'lumotlarni taqdim etadi. Gothic Codex Argenteus va runik yozuvlar kabi matnlar yangi geografik mintaqalarda german dialektlarining rivojlanishi haqida tushuncha beradigan asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Lingvistik dalillar til aloqasi va madaniy integratsiyani ko'rsatadigan so'z birikmalari va lug'atdagi o'zgarishlarni o'rganish orqali yanada yaxshilanadi.

2. Arxeologik tadqiq usuli: Arxeologik topilmalar german qabilalari o'rtasidagi migratsiya va madaniy siljishlar haqida ashyoviy dalil beradi. Bunga Gotlar, Franklar va Anglo-sakslar kabi guruhlarning madaniy o'ziga xosliklari va hududiy kengayishlarini ochib beradigan asboblar, kulolchilik va dafn buyumlari kabi artefaktlarni tahlil qilish kiradi. Aholi yashash joylari, dafn etilgan joylar va savdo yo'llari bu qabilalarning geografik tarqalish xaritasini tuzish va ularning ijtimoiy tuzilishini kuzatish uchun ayniqsa qimmatlidir. Dafn qilishning o'ziga xos urf-odatlarini, masalan, o'ziga xos qabr buyumlari bilan bog'liq bo'lganlar, ma'lum german qabilalarining harakati ko'rsatadi va tilning tarqalishi haqidagi lingvistik topilmalarni qo'llab-quvvatlaydi.

3. Tarixiy tahlil: Oxirgi antik va ilk o'rta asr Yevropa tarixidagi matnlar ko'chib kelayotgan german qabilalari va o'rnatilgan aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni hujjatlashtirib, Migratsiya davri haqidagi zamonaviy ma'lumotlarni taqdim etadi. Gotlar xronikasi bo'lgan Jordanesning Getica va german guruhlarini kuzatuvlarini yozib olgan Tatsit va Ammianus Marcellin kabi Rim tarixchilari kabi manbalar muhim kontekstni taklif qiladi. Bu manbalarda, shuningdek, til almashinuvi va assimilyatsiyaga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy tuzilmalar, qabilalararo nizolar va madaniy amaliyotlar tasvirlangan. Tilshunoslik va arxeologik topilmalarni kengroq tarixiy rivoyatda joylashtirish orqali bu usul german tillarining tarqalishiga yordam bergan ijtimoiy dinamikani aniqlaydi. Til ma'lumotlari, moddiy madaniyat va tarixiy ma'lumotlarni uchrashirish orqali ushbu tadqiqot Migratsiya davrining ilk o'rta asrlar Evropa lingvistik landshaftini shakllantirishdagi rolini har tomonlama tushunishga qaratilgan.

O'rganishimiz natijalari german tillarining Evropa bo'ylab tarqalishi va diversifikatsiyasida Migratsiya davri qanday muhim rol o'ynaganini ta'kidlaydi. Lingvistik, arxeologik va tarixiy topilmalarni sintez qilish shuni ko'rsatadiki, bu davrda german qabilalarining harakati nafaqat ilk german tillarining geografik doirasini kengaytiribgina qolmay, balki ularning alohida evolyutsiyasi va farqlanishiga ham hissa qo'shgan.

Shu bilan birga, lingvistik dalillar, german tilida so'zlashuvchi guruhlar yangi hududlarga joylashib, ularning dialektlari moslashgan va o'zgargan, natijada qadimgi yuqori nemis, qadimgi norveg va qadimgi ingliz tillari kabi alohida tillar paydo bo'lganligini ko'rsatib keladi. Masalan, gotika matnlari va qadimgi ingliz qo'lyozmalaridan olingan lingvistik ma'lumotlar lug'at, sintaksis va fonologiyada mahalliy aholi bilan aloqa qilish va ayrim jamoalarning izolyatsiyasi natijasida yuzaga kelgan o'zgarishlarni ko'rsatadi. O'zlashma so'zlarning, ayniqsa lotincha atamalarining mavjudligi, shuningdek, bu tillar migratsiya paytida uchragan boshqa tillarning elementlarini birlashtirganligini, Rim imperiyasi va boshqa qo'shni guruhlar bilan madaniy almashinuvlarni ta'kidlaydi.

Arxeologik topilmalar german qabilalarining turli hududlarda mavjudligi va harakatlanishi uchun aniq moddiy yordam beradi. Britaniya orollari, Galliya va Iberiya yarim oroli kabi hududlarda dafn etilgan joylar va turar-joy qoldiqlari mos ravishda anglo-sakslar, franklar va vestgotlar kabi qabilalar bilan bog'liq bo'lgan alohida moddiy madaniyatlarini namoyish etadi. Misol uchun, qurol qabrlari va o'ziga xos artefaktlar bilan ajralib turadigan anglo-sakson dafn etish odatlari Britaniyada german jamoalarining harakati va tashkil etilishidan dalolat beradi. Ushbu topilmalar qadimgi ingliz va qadimgi nemis tillarida kuzatilgan lingvistik siljishlar bilan bog'liq bo'lib, migratsiya naqshlari va til rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiradi.

Tarixiy manbalar bu lingvistik va arxeologik tushunchalarni tasdiqlaydi, ko'chib yuruvchi german qabilalari va o'rnatilgan aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqida birinchi bo'lib ma'lumot beradi. Jordanesning Getica kabi matnlari va Tatsitning hisoblari ijtimoiy tuzilmalarni, qabilalararo munosabatlarni va madaniy almashinuvlarni tasvirlab, til tarqalishiga ijtimoiy ierarxiya va ittifoqlar ta'sirini ochib beradi. Ushbu manbalar shuni ko'rsatadiki, german tillari nafaqat o'ziga xoslik belgisi, balki qabilalar va ittifoqlar ichida birlashtiruvchi elementlar bo'lib xizmat qilgan, tarqoq guruhlar o'rtasida aloqa va birlashishni osonlashtirgan.

6. Артюшков И. В. Внутренняя речь и ее изображение в художественной литературе (на материале романов Ф. М. Достоевского и Л. Н. Толстого) / И. В. Артюшков. – М. : МПГУ, 2003. – 347 с.
7. Nosirov O'. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. – T.: Fan, 1981..
8. Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қаҳрамон руҳиятини тасвирлаш тамойиллари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2008.
9. Леонтьев А. А. Психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания / А. А. Леонтьев. – М. : Просвещение, 1969. – 308 с.
10. Бабайцева В. В. Современный русский язык : учебник для студ. пед. ин-тов : в 3 ч. / В. В. Бабайцева, Л. Ю. Максимов. – М. : Просвещение, 1987. – Ч. 3. Синтаксис. Пунктуация. – 256 с.
11. Oybek. Bolalik xotiralarim, "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at" nashriyoti, Toshkent –1995





**Manzura BEGIMOVA,**  
ToshDO'TAU tayanch doktranti  
E-mail: manzurabegim.0776@gmail.com

F.f.d., dotsent O.Norov taqrizi asosida

### ISSUES OF SYSTEMATIZING ENGLISH LANGUAGE EDUCATIONAL METHODOLOGICAL TERMS AND CREATING A DICTIONARY

Annotation

In this article, the author discusses systematizing methodological terms in teaching English as a foreign language and to create a bilingual educational methodological dictionary. As a result of the research and analysis, the importance of the educational methodological dictionary and the proposal for developing dictionary compilation principles were highlighted.

**Key words:** Educational, methodological, terms, linguodidactics, systematization, principle, dictionary creation.

### ВОПРОСЫ СИСТЕМАТИЗАЦИИ УЧЕБНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И СОЗДАНИЯ СЛОВАРЯ

Аннотация

В данной статье, одной из актуальных задач исследования является систематизация методических терминов, встречающихся при преподавании английского языка как иностранного, и создание двуязычного учебно-методического терминологического словаря. В результате исследований и анализов было подчеркнуто значение словаря учебно-методических терминов и предложено разработать принципы составления словаря

**Ключевые слова:** Учебно-методический, термины, лингводидактика, систематизация, принцип, составление словаря.

### INGLIZ TILI O'QUV METODIK TERMINLARINI TIZIMLASHTIRISH VA LUG'AT YARATISH TAMOYILI MASALALARI

Annotatsiya

Xorijiy tillarni o'qitish metodikasini o'rganish jarayonida soha vakillari va tarjimonlar o'quv metodik terminlarning mazmunini anglash va ba'zi terminlarning adekvat tarjimasini chiqarish muammolariga duch kelmoqdalar. Ingliz tili xorijiy til sifatida o'qitishda uchraydigan metodik terminlarni tizimlashtirish, ikki tili o'quv metodik tekstologik lug'at yaratish tadqiqotning dolzarb vazifalardan biridir. Tadqiqotda ushbu sohadagi mavjud lug'atlarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinib, o'quv metodik terminlarini tizimlashtirish va lug'at tuzish tamoyillari o'rganiladi. Ushbu tahlil til o'rgatish metodikasi sohasida foydalaniladigan terminlarni aniq va izchil belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Izlanishlar va tahlillar natijasida o'quv metodik terminlar lug'atining muhimligi va lug'at tuzish tamoyillarini ishlab chiqish taklifi berildi.

**Kalit so'zlar:** O'quv metodik, terminlar, lingvodiaktika, tizimlashtirish, tamoyil, lug'at tuzish.

**Kirish.** So'nggi yillarida ta'limda boshlangan islohotlar o'quv-metodik bilimlarning nazariy ham amaliy asoslarini tadqiq etishga zamin yaratdi. Yoshlarga sifatli ta'lim berish, ularni barkamol qilib tarbiyalash maqsadida ta'limda bir qancha zamonaviy metodlardan foydalanildi hamda zamonaviy metodlar asosida milliy o'zligimizga xos bir qancha metodlar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi

O'zbekistonda ta'lim sohasidagi boshlangan keng ko'lamli islohotlar xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish talabini ilgari surdi. Xorijiy tillarni o'qitishda yangidan yangi yondashuvlar va metodlarning kirib kelishi va o'rganilishi undagi ishlatiladigan terminlar va tushunchalarning mazmun mohiyatini anglash muhimligini anglatadi va o'quv metodik terminlarni tadqiq etish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. Xorijiy til o'qitish metodikasi va pedagogikaning asosiy terminlari va tushunchalari bir necha fanlar ya'ni falsafa, psixologiya, amaliy tilshunoslik terminlari va tushunchalariga o'zaro uzviy bog'liqliq va ushbu fanlarning tushunchalari bilan mustahkamlanadi. Ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llaniladigan terminlarining o'rganilishi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib unda maxsus terminologik lug'atlar yaratilishining o'z tasnifi va tamoyili mavjuddir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tillarni o'qitish va amaliy tilshunoslik terminlarini tizimlashtirish hamda maxsus lug'at yaratishda o'z hissasini qo'shgan rus olimi E.G. Azimov ta'kidlashicha: "Til o'rgatish nazariyasi va amaliyotida (nazariy va amaliy jihatlarida) metodik terminlarning aniq ma'nosini belgilash, ularning mazmunini ochib berish va yangi terminlarning ma'nosini izlashga katta ehtiyoj mavjud." [Azimov E.G., Shukin A.N.2018.c.5].

"Lingvodiaktik (til o'qitish jarayonini o'rganadigan va tasvirlaydigan fan) terminlar — bu bir yoki bir necha leksik birliklar kombinatsiyasidan iborat bo'lib, lingvodiaktik tushunchani imkon qadar to'liq va aniq ifodalaydi. Ular umumtilshunoslik qonunlariga, ya'ni so'z yasalishi va leksik birliklarning sintaktik birliklarda o'zaro ta'siriga bo'ysunadi va chet tillarni o'qitish metodikasi

(lingvodiaktika) bo'yicha maxsus matn kontekstida o'z ma'nosini aniqlaydi." [Lebedov D.I.2006.c.29]

Rus olimlari I.L. Kolesnikova va O.I. Dolgina tomonidan yaratilgan "Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi bo'yicha inglizcha-ruscha terminologik qo'llanma"da xorijiy va rus lingvodiaktikada ishlatiladigan asosiy metodik tushuncha va terminlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. [Kolesnikova I.L, Dolgina O.A.2008.C.431]

Shu o'rinda o'zbek olimlaridan Jamol Jalolov "Chet tili ta'limida istifoda qilinadigan sohaviy terminlarning o'zbekcha izohli va assotsiativ lug'ati o'ta muhim qo'llanma sanaladi." [Jalolov J.,2012.375-bet.B.425] deb qayd etgan. Yana bir qator olimlar A.S. Savchits (2015), G.N. Lovtsevich (2010), A.O. Tsiremplion(2002), S.M.Fedyunina(1988), S.I.Scherbina(2004), I.V. Ku cheshova (2012) xorijiy tillarni o'qitish metodikasi va amaliy tilshunoslik terminologiyasi terminlarining izohlanishi, adekvat tarjima muammolari, ushbu terminlarning tizimlashtirilishi va lug'at tuzish tamoyillarini ishlab chiqqan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Xozirgi davrda xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar va metodlarning qo'llanilishi ushbu soha terminlarini isloh qilish vazifasini birinchi planga qo'yimoqda. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki ma'lumotlarning turlicha bo'lishi maxsus lug'atga tizimli yondashuvni qo'llashni, ya'ni aynan o'quv metodika sohasining terminologik birliklariga kiradigan terminlarni terminologik tizim tarzida ko'rib chiqish talabi qo'yiladi. Terminologik tizimlashtirish chet tillarini o'qitish metodikasida qo'llaniladigan ba'zi terminlarning adekvat tarjimasini muammolari yechimini topishga, shuningdek ularning semantik jihatdan o'rganilishi imkoniyatini yaratadi. Mazkur tadqiqotda terminologiyaning tizimlashtirish ahamiyati va tizimlilik maxsus soha terminlarini ya'ni o'quv metodik terminlarining lug'atining yaratilishiga muhim rol o'ynayishi, asosiy maqsadimiz esa ingliz tili xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llaniladigan terminlar lug'atlarini bo'limlarini ko'rib chiqib va maxsus soha lug'atini shakllantirish tamoyillarini aniqlash vazifasi qo'yilgan.

**Tahlil va natijalar.** O'quv-metodik termin hodisasini har tomonlama yoritish uchun "terminologik tizim" tushunchasiga aniqlik kiritish zarur. Har qanday tizim singari, terminologik tizim ham boshqa tizim kabi bir xil ishlash qoidalariga bo'ysunadi. Shu munosabat bilan, terminologiya hodisasini ko'rib chiqishni tizimning umumiy ta'rif bilan boshlash tavsiya etiladi. L.L.Nelyubinaning ta'rifiga ko'ra, Tizim - "1. O'zaro bog'langan elementlardan tashkil topgan yaxlit obyektidir. Tizim elementlari o'zlariga tegishli bo'lgan tizim nuqtai nazaridan ajralmaslik xususiyatiga ega. Tizim elementlari o'rtasidagi bog'lanishlar va munosabatlar yig'indisi uning strukturasi tashkil etadi. 2. Bir-biri bilan ma'lum munosabatda bo'lgan lisoniy va semantik birliklar yig'indisidir"[Нелюбин Л.Л. 2001. С 165] Professor L.L. Nelyubinning ushbu ta'riflari, shubhasiz, bir narsaga aniqlik kiritadi, ya'ni bu tizim ichida bo'linmaydigan, bir-biriga va boshqa tizimlar elementlariga bog'liqlik, aloqa va munosabatlarning aniq tuzilishiga ega bo'lgan o'zaro bog'liq elementlar to'plamidir.

Terminologiyaga tizimli yondashishgina o'quv-metodik terminologiyani yaxlit terminologik tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Demak, terminga qo'yiladigan asosiy va eng muhim talablardan biri uning bir ma'noliligi ekanligi ayon bo'ladi. Termin uchun faqat bitta ma'noning mavjudligi ma'lum bir mavzu bo'yicha mutaxassislar o'rtasida tushunishni sezilarli darajada osonlashtiradi va shunga mos ravishda maxsus matn tarjimonining vazifasini soddalashtiradi.

Terminologik tizim sifatida o'quv-metodik lug'atning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish uchun muhim material uning tarkibini boshqa termin tizimlari bilan o'zaro ta'siri nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish zarur. O'quv metodik terminlarni tizimlashtirishda inglizcha-o'zbekcha o'quv metodik terminlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'proq hisobga olish zarur, tillarni o'qitishda o'quv jarayonining nazariyotchilari va amaliyotchilari professional terminologiyani tushuna olishlari va ikki tilda tarjima qila olishlari uchun barcha jihatlari e'tiborga olinadi. Ko'pgina pedagogik va tillarni o'qitish metodikasi terminlar lug'atlarida tizimlilik tamoyili orqali alifbo tarzida berilgan. Ulardan o'zbek pedagogik fanlari doktorlari va professorlar tomonidan tuzilgan o'zbek tilidagi "Pedagogik atamalar lug'ati". Ushbu Pedagogik atamalar lug'ati 2000 ga yaqin ta'lim-tarbiyaga oid tushunchalarning qisqacha sharhini o'z ichiga olgan bo'lib, unda so'nggi yillarda pedagogika fanida keng qo'llanilayotgan yangi atamalar izohini berishga alohida e'tibor qaratilgan.[Toshkent. 2008.195]

Ingliz tilidagi "Longman dictionary of Language teaching and applied linguistics" (Til o'qitish va amaliy tilshunoslikning Longmen lug'ati) lug'atining uchinchi nashrida 2800 ta termin va uning o'rtinchi nashrida 3500 ta terminlar o'z izohlari bilan berilgan. Lug'at amaliy tilshunoslik va tillarni o'qitishga tegishli bo'lgan terminlarni o'z ichiga oladi. (Jack C.Richards, Richard Schmidt.2002.597)

Lug'atdagi til o'qitish sohasiga quyidagi ta'lim yo'nalishlari terminlari kiritilgan:til o'rgatishda o'qitish metodikasi va yondashuvlari,o'quv rejasi va dasturni ishlab chiqish, ikkinchi tilni o'zlashtirish,tinglab tushunish, gapirish, o'qib tushunish va yozishni o'rgatish, kompyuter yordamida til o'rganish, til o'rgatish bo'yicha o'qituvchilar malakasini oshirish, Ingliz tili grammatikasi va talaffuzi, til testi, tadqiqot usullari va asosiy statistika.

Lug'atga amaliy tilshunoslik sohasiga oid atamalar ham kiritilgan.Ushbu kitobning maqsadiga ko'ra "amaliy tilshunoslik", tilshunoslikning nazariy va amaliy qo'llanilishiga tegishli bo'ladi. U quyidagi ta'lim sohalaridagi terminlarni o'z ichiga oladi:tilshunoslikga

Jadval 1

Lug'at tamoyil nomi	Izoh	Foydalanuvchiga
Tizimlilik	terminlar va tushunchalar ma'lum bir tartibga solinishi	Foydalanishni osonlashtiradi va kerakli ma'lumotlarni tezda topishga yordam beradi.
Aniqlik	termin aniq va tushunarli ta'rifga ega bo'lishi	terminning ma'nosini to'g'ri tushunish imkonini beradi.
Tajribaviy asos	Ta'riflar va tushunchalar ilmiy va amaliy tajribaga asoslangan bo'lishi	lug'atning ishonchligini oshiradi.
Yangilik va dolzarblilik	Lug'atdagi terminlar va tushunchalar doimiy ravishda yangilanib turilishi	zamon talablariga mos kelishiga yordam beradi

(<https://uz.wikipedia.org/wiki/Lug'at>)

Bu tamoyillar, lug'at tuzish jarayonida terminologik birliklarning aniq va samarali tuzilishini ta'minlaydi, shuningdek, ularni ta'lim, ilm-fan yoki boshqa sohalarida qo'llanilishida yordam beradi.

O'quv metodik lug'atning tuzilishi:a)lug'atning tarkibi; b)lug'atning tuzilishi; c)lug'at maqolasining tuzilishi; d)lug'atdagi terminlarning ma'no xarakteristikasi e)termin ma'nolarining

kirish, jumladan, fonologiya, fonetika, sintaksis,semantika va morfologiya;diskurs tahlili; sotsiologiya, shu jumladan tilning sotsiologiyistik va kommunikativ kompetentsiyalari; o'rganish nazariyalrini o'z ichiga olgan psixologiyistik(Jack C.Richards, Richard Schmidt.2010.644)

Ingliz tili terminlar lug'atlaridan yana biri lug'at "An A-Z of ELT". Ushbu lug'atda xam til o'qitishdagi bir qancha yo'nalishlari bo'yicha terminlar mavjud. Til o'rgatish terminologiyasini o'rganish bu terminlar ifodalagan tushunchalarni tushunish va ularning o'zaro bog'liq ekanligini anglashdir. Lug'at uchta asosiy sohaga bo'linadi: til aspekti, tilni o'rganish va o'qitish. Scott Thornbury ushbu sohalarini kichik bo'limlarga ajratgan:

1.Til aspektlariga oid mavzular:diskurs, pragmatika; funktsiyalar, tushunchalar ularga:grammatika, tilshunoslik,fonologiya, sotsiologiya(ijtimoiy tilshunoslik),leksika.

2.Til o'rganishga oid mavzular:psixologiya, psixologiyistik; ikkinchi tilni o'zlashtirish.

3.Til o'qitishga oid mavzular:metodika, kasbiy (rivojlanish), testdan o'tkazish. [Scott Thornbury, 256]

Lug'atda nafaqat terminlar izohlarini balkim ular haqidagi asosiy masalar qisqacha mazmunini, muhokamalar va har bir tushunchaga amaliy natijalarini ham berib o'tgan. Bunda lug'at ensiklopedia vasifasini ham o'taydi.

Rus terminshunoslarning ham lingvodidaktikaga oid bir qancha lug'atlari va entsiklopedik ma'lumotnomalari mavjuddir. Ulardan E.G.Azimov, A.N. Shukin "Metodik terminlar va tushunchalarning yangi lug'ati". Ushbu lug'atda lingvodidaktika va uning asosiy fanlaridagi (pedagogika, psixologiya, psixologiyistik, tilshunoslik, sotsiologiya, madaniyatshunoslik) yangi terminlar va tushunchalar kiritilgan. [Азимов Э. Г., Щукин А. Н.2009. – 448 с]

L. Kolesnikova va O.I. Dolgina tomonidan yaratilgan "Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi bo'yicha inglizcha-ruscha terminologik qo'llanma"da xorijiy va mahalliy lingvodidaktikada ishlatiladigan asosiy metodik tushuncha va terminlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Qo'llanmaning bo'limlari til o'rgatish metodlari va yondashuvlari, o'quv dasturlarini tayyorlash, til o'rgatishda nazorat va baholash kabi turli mavzularga bag'ishlangan. Terminlar ularning ishlatilish chastotasi, amaliy ahamiyati va dolzarbligidan kelib chiqib, lug'atga kiritilgan. Ushbu qo'llanmada taxminan 230 ta lug'aviy maqola mavjud. Ushbu qo'llanmada xorijiy davlatlar va Rossiyada chet tillarni o'qitish metodikasi nazariyasi va amliyoti terminlarining qiyosiy tahlili berilgan.[Колесникова И. Л., Долгина О.А., 2008. -431]

Shuni ta'kidlash joizki o'zbek tilida bir qancha maxsus fanlarning terminlari lug'atlari shakllantirilgan. Ulardan o'zbek tilida "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"[N.Mahkamov, I. Ermatov] Ushbu lug'atda ona tili darsliklarida qo'llaniladigan 1500 ga yaqin tilshunoslik terminlari asos qilib olingan va izohlangandir. Yuqorida keltirilgan xar bir lug'at, ensiklopedia va qo'llanmalar o'ziga xos tizimliliigi va lug'at tuzish tamoyillari bordir.

Yuqoridagi barcha sohaviy lug'atlarni o'rganib chiqib, o'quv metodik terminlarining inglizcha-o'zbekcha tekstologik lug'atining tuzilish asosiy tamoyillari, lug'atning tuzilishi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi. Lug'at tuzish tamoyillari — bu biror bir soha yoki tildagi terminlarni tizimli va asosli ravishda to'plash, tasniflash va ta'riflash jarayonini belgilovchi printsiplar va qoidalar majmuasidir. Bu tamoyillar lug'atni yanada samarali va foydali qilishga yordam beradi. O'quv metodik terminlarining inglizcha - o'zbekcha tekstologik lug'at tuzishning asosiy tamoyillari quyidagi Jadvalda berilgan:

joylashish tartibi va tarjimasi tushunchasi bilan; f)termin birikmalarda kelishi; g)illyustrativ misollar; h)terminlarning grammatik xarakteristikasi; i)terminlarning qaysi maxsus yo'nalishga tegishligi.

**Xulosa va takliflar.** Izlanishlardan kelib chiqib shuni aytilish kerakki, bugungi kunda ingliz tili o'quv metodik terminlarni tizimlashishi, ularning o'zbek tilida tarjimasi va izohlanishi muhim masaladir. Inglizcha-o'zbekcha o'quv metodik terminlari tekstologik

lug'ati yaratish,unda terminlarning Inglizcha-o'zbekcha muvofiq bo'ladi. Xulosa qilib aytganda istiqbolli yondashuv - ushbu variantlari,hamda ularga izohlar va misollar bilan berilsa maqsadga tarixiy o'quv-metodik terminologik lug'atni tayyorlash.

#### ADABIYOTLAR

1. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Проблемы лексикографического описания лингводидактической терминологии. Журнал Вопросы лексикографии. Москва 2018. №14 с.5. Сс.5-23
2. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Словарь методических терминов 1.472 с.
3. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. Москва: «Высшая школа» 1986. С 254.
4. Jack C. Richards Methodology in Language Teaching: An Anthology of Current Practice. 2002;
5. Jack C. Richards and Richard Schmidt Longman Dictionary of LANGUAGE TEACHING AND APPLIED LINGUISTICS Fourth edition published in Great Britain in 2010,p.644;
6. Колесникова И. Л., Долгина О.А. "Англо-русский терминологический справочник по методике преподавания иностранных языков : справочное пособие / — М. : Дрофа, 2008. -431 с.
7. Лебедев Д. И. Проблемы адекватности перевода лингводидактических терминов на материале русского и английского языков: дис. ... канд. филол. наук. — М., 2005. с.29,С.109
8. Нелюбин Л.Л., Хухуни Г.Т. История и теория перевода в России: Учебник. - М.: Изд-во «Народный учитель». 2001. С 165
9. "Pedagogik atamalar lug'ati" O'zbekiston fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. Toshkent. 2008,195 B.
10. Scott Thornbury "An A-Z of ELT", Macmillan Books for Teachers,p.256
11. Савчиц А.С. Методика составления учебного двуязычного словаря-гlossарий лингводидактических терминов. Автореферат дис.. канд. Пед.наук. Москва-2015.ЛУ Исин Гармонизация терминологии лингводидактики (по материалу Русского и Китайского языков)Автореф.дисс.канд.фил.наук.Санкт Петербург-2018;
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати икки томли 60000 сўз ва бирикмаси Маъруфов З.М. тахрири остида I Том А-Р Москва «Рус Тили» нашриёти 1981 12-18 бетлар (631)
13. Foydalanilgan saytlar:
14. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Lug'at>
15. [www.academia.edu](http://www.academia.edu)
16. <https://proquest.com/en/dissertations/>
17. <http://pedsovet.alledu.ru/filesQ/files1/riles629/files640/docs/48.htm>



UDK:811.82

**Ra'no BEGMATOVA,**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f.f.n*  
*E-mail: rano@rambler.ru*

*O'zDJTU dotsenti, f.f.f.d. I. Minniqulov taqrizi asosida*

### THE IMPORTANCE OF THE TACTIC OF EXPRESSION OF INTERERENCE IN ENSURING COOPERATION IN COMMUNICATION OF GERMAN SPEAKERS

Annotation

This article examines the role of the tactic of expression of interference for achieving cooperation in dialogue between native speakers of German language.

**Key words:** Verbal communication, native speakers of German, ensuring cooperation, expression of interference, tactics.

### ЗНАЧЕНИЕ ТАКТИКИ ПРОЯВЛЕНИЯ ИНТЕРЕСА В ОБЕСПЕЧЕНИИ КООПЕРАЦИИ В РЕЧЕВОМ ОБЩЕНИИ НОСИТЕЛЕЙ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье рассматривается роль стратегии толерантности для достижения сотрудничества в диалоге между носителями немецкого языка.

**Ключевые слова:** Речевое общение, носители немецкого языка, обеспечение кооперации, проявление интереса, тактики.

### NEMISZABON SO'ZLOVCHILAR NUTQIY MULOQOTIDA KOOPERATSIYANI TA'MINLASHDA QIZIQISHNI NAMOYON ETISH TAKTIKASINING AHAMIYATI

Annotsiya

Ushbu maqolada nemiszabon so'zlovchilari orasida bo'lib o'tadigan muloqot davomida kooperatsiyaga erishish maqsadida qiziqishni namoyon etish qo'llanilishining o'rni to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Nutqiy muloqot, nemiszabon so'zlovchilar, kooperatsiyani ta'minlash, tolerantlik strategiyasi, taktikalar.

**Kirish.** Lingvistik kooperatsiya mavzusi tilshunoslikda nutqiy muloqot jarayonini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ strategiya va taktikalar ushbu jarayonning asosiy unsurlari hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qiziqishni namoyon etish deganda so'zlovchi kommunikatsiya jarayonga, munozara qilinayotgan mavzuga o'zining qiziqishini namoyon etishi tushuniladi.

Tilshunoslikda kommunikatsiya jarayonida qiziqishni bildirish taktikasini qo'llanilishi bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular qatoriga A.V. Lanskiy, V.S. Anoxina, O.V. Lunyova, V.T. Matveyeva [1] va boshqalar qiradi.

Kommunikativ jarayonda suhbatdosh ma'lum bir mavzuda ekspert bo'lganligi va ushbu mavzuni rivojlantirishga qiziqish bildirish taktika sifatida muloqot jarayonida kooperatsiyaga erishishning yo'llaridan biridir.

Oilaviy kontekstda kooperatsiyaga erishishda turli taktikalardan foydalanilishini o'rgangan V.S. Anoxina, oilaviy qiziqishni bildirish taktikasini amalga oshirish negizida oila a'zolariga ularning hayotida bo'layotgan hodisalar to'g'risida savol berish yotishini o'z ishida keltirib o'tgan [1]. Olima qiziqishni bildirish taktikasini oilaviy etiket taktikalariga kirishini ta'kidlab, u ushbu taktikalar so'zlovchining haqiqiy qiziqishi borligini yoki etiket doirasida e'tiborning mavjudligi bilan bog'liq ekanligini ajratib o'tgan [1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qiziqishni bildirish taktikasi quyidagilar yordamida namoyon bo'ladi (bevosita va bilvosita):

1. Bilvosita: Suhbatdoshining hayoti, ishlari, uni qiziqitiradigan mavzular to'g'risida savol berish:

a) – Ishlaringiz ancha yengillashib qoldimi? – Qorniz ochmadimi? – Sizningcha u odam yana qaytib keladimi? – Keyin nima bo'ldi?

b) qaytadan savol berish. – Ismini nima dedingiz, qaytarib yuboring –Yana olib kelaman dedimi?! – Shunday qilib, soat nechada bo'ladi dedingiz?

v) aniqlik kirituvchi savol berish: – Yana kimlar bor edi?

2. Bevosita: Qiziqishni bildiruvchi til unsurlaridan foydalanish:

a) Sifat so'z turkumidan foydalanish: – Juda qiziqarli. – Ajoyib. – Juda Qulay! – Foydali-ku.

b) Nutqni davom ettirishga turtki berish: – Davom eting. – Marhamat, qulog'imiz sizda. – Xa albatta, sizni eshityabmiz.

v) Hayratni anglatuvchi til unsurlaridan foydalanish: – Nahotki! –Yo'g'e, keyin nima bo'ldi? – Bo'lishi mumkin emas, u shunday qildimi? –Qo'ysangizchi!

**Tahlil va natijalar.** Nutqda kooperatsiyaga erishishda qiziqishni namoyon etish taktikasi o'z ahamiyatiga ega bo'lib, u suhbatdoshning mavzuga befarq emasligini bildiradi.

Misol-1.

Person A: Ich arbeite an einem neuen Projekt, das sehr herausfordernd ist.

Person B: Das klingt spannend! Worum genau geht es in deinem Projekt? [5].

Kommunikativ tahlil:

1. Maqsad. Birinchi shaxs yangi loyiha ustida ish olib borayotganini va mushkul lekin kizikarli yoki marokli ekanligini aytadi. Ikkinchi shaxs esa "Buncha yaxshi" deya loyixang nima tug'risida ekanligini so'raydi. Kommunikativ maksad insonlararo mulokot asosida axborot almashinuv.

2. Aloqa turi. Ushbu misolda aloqa turi darak va so'roq gaplar orqali ma'lumotlarni yetkazishdir. Darak gap birinchi suhbatdoshning yangi qiyin loyiha ustida ish olib borayotganligi haqida ma'lumot berish bo'lsa, so'roq gap ikkinchi kommunikant toionidan ishlatilomqda va uning mazmuni qiziqishni namoyon etish bo'lmoqda.

3. Baho. Ikki suhbatdosh tomonidan o'z vaqtida, aniq va kooperativ aloqalarni ta'minlovchi qayta reaksiya bildirilmoqda.

4. Mexanizm. Qiziqishni namoyon etish taktikasi aniqlashtiruvchi savol berish va hayratni bildiruvchi jumlaning ishlatilish orqali namoyon bo'lmoqda. "Das klingt spannend!" ("Bu juda ham qiziqarli!") gap undovli bo'lishi hayrat, ajablanish, va qiziqishni namoyon etishning yuqori emotsional bo'yoqlarga egaligini yetkazmoqda. Undan keyin keluvchi aniqlashtiruvchi savolga ega gap: "Worum genau geht es in deinem Projekt?" ("Sizning loyihangiz aynan nima haqida?") muloqotning ijobiy tusda davomiy bo'lishini ta'minlamoqda.

5. Kontekst. Ushbu misolda loyiha ustida ishlash bo'yicha yoritilayotgan mavzu misolning ishbilarmon kontekstga ega ekanligiga ishora qilmoqda. Ishchilar o'rtasidagi muloqotda ishga taaluqli bo'lgan mavzuga qiziqish bildirish va uni muhokama qilish ko'tarilayotgan mavzu bo'yicha fikr va g'oyalar almashinuviga va umumiy ish jarayoniga ijobiy ta'sir etishi mumkin.

Pragmatik tahlil:

1. Pragmatik maqsad. Misolning pragmatik maqsadiga to'xtalar ekanimiz, unda fikr va g'oyalar almashinuvi uchun birinchi kommunikant tomonidan ehtiyoj borligini ko'rmomodamiz.

2. Madaniy kontekst. Umuman olganda nemis halqi vakillari o'rtasida bo'lib o'tayotgan ishbilarmon kontekstdagi suhbatda, bir inson o'zi qilayotgan ish bo'yicha so'z ochsa uning suhbatdoshi etiket qoidalari yuzasidan ham ushbu mavzuga qiziqish bildirishi o'rnilidir. Chunki, bir inson o'z ishi haqida so'zni boshlashi, yoki suhbat davomida uni eslatib o'tishi bu suhbatdoshga ma'lum bir ma'lumot yetkazish istagi borligini bildiradi.

3. Ijtimoiy me'yorlar. Ushbu misolda ikki kommunikant tomonidan umum tan olingan kommunikativ o'zini tutish me'yorlariga amal qilinmoqda va muloqotda hamkorlikni ta'minlashga urinish mavjud.

4. Strategiyaning kontekstdagi o'rni. Ikki kommunikant tomonidan ijobiy qayta reaksiya bildirilmoqda.

5. Samaradorligi. Ushbu dialog parchasida samimiylik va ishonch strategiyaning qiziqishni namoyon etish taktikasining qo'llanilishi samarali bo'ldi.

Sintezlangan tahlil:

1. Samimiylik va ishonch strategiyaning turlaridan biri bo'lgan qiziqishni namoyon etish taktikasi qo'llanilgan ushbu dialogda suhbat tashkilotchisining asosiy kommunikativ maqsadi ma'lumot yig'ish bo'lsa, pragmatik maqsad sa ikkinchi kommunikant tomonidan bunga to'sqinlik qilmaslik, buning uchun ijobiy muhit yaratish va birinchi kommunikant maqsadiga erishishda uni qo'llab-quvvatlashdir.

2. Darak va so'roq gaplarda yetkazilgan ma'lumotlar ikki kommunikant tomonidan to'g'ri va to'liq tushunildi.

3. Kommunikativ va pragmatik tahlilga ko'ra o'zaro tushunishga tez erishish va ijobiy qayta reaksiya qiziqishni namoyon etish taktikasining o'rinni qo'llanilganligi va hamkorlikka erishishda samarali bo'lganini ko'rsatmoqda.

4. Nemis halqi vakillari o'rtasidagi ishbilarmon kontekstdagi dialogda umum qabul qilingan etiket qoidalarning qo'llanilishi hamkorlikka erishishda samarali bo'ldi.

5. Ushbu kontekstda qiziqishni namoyon etish taktikasining qo'llanilishi muloqotda kooperatsiyaga erishishda foyda berdi va muloqotni uzulishsiz ravon kechishiga ko'maklashdi.

Misol-2.

Person A: Ich habe mich entschieden, einen Marathon zu laufen.

Person B: Wow, das ist beeindruckend! Wie bereitest du dich darauf vor? [6].

Kommunikativ tahlil:

1. Maqsad. Ushbu misolda keltirilgan dialog parchasining kommunikativ maqsadi ma'lumot almashishdir. Bunda birinchi kommunikant marafon yugurib o'tishga qaror qilganini aytmoqda. Ikkinchi kommunikant esa, uni ma'qullamoqda marafonga qanday tayyorgarlik ko'rayotgani bilan qiziqmoqda.

2. Aloqa turi. Darak va so'roq gaplar yordamida ma'lumot almashish bo'lib. Darak gap orqali birinchi kommunikant "Ich habe mich entschieden, einen Marathon zu laufen" ("Men marafon yugurib o'tishga qaror qildim") o'zining qarorini aytmoqda. Ikkinchi kommunikant "Wow, das ist beeindruckend! Wie bereitest du dich darauf vor?" ("Vau, zo'rku! Bunga qanday tayyorlanapsiz?") deya o'zining hayratini undov gapda va ushbu marafonga qanday tayyorgarlik ko'rayotganini so'roq gapda keltirmoqda.

3. Baho. Ikki kommunikant bir-birining xohishini to'liq tushunmoqda, birinchi kommunikantning xohishi – marafonga

#### ADABIYOTLAR

1. Анохина В.С. Стратегии и тактики коммуникативного поведения в малой социальной группе (семье) // Наука. Инновации. Технологии. 2008. – № 3. – С 64-71.;
2. Ланских А.В. Речевое поведение участников реали-шоу: коммуникативные стратегии и тактики: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2008. – 22 с.;
3. Лулева О.В. Адаптация социальная // Знание. Понимание. Умение. 2018. №3. С. 240-247. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/adaptatsiya-sotsialnaya>.
4. Матвеева В.Т. О методе выявления ценностной информации разговорного диалога // Научный диалог. 2018. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-metode-vyyavleniya-tsennostnoy-informatsii-razgovornogo-dialoga>;
5. <https://pub.ids-mannheim.de/extern/zgl/zgl01.html>
6. <https://pub.ids-mannheim.de/extern/zgl/zgl01.html>

qatnashmoqchi ekanligi haqida so'zlab berish, ikkinchi kommunikant tomonidan ijobiy qayta reaksiyani keltirib chiqarmoqda va muloqotni davom ettirish uchun qiziqishni namoyon etish taktikasi qo'llanilmoqda. Ushbu taktikaning qo'llanilishi muloqotda kooperatsiyaga erishishda samarali bo'lmoqda.

4. Mexanizm. Kommunikantning ijobiy javobi va ikkisining muloqotda faol ishtirok etishi kuzatildi.

5. Kontekst. Kontekst ushbu misolda norasmiy bo'lib, maishiy mavzularni muhokama qilish ssenariyiga ega.

Pragmatik tahlil:

1. Pragmatik maqsad. Ushbu misolda keltirilgan dialog parchasining pragmatik maqsadi o'zaro aloqalarni mustahkamlash.

2. Madaniy kontekst. Ikki kommunikant bir-birining qiziqishlarini qo'llab-quvvatlamoda va muloqotning davomiyligini ta'minlamoda.

3. Ijtimoiy me'yorlar. Ushbu misolda ikki kommunikant tomonidan umum tan olingan kommunikativ o'zini tutish me'yorlariga amal qilinmoqda va muloqotda hamkorlikni ta'minlashga urinish mavjud.

4. Strategiyaning kontekstdagi o'rni. Keltirilgan misol kontekstiga to'xtaladigan bo'lsak, u noformal, ijtimoiy kontekstga egadir va ushbu vaziyatda qiziqishni namoyish etish taktikasi o'rindir.

5. Samaradorligi. Ushbu vaziyatda samimiylik va ishonch strategiyaning qo'llanilishi muloqotda hamkorlikka erishishda samarali bo'ldi.

Sintezlangan tahlil:

1. Pragmatik va kommunikativ tahlillar modellari ko'ra muloqot davomida ikki kommunikant ham ma'lumot almashish orqali o'zaro aloqalarni mustahkamlashni maqsad qilgan.

2. Misoldagi darak va so'roq gaplarda yetkazilgan ma'lumotlar ikki kommunikant tomonidan to'g'ri va to'liq tushunildi.

3. Kommunikativ va pragmatik tahlilga ko'ra o'zaro tushunishga tez erishish va ijobiy qayta reaksiya qiziqishni namoyon etish taktikasining o'rinni qo'llanilganligi va hamkorlikka erishishda samarali bo'lganini ko'rsatmoqda.

4. Maishiy kontekstga ega bo'lgan ushbu misolda qabul qilingan ijtimoiy normalarga asoslangan holda suhbatdoshlarning kommunikativ hulqi shakllanishi suhbatning uyg'un kechishiga xizmat qilmoqda.

5. Ushbu kontekstda qiziqishni namoyon etish taktikasi qo'llanilishi samarali bo'ldi va boshqa shu kabi kontekstlarda qo'llanilishi mumkin.

Demak, samimiylik va ishonch strategiyaning bir bo'lgan qiziqishni namoyon etish taktikasi formal va noformal tusga ega bo'lgan ishbilarmon va maishiy va boshqa shu kabi kontekstlarda qo'llanilishi o'rinni bo'lishi mumkin. Bunda ushbu taktikaning qo'llanilishi konstruktiv fikr-mulohazalar almashinuvi, yangi g'oyalar tug'ilishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy normalarga roya etish qiziqishni namoyon etish taktikasini qo'llashni talab etishi mumkin. Bunda asosiy e'tibor qilish kerak bo'lgan jihat bu qiziqishni namoyon etish haddan tashqari ortiqcha va o'rinsiz bo'lmasligi zarur. Bu holatda qiziqishni namoyon etish, o'ta qiziquvchanlikka olib kelishi va muloqotda kooperatsiyaga erishish o'rniga kommunikantda salbiy ta'sir qilishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, o'rganishlar natijasiga ko'ra, tolerantlik strategiyasi nemis tilida lingvistik kooperatsiyani ta'minlashda xatoga ko'z yumish va mavqei ko'tarish taktikalari orqali amalga oshiriladi, uni qo'llash tufayli suhbatdoshlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va tushunish mustahkamlanadi.



Zarnigor DJALILOVA,  
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: z.b.djalilova@buxdu.uz

Toshkent davlat universiteti professori, f.f.n. Z.Abdujabbarova taqrizi asosida

### CONCEPTUAL METAPHORS IN BARAK OBAMA'S SPEECH

Annotation

Current work is dedicated to the analysis of conceptual metaphors in three important speeches of former president of the USA Barak Obama. They include "Acceptance speech", "Victory speech" and "Inauguration speech".

**Key words:** Political speech, political discourse, conceptual metaphors, pathos, domain, concept, understanding.

### КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ МЕТАФОРЫ В РЕЧИ БАРАКА ОБАМЫ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу концептуальных метафор, использованных в трех важных речах бывшего президента США Барака Обамы: «Принятие номинации», «Победа», «Инаугурация».

**Ключевые слова:** Политическая речь, политический дискурс, концептуальная метафора, пафос, область, концепция, понимание.

### BARAK OBAMA NUTQIDA KONSEPTUAL METAFORA

Annotatsiya

Mazkur maqola AQSH sobiq prezidenti Barak Obamaning uch muhim ya'ni "Nomzodlikni qabul qilish", "G'alaba", "Inaugratsiya" nutqlarida foydalanilgan konseptual metaforalar tahliliga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Siyosiy nutq, siyosiy diskurs, konseptual metafora, pafos, domeyn, konsept, tushuncha.

**Kirish.** siyosiy nutqdagi metafora quyidagi funksiyalarni bajaradi deb ta'riflangan: siyosiy pozitsiyani va mafkurani qo'llab-quvvatlash, 'mif' yaratish, hissiy ta'sirni kuchaytirish va ma'ruzachini kerakli nomzod sifatida belgilash [3]. Metafora ritorika o'lchamlaridagi logos, pafos va etosni aks ettiradi. Zero, siyosiy mafkurani yetkazish har doim ham faktik mulohazalarga asoslanmay, balki tinglovchi tafakkurida ma'lum assotsiatsiyalar orqali freymnlarni hosil qilish uchun hissiyotlarni uyg'otuvchi pafos komponentidan foydalaniladi. Ma'lumki, etos (ethos), pafos (pathos) va logos (logos) – bu o'quvchi yoki tinglovchini ishonitirishga harakat qilishda keng tarqalgan uchta strategiya.

Pafos yoki his-tuyg'ularga murojaat qilish – bu tinglovchilarni muallif xohlagan tarzda his qilishlari uchun ataylab ma'lum his-tuyg'ularni uyg'otish orqali ishonitirishni anglatadi. Mualliflar o'z so'zlarini ataylab tanlaydilar, mazmunli tildan foydalanadilar, his-tuyg'ularni uyg'otadigan misol va hikoyalardan foydalanadilar. Mualliflar turli xil hissiy javoblarni, jumladan hamdardlik, g'azab, umid yoki umidsizlik kabi hislarni uyg'otishi mumkin. Aynan mana shu yerda turli badiiy vositalardan foydalanadi. Zero, J.Mioning fikriga ko'ra, metaforalarning eng asosiy vazifasidan biri bu mantiqni (logos) hissiyot (pathos) bilan bog'lashdir [9]. Konseptual metaforalar ham tinglovchilarga abstrakt tushunchalarni ancha moddiy obyektlar bilan bog'lab, tinglovchi tafakkurida assotsiativlik uyg'otishga va shu bilan nutq ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Metafora majoziy til vositasi sifatida faqat siyosiy nutqlarda emas, balki barcha shakllarda mavjud. Merriam-Webster lug'atiga (2020) ko'ra, "metaphor is a figure of speech in which a word or phrase literally denoting one kind of object or idea is used in place of another to suggest a likeness or analogy between them", ya'ni "bir turdagi obyekt yoki fikrni anglatuvchi so'z yoki ibora ma'lum bir o'xshashlikni ko'rsatish uchun boshqasining o'rniga ishlatiladigan nutq shaklidir"[8]. H.Burholder fikriga ko'ra, turli narsalar sinfi yoki tajribasiga taalluqli bo'lgan ikkita narsa yoki atamalarni solishtirish hamda tilning o'ziga xos qo'llanilishi orqali yangi tushuncha hosil qilinadi [4]. Ikkita atamaning biri muhokama qilinayotgan mavzuga tegishli, boshqasi esa ushbu mavzudan boshqa tajriba sinfiga ishora qiladi. Bu ikki atama so'zlovchi tomonidan qo'shilib, metafora hosil bo'lsa, tinglovchini bir tushunchani boshqa tushuncha bilan tushunishga undaydi.

Xuddi shunday, Bo'rd fikriga ko'ra, so'z yoki ibora boshqa bir so'z fikr o'rtasida taqqoslashni o'rnatish uchun ishlatilganda metafora vujudga keladi. Misol uchun, siyosatchi raqibiga "take flak" ('tanqidiga javob beradi') deganda, siyosat urushga qiyoslanadi,

metaforik ravishda siyosatchiga o'q uziladi. Boshqa tomondan, bu o'z raqiblarini nishonga olgan, ularning siyosatiga "hujum boshlagan" siyosatchi ma'nosini ifodalashi mumkin [2].

Lakof va Jonson (1981) fikriga ko'ra, ko'pchilik uchun metafora poetik tasavvur va ritorikaga oid vositadir. Bundan tashqari, unga tilga xos xususiyat sifatida ham qaraladi. Biroq, bu ikki muallif metafora kundalik hayotda nafaqat tilda, balki harakat va fikrda ham keng tarqalganligini aniqladilar. Lakof va Jonsonning ta'kidlashicha, insonlar fikr yuritadigan va harakat qiladigan birlamchi konseptual tizimning o'zi mohiyatan metaforikdir [7].

Kateryna Pilyarchuk va Aleksander Onyskolar AQSHning sobiq prezidenti Donald Tramp nutqidagi konseptual metaforalar analiziga bag'ishlangan ishlarida D.Tramp nutqida qayta-qayta takrorlangan "Soliqlar og'riqdir" (Taxes are pain) hamda "Muhojirlar hayvonlar" (Immigrants are animals) metaforalari orqali soliq to'lashdan charchagan o'rta daromadli fuqarolar qalbidan joy olishiga erishishga yordam berishini ta'kidlashgan. Shu bilan birga, avtorlar o'z nutqida Tramp e'tiborni boshqa masalalardan chalg'itib, azob va qo'rquv doirasini bo'rttirib yuborishi va shu orqali nutqdagi manipulyatsiyaga erishishini aytib o'tadilar [10]. Zero, Van Deykning diskurs va manipulyatsiya aloqalariga bag'ishlangan ishida ham tinglovchining qisqa muddatli xotirasi xabarni tinglash yoki o'qish paytida, avvalambor, jumalalar, gaplar va matnlarning ma'nosini tushunish va interpretatsiya qilish bilan shug'ullanishi, va shu o'rinda, muayyan fikrlarning qayta-qayta takrorlanishi orqali (Trampning vaziyatida bu bir xil domenlarga doimiy havolasi) metaforalarda yuborilayotgan fikr va xabarni markaziy deb qabul qilinishiga sabab bo'lishini tushuntiradi. Shunday qilib, agar odamlar "Muhojirlar hayvonlar" modelini ko'p marta eshittalar, ular bu mafkuraviy modelni ongida qurishlari mumkin [11]. Bu konseptual metafora orqali Tramp demokratlar ilgari surgan mafkurani ommaga singdirishga erishishi osonlashadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Deyarli har bir saylovoldi tashviqoti nomzodlarning ommaviy chiqishlari bilan ajralib turadi, unda nomzodlar o'z rejalarini hamda mamlakat kelajagi haqidagi tasavvurlarini bayon qiladilar va tinglovchilarni o'zlari uchun ovoz berishga undashga harakat qiladilar. Nomzodlar beradigan birinchi muhim nutq – bu ularning qabul nutqidir (Acceptance Speech). Bu nutq juda muhim, chunki u nomzodning qanchalik raqobatbardosh ekanligi yoki opponent tomon raqiblardan farqli o'laroq nima yaxshi narsani taklif qila olishini aniqlaydi. Keyingi muhim nutqlar – g'alaba nutqi va inaugratsiya nutqi. Umuman olganda, bular imidj yaratish va ishonitirishning asosiy nuqtalari bo'lib hisoblanganligi sababli

bizning ushbu paragrafimizda Barak Obamaning uchta nutqida konseptual metafora analizi berilgan.

**Tahlil va natijalar.** ARGUMENT tushunchasi va ARGUMENT IS WAR konseptual metaforasi kontseptsiya uchun kundalik faoliyatni tuzish nimani anglatishini tushunish uchun tasvirlanishi mumkin. ARGUMENT IS WAR konseptual metaforasi kundalik tilda keng aks ettirilgan:

- His criticisms were right on target.
- One can never won an argument with him.
- If you use that strategy, he'll wipe you out.
- He shot down all of my arguments.

Yuqoridagi misollarda keltirilgan gaplarda, bahs qilish (arguing) holatlarini ifodalovchi gaplar keltirilgan. Ularning barisi ham argumentlar haqida emas. Ammo, bahslashishda amalga oshiradigan aksariyat narsalar urush konsepti orqali tizimlashtirilgan ya'ni biz qarshi tarafni opponent (dushman) sifatida kurishimiz yoki xuddi urushdagi kabi argumentni yutishimiz yoki mag'lub bo'lishimiz mumkin.

Kövesces konseptual metaforalarni kognitiv tilshunoslik nuqtai-nazaridan tahlil qilib, konseptual metafora ikkita konseptual domeyndan iborat bo'lishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bir konseptual domeyn ikkinchi konseptual domeyn orqali tushuniladi [6].

Jadval 1

POLITICS IS WAR (Siyosat bu urush)		
siyosatchilar jangchilar	siyosatchilar xizmatchilar	boshqa xalqlar dushmanlar

#### POLITICS IS WAR

Our nation is at war, against far reaching network of violence and hatred. As for our common defense, we reject as false the choice between our safety and our ideals. Our Founding Fathers, faced with perils we can scarcely imagine, drafted a charter to assure the rule of law and the rights of man, a charter expanded by the blood of generations.

Guided by these principles once more, we can meet those new threats that demand even greater effort - even greater cooperation and understanding between nations. We will begin to responsibly leave Iraq to its people, and forge a hard-earned peace in Afghanistan. With old friends and former foes, we'll work tirelessly to lessen the nuclear threat, and roll back the specter of a warming planet. We will not apologize for our way of life, nor will we waver in its defense, and for those who seek to advance their aims by inducing terror and slaughtering innocents, we say to you now that our spirit is stronger and cannot be broken; you cannot outlast us, and we will defeat you [12].

The capital was abandoned. The enemy was advancing. The snow was stained with blood [12].

blood), strategik shahar-poytaxtning tark etilishi (capital was abandoned) kabi tushunchalar bilan siyosat konsepti ochib berilgan.

To my campaign manager David Plouffe, my chief strategist David Axelrod, and the best campaign team ever assembled in the history of politics - you made this happen, and I am forever grateful for what you've sacrificed to get it done [13].

Obamaning G'alaba nutqidan olingan parchada campaign, chief strategist, best campaign team, sacrificed kabi so'zlar orqali saylov jarayonini urush konsepti orqali ifodalashini kuzatish mumkin. Ma'lumki, kampaniya - bu odatda urushning ma'lum vaqt va makoniga bog'liq bo'lgan va urushda yagona, aniq, strategik maqsad yoki natijaga erishishga qaratilgan bir qator operatsiyalarni o'z ichiga olgan bosqichidir. Obama ham o'zining saylovdagi targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirgan kampaniya jamoasiga, uni boshqargan bosh strategiyachisiga maqsadga erishish uchun ular tomonidan qilingan qurbonliklar uchun minnatdorlik bildirgan. Zero, urush qurbonlarsiz bo'lmaydi.

This is your victory. I know you didn't do this just to win an election.... For even as we celebrate tonight, we know the challenges that tomorrow will bring are the greatest of our lifetime - two wars, a planet in peril, the worst financial crisis in a century [13].

Urushda ulkan g'alabaga erishilganda u keng nishonlanadi. Ammo, ushbu g'alaba tantanalarida hali oshib o'tilishi kerak bo'lgan qiyinchiliklar, yakunlanishi kerak bo'lgan kichik janglar mavjud. Anshu tushunchalar Obamaning G'alaba nutqidan keltirilgan yuqoridagi parchada o'z aksini topgan.

Urushda asosiy mas'uliyat jangchilar bo'lib, siyosat konsepti urush konsepti bilan tushunilganda, o'z-o'zidan siyosatchilar jangchilar, qahramonlar, xizmatchilar konseptlari bilan ifodalanadi.

Ilmiy izlanishlarida Donald Trampning uchta eng muhim nutqlarini tahlilga tortgan Onisko Pilarchuk siyosiy nutq va unda konseptual metaforalarning roli haqida quyidagi fikrlarni ifodalaydi: "Nomzodlar o'z rejalari, kelajakka oid tasavvurlarini taqdim etuvchi va tinglovchilarni o'zlari uchun ovoz berishga undashga harakat qiladigan ommaviy chiqishlar har bir saylov kampaniyasida ustunlik qiladi. Siyosiy nutqlarda uchraydigan metafora murakkab tushunchalarni jismoniy tajriba va jismoniy hislar orqali tushuntirib, insonning tushunishini osonlashtiradi. Siyosiy nutqlardagi metaforalar tinglovchilarni tushunishga yordam beradi" [10].

Shuni ta'kidlash joizki, Barak Obamaning biz tahlilga tortgan uchala nutqida ham "POLITICS IS WAR" (SIYOSAT BU URUSH), "POLITICS IS A JOURNEY" (SIYOSAT BU SAYOHAT) konseptual metaforalari ishlatilish ko'lamiga ko'ra dominantlik qilishadi. "SIYOSAT BU URUSH" konsepti ostida "SIYOSATCHILAR JANGCHILAR" (POLITICIANS ARE WARRIORS) "SIYOSATCHILAR XIZMATCHILAR" (POLITICIANS ARE SERVANTS), sub kategoriyalari ham tez-tez takrorlanadi. Quyida nutqda uchragan konseptual metaforalar hamda ularga misol bo'lgan metaforik lingvistik ifodalarni keltiramiz.

#### POLITICIANS ARE WARRIORS

He fought long and hard in this campaign, and he's fought even longer and harder for the country he loves. He has endured sacrifices for America that most of us cannot begin to imagine, and we are better off for the service rendered by this brave and selfless leader [13].

Urushda jangchi kurashadi, maqsadga erishish uchun uzoq va jon-jahdi bilan qattiq kurashadi. Jangchi o'zi himoya qilayotgan davlati uchun kurashadi, vatani (Amerika) uchun qurbonliklarga bardosh beradi. Jasur va fidoyi jangchining xizmatlari minnatdorlik bilan qaytarilishi kerak. Obama senator Makkeynga (saylovdagi raqibi) o'z tashakkurini izhor qilarkan, jangchi konseptida mavjud ushbu tushunchalarni siyosatchi konseptini anglashilishida qo'llagan.

#### POLITICIANS ARE SERVANTS

And those of us who manage the public's dollars will be held to account - to spend wisely, reform bad habits...[13]

Xizmatchining asosiy vazifasi xo'jayinning xo'jaligini yuritish, unga halol xizmat qilish, yomon odatlaridan forig' bo'lib, xo'jayinga ma'qul xususiyatlarga ega bo'lishdan iborat. Xizmatchi konsepti bilan ifodalangan siyosatchi ham xalqning xo'jaligini (soliqlari, tushumlari, puli) yuritishi, pulini aqlan va vijdonan sarflashi va xalq manfaatlari va rivoji uchun o'zini isloh qilishi kerak.

POLITICS IS A JOURNEY. The road ahead will be long. Our climb will be steep. We may not get there in one year or even one term, but America - I have never been more hopeful than I am tonight that we will get there. I promise you - we as a people will get there.[13]

Sayohat freymiga nazar solsak, u yo'l, yetib borish ko'zlangan manzil, sayohatchi kabi komponentlardan iboratdir. Sayohat konsepti esa yo'l, uning uzun yoki qisqaligi, mashaqqatli yoki osonligi, manzilga yetish ma'lum vaqtni olishligi, eng asosiysi esa uni muvaffaqiyatli yakunlash ya'ni yo'l qiyinchiliklariga dosh berib ko'zlangan manzilga yetib olish tushunchalari bilan izohlanadi. Siyosat ham xuddi shunday manfaatli maqsadlarga erishish uchun mashaqqatli davr va siyosiy jarayonni bosib o'tishi kerakligi bilan 'sayohat' tushunchasiga bog'lanadi.

What began twenty-one months ago in the depths of winter must not end on this autumn night... And that cannot happen if we go back to the way things were.

"SIYOSAT BU SAYOHAT" konseptual metaforasi odatda "MAQSADLI HARAKAT BU SAYOHAT" (PURPOSEFUL ACTION IS A JOURNEY), "OLDINGA HARAKATLANISH BU MAQSADGA ERISHISHGA QARATILGN HARAKAT" (MOVING FORWARD IS AN ACTION TOWARDS ACCOMPLISHIN A GOAL) hamda "ORTGA HARAKATLANISH BU QARAMA-QARSHI HARAKAT" (MOVING BACKWARD IS COUNTERACTING) kabi sub-freymilar bilan kelishi yuqoridagi misolda ham kuzatiladi.

#### POLITICS IS A SEA VOYAGE

America. In the face of our common dangers, in this winter of our hardship, let us remember these timeless words. With hope and virtue, let us brave once more the icy currents, and endure what storms may come. Let it be said by our children's children that when we were tested we refused to let this journey end, that we did not turn back nor did we falter; and with eyes fixed on the horizon and God's grace upon us, we carried forth that great gift of freedom and delivered it safely to future generations [12].

Vaqt va makon tushunchalari sayohatga xos narsalar hisoblanadi. Ma'lumki, qishda amalga oshirilgan dengiz sayohati muzli to'liqin-u oqimlar, sovuq bo'ronlar kabi qiyinchiliklarga (the icy currents, and endure what storms may come) to'la bo'ladi. Bu qiyinchiliklarga bardosh berib sayohatni yakunlash har kimga ham emas, balki ishonchi mustahkam bo'lgan dengizchilargina ikkilanishmaydi, ortga qaytishmaydi va ufqqa termulgan ko'zlar bilan (eyes fixed on the horizon) kelajakka, nurga ishonib olg'a suzishadi. Xuddi shu parchaning so'ngida MOVEMENT FORWARD IS AN ACTION TOWARDS ACCOMPLISHING A GOAL sub-freymini kuzatishimiz mumkin. Zero, "did not turn back nor falter, with eyes fixed on the horizon carried forth, gift of freedom, delivered it safely" ifodalari orqali, dengizchilarning asosiy missiyasi bo'lgan yuklarni bir manzildan boshqasiga, bir insondan ikkinchisiga, talofatsiz yetkazish berish vazifasi tasvirlangan.

#### COUNTRY IS A PERSON

Siyosiy nutqlarda davlatni inson konsepti orqali tinglovchiga yetkazish an'ana hisoblanib, u yetkazilayotgan ideologiyaning tinglovchiga ta'sirini oshiradi. Obamaning nutqlari ham bundan mustasno emas.

For they have forgotten what this country has already done:(IS)

In the year of America's birth,..(IS)  
NATION IS A PERSON  
Starting today, we must pick ourselves up, dust ourselves off,  
and begin again the work of remaking America. (IS)

They saw America as bigger...(IS)

ECONOMY IS PERSON

Our economy is badly weakened,

The state of the economy calls for action,

COUNTRY IS A BUILDING

And above all, I will ask you join in the work of remaking this nation the only way it's been done in America for two-hundred and twenty-one years – block by block, brick by brick, calloused hand by calloused hand. (VS)

It was built by working men and women who...(VS)

**Xulosa.** Saylovoldi siyosiy nutqlari siyosiy diskursning muhim turi hisoblanadi. Nomzodlar tegishli til va iboralarni qo'llash orqali tinglovchilarni o'zlarini uchun ovoz berishga va ularning xalq uchun to'g'ri tanlov ekanligiga ishonitirishga erishishlari mumkin. Yuqorida keltirilgan tahlillardan ko'rinadiki, saylovoldi nutqlarida metaforalarni qo'llash saylovchilarning e'tiborini qaratish va siyosatchilarni o'zlarini potensial nomzod sifatida ko'rsatishlariga yordam beradi va bu o'z navbatida, qimmatli ovoz yig'ish imkonini yaratadi. Prezidentlikka nomzodlar metaforik lingvistik ifodalar yordamida saylovchilarni ovoz berishga safarbar qilishlari, raqiblariga nozik hujumlar uyushtirishlari, amaldagi hukumat va prezidentni baholash va tanqid qilishda turli obrazli vositalardan foydalanishlari ko'rinib turadi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda Barak Obama sayohat, obyekt, inson, urush, harakat metaforalaridan unumli foydalangan.

#### ADABIYOTLAR

1. Baxadirovna, D. Z., & Komilovna, I. M. (2023). Notikliq publitsistik uslubning tarkibiy qismi sifatida. "GERMANY" modern scientific research: achievements, innovations and development prospects, 9(1).
2. Beard, A. The language in politics. 2000. London: Routledge.P:19
3. Black Ch., Britain as a container: imagination metaphors in the 2005 election campaign. 2006. P: 567
4. Burkholder, T. R.; Henry, D. Criticism of metaphor. Kuypers, J.A. (ed.): Rhetorical criticism: Perspectives in action. Lanham: Lexington Books. 2009. pp. 98
5. Djalilova, Z. B., & Ibotova, M. K. (2023, May). LINGUISTIC FEATURES OF POLITICAL DISCOURSE. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 118-120).
6. Kövecses, Z. Metaphor: A practical introduction. 2010. New York: Oxford University Press. P-4
7. Lakoff, G.; Johnson, M. Metaphor we live by. 1981. Chicago: The University Press of Chicago. P:3
8. Meriam-Webster (2020): Metaphor, <<http://www.merriamwebster.com/dictionary/metaphor>>
9. Mio, Jeffery S. "Metaphor and politics". Metaphor and Symbol. 1997. 12 (2): 113-133.
10. Pilyarchuk, K.; Onysko, A. (2018): Conceptual Metaphors in Donald Trump's Political Speeches: Framing his Topics and (Self) Constructing his Persona. In: Colloquium: New Philologies. Vol. 3, No. 2.
11. Van Dijk, Teun, A. Discourse and manipulation. Discourse & Society. 2006. 17 (3): 359-383.
12. <http://obamaspeeches.com/P-Obama-Inaugural-Speech-Inauguration.htm>
13. <http://obamaspeeches.com/E11-Barack-Obama-Election-Night-Victory-Speech-Grant-Park-Illinois-November-4-2008.htm>





Umida DUSHAYEVA,  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti v.b dotsenti, PhD  
E-mail:umidadushayeva@gmail.com

GulDPI dotsenti, PhD X.Mamatova taqrizi asosida

### THE USE OF SENTENCES LIKE “VERB” IN COMPARATIVE PHRASEOLOGY AND THE EXPRESSION OF SEMANTIC SUBJECTS IN THEM

Аннотация

In recent years, interest among linguists in studying the problems of valence properties of linguistic units and the peculiarities of their functioning in speech has increased significantly. There is no doubt about the need for a thorough analysis of the contexts of use of the units being studied, as well as the “characteristic form” of the combination of meanings of a given language, as well as the relevance of studying the norms of using the language system depending on situations and contexts. We can also say that the rule for combining the meanings of words in texts is subordinated, first of all, to the logic of relations between objects and events of the external world, a certain class of objects of designation, realities, and categories of reality. The range of possible meanings of phrases is very wide in any language, but linguistic traditions and selection facts that exist in the diachrony of a language seriously limit the range of possible semantic pairs and significantly narrow the possibilities of combining certain linguistic units.

**Key words:** Denotation, adjective, comparative, relevant, semantic component, opposition.

### УПОТРЕБЛЕНИЕ ПРЕДЛОЖЕНИЙ ТИПА «ГЛАГОЛЬ» В СРАВНИТЕЛЬНОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ И ВЫРАЖЕНИЕ В НИХ СЕМАНТИЧЕСКИХ СУБЪЕКТОВ.

Аннотация

В последние годы среди лингвистов значительно возрос интерес к изучению проблем валентных свойств языковых единиц и особенностей их функционирования в речи. Не вызывает сомнения необходимость тщательного анализа контекстов употребления изучаемых единиц, а также «характерной формы» сочетания значений данного языка, а также актуальность изучения норм применения языковой системы в зависимости от по ситуациям и контекстам. Можно также сказать, что правило сочетания значений слов в текстах подчинено прежде всего логике отношений предметов и событий внешнего мира, определенного класса объектов обозначения, реалий, категорий действительности. Диапазон возможных значений словосочетаний очень широк в любом языке, но языковые традиции, факты отбора, существующие в диахронии языка, серьезно ограничивают круг возможных смысловых пар и существенно сужают возможности сочетания тех или иных языковых единиц.

**Ключевые слова:** Денотат, адъективное, компаратив, релевантный, смысловый компонент, оппозиция.

### KOMPARATIV FRAZEOLIGIZMLARDA “FE‘LLI” TIPDAGI GAPLARNING QO‘LLANISHI VA ULARDA SEMANTIK SUBYEKTLARNING IFODALANISHI

Аннотация

Keyingi yillarda tilshunoslar orasida til birliklarining valentlilik xossalari va ularning nutqda ishlashining o‘ziga xos xususiyatlari muammolarini o‘rganishga qiziqish sezilarli darajada ortdi. Tadqiq qilinayotgan birliklarning qo‘llanilish kontekstlarini sinchiklab tahlil qilish zaruriyati, shuningdek, ushbu tilning ma‘nolarini birga qo‘shila olishining “xarakterli shakli” hamda til tizimining vaziyatlarga va kontekstlarga qarab qo‘llash normalarini o‘rganishning dolzarbligi bunga shubha uyg‘otmaydi. Yana shuni aytish mumkinki, so‘zlar ma‘nolarining matnlarda birga qo‘shila olish qoidasi, eng avvalo, tashqi olam predmetlarining va hodisalarining munosabatlari mantig‘iga, denotat obyektlarining ma‘lum sinfiga, realiyalarga, voqelik kategoriyalariga bo‘ysunadi. So‘z birikmalarining bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma‘nolarining qatori har qanday tilda juda keng, ammo, til an‘analari, tilning diaxroniyada mavjud bo‘lgan tanlash faktlari ehtimolga yaqin semantik juftliklarning doirasini jiddiy ravishda cheklaydi va u yoki bu til birligining birga qo‘shila olish imkoniyatlarini sezilarli darajada toraytiradi.

**Kalit so‘zlar:** Denotat, adyektiv, komparativ, relevant, semantik komponent, oppozitsiya.

**Kirish.** Bugungi kun tilshunosligida antroposentrik paradigmaning keng tadqiq qilinishi o‘xshatishlarni ham lingvokulturologik va kognitiv jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan yangi ilmiy ishlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. D.Xudoyberganovanning “Matnning antroposentrik tadqiqi” monografiyasi zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik paradigma doirasida shakllangan asosiy yo‘nalishlar – kognitiv lingvistika, psixolingvistika va lingvokulturologiya yo‘nalishlarini o‘zida tutashira olgan dastlabki yirik tadqiqot hisoblanadi. [Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – T.: Fan, 2013. – B. 99.] Olima monografiyaning IV bobida o‘xshatishlar haqida fikr yuritib, o‘xshatish uchun etalon sifatida tanlangan so‘zlar ham o‘zbek tilining lingvokulturologik xususiyatlarini ko‘rsatuvchi til birligi ekanligini misollar bilan dalillaydi. Darhaqiqat, o‘xshatishlar – har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo‘lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga ko‘ra taqqoslash, qiyoslashdir.[ Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – T.: 2019. – B.102.] Zero, tilimizning leksik, semantik, lingvokulturologik tabiatini hamda boy ifoda imkoniyatlarini tadqiq etishda o‘xshatishlarning o‘rni beqiyosdir va o‘xshatishlarning kognitiv jihatlarini o‘rganish tilshunosligimizdagi galdagi vazifalardan hisoblanadi.

K.A.Sokolovanning maqolasida ispan tilida “Qizil” komponent rangi bilan kelgan komparativ frazeologik konstruksiyalar

g‘arb tillari (fransuz va italyan) doirasidagi chog‘ishtirma tadqiqot olib borilgan. Ushbu tadqiqotga material sifatida badiiy matnlardagi leksikografik va internet manbalar olingan. Tahlil uchun ranglarni ifodalovchi turli yo‘nalishdagi matnlar qo‘llanilgan. Tadqiqotni olib borishda muallif shunday xulosaga keladiki, qizil rangni ifodalovchi tadqiqot obyekti uchta til uchun o‘ta keng qamrovli va variativlik xususiyatga ega. Ispan tilida qizil rangni belgilovchi 19 ta etalon-obyekti mavjudligi aniqlangan: rojo como: el tomate – pomidor, la amapola – mak, el sol – quyosh va boshq. Aytish joizki, K.A.Sokolova o‘z maqolasida qiyoslash uchun namuna sifatida, hayvonlar leksikasi, o‘simlik dunyosi va real olamni olgan. U ispan va rus tillarida quyidagi komparativ frazeologik birliklarni misol sifatida tahlilga tortgan: Nos maravillaba encontrar algun cangrejo de color rojo como el coral, tan escasos como son los albinos entre los humanos (<http://corpus.rae.es/creaenet.html> Delibes de Castro). – Мы удивлялись, когда находили какого-нибудь краба, красного, как коралл, ведь они такие же редкие, как альбиносы среди людей. [Соколова К.А. Устойчивые компаративные конструкции с цветовым компонентом “красный” в испанском языке (на фоне других романских языков). Ассистент кафедры романской филологии филологического факультета Санкт Петербургского государственного университета (СПбГУ); email:

sokol.www@mail.ru. –Вестник МГЛУ. Выпуск 24 (710) / 2014. – С. 283-290.]

Ispan tilidagi komparativ frazeologizmi tasniflashning asosiy prinsiplari boshqa frazeologik birliklarni kabidir – ularning semantikasi va strukturasi, ishlashi, pragmatikasi komparativ frazeologik tizimining qismi hisoblanadi hamda uning birliklari bu tizimning birliklari bilan umumiy jihatlarga egadir. Biroq, komparativ frazeologik birlikning strukturasi va semantikasi frazeologik birliklarning boshqa razryadlari orasidan ajratishga imkon beradigan o'ziga xos farq qiluvchi xususiyatlari mavjud. [Казанчева А.Ф. Компаративные фразеологические единицы (КФЕ) испанского и русского языков с сакральными именами. Пятигорский государственный лингвистический университет. – Россия. Руннаука, 2012.] A.F.Kazancheva olamning lisoniy manzarasida ispan va rus tillarida taqqoslashni davom ettirib, bir qator sinonimlarda u yoki bu nominatsiyani tanlashda tilning nozik tomonlarini ko'rmaslik mumkin emas, deb ta'kidlaydi. Masalan, burro kabi hayvon uzoq vaqt davomida shikoyat qilmasdan ishlash qobiliyati, moyilligi bilan bog'liq: trabajar como un burro – eshshakdek ishlamoq. Ammo KFBni tahlil qila turib, A.F.Kazancheva bir-biriga zid ma'noni ifodalovchi muqaddas nomlar uchrashini ta'kidlaydi: saber como el Ave María (so'zma-so'z, Ave-Mariyadek bilmok) – suvday bilmok, besh qo'ldak bilmok. Rossiya'dagi xristian dini boshqa variantni beradi – знать как отче наш. Rus madaniyati muqaddas Iso Masihni ta'kidlaydi – xudodek muqaddas, Ispan madaniyati esa, tahqirlangan nomus – poner a uno como un Cristo – so'kmoq, haqorat qilmoq; qattiq urmoq, sog' joyini qoldirmasdan savalamok

Muqaddas nomlar ispan frazeologiyasida, xususan, qiyosiy jihatdan juda keng tarqalgan. Dryu Loneyning ta'kidlashicha, Ispaniya diniy mamlakat emas. “Ha, ular katoliklar, lekin ular aqidaparastlar emas, avliyolar kunlarini hisobga olmaganda, ular butparastlik hurmati bilan nishonlanadi” – “Да, они - католики, но они не фанатики, если не считать дней святых, отмечаемых с языческими почестями”.

N.N.Repnikovaning tadqiqotida, ba'zan biri-birini inkor qiladigan, struktur va semantik mezon birga qo'shilgan. Misol uchun, KFB fe'llilar kichik sinfiga joylashtirilgan, vaholanki, ular ham substantiv, ham adyektiv bo'lishlari mumkin. Mazkur muallif o'z maqolasida [https://www.studmed.ru.] rang nomlarini bildiruvchi black, white, red sifatlari komponentlari bilan frazeologik birliklarning semantik diapazonini tasvirlab bergan. Shuningdek, ushbu maqolada asosiy e'tibor ingliz tilida otlashgan, sifatlashgan va fe'llashgan frazeologik birliklarning semantik xususiyatlariga qaratilgan.

T.V.Shmeleva adyektiv KFBni qiyoslash etalonining milliy-madaniy o'ziga xosligi prizmasi orqali tasniflaydi. [ Шмелов Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики. Изд. 3-е. – М.: Изд-во ЛКИ, 2008. – 278 с. – С. 21] O'z oldiga ingliz tilining sohiblarida bunday etalonlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadini qo'yib, u (as)+adj+as+noun tipidagi turg'un o'xshatishlarni rus tilining adyektiv turg'un o'xshatishlari bilan qiyoslagan holda funksional nuqtai nazardan tahlil qildi. U 7 ta funksional guruhlarni ajratib ko'rsatgan:

- 1) insonning jismoniy xarakteristikasini bildiruvchi o'xshatishlar;
- 2) predmetlarning fizik xarakteristikasini aks ettiruvchi o'xshatishlar;
- 3) odamlarning xarakterini va ularning aqliy qobiliyatining jihatlarini aks ettiruvchi o'xshatishlar;
- 4) odamlarning ruhiy holatini, kayfiyatini xarakterlovchi o'xshatishlar;
- 5) rang, tus, nurning intensivligini bildiruvchi o'xshatishlar;
- 6) moddalarning ta'mga oid xarakteristikalarini aks ettiruvchi o'xshatishlar;
- 7) predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi o'xshatishlar. [ Шмелов Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики. Изд. 3-е. – М.: Изд-во ЛКИ, 2008. – 278 с. – С. 21.]

“Fe'lli” tipdagi komparativ frazeologizmlarda subyektlar va komparativlar o'rtasidagi semantik bog'liqlik “adyektiv” o'xshatishlarga qaraganda unchalik shaffof va aniq emas, garchi bu yerda ham, xuddi “adyektivlarda” bo'lgani kabi, fe'llning semantikasi subyektning tipini oldindan belgilab qo'yishi mumkin. Ikkinchi tipdagi qiyoslash gaplarida subyekt o'xshatish orqali xarakterlanadigan harakat yoki holatning egasi hisoblanadi. Biroq, bu yerda ham subyektning tipiga qarab komparativlarni tanlashga ma'lum cheklorlar mavjuddek tuyuladi, komparativlar bunday

birliklarda tanlash xususiyatini namoyon qiladilar va doim ham sinonimik komparativ birliklarda bir-birini o'rinni egallay olmaydilar.

Ikkinchi tipdagi komparativ birliklarni birga qo'shish mumkinligini, shuningdek, harakatlar va ishlarning bajarilish tezligini xarakterlovchi birliklarning materiali asosida ko'rib chiqamiz. Matn tahlili ushbu komparativ frazeologizmlarning semantik kichik guruhi uchun eng ko'p qo'llanadigan quyidagi obrazlarini aniqlash imkonini berdi, otlar ularning matnlarda qo'llanilish chastotaligi bilan joylashtirilgan. : rayo, relámpago, flecha, alma que lleva el diablo torbellino, tromba, centella, cohete, bala, viento, huracan, ardilla, espuma, bólido, ráfaga, meteoro, anguila, etc.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha komparativ birliklar “tez” umumiy semantik componentini o'z ichiga oladi.

Rayo oti o'zining komparativ birliklarda qo'llanilishining tez-tez takrorlanishi bilan birinchi o'rinni egallaydi. Ta'kidlash joizki, ushbu obraz uchun jonlilik – jonsizlik (N – Ñ) semantik oppozitsiyasiga bog'liq qiyoslash gaplarining semantik tabaqalashuvi relevant emas, ko'pincha u inson harakatining tezligini xarakterlash uchun xizmat qiladi, masalan: [ Испанско-русский фразеологический словарь. Левинтова Э., Вольф М., Мовшович М., Будницкая А., –Москва: “Русский язык”, 1985.]

- Coge el flash y vamonos como el rayo. Los detalles los discutiremos luego (Loren. Baile, 242).

Rayo komparativ jonsiz predmetlarni, xususan, idea, sospecha tipidagi mavhum tushunchalarni xarakterlash uchun ancha kam ishlatiladi:

Sentía una profunda alegría; me paso como un rayo por la imaginación la idea de salir (Cela. Familia, 130).

Relámpago. – Ushbu komparativ qiyoslash gapining jonlilik – jonsizlik oppozitsiyasi bo'yicha subyekt pozitsiyasidagi birga qo'shib ishlatish mumkinligiga cheklorlar qo'ymaydi. Bu yerda ham jonli, ham jonsiz otlar bo'lishi mumkin. Mazkur komparativ birliklar qiyoslash gaplarida aniq predmetlarning, g'ayriixtiyoriy harakatlar sohiblarining – subyektlarning bo'lishi ehtimoli katta emasligi kuzatildi. Qarab chiqilgan misollarda, jonsiz otlar orasida foiz jihatdan mavhum tushunchalar: sonrisa, visión, aliento, momento va h.k. ustunlik qiladi. Masalan:

Por los ojos de Iluminada paso, como un relámpago, una visión atormentadora (Lera. Boda, 84).

Flecha. – Bu obraz inson va boshqa jonli mavjudotlar (qushlar va hayvonlar)ning harakatlari tezligini xarakterlashi mumkin.

Ushbu qiyoslash gaplarining subyekt pozitsiyasida jonsiz otlar, xususan, aniq predmetlar ishlatilishi mumkin.

...la barca, después de algunos cabeceos, partió como una flecha, arrastrada por la corriente (Blasco Ibanez. Naranjos, 94).

Alma que lleva el diablo. – Murakkab sintaktik birlikdan iborat bo'lgan bu komparativ birlik hozirgi ispan mualliflarining asarlarida keng qo'llaniladi.

- Eh..., venga usted aquí, granuja, bocón, embustero... ¡Va como alma que lleva el diablo! (Arniches. Seniorita, 189).

Torbellino. – Qoidaga ko'ra jonli otlar bilan ishlatiladi.

Subyekt pozitsiyasida jonsiz predmetlar ham bo'lishi mumkin; bizning misolimizda bular mavhum otlardir.

Estos pensamientos, que sentía Ana volar por su cerebro como un torbellino, sin poder contenerlos (Alas. Regenta, 339).

Tromba. – Ushbu komparativ qiyoslash gaplarining subyektlariga nisbatan tanlash xususiyatini namoyon qiladi. Ularda shaxssiz subyektlarning paydo bo'lishi mumkin emas. Yana qayd qilish kerakki, ko'plab bir-biriga semantik yaqin fe'llar bilan komparativlar ishlatiladigan birliklardan farqli ravishda, yuqorida nomi qayd qilingan obraz faqat entrar fe'li hamrohligida uchraydi. Bizda mavjud bo'lgan 9 ta misollarning bittasida tromba komparativi bilan faqat bir marta salir fe'li bilan uchraydi. Tromba komparativining entrar va salir fe'llari bilan tor leksik birga qo'llana olishi, aniqrog'i, ushbu otda “bir lahzalik” semasining mavjudligi bilan izohlanadi, masalan:

Cruzó velozmente la plaza y entró como una tromba en la redacción (Loren. Baile, 277).

Centella. – Asosan, yeldek uchib borayotgan kishini xarakterlash uchun ishlatiladi.

- ¿Pero ha visto usted al señor cura? ¡Va como una centella, calle arriba! - decía una (Arconada. Río Tajo, 67).

Ardilia, cohete va bala obrazlari asosan jonli otlarni xarakterlaydi biroq, bala, centella va cohete komparativlari jonli otlar bilan ham ishlatilishi mumkin:

Y sin perder un ápice de su dignidad, de su gravedad ni de su gracia, subió como una ardilla al travesaño más alto... (Alas. Regenta, 281).

Espuma. – Ushbu ot ham jonli, ham jonsiz subyektlarni obrazli xarakterlash uchun xizmat qiladi.

...ahorillos que iban creciendo como la espuma (Valera-1, 534).

... cada vez que ve a un tipo de estos que suben como la espuma (Delibes. Cinco, 179).

Yuqoridagi ikki misolda crecer va subir fe'llarining ko'chma ma'nolari qo'llaniladi. So'z ko'payib borayotgan pul mablag'lari (javg'armalar) va xizmat lavozimida tez ildamlovchi, muvaffaqiyat qozonayotgan odamlar haqida bormoqda. Ko'rsatilgan komparativ 8-jadval.

N	N Ñ
Alma que lleva el diablo tromba ardilla	Rayo relámpago flecha torbellino

Jonlilik – jonsizlik kategoriyasiga ega bo'lgan komparativlarni boshqa semantik oppozitsiya – aniqlik – mavhumlik (C-Ĉ) oppozitsiyasi bo'yicha ajratish mumkin. (Qabul qilingan 9-jadval.

frazеологизмлар кичик тизимining barcha komparativlarining birga qo'shib ishlatish mumkinligi imkoniyatlarni tasvirlab berish tadqiqotimiz maqsadiga kirmaydi, shu sababli biz faqat ularning ayrimlarini, eng tez-tez uchraydiganlarini ko'rib chiqish bilangina chegaralandik.

Yuqorida aytilgan, barcha ikkinchi tipdagi qiyoslash gaplarida harakatning tezligini xarakterlovchi jonlilik – jonsizlik semantik oppozitsiyasi – N – Ñ ning mavjudligini sxema tarzida quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

qisqartmalar: C – aniq predmetlarni bildiruvchi otlar, Ĉ – mavhum tushunchalarni ifodalovchi otlar)

C	C Ĉ	Ĉ
Fleche	Relámpago rayo	Torbellino

Shunday qilib, yuqorida ko'rib chiqilgan faktik material shundan dalolat beradiki, komparativlar va ikkinchi tipdagi qiyoslash gaplari subyektlari (subyekt – fe'l – komparativ) o'rtasidagi semantik aloqalarning vositali ravishda namoyon bo'lgan xarakterli jihati, ular

orasida semantik korrelyatsiyalar mavjudligi; qiyoslash gaplaridagi bu komparativlar subyektlarga nisbatan tanlash xususiyatini namoyon qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Испанско-русский фразеологический словарь. Левинтова Э., Вольф М., Мовшович М., Будницкая А., –Москва: “Русский язык”, 1985.
2. Aldea Valdes A.P. La aldea perdida. Madrid. 217
3. Baile Loren S. El baile de pan. Barcelona. 2003
4. Cela C.J. Obra completa. T.4. Barcelona. 2021
5. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – T.: Fan, 2013. – B. 99.
6. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – T.: 2019. – B.102.
7. Соколова К.А. Устойчивые компаративные конструкции с цветовым компонентом “красный” в испанском языке (на фоне других романских языков). Ассистент кафедры романской филологии филологического факультета Санкт Петербургского государственного университета (СПбГУ); email: sokol.www@mail.ru. –Вестник МГЛУ. Выпуск 24 (710) / 2014. – С. 283-290.
8. Лоней Дрю. Эти странные испанцы. –Серия «Внимание: иностранцы!» – М., 1999. – С. 1, 2.
9. Казанчева А.Ф. Компаративные фразеологические единицы (КФЕ) испанского и русского языков с сакральными именам. Пятигорский государственный лингвистический университет, Россия. – Руснаука, 2012.
10. Шмелов Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики. Изд. 3-е. – М.: Изд-во ЛКИ, 2008. – 278 с. – С. 21.
11. Шмелов Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики. Изд. 3-е. – М.: Изд-во ЛКИ, 2008. – 278 с. – С. 21.
12. Казанчева А.Ф. Компаративные фразеологические единицы цветообозначения. Пятигорский государственный лингвистический университет. – Россия. Руснаука, 2012.



**Umidjon YODGOROV,**  
*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi*  
E-mail: [yodgorov@navoiy-uni.uz](mailto:yodgorov@navoiy-uni.uz)

*Filologiya fanlari doktori, professor S.X.Muhamedova taqrizi asosida*

### O'ZBEK TILI KORPUSI ASOSIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR MA'LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek tili korpusida frazeologik birliklar ma'lumotlar bazasini shakllantirish xususida so'z yuritiladi. Lingvistik ma'lumotlar bazasini shakllantirishda ma'lumotlar bazasining maqsadi, unga qo'yilgan talablarni aniqlanish, platformani tanlash, MB strukturasi loyihalash, ma'lumotlarni kiritish, kirish interfeysini ishlab chiqish, MB ishini sinab ko'rish va iteratsiya, hujjatlar va ma'lumotlar bazasini to'ldirib borish bosqichlarini qamrab oladi. Ma'lum bir til korpusida frazeologik ma'lumotlar bazasini shakllantirish esa lingvistik korpusni tanlash, frazeologik birliklarni ajratib olish, qidiruvni avtomatlashtirish amallari bajarilishi talab etiladi.

**Kalit so'zlar:** O'zbek tili korpusi, frazeologik birlik, ma'lumotlar bazasi, platforma.

### СОЗДАНИЕ БАЗЫ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ НА ОСНОВЕ КОРПУСА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье рассматривается процесс формирования базы данных фразеологических единиц в корпусе узбекского языка. Формирование лингвистической базы данных включает определение цели базы данных, установление требований, выбор платформы, проектирование структуры БД, ввод данных, разработку интерфейса для доступа, тестирование работы БД, итерации, а также документирование и пополнение базы данных. Формирование базы данных фразеологических единиц в определённом языковом корпусе требует выбора корпуса, выделения фразеологических единиц и автоматизации поиска.

**Ключевые слова:** Корпус узбекского языка, фразеологическая единица, база данных, платформа.

### CREATION OF A DATABASE OF PHRASEOLOGICAL UNITS BASED ON THE UZBEK LANGUAGE CORPUS

Annotation

This article discusses the formation of a database of phraseological units in the Uzbek language corpus. The formation of a linguistic database includes defining the purpose of the database, setting requirements, selecting a platform, designing the DB structure, inputting data, developing the access interface, testing the database, iterating, documenting, and continuously updating the database. The creation of a database of phraseological units in a specific language corpus requires selecting the corpus, extracting phraseological units, and automating the search processes.

**Key words:** Uzbek language corpus, phraseological unit, database, platform.

Lingvistik ma'lumotlar bazasi so'z, ibora, grammatik shakl, idioma va boshqa lisoniy unsurlarni saqlaydigan ma'lumotlarning tartiblangan to'plamidir. Bunday ma'lumotlar bazalaridan turli maqsadlarda foydalanish mumkin, jumladan:

1. Leksikografiya: lug'at va ma'lumotnomalar yaratish.

2. Tabiiy tilni qayta ishlash: avtomatik tarjima, nutqni aniqlash va matn generatsiyasi bilan bog'liq texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash.

3. Lingvistik tadqiqotlar: til strukturasi, til birliklarining o'zgarishi va qo'llanilishini tahlil qilish.

4. Ta'limga: til o'rganish uchun o'quv materiallari va vositalarini yaratish.

Ma'lumotlar bazasi ma'lum bir maydonlarga ega jadvalardan tuzilishi mumkin, bu yerda har bir til birligining ta'rifi, gap bo'laklari, illyustrativ misollar va boshqa metama'lumotlarni qamrab oladi.

Lingvistik ma'lumotlar (til birliklari)ning ma'lumotlar bazasini yaratish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Bu kabi ma'lumotlar bazasini yaratishning bosqichma-bosqich qadamlarini quyidagicha izohlaymiz:

1. Maqsad va talab belgilanadi. Ma'lumotlar bazasini tuzishdan oldin ma'lumotlar bazasi nima uchun ishlatilishi aniqlanadi:

- MB qaysi til birliklarini (so'z, ibora, grammatik qurilmalar) o'z ichiga olishi belgilab olinadi;

- har bir birlik haqida qanday ma'lumotlar saqlanadi (ta'rif, so'z turkumi, misollar, sinonim, antonim va boshqalar);

- ma'lumotlarni qidirish va filtrlash mezonlari aniqlanadi.

2. Platformani tanlash. Ma'lumotlar bazasini saqlash uchun platforma tanlanadi va belgilanadi:

- relyatsion ma'lumotlar bazalari (masalan, MySQL, PostgreSQL, SQLite).

- NoSQL ma'lumotlar bazalari (masalan, MongoDB).

- kichik loyihalar uchun elektron jadval muharrirlari (masalan, Microsoft Excel, Google Sheets).

3. Ma'lumotlar bazasi strukturasi loyihalash. Ma'lumotlar bazasi uchun jadval strukturasi yaratiladi. Asosiy jadvallar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- til birliklari jadvali: har bir birlik haqidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi;

- izoh(ma'no)lar jadvali: ta'rif, izoh va qo'llanish holatlari misollari tavsiflanadi;

- grammatik belgilar jadvali: so'z turkumi, shaxs, son va boshqalar grammatik belgilar haqida ma'lumot.

4. Ma'lumotlarni kiritish. Ma'lumotlarni yig'ish va jadvallarga kiritish jarayoni qo'lda bajaridishi mumkin yoki skriptlar yordamida avtomatlashtirilishi mumkin (masalan, matn ma'lumotlarini tahlil qilish uchun Python yordamida).

5. Kirish interfeysini ishlab chiqish. Agar ma'lumotlar bazasi boshqa foydalanuvchilar tomonidan foydalanilsa, qulay foydalanish uchun interfeys yaratish maqsadga muvofiq. Bunday interfeysni quyidagi ko'rinishda yaratish mumkin:


- ma'lumotlarni kiritish va izlash shakllariga ega veb-ilova;

- mobil ilova.

6. Sinov va iteratsiya. Ma'lumotlar bazasining maqsadga muvofiq ishlashiga ishonch hosil qilish uchun sinovdan o'tkazish talab etiladi. Foydalanuvchi(lar)ning fikr-mulohazalari asosida xatolar tuzatiladi.

7. Hujjatlar va ma'lumotlar bazasini to'ldirib borish. Ma'lumotlar bazasidan foydalanishda hujjatlar, yangi til birliklari va tuzatishlar qo'shish orqali yangilab turiladi.

8. Yangilash va kengaytirish. Yangi birliklar qo'shish, xatolarni tuzatish va foydalanuvchi ehtiyojlariga ko'ra strukturani yaxshilash orqali ma'lumotlar bazasi muntazam yangilab turiladi.



1-rasm. Bu kabi ma'lumotlar bazasini yaratishning bosqichlari

Yuqorida ko'rsatilgan bosqichlarni bajarish orqali funksional va samarali lingvistik ma'lumotlar bazasini yaratishga erishish mumkin.

Yuqorida lingvistik ma'lumotlar yaratishning umumiy tavsifi keltirildi. Quyida frazeologik ma'lumotlar bazasi haqida fikr yuritimiz.

Frazeologik ma'lumotlar bazasi leksikografik manbalarni boyitish, til o'qitish va lingvistik tadqiqotlar uchun xizmat qiladi. Lingvistik ma'lumotlar bazasining bu ko'rinishini tuzishda ayrim o'ziga xos tomonlarni e'tiborga olish lozim.

1. Ma'lumotlar bazasi tarkibiga qo'yilgan talablar:

1. Frazeologik birliklarning tipi (ibora, maqola, turg'un birlikma)ni aniqlash.

2. Atributlarni aniqlash:

- frazeologizm (ibora);

- izohi;

- tarjimasi (agar ma'lumotlar bazasi boshqa til ma'lumotlarini ham qamrab olsa);

- misollar;

- mavzu doirasi, kategoriyasi: masalan, tabiat, oziq-ovqat va h.;

- qo'llanilish darajasi;


- sinonim va antonimlari (eagar mavjud bo'lsa).

3. Ma'lumotlar bazasi tarkibini loyihalash talab etiladi:

Ma'lumotlar modeli: ma'lumotlar bazasi tuzilishini shakllantirish. Masalan:

- "iboralar" jadvali (ID, frazeologizm, izohi, kategoriyasi)

- "misollar" jadvali (ID, frazeologizm ID, misol)



2-rasm. frazeologik birliklarni aniqlashda quyidagi ER sxemasi

Bu bo'limda turli chastotali frazeologik birliklar ma'lumotlar bazasidan qanday o'rin egallashi, ma'lumotlar bazasining tuzilishi va tarkibi, o'zbek tili frazeologik birliklarining statistikasi masalasini tahlil qilamiz.

```
SELECT dbo. Token.Id, dbo. Token.Value, dbo.
Token.CorrectVersion, dbo.WordToken.
LemmaValue,
dbo.WordToken.LemmaSuffixAffsPart,
dbo.WordToken.StemValue,
dbo.WordToken.StemPrefixAffsPart,
dbo.WordToken.StemSuffixAffsPart,
dbo.WordToken.RootValue
```

```
FROM dbo.Token INNER JOIN
dbo.WordToken ON dbo.Token.Id =
dbo.WordToken.TokenId
WHERE dbo.WordToken like % "ajali yet(moq)"
Masalan, "ajali yetmoq" iborasini topish uchun quyidagi
algoritmida so'rov amalga oshiriladi:
Quyidagi havolani ochish kerak:
https://uznatcorpara.uz/uz/Bigram/Search
```


Ushbu interfeysda 2 ta token ("ajali" va "yet(moq)")ni mos kataklarga kiritish lozim.

"Harf registri inobatga olinsin/olinmasin" qismidan mos elementni tanlash kerak.

Korpus ma'lumotlar bazasidan yuqorida keltirilgan so'z birikmasini mos yozuvlarni "Like" (%) yoki "Regulyar ifoda"lardan foydalanib izlash mumkin.

Zarur izlash parametrlari o'rnatilgach, "Izlash" tugmasini bosish lozim.

Natija quyidagi shaklda hosil qilinadi:



Natijada, “ajali yetmoq” iborasining quyida berilgan grammatik paradigmasi hosil bo’ldi:

ajaling yetgani	ajali yetmagan	ajali yetar
ajali yetgan	ajali yetganda	ajalim yetguncha
ajali yetib	ajalimiz yetganida	ajaling yetmay
ajali yetgudek	ajali yetgani	ajali yetganini
ajalim yetib		
ajali yetmagan		
ajali yetganda		

Ro’yxatdan ko’rinib turganidek, mazkur morfologik shakllar unikal bo’lib, biri birini takrorlamaydi. Hosil qilingan paradigmadagi xato morfologik shakl yoki variant mavjud emas. Bundan ko’rinib turibdiki, morfologik ma’lumotlar bazasiga “ajali yetmoq” iborasining 13 ta morfologik shakli kiritiladi.

Yuqorida keltirilgan algoritim asosida aksiga olmoq, anqoning urug’i, alamidan chiqmoq, aqli kirmoq kabi iboralarning paradigmasi aniqlandi (Qarang: 1-jadval). 1-jadvaldan ko’rish mumkinki, 01.04.2024 holatidagi 51890123 gapdan tashkil topgan korpusda barcha frazeologik birliklarning qo’llanish chastotasi bir xil emas: aksiga olmoq iborasi 2 marta, anqoning urug’i iborasi 5 marta (shundan bittasi iboraning sinonimi bo’lib chiqdi), alamidan chiqmoq 17 marta, aqli kirmoq 23 marta ishlatilgan deb ro’yxat avtomatik shakllandi. Alamidan chiqmoq iborasi qidiruvi natijasidagi ro’yxatda mazkur paradigmadagi daxldor bo’lmagan (xato) frazeologik birliklar ham uchradi. Buni aniqlash uchun har bir ro’yxat qo’lda tekshiriladi. Ro’yxatni tahlil qilish asosida aniqlandiki, <alamli achchiq>

<alamlari chiqib>, <dabdalam chiqmagan>, <alamimdan chiqardim>, <alamdan achchiq>, <alam chiqmasdi> kollokatsiyalari (aslida tasodifiy kollokatsiya) alamidan chiqmoq iborasining morfologik paradigmasiga mansub emas, ya’ni bular xato deb topilgan kollokatsiyalar bo’lib, mazkur birliklar ro’yxatdan o’chiriladi, ro’yxat tozalanadi va ma’lumotlar bazasiga 17 ta n-gram emas, 11 ta to’g’ri frazeologik birlik kiritiladi.

Bu iboraning izohli lug’atda berilgan izohlaridan m’lum bo’ladiki, yerda bu iboraning variant ekanligi aniq, lug’atda birinchi maqolada varianti mavjud ekanligi yozilgan, ammo yana alohida lug’at maqolasi sifatida shakllantirilib, birinchi maqolaga Q. pometasi bilan havola berilgan. Lug’at tuzishda shu kabi kamchiliklar mavjudligi ayrim iboralarda uchradi. O’zbek tili frazeologik birliklar ma’lumotlar bazasida bunday xatolarga yo’l qo’yimaslik uchun har bir frazeologik birlik lug’atdan tekshirilib, uning variant, sinonim va grammatik paradigmalari aniqlandi.

Ma’lumotlar bazasini shakllantirish jarayonini ushbu ketma-ketlikda quyidagi biznes-jarayonda ifodalaymiz (Qarang: 2-rasm).



2-rasm. Ma’lumotlar bazasini shakllantirish jarayoni

Demak, ma’lumotlar bazasida mazkur frazeologik birlikning birinchi (original) shakli, morfologik paradigmasi, varianti va sinonimini kiritish mumkin.

1-jadvaldan ko’rish mumkinki, 01.04.2024 holatidagi 51890123 gapdan tashkil topgan korpusda aqli kirmoq iborasining 23 ta kollokatsiyasi aniqlangan. Mazkur kollokatsiyalar orasida aqliy o’tkirlik, aqlining o’tkirliigi kabi kollokatlar frazeologik birlik

bo’lolmaydi, ya’ni bu iboraning varianti emas. Shu sababli tozalash jarayonida bu kollokatlar o’chiriladi, natijada, ma’lumotlar bazasiga aqli kirmoq iborasining 21 ta morfologik varianti kiritiladi. Mazkur iboraning varianti lug’atda ko’rsatilgan bo’lgani, u leksik variant (bitta so’zi butunlay boshqa) bo’lgani uchun uning variantining morfologik paradigmasini shakllantiramiz. Korpus qidiruvda es(i) kirmoq iborasining morfologik paradigmasi quyidagicha:

esi kirganidan	esi kirsin
esini kiritib	esing kiridi
Esingiz kirarli-chiqarli	Esi kirib
esi kirib-chiqdi	esimni kiritib
esini kiritish	esi kirar-chiqar
esi kirib	esi kirari-chiqari
esimiz kirmaydi	esing kiradi
Esi kirva	esini kirizib
esi kirmagan	esi kirmasdanoc
esib kirgan	esini kiritolmasalar-da
Esim kiradigan	esi kirarli-chiqarli
esib kirib	esi kiradi
esi kirgan	esimni kiritmoqchi
esing kirmadi	
esingiz kirizib	

**Xulosa.** O’zbek tili frazeologik birliklari turli chastotaga ega: ular orasida past, o’rta va yuqori chastotali frazemalarni aniqlash,

ularning tilda qo’llanish sohasini o’rganish o’zbek tili frazemalarining yangi qirralarini ochishga zamin yaratadi.

**ADABIYOTLAR**

1. <https://uzschoolcorpara.uz/>
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 29-30.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 29-30.
4. Adizova Z.M., Avezov A.A., Norova F.F. Ma’lumotlar bazasi. – Buxoro, 2022. 99 b.

5. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент «Ўқитувчи», 1980. – 446 б. – Б. 138.
6. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: «ФАН» нашриёти, 1981. – 305 б.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – T., "Fan va texnologiya", 2009. – 416 b. – B. 133.
8. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – 403 b. – B. 337.
9. <https://uznatcorpara.uz/>
10. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ma%CA%BClumotlar\\_bazasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ma%CA%BClumotlar_bazasi)
11. <https://exujjat.tdpu.uz/exujjat/img/userfiles2/Malumatlar%20bazasi%20va%20axborot%20tizimlari.PDF>
12. [https://api.scienceweb.uz/storage/publication\\_files/8257/23396/65ed675d86c44\\_\\_\\_%D0%9C%D0%91.pdf](https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/8257/23396/65ed675d86c44___%D0%9C%D0%91.pdf)



**Oyibi ISKANDAROVA,**  
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.n  
E-mail: aybibiiskandarova1962@gmail.com

Ma‘mun universiteti dotsenti, f.f.n., G.Xidirova taqrizi asosida

### PARALLEL KORPUSDA RUSCHA-O‘ZBEKCHA TARJIMA BIRLIKLARINING LINGVOMADANIY XOSLANISHI

Annotatsiya

Maqolada parallel korpusda ruscha-o‘zbekcha tarjima birliklarining lingvomadaniy xoslanishi haqida fikr bildiriladi. Turli til oilalariga mansub badiiy asarlar tarjima qilinganda, til birliklarida o‘g‘iriyotgan xalqning urf-odatlarini, an‘analari, ruhiyati, dunyoqarashi va e‘tiqodi aks etadi. Maqolada Ch.Aytmatovning “Qiyomat” romanida tarjima jarayonida til birliklarining lingvomadaniy xoslanishi tahlil qilinadi, parallel korpusda ularning teganishi haqida xulosalar chiqariladi.

**Kalit so‘zlar:** Parallel korpus, tarjima birliklari, turg‘un birikmalar, lingvomadaniy xoslanish, teglash, Smarket texnologiyasi.

### ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ РУССКО-УЗБЕКСКИХ ЕДИНИЦ ПЕРЕВОДА В ПАРАЛЛЕЛЬНОМ КОРПУСЕ

Аннотация

В статье высказывается мнение о лингвокультурных особенностях русско-узбекских единиц перевода в параллельном корпусе. При переводе художественных произведений, принадлежащих к разным языковым семьям, в языковых единицах находят отражение обычаи, традиции, менталитет, мировоззрение и вера народа.

В статье анализируются лингвокультурные особенности языковых единиц в процессе перевода романа Ч. Айтматова «Плаха», делаются теоретические выводы об их разметке в параллельном корпусе и технологии Smarket.

**Ключевые слова:** Параллельный корпус, единицы перевода, устойчивые сочетания, лингвокультурная специфика, тегирование, технология Smarket.

### LINGUISTIC SPECIALIZATION OF RUSSIAN-UZBEK TRANSLATION UNITS IN A PARALLEL CORPUS

Annotation

The article expresses an opinion on the linguacultural features of Russian-Uzbek translation units in a parallel corpus. When translating works of art, belonging to different language families, the language units reflect customs, traditions, mentality, worldview and faith of the people.

The article analyzes the linguacultural features of language units in the process of translating Ch. Aytmatov's novel "Qiyomat", and makes theoretical conclusions about their marking in a parallel corpus and Smarket technology.

**Key words:** Parallel corpus, translation units, stable combinations, linguacultural specificity, tagging, Smarket technology.

**Kirish.** Bugungi kunda o‘zbek adabiy tilini rivojlantirish, uning xalqaro nufuzini oshirish, so‘z zahiramizning sofligini saqlash, shevalarimiz bilan adabiy tilimiz orasidagi aloqalarni mustahkamlash kabi muammolar doimiy tadqiq etilishini talab qilmoqda. “Statistlar yaqin kelajakda yevropaliklarning 50 ta, afrikaliklarning 600 ta, Tinch ummoni mintaqasida yashovchilarning 200 ta tili butunlay yo‘qolib ketishi mumkinligini bildirmoqdalar... Internet va dasturlash tiliga aylanib bo‘lgan, unda so‘zlovchilar o‘z tillarini qattiq hurmatlab, faqat rivojlantirishga urinayotgan va buning uddasidan chiqayotgan ingliz, nemis, rus, ispan, fransuz, xitoy, yapon, arab kabi tillar yo‘qolish xavfi bo‘lmagan tillardir... O‘zbek tili esa ko‘p sonli va yo‘qolish xavfi turli darajada bo‘lgan tillar sirasiga kiradi”[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmonida : “... o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek milliy korpusini yaratish; o‘zbek tilini Internet jahon axborot tarmog‘ida ommalashtirish, unda munosib o‘rin egallashini ta‘minlash, dasturiy mahsulotlarning o‘zbekcha ilovalarini yaratish, o‘zbek tilini o‘rgatuvchi kompyuter dasturlarini keng miqyosda amaliyotga tatbiq qilish; o‘zbek tilidagi matnlar tahririga mo‘ljallangan kompyuter dasturlarini yaratish; o‘zbek tilidan jahonning yetakchi xorijiy tillariga va xorijiy tillardan o‘zbek tiliga tarjima qiluvchi kompyuter dasturini yaratish” [2] kabi vazifalar mutaxassislar zimmasiga yuklandi.

Haqiqatan ham, o‘zbek milliy tilining morfologik xususiyatlari, semantik maydon yaratish holatlari: sodda va qo‘shma gap kombinatsiyalari, funksional uslublarining imkoniyatlari, lug‘atlar yaratish ishlarini kompyuter texnologiyalari va metodlari yordamida tadqiq etish, bu boradagi amaliy ishlarni mukammallashtirish o‘zbek tilini internet va dasturlash tiliga aylantirish dolzarb masalaga aylangan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Rus va o‘zbek olimlarining ishlarida parallel korpuslar avtomatik tarjima va avtomatik tahrir jarayoni uchun ma‘lumotlar bazasi sifatida xizmat qilishi, sifatli tarjimani amalga oshirishda tillarning lingvistik manbasi vazifasini o‘tashi, xorijiy tillarni o‘qitishda amaliy ahamiyatga ega

korpuslar sifatida baholangan. Korpusshunos olim A.Baranov matnlar korpusi – elektron holda saqlanadigan ma‘lumotlar bazasi bo‘lib, til materialini jamlash, lingvistik muammolarni hal etish maqsadida yaratilishi, korpuslar so‘zlar, so‘zshakllari, yaxlit sintaktik butunliklar, rasmiy, publitsistik (gazeta va jurnal) matnlaridan tashkil topishini ta‘kidlab o‘tgan[3]. V. Zaxarov parallel korpusni: “Matnlarning lingvistik korpusi katta hajmli, elektron ko‘rinishda taqdim etilgan, birlashtirilgan, alohida olingan teglar tizimi, muayyan lingvistik muammolarni hal qilish uchun mo‘ljallangan til ma‘lumotlarining jami” sifatida baholaydi[4]. Professor N.Abduraxmonova parallel matnlardagi konkordanslarni aniqlashda so‘z, so‘z birikmasi yoki barqaror birikmalarning u yoki bu tildagi muqobilligiga asoslanishini quyidagicha izohlaydi: “...bu holatda adekvat tarjima doim ham o‘zini oqlamaydi, chunki ayrim so‘zlar tushib qolishi yoki biror komponent qo‘shilishi hisobiga ularning leksik va grammatik modeliga o‘zgartirish kiritiladi. Shu bois parallel matnlardagi kalit so‘zlar uchun kontekstda tez-tez uchrab, tarjimasida muayyan o‘zgarishga uchramagan faol so‘z va terminlar ma‘lumotlar bazasiga yig‘iladi”.[5. 60]

O‘zbek milliy korpusida ruscha-o‘zbekcha badiiy matnlardagi tarjima birliklarining semantik, pragmatik, lingvomadaniy xoslanishini tadqiq etish, ularni struktur-grammatik teglash muhim masalalardan biridir.

**Tahlil va natijalar.** Chingiz Aytmatovning “Плаха” romani ilk bor, “Новый мир” jurnalida 1986-yili e‘lon qilingan. Roman taniqli tarjimon Ibrohim G‘afurov tomonidan dastlab “Kunda”, keyinchalik “Qiyomat” nomi bilan o‘zbek tiliga o‘g‘irilgan, nashr etilgan.

Asarda “детское дыхание” - “norasta nafasiday”, “к солнцу горных склонах”- “tog‘ning kungay betlarida”, “и уже закрадывались по ущельям всюду проникающие резкие ранние сумерки” - “xufton qorong‘iligi” birikmalari tarzida milliy tilimizga xoslangan holda o‘g‘irilgan

Parallel korpusda ko‘chma va turg‘un birikmalarni quyidagicha morfologik teglaymiz:

детское ” ”/прилагательное/ дыхание”/существительное/-  
“norasta”/ot/, nafasiday”/сифат/,



“горных”/прилагательное/ склонах /существительное/-  
 “tog’ning”/ot/, kungay betlarida”/ot/,  
 “ угловатую /прилагательное/, тяжеловесную /прилагательное/, голову” - ”/существительное/-  
 “guvalakdek /sifat/qiyshiq /sifat/va /bog’lovchi/ cho’ng /sifat/ kallasi”ni”/ot/,  
 “погода/ существительное/ изменилась”/глагол/ –  
 “havoning/ot/ avzoysi buzildi” /fe’l/,  
 “ погода/ существительное/ прояснилась”/глагол/ –  
 “havoning”/ot/ rang-ro’yi ochildi” /fe’l/  
 “потом /наречие/ стихло”/глагол/  
 so’ng /tavish/ sukunat cho’kdi / fe’l/  
 “знак / существительное/ провидения/ существительное/  
 –  
 “qazoning /ot/ hukmi” /ot/

Акба	И однако страх безрассуден, тем более уже знакомый, пережитый	Бирок кўрканга кўшалок кўринади, деган гап бор.
		Бунинг устига бир марта юрагингни олдиргансан

uqoridagi matnda bog’lovchisiz qo’shma o’zbek tiliga sodda gaplar tarzida tarjima qilingan. Tarjima jarayonida Ibrohim G’afurov turg’un birikmali gaplardan foydalanganida, ularni ko’pincha sodda gaplar tarzida o’giradi. Bu tarjimonning ko’p qatlamli falsafiy asarlarda badiiy g’oyaning kitobxonga yetib borishi uchun qulay usulidir.

pa/ существительное/ заволноулась” /глагол/ –  
 “Akbara/ot/ tinchini yo’qotdi” / fe’l/  
 “Lingvokulturema – o’z semantikasida (ma’nosida) madaniyatning biror bo’lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo’lagini aks ettiruvchi so’zlar, frazeologik birliklar, so’z birikmalari, gaplar, paremiyalar, nutq klishehlari, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hozakolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko’rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o’sha birliklarning semantikasini tashkil qiladi.”. [6. 24]  
 Noo’xshash – til oilalariga mansub badiiy asarlar tarjima qilinganda tarjimada lisoniy qo’liqlar: so’z birikmalari, sodda va qo’shma gap konstruksiyalari bilan bog’liq o’zgarishlar sodir bo’ladi.  
 Parallel korpusda biz buni Smarket texnologiyasi asosida quyidagicha joylaymiz:

hingiz Aytmatovning “Qiyomat” romani rus tilida yozilgan. Bu asar roman fojiaidir. Yozuvchi tragik pafosni berishda murakkab qo’shma gaplardan foydalanadi. Ibrohim G’afurov tarjimasida ham shunday shakl va shunday ruh saqlangan. Ya’ni murakkab qo’shma gaplar orqali berilgan tragik pafos, ohangi saqlangan holda murakkab gap shaklida o’zbek tiliga o’girilgan.

	Очик дашт ёмон.
Это в открытой степи страшно, когда от преследующего вертолета некуда деться, когда он, настигая, неотступно гонится по пятам, оглушая свистом винтов и поражая автоматными очередями, когда в целом свете нет от вертолета спасения, когда нет такой щели, где можно было бы спрятать бедовую волчью голову, – ведь не расступится же земля, чтобы дать укрытие гонимым	Унда тепангдан кувалаётган вертолётдан ҳеч қаерга қочиб қутулмайсан, у тинмай, органгдан қолмай, изма-из таъкиб қилиб келаверади, вертолёт паракларининг қасирғаси, автоматдан дўдай ёғилган ўқларнинг қийиллаши юрагингни азоб ва кўрқинч билан тўлдирди, ёруғ дунёда вертолётдан омонлик йўқ, қочиб қутулдиған, шўрлик бошингни пана қиладиган тешиқ-туйнуқ ҳам йўқ — шундай пайтда ер ҳам ёрилмайди, қувиб келаётганлардан жонингни қутқариб, ерга кириб кетаман десанг.

Matnda “бедовую волчью голову”-“ sho’rlik boshingni” , “ведь не расступится же земля,-” “shunday paytda yer ham yorilmaydi, yerga kirib ketaman desang” turg’un birikmalari shaklida tilimizga o’girilgan.

Shuningdek, tarjimon romanda “как полыхнувший вдруг по прихоти своевольной стихии пожар”- “xuddi to’rt tomonga o’t ketganday”, “готовая в любой момент к схватке” - “qanday balo kelmasin, unga qarshi sapchishga hozirlanib turdi” , “точь-в-точь как кошка с полуживой мышью”- “xuddi mushuk chala o’lik sichqonni o’ynaganday”, “и каким-то чутьем понял, что происходило в ее утробе” – “nazarida juftining qursog’ida bir nimalar bo’layotganday edi”, “свою угловатую, тяжеловесную голову” – “guvalakdek qiyshiq va cho’ng kallasi”ni, “какое-то смутное приятное предчувствие” -“allaqanday tatti bashorat”, “что ненароодившееся детеныши были неотделимы от материнского лона” – hali tug’ilmagan qir-qizil objish bolalar ona qursog’idan ajralmagan”, “застонало от неги, от ожидания в набухших до красноты, крупных выступающих двумя рядами по брюху сосцax” – “ikki qator to’lib, qizarib, bo’rsillab turgan emchaklaridan sut toshib povillab kelishini o’ylab orziqib ketdi”, “неожиданной случай”-“ kutilmagan sinoat”, “для опытного глаза” – “razm solib qaralsa” kabi yorqin, ta’sirchan ifodalardan o’rinli foydalangan. Konseptlar xalq dunyoqarashi, tafakkuri, qadriyatleri, olamning lisoniy manzarasini ko’rsatuvchi milliy modellardir. Tarjima jarayonida “qursoq”, “tug’ilmagan objish bola”, “qashqirlarning kuyikkan kezlari”, “qazovu qadar” “esonchilik bo’lsa”, “tiriklik homilasi”, “ularning aymoq-dari” kabi milliy konseptlar nutqning ta’sirchanligini oshirishga, tasvirni milliy model orqali jonlashtirishga xizmat qilgan.“Konsept lingvomadaniy o’ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniyat egalarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir”[7]

Parallel korpusda asliyat tilidagi frazemalarining tarjima lug’atini quyidagicha shakllantiramiz:

- Ikki tarkibli frazema:  
 “живую ношу”- tiriklik homilasi  
 “неожиданной случай”-“ kutilmagan sinoat”,  
 Uch tarkibli frazema:  
 “для опытного глаза” – “razm solib qaralsa”  
 “случится нечто страшное” – “qiyomat qoyim qo’padiganday”,

- To’rt tarkibli konsept:  
 “в горах иное дело”-“tog’larda yo’rig’ boshqa”,  
 “при благополучном стечении обстоятельств” – “esonchilik bo’lsa”,  
 Besh tarkibli frazema:  
 “kak obruyishya na zemlyu potop” – “zamin go’yo teskari aylanayotganday bo’lar”, “ведь не расступится же земля,-” “shunday paytda yer ham yorilmaydi, yerga kirib ketaman desang”  
 Olti tarkibli frazema:  
 “не решались вторгаться в их пределы –“ularning aymoq-dariga asti yaqin yo’lay olmaslik”,  
 Gap shaklidagi frazema:  
 “он был верной силой, надежной, неумолимой, неукоснительно исполняющей ее волю” – uning qora quli – amru irodasini g’ing demay bajo keltirar, ishongan tog’i edi”  
 “опрокинулась жизнь в Моюнкусской саванне вверх дном”-“sayg’oqlar uchun oxirzamon, qiyomat-qoyim boshlandi”,  
 “потом появлялись с бабахающими ружьями, гикая, скакали туда – сюда” – o’t qo’yib, ayuhannos ko’tardilar, u yoqdan – bu yoqqa halokuning itiday o’t qo’yib chopdilar”,  
 “Вот тогда волкам сам бог велел добывать свою долю” – “Xudo berdi qashqirlarga, degani ana o’shanda bo’ladi”.  
 “Чем не промысел – поскольку всему ведь свой час а зимой сурков не добудешь – их нет” – “Ana shunda bo’ri deganning kuni tug’adi”.

**Xulosa.** “Qiyomat”dagi frazemalar so’z birikmasi va gap ko’rinishidagi birikuvlardan iborat bo’lib, ularning orasida muqobil va muqobil bo’lmagan shakllari mavjud. Bu turkiy til oilasi va slavyan til guruhining o’ziga xos xususiyatlari bilan bog’liq. Maqolamizda tarjima birliklari orqali asliyat va tarjima tilining lingvistik xususiyatlarini, gap strukturasiidagi farqlari, lingvokulturemalarning semantikasi, ularni teglashdagi o’ziga xoslikni ko’rsatishga harakat qildik.

Rus va o’zbek parallel korpusi lingvistik ta’minotini shakllantirishda ko’chim va turg’un birikmalarning tarkibiy xususiyatlari, morfologik, grammatik belgilari, shakl-mazmun munosabatiga ko’ra farqlari avtomatik tarjima uchun keng imkoniyat yaratadi. Shuningdek, bilingval lug’atshunoslik, qiyosiy tarjima, chog’ishtirma tilshunoslik kabi sohalar uchun ham muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Milliy o’zlik va mustaqil davlatchilik timsoli. T.2020. – 304 b.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoniga 1-ILOVA. 2020 - 2030-yillarda o’zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi.

3. Баранов А. Введение в прикладную лингвистику. М.:Эдиторнал УРСС, 2001. - 360 с.
4. Рахимов А. Компьютер лингвистикаси асослари.-Т.2011.-189 б; Рахмонова А. Ўзбек тили миллий корпусини яратишда компьютер усуллари. Филол. фан.б. фалс.док. (PhD) дисс.Т. 2022.-137 б.
5. Abduraxmonova N. O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari. T.2021. -202 b.
6. Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликда янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилохлар. Филология масалалари.-Т. 2011. №2.
7. Маслова В.А. Лингвокультурология. М. 2001. – 208 с.
8. Айтматов Ч. Плаха. Алма-Ата. 1987. – 302 б.
9. Айтматов Ч. Қиёмат. Т. - 334 б.



*Dildora ISMOILOVA,*  
9. Boud D., *Assessment and learning: contradictory or complementary?* (1995). Published in P. Knight (Ed.) *Assessment for Learning in Higher Education*. London: Kogan Page, pp. 35-48.
10. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*. (2001). Cambridge University Press.



**Yulduz KARIMOVA,**

*Farg‘ona davlat universiteti akademik litseyi o‘qituvchisi, PhD  
E-mail: yulduzk228@gmail.com*

*Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, f.f.d S.Olimov taqrizi asosida*

### ALISHER NAVOIY POETIK TAFAKKURINING O‘ZIGA XOSLIGI

Аннотация

Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotshunosligida poetik tafakkur atamasining o‘rganilishi, badiiy asar tahliliga yozuvchining individual yondashuvi kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, “Lison ut-tayr” dostonida Sharq xalqlariga xos bo‘lgan adabiy-estetik tafakkur mezonlari, shoirming poetik mahorati, badiiy so‘z tanlash qudrati tahlil qilingan. “Lison ut-tayr” dostoni haqida jahon navoiyshunoslarining talqin va tahlillari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Poetika, poetik tafakkur, poeziya, intellektual tafakkur, tafakkur, syujet, xarakter, qoliplovchi hikoyalar, majoz, allegoriya, g‘oyaviy mazmun.

### ПОЭТИЧЕСКАЯ МЫСЛЬ АЛИШЕРА НАВОЯ ИНДИВИДУАЛЬНА

Аннотация

В данной статье освещаются такие вопросы, как исследование термина поэтическое мышление в узбекском литературоведении, индивидуальный подход писателя к анализу художественного произведения. Также в эпосе «Лисон ут-Тайр» анализируются критерии литературно-эстетического мышления, характерные для народов Востока, поэтическое мастерство поэта, умение подбирать художественные слова. Обсуждаются интерпретации и анализы мировых навологов по поводу эпоса «Лисон ут-Тайр».

**Ключевые слова:** Поэтика, поэтическое мышление, поэзия, интеллектуальное мышление, мышление, сюжет, персонаж, образующий рассказ, метафора, аллегория, идейное содержание.

### ALISHER NAVOY'S POETIC THOUGHT IS INDIVIDUAL

Annotation

This article covers issues such as the study of the term poetic thinking in Uzbek literary studies, the writer's individual approach to the analysis of a work of art. Also, in the epic "Lison ut-Tair" the criteria of literary and aesthetic thinking characteristic of the peoples of the East, the poet's poetic skills, and the ability to choose artistic words are analyzed. Interpretations and analyzes of the world's navologs have been discussed about the "Lison ut-Tair" epic.

**Key words:** Poetics, poetic thinking, poetry, intellectual thinking, thinking, plot, character, formative stories, metaphor, allegory, ideological content.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida Alisher Navoiy ijodiga xolis ilmiy baho berish, ulug‘ shoir ijodini izchil tadqiq etish barobarida mazkur doston qayta tahlilga tortildi. N.Komilov, I.Haqulov, M.Imomnazarov, Y.Is‘hoqov, M.Oripov, V.Rahmonov, H.Eshonqulov, S.Olimov, H.Jo‘rayev, F.Isomiddinov, R.Jumayev, A.Erkinov, Z.Mamadaliyeva, D.Yusupova kabi adabiyotshunoslarning risola va maqolalarida asar yangicha nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Jumladan, S.Olimov[3] doston kompozitsiyasi, obrazlar tizimi va ramzlar hamda dostonning yaratilish tarixini, R.Jumayev[4] “Masnaviyi ma‘naviy” dostoniga qiyosan hikoyatlar tahlilini, Z.Mamadaliyeva[5] esa “Tayr qissasi” va “Lison ut-tayr”dagi majoziy obrazlarni keng va atroflicha o‘rgandilar.

Poetik tafakkur inson tafakkurining yaxlitligi va hayotiy to‘liqligi asosida shakllanadi. Har bir ijodkorning poetik tafakkurini o‘rganishda ma‘lum bir asari tahlili doirasida yondashish fikrlashning mavjud maydonidan chetga chiqishga va unda ijodkorning real hayotdagi o‘zligiga bo‘lgan ishoralarning asar syujetiga singib kirishdagi ahamiyatini o‘rganishda muhim hisoblanadi. O‘zbek adabiyotshunosligida poetik tafakkur tushunchasiga yaxlit holda ta‘rif berilmagan. Poetik tafakkur masalasini batafsil yoritish uchun ushbu so‘zlarning izohiga e‘tibor berishni va shu asosida ularni yaxlit tushuncha sifatida shakllantirishni maqsad qilib oldik. Poetik tafakkur – ijodkorning umri davomida to‘plagan tajribalari asosida shakllanib, uning ong ostida yuzaga keladigan, dunyoning mavjud qiyofasini hissiy va aqliy idrok etilgan tomonini sinxronlashtirishga harakat qiladigan, subyektiv olamida fikrni mantiqiy izchillik asosida yuzaga chiqaradigan, bilish va o‘z ijodiy qobiliyatini namoyon qilishdir. Badiiy va poetik tafakkurda adabiyot har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy muammolarini ko‘tarib chiqishi va ularga javob izlashiga ko‘ra tarbiyaviy ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbek adabiyotida Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoniga munosabat XX asrning 60-yillaridan boshlab shakllana boshladi. Xususan, Y.E.Bertels, V.Zohidov, I.Sultonov, N.Mallayev, A.Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, B.Valixo‘jayev, S.G‘aniyeva, Sh.Eshonxo‘jayev, Sh.Sharipov,

Z.Hamidov, A.Rustamov, Hodi Zarif ishlarida asarning badiiy va uslubiy jihatlari e‘tibor qaratilgan[1].

**Tadqiqotning metodologiyasi.** Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, biografik, germenevtik va struktural tadqiq usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning obyekti.** Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida poetik tafakkur va uslub masalasi tadqiq orqali poetika, uslub va nutq shakllarini belgilash tashkil etadi.

**Tahlil va natijalar.** Ijodkor poetik tafakkurining yangilanishi asosan, nutq orqali yuzaga chiqadi. Biz tadqiqot ishimizda ijodkor poetik tafakkuridagi o‘ziga xosligini aniqlash uchun 4 ta omilni zarur deb hisobladik. Bular:

badiiy nutq;  
poetik tasvir;  
intellektual tafakkur;  
davr g‘oyalari obyektiv yondashuv.

Adabiyotshunoslikda tafakkurning bir necha turlaridan badiiy, ilmiy, ijodiy, mantiqiy, milliy, intellektual, mifologik, obrazli, epik va falsafiy turlaridan keng foydalaniladi. O‘zbek adabiyotshunosligida poetik tafakkur va badiiy tafakkur atamallari barobar qo‘llaniladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida poetika va uslub ko‘p ijodkorlar asarlari misolida tadqiq etilgan. Ammo poetik tafakkur masalasiga alohida yondashish va ma‘lum obyekt orqali tahlillar sanoqli hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlardan farqli ravishda biz “Lison ut-tayr” dostonida ijodkor poetik tafakkurining shakllanish jarayoni, badiiy nutq shakllari, ijodkorning intellektual qarashlari va falsafiy-estetik fikrlarini, badiiy tasvir vositalarini muallif poetik tafakkuri doirasida o‘rganishga harakat qildik. Bundan tashqari, badiiy asarning janr xususiyatini aniqlashda uning ichki mazmuni, asarning tuzilishi, bayon usuli va badiiy tafakkurning shu mezonlar asosida novatorlikni yuzaga chiqarish xususiyatlarini tasnifladik. Shoir o‘z she‘rlarida badiiy mazmunga mos shakl tanlaydi. Badiiy ijoddagi xalqona ruh insoniyatning bir necha ming yillik hamrohi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi motivlari, xalq badiiy tafakkuridagi yetakchi tamoyillar bilan uyg‘unlikda idrok etiladi. Ayni

shuning o'ziyoq "Lison ut-tayr" dostonini xalqona badiiy tafakkur nuqtayi nazaridan hamda badiiy nutqning yuzaga chiqish xususiyatlarini alohida o'rganish ehtiyojini maydonga keltiradi. Bu esa, shubhasiz, shoir ijodidagi mazkur muammoning nazariy asoslarini, diniy, falsafiy va badiiy jihatdan bir butunlikda tadqiq etish masalasini keltirib chiqaradi.

Shoir badiiy-estetik tafakkurining shakllanishi, o'sishi va rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy va xususiy omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Ma'naviy yetuk va moliyaviy jihatdan to'kis oila;

Hirov va Eron adabiy jarayoni;

temuriylar o'rtasidagi taxt uchun kurashlar va ijtimoiy muhit;

Avvalo, poetik tafakkur ijodkor yoki personaj nutqi orqali

badiiy asarga ko'chadi. Badiiy nutq – asarning ichki va tashqi ruhiyatini, in'ikosini ko'rsatib beruvchi qudratli qurol. Har qanday adabiy asarning muvaffaqiyati, eng avvalo, badiiy nutq qurilishiga bog'liq bo'ladi. Badiiy nutq qahramon nutqning voqealangan shaklidir. Badiiy asar tili o'sha davr ruhiyati haqida xabar berar ekan, demak, har qanday asarning yaratilish tarixi va asosi bo'ladi. "Lison ut-tayr" muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri uning leksik-stilistik va g'oyaviy-tematik yaxlitligi asosida kompozitsion bir butunlikning tashkil qilishida ekanligini qayd etadi. Adabiyotshunoslikda "Mumtoz poetikaga xos qoidalar va zamonaviy adabiyotshunoslikda qo'lga kiritilgan tajriba va yutuqlar asosida Navoiy poetikasini quyidagi to'rt yo'nalish: she'r nav'leri, ilmi aruz, ilmi bade' va ilmi qofiya asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda nazariy poetika, ham tarixiy poetika masalalari umumlashtirilgan holda tahlil obyektiga tortiladi"[2]. Bu tahlillar doirasida distlab, dostonidagi hamd va na'tlarning berilishidagi shoirming til qonuniyatlarini, sarf-u nahv istifodasiga, so'z va so'z birikmasiga, sodda va ravon til xususiyatlariga e'tibor qaratadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar, ya'ni Navoiy poetik tafakkurining shakllanishida shoir yashagan ijtimoiy-siyosiy muhit, bolaligidan mutolaa qilgan asarlari qay darajada ta'sir etgan bo'lsa, lirikasi, "Xamsa" dostonlaridagi tajriba ham shu daraja "Lison ut-tayr" dostonining adabiy-estetik, badiiy-g'oyaviy jihatdan mukammallik kasb etishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

"Lison ut-tayr" dostonida so'zning qadriyat darajasiga ko'tarilishi muallifning badiiy-estetik mahoratida namoyon bo'ladi. Dostonida majoziy timsollar va ularning ramzli sarguzashtlari orqali obyektiv borlik va ilohiyot haqidagi qarashlarini bayon etarkan, shu o'rinda, dostonida real hayot hodisalari, kishilarning xatti-harakati, fe'l-atvoridagi ijobiy va salbiy xususiyatlari tasvirlangan. Adabiyotshunos M.Imomnazarov aytganidek, "Navoiy yangi ruhiy dunyoni shakllantirishga asos e'tiborini qaratadi. Misol uchun, Attor Simurg'ni oftob va qushlarni soyaga nisbat beradi. Navoiy buni inkor etmaydi, faqat u masalaning nozik bir jihatiga e'tiborni qaratib aytadiki, nimaiki voqeiy mavjud bo'lsa, uning soyasi bor, soyasi yo'q narsaning o'zi ham bo'lmaydi. Oliy haqiqatni anglab yetish uchun uning "soyasi" ("majoz", "surati") bo'lmish oddiy ko'z bilan ko'rinib turgan voqelikni, uning turli ko'rinishlarini, hodisalarini tadbiq etish, ichki ziddiyatli bog'lanishlari, murakkab jarayonlarini izlash, o'rganish lozim"[3]. Navoiy diqqatini tortgan narsa ijtimoiy

jarayonlar, insonlarning baxti, ularning kamolotini belgilovchi o'zaro munosabatlar qonuniyatlaridir.

Navoiyning yoshligidanoq o'z tengqurlaridan yod olish tafakkuri va alohida qobiliyatga egaligi bilan ajralib turishi haqida shoirming zamondoshlari o'z asarlarida alohida ta'kidlaganlar. Bu jihatdan Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla'i sa'dayn va majmai bahrayn", Xovandshoh Mirxondning "Ravzat us-safo", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Mu'iniddin al-Isfzoriyning "Ravzat ul-jinnot", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", "Haft avrang", Husayn Boyqaroning "Risola", G'iyosiddin Xondamirning "Xulosat ul-axbor", "Habib us-suyar", "Makorim ul-axloq"[4] kabi asarlari alohida ahamiyatga ega. Xususan, Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida "Ul Hazrat iste'dodining kuchliligi va qobiliyatining yuksakligi tufayli har ikkala tilda – turkiy va forsiy tillarda she'r yozish sharafiga muyassar bo'lgan bo'lsa-da, biroq uning o'tkir ta'bi forsiydan ko'ra turkiyga ko'proq mayl ko'rsatgan edi"[5] – deb yozgan edi. Bolaligidanoq o'ziga xos iqtidorga ega bo'lgan Navoiy olti yoshida Sharafiddin Ali Yazdiy, o'n olti yoshlarida Lutfiy, Sayyid Hasan Ardasherlarning e'tirofiga sazovor bo'ladi. Uch-to'rt yoshlarida Qosim Anvor she'rini, yetti yoshida Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonini va olti ming hadisni yod aytib yaqinlarini hayratda qoldiradi. Bu iqtidor shoirming kichik yoshligidanoq qanday tafakkur sohibi ekanligini anglatgan bo'lsa, yozilajak doston va g'azallarga asosiy poydevor vazifasini bajargan. Shu asarda keltirilishicha, so'z san'atida yagona bo'lgan Mavlono Lutfiy endigina unib-o'sib borayotgan o'smir Alisherning huzuriga borib undan: – "Birov g'azal o'qib berish orqali o'z tafakkuringiz mahsullarining yangi namunalaridan meni bahramand eting", – deb iltimos qiladi. Xondamir keltirgan bu ma'lumot o'ziga xos iqtidoriga ko'ra juda ahamiyatlidir. Birinchidan, hali o'spirinlik vaqtidanoq zamonasining yetuk shoiri e'tirofiga tushgan yigitning o'ziga xos badiiy tafakkuri nechog'li o'tkirligi, ikkinchidan, yoshligidanoq o'z davrining shoirlari qatoridan munosib o'rin egallagan va mashhur bo'lib ulgurani anglashiladi. Zamonasida mashhur bo'lib, el og'ziga tushish, saroyning ta'bi nozik nuqtadon ijodkorlari diqqatini tortish uchun shoirga birgina iste'dodning o'zi kamlik qiladi. Shu o'rinda, qobiliyatni o'stiradigan va yuksaltiradigan yetakchi manba mehnatdir.

**Xulosa va takliflar.** Shaxs kamolotida uning diniy dunyoqarashi, tariqatdagi suluki, ijtimoiy muhiti, qaysi adabiy muhitning vakili ekanligi, naqshbandiylik tariqatiga mansubligi Alisher Navoiy psixologiyasiga, badiiy ijodiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xususan, "Nasoyim ul-muhabbat", "Xamsa", "Sab'atu abhur", "Lison ut-tayr" asarlari shoirming diniy-tasavvufiy dunyoqarashini yuzaga chiqargan asarlar hisoblanadi.

Alisher Navoiy turkiy til rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Bu doston o'z davrida ham yuksak qadrga ega bo'lgan. Unda mavzular xilma-xil, g'oyalar turlichadir. Muallif bir doston mag'ziga bir necha mavzu va davr muammolarini singdira olgan. U o'zining hayotiy falsafasini tasavvuf ta'limotiga tatbiq qilishda ham g'oyaviy, ham badiiy mahorat ko'rsatdiki, natijada asar uning tasavvufiy xarakteridan qat'iy nazar, badiiy barkamol, emotsional ta'sirchan adabiyot yodgorligiga aylandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Бертелс Е.Э. Навои и Аттар. Суфизм и суфийская литература. – Москва: Наука, 1966. С-377-421;
2. Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. – Тошкент: Ўз адабий нашр, 1961. – Б. 16-46; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968. – Б. 508-518;
3. Маллаев Н. Навоий ва халқ ижодиёти. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1974;
4. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи масалалари. – Тошкент: Фан, 1970. – Б.192-198;
5. Иззат Султон. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ғ.Ғуллом номидаги ижодий-матбаа уйи, 2010. – Б.55-63;
6. Ғаниева С. Алишер Навоий. – Тошкент: Фан,1968. – Б. 108-111; Ғаниева С. Лисон ут-тайр. / Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. Т. 2 XV асрнинг иккинчи ярми. – Тошкент: Фан, 1977. –Б. 323-336;
7. Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Т.: Ўзбекистон, 1970. – Б. 123;
8. Ҳамидов З. Алишер Навоий "Лисон ут-тайр" асари тилининг лексик-семантик ва лингвопоэтик хусусиятлари. Фил.фан.ном.дисс... – Тошкент: 1982;
9. Сирожидинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. Дарслик. Тамаддун нашриёти. –Т: 2018. –Б.286.
10. Имомназаров М. Симуург машаққати. ("Ҳақиқат ва мажоз"). – "Шарқ юлдузи", 1991. № 4. –Б. 163.
11. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бӯстони ("Тазкират ут-шуаро"). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1967. –Б.224; Ҳусайн Бойдаро. Рисола. Девон. – Т.: Шарқ, 1995. – Б.160; Зайниддин Восифий. Бадоиуль вақоъ - Нодир воқеалар/ Форсийдан Н.Норкулов таржимаси. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б.216; Атоуллох Ҳусайний. Бадоий ус-санойиъ /Форсчадан А.Руствамов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. –Б. 398; Хондамир Ғиёсиддин бинни Ҳумомиддин. Мақорим ул-ахлоқ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. –Б. 136; Хондамир Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. - Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фундул-балога. – Т.: Хазиана, 1996. –Б.212.
12. Xondamir. Makorim ul-axloq. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent 2018. –B. 9.



**Abdulhamid QURBONOV,**  
University of Business and Science dotsenti, PhD  
E-mail: kurbanovabdulhamid57@gmail.com

Filologiya fanlari doktori F.Karimova taqrizi asosida

### “YUSUF VA ZULAYXO”: MAVZU VA KOMPOZITSION O‘ZIGA XOSLIK

Annotatsiya

Sharq xalqlari adabiyotida Yusuf alayhissalom haqidagi qissa behad mashhur bo‘lib, “Qissai Yusuf”, “Yusuf va Zulayxo” va boshqa nomlar bilan ushbu mavzuda yuz ellikka yaqin ijodkor asar bitgan. Turkiy tilda bitilgan “Yusuf va Zulayxo”larning o‘zi ham qirqdan ortiq. Maqolada Durbek nomiga nisbat berilgan “Yusuf va Zulayxo” dostonining kompozitsiya va mavzu o‘ziga xosligi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yusuf alayhissalom, Durbek, turkiy adabiyot, syujet, kompozitsiya, tahlil, talqin.

### “YUSUF AND ZULAIKHO”: ARTISTIC CONSTRUCTION AND SUBJECT IDENTITY

Annotation

The story of Yusuf, peace be upon him, is very popular in the literature of the peoples of the East, and about one hundred and fifty works have been written on this topic under the titles “Kissai Yusuf”, “Yusuf and Zulaikha” and others. More than forty “Yusuf and Zulaiho” were written in the Tuyurk languages. The article analyzes the originality of the composition and theme of the dastan “Yusuf and Zulaiho”, attributed to Durbek.

**Key words:** Yusuf alayhissalom, Durbek, Turkish literature, plot, composition, analysis, interpretation.

### “ЮСУФ И ЗУЛАЙХО”: ТЕМАТИЧЕСКОЕ И КОМПОЗИЦИОННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ПОЭМЫ

Аннотация

История Юсуфа, мир ему, очень известна в литературе народов Востока, и на эту тему написано около ста пятидесяти произведений под названиями «Кыссан Юсуф», «Юсуф и Зулайха» и другие. На тюркских языках написано более сорока «Юсуфа и Зулайхи». В статье исследованы творческое своеобразие композиции и темы поэмы «Юсуф и Зулайхо», приписываемого поэту Дурбек.

**Ключевые слова:** Юсуф алейхиссалом, Дурбек, литература тюркских народов, сюжет, композиция, анализ, интерпретация.

**Kirish.** Yusuf va Zulayxo qissasi G‘arbu Shrqda birday shuhrat tutgan asardir. U asrlar davomida arab, fors-tojik, o‘zbek, turk, ozarbayjon, turkman, tatar, kurd, gruzin va boshqa xalqlar adabiyotida qayta-qayta qalamga olinib, ko‘plab she‘riy va nasriy asarlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Yusuf alahissalom qissasining mualliflari qatorida Firdavsiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdulloh Ansoriy, Ali, Rabg‘uziy, Durbek, Shayyod Hamza, Hamdulloh Hamdiy, Abdurahmon Jomiy, Andalib, Hoziq, shuningdek, Abu Muayyad Balxiy, Baxtiyoriy, Am‘ak Buxoriy, Axvaziy, Sulhi Faqih, Abdulmajid va boshqa san‘atkorlar nomlarini ko‘rsatish mumkin. Umuman, “Qissai Yusuf” yoki “Yusuf va Zulayxo” nomi bilan ushbu mavzuda yuz ellikka yaqin ijodkor asar bitgani ma‘lum [Istoriya, 1991: 163]. Turkiy tilda yozilgan “Yusuf va Zulayxo”larning o‘zi ham qirqdan ortiq [Korogli, 1985: 18–22].

Ajoyib insoniy g‘oya va obrazlarning bitmas-tuganmas xazinasiga aylangan qissaning shuhrati bizning kunlarimizda ham so‘ngan emas[19]. Qissa qalam ahlilarini hamon yangi-yangi asarlar yaratishga ilhomlantirib kelmoqda. Qissaning umrboqiylik sabablarini izohlab, Sharq adabiyotining ulkan bilimdoni Y.E.Bertels shunday deb yozgan edi: “Birin-ketin almashinuvchi rang-barang lavhalar: betashvish bolalik, oiladagi fitna, qullikka sotilishning dahshatli manzarasi, ozod bo‘lish umidining uyg‘onishi, biroq ahvolning yana ham murakkablashuvi, zindon azobi, aql bovar qilmas yangi yuksalish – bularning hammasi qissani so‘z san‘atining ming yillar umr ko‘ruvchi asarlaridan biriga aylantirdi” [Bertels, 1952: 167].

Shu bilan birga, Y.E.Bertelsning so‘zlariga qo‘shimcha qilib aytish mumkin, Yusuf alahissalom qissasi faqat “rang-barang lavhalar”gina emas, ayni chog‘da, ajoyib g‘oya, mavzu va tasviriy imkoniyatlarga ham g‘oyat boy asardir. Qissa nafaqat qiziqarli syujeti, balki g‘oyat serqirra va serjilo poetik mazmuni bilan ham ajralib turadi. Shuning uchun uning ijod ahli tomonidan ham, oddiy kishilar tomonidan ham birday sevib o‘qilgani bejiz emas. Chunonchi, Yusuf alayhissalom haqidagi ilk nasriy asarlardan birining muallifi Abdulloh Ansoriyning yozishicha, har bir kishi o‘z did va dunyoqarashiga muvofiq holda unga o‘ziga xos nom bergan: نام ده م بارک را سورة این زاهان خاندند حسن سورة آذرا حکیمان خاندند وعید سورة اورا عالمان است موفت سورة آذرا عارفان خاندند پند سورة آذرا عابدان خاندند زهد سورة آذرا خاندند مدبت سورة آذرا مدبان خاندند راحت سورة آذرا اندوهکندان خاندند التوبه سورة آسمان در آذرا فرشته نگان خاندند عشق سورة آذرا مريدان خاندند پوسف سورة آذرا عوام باقاي خاندند “Bu muborak suraning o‘n nomi bor, – deb yozadi ulug‘ shayx, – olimlar uni ogohlik surasi, hakimlar surai husn, zohidlar surai zuhd, obidlar surai pand, oriflar

surai rizo, g‘amlilar surai rohat, oshiqlar surai ishq, muridlar surai muhabbat, osmon farishtalari surai tavba, zindonbandlar surai riyozat, qolgan avom surai Yusuf deb ataydilar” [Rustamov, 1966: 682].

Ma‘lumki, Yusuf alayhissalom va Zulayxo haqidagi afsonalarning ilk manbai “Qur‘oni karim”dir. Uning “Yusuf” deb ataluvchi 12-surasida Yusuf alayhissalomning ibratli sarguzashtlari hikoya qilingan bo‘lib, o‘zgacha latofat va jozibaga ega uslubi, g‘aroyib voqealar bilan to‘laligi, Parvordigorning o‘z mo‘min bandalariga mehr-muhabbatini yorqin namoyish qiluvchi mo‘tabar mazmuni bilan “ahsan ul-qisas” – qissalarning eng yaxshisi, eng go‘zali deb nom olgan edi. Yusuf alayhissalom sobit iymon-e‘tiqodning timsoli bo‘lsa, Misr malikining xotini (ayolning ismi aytilmagan) o‘z ehtiroslarining quli sifatida gavdalanadi. Suraning muqaddas oyatlarida uqtiriladiki, agar har bir mo‘min-musulmon Yusuf alayhissalom singari kulfatda sabr qilsa, hamma narsani ko‘rguvchi va bilguvchi Alloh bunday bandalarini bir kun, albatta, nurli, saodatli kunlarga yetkazadi.

Yusuf alayhissalom va Zulayxo mavzuida qalam tebratgan barcha so‘z san‘atkorlari ana shu muqaddas sarchashmadan bahramand bo‘lganlar.

**Adabiyotlar tahlili.** Ushbu silsiladagi asarlardan biri XV asrda yozilgan “Yusuf va Zulayxo” dostonidir. Doston odatda Durbek nomiga nisbat berildi. Asar Y.E.Bertels, E.Rustamov, S.Haydarov, B.Valixojayev, N.Mallaev, E.Shodiev, YA‘qub Vohid Juzjoni, F.Sulaymonova, E.Fozilov, J.Lapasov, H.Karomatov, D.Jumaeva va boshqalar tarafidan o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

- 1) asar muallifi masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar;
- 2) asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar.

Bir guruh tadqiqotchilarning aytishicha, adabiyot tarixida Durbek degan shoir bo‘lgan emas. Chunonchi, E.Fozilov va J.Lapasovlarning fikricha, “Yusuf va Zulayxo” shoir Ahmadiy qalamiga mansubdir [Fozilov, Lapasov, 1974: №1]. E.Shodiev esa doston muallifi Navoiy, degan fikrga moyillik bildiradi [Shodiyev: <https://e-adabiyot.uz/maqola/70>]. Asarni shoir Sayfiy, Mirzo Ulug‘bek yoki Homidiy Balxiyga nisbat beradigan olimlar ham bor [Shodiyev: <https://e-adabiyot.uz/maqola/70>][20].

“Yusuf va Zulayxo” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida ilk bor jiddiy ilmiy mulohaza yuritgan olim taniqli adabiyotshunos Y.E.Bertels bo‘lgan edi. Uning “O‘zbek shoiri Durbek va uning go‘zal Yusuf haqidagi dostoni” nomli maqolasida bu

asarning yozilish tarixi, mazmuni, badiiyati va o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rni kabi muhim masalalar yoritilgan [Bertels, 1944]. S.Haydarov va E.Rustamov dissertatsiyalarida "Yusuf va Zulayxo" dostonining kompozitsion tuzilishi, obrazlar tizimi, shoirming poetik mahorati kabi masalalar chuqur tadqiq etilgan [Haydarov, 1962; Rustamov, 1966]. N.Mallayev esa darslik imkoniyatlari doirasida asarning muallifi, yozilish sanasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi haqida ma'lumot beradi [Mallayev, 1965: 270–286].

Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, garchi mavjud tadqiqotlarda asarning mavzu va g'oyalar olami, timsollar tizimi yuzasidan ayrim qimmatli mulohazalar bildirilgan bo'lsa-da, mavzu va g'oyalar olami ham, timsollar tizimi ham, shuningdek, asar muallifining qissa talqinidagi o'ziga xos mahorati ham chuqur tahlildan o'tkazilgan emas. Qolaversa, tadqiqotlarning aksariyati o'tgan asr, sho'rolar davriga mansubligi sabab unda bayon qilingan fikrlar ko'p jihatdan eskirib, o'z ahamiyatini yo'qotgani ham sir emas.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil usulidan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Doston muallifi o'z asarini yozishda mavjud manba va an'analardan barakali istifoda etgan. Buni shoirming o'zi ham asar muqaddimasida alohida qayd qiladi. Ularning avvalgis, shubhasiz, "Qur'on karim"dir:

Goh o'qur erdim zi Kalomi Iloh [Durbek, 1959].[21].

Yoki:

Jumla qisas voqeasin sarbasar

Tengri Kalominda berib bu xabar.

Bundan tashqari, shoir Yusuf va Zulayxo sarguzashtlari hikoya qilingan bir emas, bir necha boshqa kitoblarni ham o'qib chiqqan:

Goh kutub ichra qilur erdim nigoh.

Ulardan biri, aftidan, biror "Qisas ul-anbiyo" bo'lgan:

Goh boqar erdim zi kitobi qisas,

Goh ichar erdim zi sharobi g'usas.

Shoir shu o'rinda asos manbaga ham ishora qiladi: u "turkiy til bila nazm"ga solgan asar forsiy tildagi nasriy bir qissa edi:

Nasr edi bu qissa dag'i forsi,

Erdi anga jon ko'zi nazzorasi.

XV qadar yaratilgan asarlar orasida forsiy tilda yozilgan birgina nasriy qissa bor. U "Anis ul-muridin va sh-shams ul-majolis" ("Muridlar do'sti va majlislar quyoshi") deb nomlangan bo'lib, uning muallifi mashhur shoir va adib Abdulloh Ansoriydir. Professor E.Rustamov har ikki asarni diqqat bilan qiyoslab chiqib, Durbek dostoni uchun asos bo'lgan manba, xaqiqatan ham, "Anis ul-muridin"dir, degan xulosaga keladi. Har ikki asar syujet yo'nalishining umumiy o'xshashligidan tashqari, ularda shunday epizodlar borki, ular "Anis ul-muridin"da ham, "Yusuf va Zulayxo"da ham deyarli bir xil. Ular qatoriga, masalan, og'a-inilarning Yusuf alayhissalomning qotili sifatida sahrodan bo'ri tutib keltirishlari, YA'qub alayhissalomning tushida Azroildan Yusuf alayhissalomning o'likmi-tirkligini so'rashi, Yusuf alayhissalomning akalarni sehrli tos yordamida so'roqqa tutishi, Bashirning YA'qub alayhissalomdan ilgari ko'r bo'lib qolgan onasi bilan uchrashuvi va boshqalarni kiritish mumkin [Rustamov, 1966: 701–723].

Biroq shoir nasriy qissaga shunchaki she'riy tus berib qo'ya qolgan emas. U "Anis ul-muridin"da mavjud bo'lgan barcha epizodlarni emas, balki o'z g'oyaviy niyatiga xizmat qiladigan o'rnlarnigina asarga kiritgan. Shunda ham ularni butunlay qayta ishlagan. Jumladan, "Anis ul-muridin"da Yusuf alayhissalom akalarni so'roq qilayotgan chog'ida bo'lib o'tgan voqealarni tos tilidan Yusuf alayhissalomning o'zi bayon qiladi. Lekin akalari Yusuf alayhissalomning so'zlariga ishonmay, uning so'zlarini yolg'onga chiqaradilar. Durbek toshning o'zini tilga kiritgan. Bu, albatta, voqealar rivojiga ishonarli tus bergan. O'z qilmishlarini bevosita tos tilidan eshitgan og'a-inilar sirlari fosh bo'lib, uyatdan bosh egishga majbur bo'ladilar.

"Yusuf va Zulayxo" muallifining "Anis ul-muriddin"ga va umuman, qissa talqinlariga ijodiy munosabati doston kompozitsiyasida ham ko'zga tashlanadi. "Anis ul-muridin" – so'fiyona asar. O'n to'rt bobdan iborat bu asarning har bir bobida ulug' shayx Yusuf alayhissalom sarguzashtlaridan ma'lum bir voqeani hikoya qilib, uning so'fiyona talqin qilishga, shu munosabat bilan so'fiylik ta'limotiga xos muhim bir masalani bayon etishiga intiladi. Masalan, "YA'qub alayhissalom tush ko'rdi. Tushida Yusuf alayhissalom ko'prik ustida edi. O'n bo'ri uni g'ajish maqsadida qisib keldi. Ammo bo'rilarning biri uni asrab qoldi. Shu holda u ko'rdiki, yer yorilib, Yusuf alayhissalomni o'z qa'riga oldi. Shundan so'ng YA'qub alayhissalom Yusuf alayhissalomni hargiz sahroga

yubormadi, hargiz huzuridan yiroqlashtirmadi, uni kechalari yonida olib yotar va ko'z tegmasin deb duo qilar edi. Kechalari uning jamolidan ko'z uzmas, agar nogah uxlab qolsa, Yusuf alayhissalom chehrasiga nazar solay deb darhol uyg'onar edi" [Rustamov, 1966: 683]. Ansoriyning yozishicha, YA'qub alayhissalom ham, Yusuf alayhissalom ham, ular o'rtasidagi do'stlik va muhabbat ham ramziy ma'noga ega. Ushbu holatdan kelib chiqadigan so'fiyona g'oya shunday: kechalari Haqning yodida ko'z yummaslik va kunduzlari halovat bilmaslik kerak, ya'ni kechayu kunduz Haq taoloning zikri bilan mashg'ul bo'lmoq kerak.

Ko'rinadiki, "Anis ul-muridin"da voqealar bayoni ikki chiziqli bo'lib, asar badiiy to'qimasida bir-biri bilan bog'liq ikki qatlam mavjud:

1) Yusuf alayhissalom sarguzashtlarining tasviri;

2) muallifning so'fiyona mulohazalari.

Bundan tashqari, Ansoriy Yusuf alayhissalom sarguzashtlarini hikoya qilar ekan, bir o'rinda muayyan epizodning bir emas, bir necha variantlarini keltiradi. Ansoriy asari haqida E.Rustamov shunday deb yozadi: "Abdulloh Ansoriyning "Anis ul-muridin" asari aniq syujet chizig'iga ega emas. Unda Yusuf alayhissalom haqidagi qissaning turli versiyalari yordamida muallif "Qur'on"da qisqa tasvirlangan epizodlarni sharhlab boradi" [Rustamov, 1966: 681].

Shunday uslub, ya'ni rivoyada ikki chiziqlilik va bir voqeaning turli ko'rinishlarini keltirish "Anis ul-muridin"dan tashqari, Ali, Rabg'uziy, Shayyod Hamza asarlarida ham uchraydi. Bundan tashqari, mazkur mualliflarning asarlarida bevosita arab tilida keltirilgan o'yat va hadislar ham bor.

Rivoyadagi ikki chiziqlilikni Firdavsiyning "Yusuf va Zulayxo" dostonida ham ko'rish mumkin. Firdavsiy dostonida shoirona chizilgan ko'plab nafis manzaralar bor. Biroq tadqiqotchilardan biri ta'kidlaganidek: "bu manzaralar shoirga asosan uzundan uzoq axloqiy mulohazalar bayoni uchun xizmat qiladi" [Xisamov, 1979: 39]. Deyarli har bir muhim epizoddan keyin kelib, doston uslubining muhim bir qirrasiga aylangan "axloqiy mulohazalar" Firdavsiy dostonini Ansoriy asariga yaqinlashtiradi. Farq shundaki, agar Ansoriy Yusuf alayhissalom sarguzashtlarini so'fiylik ruhida talqin qilsa, Firdavsiy asaridagi "uzundan uzoq mulohazalar" ulug' shoirming o'z fojiali qismati bilan bog'liq taqdirga bo'ysunish, insonlarga ishonmaslik, yolg'iz Parvardigorgagina umid bog'lash haqidagi xulosalaridan iborat" [Bertels, 1935: 60].

Shunday qilib, qissa voqealarini u yoki bu tarzda sharhlab borish, ayrim voqealarning bir emas, bir necha nusxalarini keltirish hamda "Qur'on" va hadislariga murojaat etish Durbekka qadar Yusuf alayhissalom haqidagi asarlar uslubida yetakchi bo'lib kelgan edi. Bunday uslubning, albatta, o'z ijoiy va salbiy jihatlari bor. G.A.Gorbatkina shu munosabat bilan yozadi: "Bu ham san'atkorning an'anaviy syujetni yangicha talqin qilishga, voqealar va qahramonlar xatti-harakatlarini o'ziga xos tarzda tasvirlashga, o'z qarashlarini ifodalashga, ko'hna mavzulardan foydalanib, yangi asarlar yaratishga bo'lgan intilishining yana bir namunadir" [Gorbatkina, 1967: 117]. Ko'p versiyalilikka kelsak, u birorta ham tafsilni nazardan qochirmay, syujet voqealarini to'la va mukammal gavdalantirish imkonini beradi.

Biroq shuni ham aytish kerakki, shoir shaxsiy qarashlarining asar badiiy to'qimasidan keng o'rin egallashi, buning ustiga, umumlashma mulohazalar tarzida ochiqdan ochiq bayon qilinishi hamma vaqt ham ko'ngildagidek natija beravermasligi, aksincha, asarning ta'sir kuchini susaytirish mumkin. Ko'p versiyalilikka kelsak, bir o'rinda bir epizodning bir necha variantlarining keltirilishi syujet izchilligiga zarar yetkazishi, obrazlarni ichki mantiq va yaxlitlikdan mahrum qilib, ularning ma'naviy-ruhiy qiyofasida bir-birini inkor qiluvchi xislatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Jumladan, Yusuf alayhissalom ko'p yillik judolikdan so'ng keksa otasi bilan ko'rishgan chog'ida otdan tushmagan. Chunki unga Rayyon malik: "Otang bilan ko'rishganda chog'ida otdan tushmagin", deb tainlangan. Rabg'uziyning uqtirishicha, o'sha payt Yusuf alayhissalom "ikki ko'ngullik erdi. Agar otdan tushsam, Malik Rayyon ko'ngli og'ringay, deb otdan tushmadi" [Rabg'uziy, 1990: 161]. Boshqa bir rivoyatda esa u otdan tushgan. Albatta, bunday ikki xillik olijanob fazilatlarining mujassam timsoli bo'lmish Yusuf alayhissalomga yarashadigan ish emas.

Durbek dostoni salafllari asarlarida yetakchi bo'lgan bu kabi ikki chiziqlilikdan ham, ko'p versiyalilikdan ham butunlay xolidir, unda voqealar qat'iy va izchil tarzda inkihof eta boradi. Bugina emas. Doston syujet va mavzu e'tibori bilan ham o'zigacha yaratilgan asarlardan farqlanib turadi. Barcha nazmiy va nasriy "Yusuf va Zulayxo"larni, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, ikkiga ajratish mumkin:

1) asar markazida Yusuf alayhissalom va YA'qub alayhissalom, ya'ni ota va o'g'il munosabatlarining tasviri turuvchi asarlar;

2) asar markazida Yusuf va Zulayxo, ya'ni ishqiy munosabatlar tasviri turuvchi asarlar [Valixojayev, 1974: 140; Rudenko, 1986: 39].

“Firdavsiy dostonidagi markaziy masala Zulayxo epizodi emas, balki ota va o'g'ilning otashin muhabbatidir, – deb yozadi Y.E.Bertels. – Dostonda Yusuf alayhissalom va YA'qub alayhissalom munosabatlari nafis va fidokorona muhabbatning ulug'vor manzarasiga aylantirilgan. Asosiy fojea ota va o'g'ilning oz emas, ko'p emas, roppa-raso qirq yilga cho'zilgan judoligidir” [Bertels, 1935: 61]. Y.E.Bertelsning mazkur so'zlarini Ali, Shayyod Hamza, Suli Faqih va Rabg'uziy asarlariga ham bemalol tatbiq etish mumkin.

Ikkinchi guruhga mansub asarlarning mumtoz namunasi Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” dostonidir. Bu xil asarlarda ota-og'il munosabatlari keyinga surilib va hatto ularning qayta topishuv voqealari tasvirdan butunlay tushib qolib, asosiy e'tibor Zulayxonning Yusuf alayhissalomga bo'lgan ehtirosli muhabbati tasviriga qaratiladi [Abdurahmon Jomiy, 1974].

Tadqiqotlarda Durbek dostonining mavzu doirasi haqida bildirilgan ayrim mulohazalar mavjud. “Ishqiy element, ya'ni Zulayxo tarixi, – deb yozadi Y.E.Bertels, – dostonning markaziy qismi emas, balki voqealar rivojini ta'minlovchi epizodlardan biridir” [Bertels, 1944: 171]. E.Rustamovning bu boradagi fikrlari ham shunga yaqin. “Tadqiqotchilar Durbek dostonini odatda Yusuf alayhissalom va Zulayxonning sevgisini tasvirlashchi asar sifatida talqin qiladilar, – deb yozadi u, – ular Durbek dostonning ahamiyatini uning dunyoviy xarakterida, unda insoniy muhabbatning kuylanishida deb biladilar. Ammo sevgi Durbek dostonida asarning asosiy mazmuniga qo'shimcha, ikkinchi darajali tafsil sifatida tasvirlanadi. U dostonida Zulayxonning Misr Azizi bilan baxtsiz nikohining natijasi sifatida taqdim etiladi” [Rustamov, 1966: 670].

Har ikki olimning mulohazalaridan kelib chiqadigan umumiy xulosa shuki, Durbek dostonida sevgi mavzusi yetakchi emas. Albatta, Yusuf va Zulayxo sevgisi dostonidagi asosiy yoki markaziy masala emas. Ammo uning “voqealar rivojini ta'minlovchi”, “dostonning asosiy mavzusiga qo'shimcha” “ikkinchi darajali tafsil” ham emasligi aniq. Bu hol shundan ham ma'lum bo'ladiki, Durbek o'z dostonini Ali singari “Qissai Yusuf” yoki Rabg'uziy singari “Qissai Yusufi Siddiq alayhissalom” deb emas, balki “Yusuf va Zulayxo” deb nomlagan. Zulayxonning ismi ham Yusuf alayhissalom bilan bir qatorda asar sarlavhasiga chiqarilgan. Ikkinchidan esa, dostonida ishq tuyg'usini baland pardalarda madh etuvchi qator baytlar bor:

Ishq erur soyai lutfi Iloh,

Ishq erur shohi jahonu sipoh.

Ishq erur vositai toru pud,

Qildilar Odamga maloyik sujud.

Ishq erur hosili kavnu makon,

Kavnu makon ishq erur jisnu jon.

Ushbu baytlarning Zulayxo ishqining tasviri bilan aloqador ekanligi shubhasiz. Qolaversa, shoir poetik mahoratini yorqin namoyish qilib, kitobxonga kuchli zavq bag'ishlovchi eng ta'sirchan manzara ham ana shu “ikkinchi darajali tafsil”dir.

Xullas, Durbek Zulayxo ishqini salafilariga qaraganda kengroq va batafsilroq tasvirlab, uni asarning yetakchi mavzularidan biriga aylantirdi. Asarda har ikki mavzu: ota va o'g'il mavzusi ham, ishq mavzusi ham teng tasvirlangan, deb aytish mumkin. Yusuf va Zulayxo sarguzashtlarining sof ishqiy doston sifatida talqin qilinishi esa Abdurahmon Jomiydan boshlandi.

**Xulosa.** “Qur'oni karim”da keltirilgan Yusuf alayhissalom qissasi payg'ambarlardan birinchi ibratli sarguzashtlaridan sof ishqiy doston darajasiga ko'tarilguncha uzoq rivojlanish jarayonini boshidan kechirdi. Bu jarayonda shoir Durbekning ham alohida o'rni bo'lib, uning asar mazmuni va kompozitsiyasini takomillashtirish sohasidagi xizmatlari alohida e'tiborga loyiqdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Бертельс Е.Э. Абул-Касим Фирдоуси и его творчество. – Л.–М.: Издательство АН, 1935.
2. Бертельс Е.Э. Узбекский поэт Дурбек и его поэма о Иосифе Прекрасном. / Дар. Альманах. – Ташкент: 1944.
3. Валихужаев Б. Узбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1974.
4. Гвахария А.А. Персидские источники грузинских версий “Юсуфа и Зулейхи”. АРКД, Тбилиси, 1968.
5. Горбаткина Г.А. Пьесы-легенды Назыма Хикмета. – Москва: Наука, ГРВЛ, 1967.
6. Дурбек. Юсуф ва Зулайхо. – Тошкент: Фанлар Академияси нашриёти, 1959.
7. Жомий, Абдурахмон. Юсуф ва Зулайхо. Огахий таржимаси. / Огахий. Асарлар. 6 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.
8. История узбекской литературы. В 2-х томах. Том I. – Ташкент: Фан, 1991.
9. Кароматов Х. Узбек адабиётида “Куръон” мавзулари (адабий-тарихий таҳлил). Фил. фан. док. дисс... автореферати. Тошкент, 1993.
10. Короглы Х.Г. Сюжет о Юсуфе и Зулайхе в тюркских литературах. // Советское востоковедение, 1985, № 6.
11. Маллаев Н. Узбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.
12. Рабгузий. Қисаси Рабгузий. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990.
13. Руденко Н. Литературная и фольклорные версии курдской поэмы “Юсуф и Зелиха”. – М.: Наука, ГРВЛ, 1986.
14. Рустамов Э. Некоторые вопросы сравнительного изучения узбекской литературы с другими восточными литературами (тюркские и персидско-таджикские). – Москва-Ташкент, 1966.
15. Хисамов Н. Поэма “Қиссаи Юсуф” Қул Али. – Москва: Наука, 1979.
16. Фозилов Э., Лапасов Ж. “Юсуф ва Зулайхо” достони ҳақида // Узбек тили ва адабиёти, №1, 1974.
17. Шодиев Э. Юсуф ва Зулайхони ким ёзган? <https://e-adabiyot.uz/maqola/70>.
18. Ҳайдаров С. Узбек дунёвий адабиёти тараққиётида Дурбекнинг роли. НД, Тошкент, 1962.
19. Xususan, Hamza “Qiroat” kitobida bu qissani qisqacha hikoya qilgan bo'lsa, turk yozuvchisi Nozim Hikmat “Go'zal Yusuf” pesasini, Ramz Bobojon “Yusuf va Zulayxo” musiqali dramasi, nemis yozuvchisi T. Mann esa 1933-43 yillarda 4 kitobdan iborat “Yusuf va uning birodarlari” romanini yaratgan. U.Hamdani ham “Yaxshiyam sen borsan!” hikoyasida qissa timsol va ma'nolaridan foydalangan.
20. Noma'lum shoir demasdan, qisqa va qulay bo'lishi uchun shartli ravishda Durbek nomini saqlab qoldik.
21. Keyingi parchalar ham shu nashrdan olindi.



УДК:494.3:491.7:809

Хулкар МАЖИДОВА,  
Докторант НГПИ  
E-mail:majidova95@bk.ru

Под рецензии доц. Ф.Р.Жумаевой, НавГПИ

### LEKSIK TIPOLOGIYA VA UNING ATAMALAR TIZIMINI O‘RGANISHDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Lingvistik tadqiqotlarda ixtisoslashgan sohalarda qo‘llaniladigan ko‘plab so‘z va iboralar atama sifatida qaraladi. Aksariyat tilshunoslar atama, eng avvalo, til leksik tizimining teng huquqli a‘zosi ekanligini to‘g‘ri ta’kidlaydilar. Terminologik tizimlar yagona til tizimida uning umumiy shartlarini hisobga olgan holda vujudga keladi va rivojlanadi. Ushbu maqolada leksik tipologiya va uning atama lar tizimini o‘rganishdagi o‘rni haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** leksika, semantika, so‘z yasalishi, tibbiyot, botanika, tamashunoslik, qo‘shimcha.

### ЛЕКСИЧЕСКАЯ ТИПОЛОГИЯ И ЕЁ МЕСТО В ИССЛЕДОВАНИИ ТЕРМИНОСИСТЕМЫ

Аннотация

В лингвистических исследованиях многие слова и словосочетания, используемые в специальных областях, трактуются как термины. Большинство лингвистов совершенно справедливо подчеркивают, что термин является, прежде всего, равноправным членом лексической системы языка. Терминологические системы возникают и развиваются в единой языковой системе с учетом ее общих условий. В данной статье рассматривается лексическая типология и её место в исследовании терминосистемы.

**Ключевые слова:** лексика, семантика, словообразование, медицина, ботаника, терминология, ботаническая терминология, суффикс.

### LEXICAL TYPOLOGY AND ITS PLACE IN THE STUDY OF TERMINOLOGICAL SYSTEMS

Annotation

In linguistic research, many words and phrases used in specialized fields are treated as terms. Most linguists quite rightly emphasize that a term is, first of all, an equal member of the lexical system of a language. Terminological systems arise and develop in a single language system, taking into account its general conditions. This article examines lexical typology and its place in the study of the terminology system.

**Keywords:** vocabulary, semantics, word formation, medicine, botany, terminology, botanical terminology, suffix.

**Введение.** В лингвистических исследованиях многие слова и словосочетания, используемые в специальных областях, трактуются как термины. Большинство лингвистов совершенно справедливо подчеркивают, что термин является, прежде всего, равноправным членом лексической системы языка. Терминологические системы возникают и развиваются в единой языковой системе с учетом ее общих условий. Между термином и словом нет непреодолимой границы, они не имеют серьезного различия как по форме, так и по содержанию. Терминологию можно определить как систему терминов, относящуюся к системе понятий конкретной науки.

Растения произрастают в различных природно-климатических условиях: в безводных пустынях, песках и солончаках, на склонах высоких гор, покрытых вечными снегами и ледниками, в труднодоступных для человека местах, в расщелинах камней, пещерах и под водой. В природе немало растений, которые произрастают в морях, реках, озерах, каналах и болотах. Они приспособивались к таким условиям жизни в течение многих веков. Знания о них, которые можно получить из курса природоведения, окажут большую помощь при изучении науки ботаники, которая является одним из разделов биологии.

Слово «ботаника» (от греч. - botane) означает зелень, трава, растение. Эта наука изучает жизнь растений, их распространение и развитие, внутреннее и вне их строение, распространение, связь с природой, разное использование и способы их охраны и защиты.

В природе много растений, плоды которых употребляются в пищу, например, ревеня, клубника, малина, укроп, боярышник и мн. др. Большинство видов растений, таких как полынь, верблюжья колючка, люцерна, изень, саксаул, ячмень, клевер и др., являются кормом для животных, ибо они считаются очень питательными.

Литературный обзор. Изучение растений Центральной Азии началось с древнейших времен. Сведения о растениях, произраставших в Центральной Азии, в том числе и на современной территории Узбекистана, встречаются в трудах известных ученых средневековья. Например, в сочинении Абу Райхана Беруни (973–1048) «Китоб ас-Сайдана фит-тибб[1]» («Книга фармакогнозия в медицине»), посвященном врачеванию

и содержащем сведения о многих лекарственных растениях, которые и сейчас растут в нашей стране. Другой ученый Абу Али ибн Сина (980–1037) в книгах «Китоб ал конун фит-тибб» («Канон врачебной науки») и «Китоб уш-шифо» («Книга исцеления»)[2], классифицируя и глубоко анализируя множество лекарственных растений Центральной Азии, указал на их лечебные свойства. В книге-словаре «Девону лутат-ит турк» («Словарь тюркских наречий») Махмуда Кашгари[3], жившего в XI в., описаны полезные и ценные свойства почти 200 растений, встречающихся на территории Туркестана.

Эксперты и специалисты называют ее «терминологической лексикографией» и «научно-технической лексикографией». С.В. Гринёв[4] предлагает вместо этих сложных терминов использовать термин «терминография», совместимый с термином «лексикография», и определяет его как теорию и практику создания специальных или терминологических словарей. Использование слова «терминография» обеспечивает, во-первых, краткость; во-вторых, это слово начинает выполнять одно из значений словесной терминологии и в известной мере устраняет омонимию. Принимая во внимание отмеченные положительные стороны термина «терминография», мы считаем целесообразным его использование на практике. Из вышеизложенного видно, что терминография занимается созданием терминологических словарей, т.е. как теоретическими, так и практическими аспектами терминографической деятельности. В настоящее время в терминографии под терминологическим или специальным словарем понимают разновидность энциклопедических словарей, охватывающих названия понятий и объектов в конкретной области знания и науки, и техники, и объясняющих их.

С.Ф.Акобиров[5] рекомендует провести терминологическое исследование, создать терминологический словарь в 6 этапов и описывает каждый этап. С.В. Гринёв изучил точки зрения ряда терминологов о количестве и типе этапов, представляющих последовательность в создании терминологического словаря, и разделил их на четыре типа. На первом этапе следует описать тип будущего словаря и его основные характеристики, лексический слой, назначение и функции словаря, круг пользователей словаря, аспекты охвата и



описания лексики. Определяются примерный размер словаря, критерии отбора специальной лексики для включения в словарь, структура словарных статей и словаря в целом и т. д.

На втором этапе работы собирается лексический материал (слова и словосочетания) и составляется список специальных лексических единиц, подлежащих описанию в словаре. Специальные лексические единицы извлекаются из заранее определенных лексикографами источников (научно-техническая литература, технические документы, словари и т.п.) и отбираются по приемлемым официальным критериям. В большинстве случаев в словарь отбираются только термины, т.е. слова и словосочетания, созданные для наглядного отражения специальных понятий на специальном (научно-техническом) языке, для выражения специальных предметов. Но иногда в словарь включают номенклатурные единицы – одиночные понятия или названия конкретных массовых изделий. Приводятся также условные наименования. При выборе специального словаря каждая словарная единица переписывается на отдельную карточку и размещается в алфавитном порядке (в настоящее время высокий уровень развития компьютерной техники значительно облегчил этот процесс).

На третьем этапе создания словаря непосредственно анализируется и описывается специальная лексика, входящая в состав словаря. По назначению словаря выделяют и фиксируют синонимические, иерархические и ассоциативные отношения между выделенными лексическими единицами. Им дается определение или подбирается эквивалент из иноязычных материалов, где при необходимости описываемая лексика представляет собой единицы, снабженные грамматическими характеристиками. Определены содержание и структура статей, сформированы основные и дополнительные показатели.

На четвертом этапе оформляются результаты терминографических работ в виде конкретных словарей, редактируется подготовленный материал, определяются и проверяются перекрестные ссылки между отдельными статьями словаря, подготавливаются введение и другие составляющие, связанные с представлением словаря к публикации. С.Ф. Аюбиров[6] еще в 1968 г. отмечал, что терминологические словари могут служить делу терминологического регулирования только в том случае, если они являются продуктом работы, проводимой с вниманием и настойчивостью на всех этапах создания. Усилиями действовавшей некоторое время Республиканской межведомственной терминологической комиссии (1984–1988) и Республиканского терминологического комитета (1989–2004) при Кабинете Министров Республики Узбекистан активизировалась работа по созданию терминологических словарей в республике, хотя она не проводилась поэтапно, а начиналась непосредственно с составления терминологических словарей.

Современная узбекская терминология зародилась в 1920-е годы. Предварительный терминологический словарь «Общественно-политический словарь русско-узбекского языка» Н. Торакулова был издан в 1922 г[7]. Затем после этого за всю историю узбекской терминологии было создано свыше 300 терминологических словарей по более чем 50 различным областям знаний: философские, социально-политические и т.д. Десятки терминологических словарей, изданных в Москве, были переведены с русского на узбекский язык и изданы в Ташкенте по таким направлениям, как экономика, правосудие, этика, эстетика, математика, политехника, география, словари на основе профессиональной лексики «Домашнее хозяйство», «Хлопководство», «Здоровье». Терминологические словари, созданные в узбекской терминографии на протяжении почти столетия, позволяют не только выявить постепенные изменения, произошедшие в развитии узбекского научного языка и терминологической системы, достижения и недостатки в области терминографической деятельности, но и определить одну из основных факторов, побудивших развитие лексики узбекского языка.

Методология исследования. В данной статье были рассмотрены лексическая типология и её место в терминистеме. Дано определение понятия «терминология» как системы терминов, относящейся к конкретной науке, и раскрыта значимость создания терминологических словарей, как неотъемлемой части общей лексикографии. Изучены роль лингвистической типологии в установлении языковых универсалий, а также цельные типы, образуемые родственными признаками в языковых структурах. Охарактеризован

семантический способ терминообразования и его отличие от способа создания общелитературных слов.

Анализ и результаты. Термин как лексическая единица, принадлежащая ограниченному лексическому пласту, является основным объектом терминологических исследований и важным источником создания терминологических словарей. Если лексикология занимается изучением лексических единиц общелитературного языка, то лексикография занимается теорией и практикой создания словарей путем сбора, организации и описания этих лексических единиц. Точно так же терминология – это отрасль науки, изучающая термины специальных лексических единиц.

Терминологический словарь может объяснять только термины узкой области (например, словарь ботанических терминов) или охватывать термины разных, обычно смежных областей знаний (например, словарь политехнических терминов). При этом терминологический словарь может быть одноязычным (терминология конкретной области одного языка собирается и поясняется на этом же языке) или двуязычным (термины одного языка поясняются терминами другого языка или других языков). Терминологические словари обычно охватывают синхронный материал, но все чаще включают не только историю соответствующей терминологии, но и термины, на основе которых были созданы эти терминологические словари.

В результате межязыкового взаимодействия лексика узбекского языка невероятно обогатилась и продолжает пополняться. Например, наряду с русскими словами, имеющими русские корни, в узбекский язык входят слова и термины, относящиеся к западноевропейским языкам, в частности, основанные на материалах греческого и латинского языков. Узбекский язык и его научная терминология на современном этапе развития становятся богаче благодаря своим внутренним возможностям. Это обогащение происходит, с одной стороны, за счет собственных слов узбекского языка, а с другой – за счет межнациональных. Если слова на узбекском языке нет и создать его невозможно, необходимо использовать международный термин напрямую, избегая излишнюю искусственность. Такое решение привело к появлению тысяч международных слов и терминов в узбекском языке, вошедших из русского языка. Не только лексические единицы западноевропейских языков, но и содержащиеся в них словообразовательные элементы вошли в узбекский язык под влиянием русского языка. Такие элементы в действительности принадлежат разным языкам. Например, на греческий язык переводятся такие элементы, как а-, ана-, анти-, архи-, гипер-, орт-, теле-, -граф, -лог, -ид, фил, едр, би-, де(з), -, интер-, ре-, ультра-, -автобус, -или. Такие элементы, как -ига, относятся к латинскому языку. Также можно выделить ряд постпозитивных образующих элементов в терминах, пришедших из английского и французского языков. Как указывалось, элементы международного термина тесно связаны с корнями, к которым они прикреплены. Большинство таких терминальных элементов (препозитивных и послепозитивных) также считаются в русском языке продуктивными образующими, при участии которых образуются многие термины. Однако в тюркских языках, включая узбекский и его научную терминологию, новые слова с участием межнациональных постпозитивных терминологических элементов вообще не образуются, а в научно-технической терминологии к узбекским корням добавляются препозитивные терминологические элементы. При добавлении новых слов создаются гибридные термины. Элементы международных терминов, главным образом, состоят из основ, префиксов и суффиксов, относящихся к греческому и латинскому языкам, которые считаются классическими. Как известно, греческий и латинский языки входят в состав древних индоевропейских языков. Велико их влияние на сестринские языки, т.е. на языки этой семьи. Таким образом, это основная международная лексика, появившаяся в современных языках. Как отмечалось, термины, разумно образованные в рамках классических языков, кратки, ясны и выразительны, поэтому они проникают без перевода в любой язык, включая узбекский, и способны совершенствоваться в своем развитии. Например, слова «телефон» или «электрод» можно встретить во многих языках мира, так как перевод их на другие языки как однословные термины невозможен и очень затруднен. При необходимости их перевода требуется пояснение-объяснение, что «телефон – это устройство, передающее звук на определенное расстояние», а «электрод – это проводник, проводящий электричество в жидкость или газ. В узбекском языке такие описания состояли из

нескольких слов, например, из слова «гич». Следует отметить, что международные термины-элементы бывают двух видов – префиксальные (препозитивные) и постфиксальные (постпозитивные). Стебли представлены такими элементами как ауто-, азо-, макро-, микро-, поли-, ультра-. Элементы, обозначающие такие числа, как моно-, би-, ди-, тетра-, три-, используются только в препозитивном значении, тогда как bus, -drom, -navt, -fob, -fog, Score, в основном, – в постпозитивном значении.

Можно также сравнить терминологические элементы в мелодии: ген, ням, генос (значение: зарождение, рождение; появление); водород, кислород; генератор, генетика, геноцид и т.д.; гон шерсть. гония (значение: угол): шестиугольник, пятиугольник, многоугольник: гониометр; грамм шерсти, грамма (значение: письмо): кардиограмма, радиограмма, телеграмма; грамматика, граммофон; натрий шерсть. ятрос (значение: врач): педиатр; например, ятрохимия. Глот //глянец (язык), граф (писать, печатать, публиковать), дерма (кожа), (г)эмат (моя), карта (сердце), лит (камень), лог(ия), слово, употребляемое в терминологических системах, понятие, учение, (ребенок; нога), термин (тепло), слон (севмок), фон (звук), похлопывание (страдание) могут находиться, как отмечалось, в двух разных позициях. Причина увеличения с каждым годом количества

терминов, созданных с участием международных термины-элементов, состоит в том, что «термины, созданные из таких специализированных термины-элементов, обладают относительно полной точностью.

**Заключение.** В заключении можно сказать, что семантическая ясность и относительная точность таких терминов в сочетании с их относительной краткостью часто определяют жизнеспособность того или иного термина. В большинстве случаев греческие и латинские короткие основы обозначают знаки, выраженные в русском языке длинными словами и словосочетаниями. Одной из характерных особенностей международных термины-элементов является их способность к обобщению. Особенно ярко эта особенность проявляется у постпозитивных терминальных элементов, так как при наличии таких термины-элементов, как -гамия, -граф, графия, -дром, -емия, -лог, -логия, -область, -стат, -трон, образуются правильные, однозначные термины. В этом случае эти термины-элементы выступают как обобщающе-категоризирующая часть терминов, частью которых они являются. Например, термины, составленные с присутствием терминального элемента -лог, всегда имеют одно и то же значение, т.е., например, специалист в области науки: дерматолог, ихтиолог, невролог, лексиколог, сейсмолог, фармаколог, уролог и т. д.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. «Китаб ас –сайдана фит-тиб» («Книга фармакогнозия в медицине») Абу Райхана Бериуни – источник развития таджикской медицинской терминологии: автореферат дис.кандидата филологических наук:10.00.02
2. Интернет – ресурс: ru.m.wikipedia.org
3. Интернет – ресурс: greylib.align.ru
4. Перспективные направления развития терминологических исследований / С. В. Гринев-Гриневич, Э. А. Сорокина // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Лингвистика. — 2018. — № 5. — С. 18–28. — DOI 10.18 384/2310–712X-2018–5-18–28.
5. Ақобиров С.Ф. «Язык и терминология», Ташкент, Фан, 1968г.
6. Ақобиров С.Ф. «Язык и терминология», Ташкент, Фан, 1968г.
7. Торакулов Н. «Общественно-политический словарь русско-узбекского языка». Т: 1922г.



UDK:02(09)(094)2560

Navruza MAMAJONOVA,

Alfraganus Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti "Sharq filologiyasi" kafedrasida o'qituvchisi  
E-mail: mamajonovanavruza447@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor v.b M.Saparniyozova taqrizi asosida

## ILMIY, TARIXIY VA BADIY ASARLARDA MILLIY SPORTGA OID ATAMALARNING IFODALANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada turli manba, badiiy asarlar va o'zbek tilining izohli lug'atida milliy sport atamalarining qo'llanilishi, o'zbek tilida lug'atlar yaratish ishining takomillashtirilishi, xususan, sport sohasiga oid terminlarning izohli lug'atdagi holati hamda zamon va soha talabiga ko'ra sport sohasiga oid terminlarning ro'yxatini shakllantirish va izohli lug'atga kiritish kabi masalalarni tavsiflash, izohlash, qiyoslash va statistik tahlil metodlari asosida ko'rib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** Izohli lug'at, termin, sport atamaları, badan tarbiyasi, chovgon, kurash, sakrash, davra, bakovul, chil bermoq, halol.

## БЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ СПОРТИВНЫХ ТЕРМИНОВ В НАУЧНЫХ, ИСТОРИЧЕСКИХ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются различные источники, художественные произведения и использование национальных спортивных терминов в толковом словаре узбекского языка, совершенствование работы по созданию словарей на узбекском языке, в частности, состояние терминов, связанных с области спорта в толковом словаре и требованиям времени и области на основе методов описания, интерпретации, сравнения и статистического анализа, такие вопросы, как формирование перечня терминов, относящихся к области спорта, и включение их в толковый словарь. словарь был рассмотрен.

**Ключевые слова:** Толковый словарь, терминология, спортивные термины, физическое воспитание, човгон, борьба, прыжок, тур, баковул, чил бермак, халаяль.

## EXPRESSION OF NATIONAL SPORTS TERMS IN SCIENTIFIC, HISTORICAL AND ARTISTIC WORKS

Annotation

In this article, various sources, works of art and the use of national sports terms in the explanatory dictionary of the Uzbek language, the improvement of the work of creating dictionaries in the Uzbek language, in particular, the status of the terms related to the field of sports in the explanatory dictionary and the requirements of the time and the field based on the methods of description, interpretation, comparison and statistical analysis, issues such as forming a list of terms related to the field of sports and including them in an explanatory dictionary were considered.

**Key words:** Explanatory dictionary, terminology, sports terms, physical education, chovgon, wrestling, jump, round, bakovul, chil bermak, halal.

**Kirish.** So'nggi yillarda "termin" o'zbek va jahon tilshunosligida eng muhim tadqiqot obyektini bo'lib kelmoqda. "Termin" tushunchasiga aniqlik kiritish muammosi bir necha avlod vakillari diqqat-e'tiborida bo'lgan. Bugungi ijtimoiy hayotdagi tub burilishlar shuni ko'rsatadiki, ilm-fan rivoji, texnika taraqqiyoti, iqtisodiy islohotlar terminlarni o'rganish va tadqiq qilishni taqozo etmoqda.

Terminlar – ilm-fan, texnika, san'at, inson faoliyati boshqa sohalarining mutaxassislar doirasida keng qo'llanadigan maxsus nomlardir[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Terminga qo'yiladigan me'yoriy talablar dastlab terminologiya maktabi asoschisi D.S.Lotte tomonidan ishlab chiqilgan. Bu talablar quyidagilardir: tizimlilik, kontekstga bog'liq emaslik, qisqalik, bir ma'nolilik, aniqlik, oddiylilik, tushunarlilik, tatbiq etilganlik darajasi va b[1].

O'z navbatida, V. M. Leychik shu masala yuzasidan to'xtalib, shunday deydi: "Agar XX asr birinchi yarmida tilshunoslar terminni lug'at tarkibining uzoq bir periferiyasi sifatida qarashgan bo'lsa, bugungi kunda, ilmiy texnika inqilobini boshdan kechirganimizdan keyin unga munosabat keskin ravishda o'zgardi. Ayrim mutaxassislar hisob-kitobiga ko'ra rivojlanayotgan tillardagi yangi leksikaning 80-90%ni terminlar va boshqa maxsus leksik birliklar tashkil etishini inobatga olish kerak, chunki ko'p olimlar tomonidan e'tirof etiladigan "til intellektuallashuvi" ma'lum darajada tilda maxsus leksikaning keng qo'llanilishi bilan bog'liq"[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbek tilining 6 jildli izohli lug'atida kurash terminiga quyidagicha ta'rif berilgan[3.3-jild]:

KURASH 1. Yiqitish, g'olib chiqish uchun ikki kishi o'rtasidagi, ma'lum qoidaga asoslangan olishuv, o'zaro bellashuv. U hozir kurashda raqibini yonboshga olib otgan, lekin raqibi tikka tushib, o'zi yonboshga olingan kishining ahvoriga tushib qoldi. A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. Elmurod sahn o'rtasida to'planishgan yoshlar tomoniga ketdi. Bu yerda kurash boshlangan bo'

'lib, Davlatyor bilan Ma'murjon bel olishmoqda edi. P.Tursun, O'qituvchi.

Bugungi kunda kurash atamasining quyidagi ma'nolari mavjud:

Kurash(ga) tushmoq Yiqitish yoki g'olib chiqish uchun o'zaro bellashmoq, kurashmoq. U yerda bolalar kurash tushishadi, chillak o'ynashadi. E.Raimov, Ajab qishloq. -Ha, sen gitlerchilar bilan kurash tushgani kelganmiding? — kuldi Bektemir. Oybek, Quyosh qoraymas.

Yiqitishga asoslangan bellashuvlarning umumiy nomi, sportning shunday turi. Milliy kurash. Erkin kurash. Dzyudo kurashi. —Barotpolvon dunyoda ikki narsani yaxshi ko'rar edi: birinchisi - kurash, ikkinchisi - ashula. M.Ismoilij, Farg'ona t.o.

Belbog'li kurash q. Belbog'li.

Sportning biror turi bo'yicha kuch, mahorat, ustunlik ko'rsatish uchun bo'lgan musobaqa. Hozir shaxmat toji uchun kurash bormoqda. — Trener menga qo'jqop berayotib: -Mashg'ulot vaqtida ham, haqiqiy kurash vaqtida ham yura-gingni saqla, — der edi. LRahim, Chin muhabbat.

Yiqilgan kurashga to'yimas O'zaro musobaqada yoki olishuvda bir necha bor yutqazganda yoki mag'lubiyatga uchraganda ham yana musobaqalashishni yoki olishuvni talab etaveradigan shaxs haqida aytiladigan maqol. Ammo yiqilgan kurashga to'yimas deganlaridek, shundan keyin ham To'xtamishning ko'zi ochilmadi. U tag'in kuch to'plab, Amir Temurdan o'ch olmoq payida bo'ldi. X.Davron, Sohibqiron nabirasi.

Qarama-qarshi bo'lgan tomonlar o'rtasidagi ustun kelish, g'alaba qilishga qaratilgan to'qnashuv, olishuv, jang. Siyosiy kurash. Mafkuraviy kurash. Dushman kuchlari o'rtasidagi kurash. — Abdullajon bosqinchilar bilan kurashda halok bo'ldi. H.Shams, Dushman. Xudoyor, nihoyat, qayin otasi bilan kurashda o'ziga birinchi suyanchiq qilib shu keyingi sinf ulamoni oldi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

Biror narsaga erishishga, biror maq- sadni amalga oshirishga qaratilgan fao- liyat, xatti-harakat. Tinchlik uchun ku- rash. — Va 'daniy ustidan chiqish uchun hozir har bir qurilish maydonida qizg 'in kurash bormoqda. Gazetadan. Brigada- da g'o 'zavoz hozirgi hosilini tutib qo- lish, mavjud hosilga hosil qo 'shish uchun kurash boshlandi. LRahim, Chin mu- habbat.

Biror kimsa yoki narsaga qaratil- gan faol qarshilik; uni yengish yoki yo'q qilish uchun bo'lgan harakat, olishuv.

Esliklik sarqitlariga qarshi kurash. Ji- noyatchilikka qarshi kurash. Qishloq xo 'jaligi zararkunandalariga qarshi ku- rash. — Hozir ichkilikbozlik, alkogo- lizmga, giyohvandlikka qarshi ochiq- chasiga ayovsiz kurash olib borilmoq- da. Gazetadan.

ko'chma. Qarama-qarshi qarash, his-tuyg'u va sh.k. lar to'qnashuvi, oli- shuvi. Chollar odamlar davrasida an- cha jim o'tirishdi. Ichlarida aytish va aytmaslik kurashi ketayotgani ravshan edi. MJsmoiliiy, Farg'ona t.o. Qarama- qarshi g'oyalari kurashi esa so 'nggi na- falgacha davom etadigan hayot-mamot jangidir. "O'TA".

Milliy sport turlarining rivojlanishi terminlarning ham rivojiga olib keladi. Milliy sport turlari nafaqat bugun, balki ko'plab allomalarning asarlarida ham bayon qilingan. Shu jumladan Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida badan tarbiyasi, sog'lik uchun foydali bo'lgan milliy sport turlarini aytib o'tadi.

Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida milliy sport o'yinlari badan tarbiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, ularning turlarini shunday yozadi: "Shu turga kishining o'z soyasi bilan olishishi, chapak chalish, sakrash, nayza uchi bilan sanchish, katta va kichik kurralar bilan chovgon o'yini, koptoklar bilan o'ynash, kurash, tosh ko'tarish, quvlashish va chopayotgan otni jilovidan tortib to'xtatish kiradi"[4].

Kurash haqida: "Kurashning turlari ham bir nechadir: ulardan biri ikki kurashuvchining har biri o'z raqibining belbog'idan ushlab o'ziga tortadi. Shu bilan birga kurashuvchi o'z raqibidan qutulishning chorasini qiladi. Ikkinchisi esa uni qo'yib yubormaslikka harakat qiladi. Boshqa turi ikki kurashuvchilardan biri ikkinchisini o'ziga tortadi va ag'daradi, bu vaqtda birinchi kurashuvchining o'ng qo'li ostidan o'tishi kerak (kurashuvchilar) goh qadrlarini tiklab, goh egiladilar. Kurash turlariga yana ko'krak bilan zarbani qaytarish, ikkinchi bir kishining bo'yidan ushlab pastga egish, bir-birovining oyoqlarini o'z oyoqlari bilan chalkashtirib chalib yoki oyoqlari bilan ikkinchisining oyoqlarini yirib qilinadigan va polvonlar ishlatadigan harakatlar ham kiradi"[4].

Badiiy asarlarda ham sport terminlari qo'llanilgan o'rinlar uchraydi. Ayniqsa, "Yulduzlar mangu yonadi" asarida xalq tilida qo'llaniladigan kurash sportiga doir terminlar qo'llanilgan:

To'yxona yonidagi hovlida erkaklar davra qurdi. Bu davra olish bo'ladi. Davra uzra simchiroqlar osildi. Polvonlar oyog'iga zax o'tmasin uchun davraga somon sepildi. Davra chetida yonib bo'lmish olov cho'g'i yashnadi. Polvonlar sovuq qotsa, ana shu cho'qqa isinadi.

To'rda o'tirgan kolxoz raisi: — Qulmat-ay! — dedi. — Qo'shxonalarga bor-da, mehmonlarga xabar ber! Olish boshlandi, de! Chop, zuvillab borib, zuvillab kel! Xiyol o'tmadi, mehmonlarda keldi.

Olidan kelmishlar qo'ngan xonadon olam-jahon odam bo'ldi. Davra liq to'ldi. Joysiz qolmishlar tik turdi. Davra sirtidagi mashinalarga chiqib o'tirdi. Davraga qarash uchun bo'yi yetmovchi bolalar daraxt shoxlari ayrisiga chiqib o'tirdi, devorlarga minib o'tirdi. Kolxoz raisi bosh bakovul bo'ldi. Bakovul oldida turli-tuman ro'mol, gilam, kalish, choponlar bo'ldi. Bakovul ketida to'y xizmatkorlari g'unajin, qo'y, echki ushlab turdi. Bular sovrinlar bo'ldi.

Davra aylandi. Hotam polvonga qarab qulochini uzun ochdi. Hotam polvon yoqasidan ushladi. Bir-ikki silkidi. Avaylab chil berdi. — Yo, pirim! — dedi. Davra qariyalarga qarab jo'shib ketdi. — Ha-ha, bo'sh kelmang, polvon bova! — dedi. — E, bo'ldi-ye, charchab qoldirlaringiz! — Polvon bova, unday chil bermang-e. Hotam polvonga tanisog'lik kerak! Oqsoqollar bir-birini qo'yib yubordi. Bosh bakovul oldiga keldi. Bakovul oqsoqollar beliga bittadan to'nlik beqasam boyladi. — Bali, kuchlaringiz barobar ekan! — dedi. Oqsoqollar bo'sh kelmadi. — Eb-ey, nimalar deyapsiz, rais bova? — dedi Hotam polvon. — O'ngimga kelib edi-yu, tag'in, Bo'ri polvonning biron yeri lat emasini dedim-da! — Nima-nima? — dedi

Bo'ri polvon. — Ukkag'ar Hotam polvon-e! Sizga o'xshaganlarni manavi chinachog'im bilan yiqitaman, ha! Hadis (kuch sinashish).

Shunday qilib, ajdodlar udumi bajo keltirildi. Yoshlarga yo'l ochildi. Oq yo'l, yoshlar!

Bo'ri polvon davra aylandi. Davraga murojaat etdi: — Xaloyiq! — dedi. — Davrada halol olishib, elga tomosha ko'rsataylik! Haq-nohaqni men — o'zim ajrim qilaman! Aytganim aytgan, deganim degan! Davradagi Bo'ri polvon so'zim: tarafkashlik, g'irromlik, oshna-og'aynigarchilikka yo'l qo'ymayman! Bo'ri polvon tevarakka alangladi. Bir burchakda qunishib o'tirmish besh-olti yoshli bolani ko'rib qoldi. Bola raisning o'g'li bo'ldi. Bo'ri polvon atayin shu bolani yetaklab keldi. — Otingiz nimaydi, polvon? — dedi. — Shukuy! — E, yashang, Shukur polvon! Bolalar, manovi Shukur polvon bilan olishadigan mard bo'lsa o'rtaga chiqsin! Telpagi quloqlarini tushirib olmish bir bola chiqib keldi. Ketidan otasi ovoz berdi: — Polvon bova, manovi Ermat polvonni bir sinab ko'ring! Bo'ri polvon Ermatningda qo'lidan ushladi. — Ermat polvon, — dedi, — siz manovi Shukuy... e, astag'firullo, Shukur polvon bilan olishasizmi? O'zi, yurak uryaptimi? E, bali, gap bunday bo'pti-da! Qani, yuringlar. Rais bova, manavi polvonlarga duo bering. Do'rjroq zot qo'ying, kelbatidan ikkoviyam katta polvonga o'xshayapti! Polvonchalar bosh bakovul ro'parasiga cho'kkaladi. Bakovul duo berdi: — Sizlarga o'z'laringiz bop bir to'n, bir so'm pul qo'yildi, ollohu akbar! Yaxshiroq olishsalar, yana bir zot qo'shamiz! Yechinmasdan olisha beringlar, kun sovuq! Bolalar davra aylandi. Ammo... chappa tarafdin aylandi! Davra gurr etib kulib yubordi. Bo'ri polvon bolalarni ushladi. — Eb-ey, eb-ey! — dedi. — Manovi tarafdin aylaninglar! Kulmang, xaloyiq, polvonlar g'ayratiga chiday olmay, shoshib qoldi, ha! Polvon shuytib-shuytib polvon bo'ladi-da!

Bo'ri polvon Shukurning yelkasiga qo'lini qo'ydi. — Polvon, yiqitilmadingiz, boshqatdan olishing! — dedi. — Yelkangizni ko'p siltamang. Yo, otangizga ishonaysizmi? Otangiz idoraga rais! Davraga Bo'ri polvon rais! Turing! Shukur qobuq-tumshuq qildi. Otasi qabatiga o'tib o'tirdi. Bo'ri polvon Shukurni silab-suydi. Chuchuk-chuchuk so'zlar aytdi: — Shaytonga hay bering, polvon, chiqing endi. Aylanayin polvonimdan. Polvonimdan-da, polvonimdan-da... Shukur iyib ketdi. Tag'in davraga kirdi. Bu safar Ermat enkayib-enkayib keldi. Shukurning qo'litqlari ostidan kirib ko'tarmoqchi bo'ldi. Shukur Ermatning boshini ko'kragi ostiga qisdi. Qo'llarini qo'ltag'idan o'tkazib ushladi. Yotibotarga oldi: o'zi birdan orqaga yotib qolib, Ermatni ustidan oshirib otmoqchi bo'ldi. Ammo... o'zi ostida qoldi! Bo'ldi kulgi! Shukurga alam qildi. Ermatga qo'lini musht qilib ko'rsatdi. — Sen bilan yanagi to'yda olishaman! — dedi. Ermat bakovul ro'parasiga o'tirishi bilan bir talay bola chopib kelib yoniga cho'kkaladi. Shukurga tarafkash bolalar bir-biriga so'z bermay talashdi, bakovulga elandi: — Bova, Ermat polvon bilan meni olishiring, u qalin oshnamni yiqitdi! — Yo'q, Ermat polvon bilan men olishaman [5].

**Tahlil va natijalar.** O'zbek xalq o'yinlari ichida milliy sport turlari yetakchi o'rinda turadi. Milliy sport turlariga – kurash, yurish, poyga, sakrash, suzish, chavgon, nard va shatranj, suyak yoki tosh sindi rish, tosh yoki og'irlik ko'tarish; harbiy-amaliy sport turlariga – chavandozlik, tiyrandozlik, qilichbozlik, tayoqbozlik, mushtla shish, sapqon yoki palaxmondan otish kabilar kiradi. Binobarin, bolalar o'rtasida harbiy-amaliy tavsiyaga ega bo'lgan harakatli o'yinlar ham ko'plab o'ynalgan. Chavandozlik eng qadimiy sport turi hisoblanadi. U bilan bog'liq bo'lgan "Ko'pkari", "Poyga", "Ag'darish", "Ot ustida qilichbozlik", "Chavgon", "Qovoq", "Qiz quv moq" kabi sport turlari ham xalqimiz orasida mavjud. Sport ning qilichbozlik turida ham ajdodlarimiz juda mashhur bo'lish gan. Ibtidoiy jamiyatda ham asosiy ov qurollaridan biri tayoq hisoblangan. Hozirgi paytda tayoq ishlatish san'ati faqatgina sharq yakkakurashi o'yinlarida qolgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rmda shuni aytish mumkinki, bugungi kunda rivojlanib borayotgan sport terminlarining asli milliy sport o'yinlari va insonning kundalik turmush tarzi, salomatlik uchun zarur omil sifatida yuzaga kelgan va bu rivojlanish hamda taraqqiyot omili sifatida sport terminlariga aylangan. Milliy sport atamalarini o'rganish, tadqiq qilish va uni amaliyotga joriy qilish qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va ma'naviy boylıklarimizni yuksaltirishda muhim omildir.

#### ADABIYOTLAR

1. Гаффаров Нодир Насриевич. Спорт терминларининг лисоний тадқиқи: когнитив-прагматик ва лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалсафа фан.док.(DsC) дисс. 2022.
2. Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк терминологияси. -Тошкент., Фил.фан.бўйича фалсафа фан.док.(PhD) дисс. 2020.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2021
4. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari". – Toshkent., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.Saylanma. 1993. 92-93-bet
5. Tog'ay Murod "Yulduzlar mangu yonadi". – Toshkent., Sharq nashriyoti. Saylanma. 1994. 4-6-bet

6. Usmonxo'jayev T.S., Kopadze O.A., Usmonxo'jayev S.T., Chorshamiyev N.A.. Milliy xalq o'yinlari.- Toshkent. Metodik qo'llanma.2022.8-bet



Nargiza MIRZALIYEVA,  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi  
E-mail: [uzbektili@mail.ru](mailto:uzbektili@mail.ru)

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti prof.v.b, f.f.d. G. Jurayeva taqrizi asosida

#### ABDULLA QAHHOR VA XEMENGUEY HIKOYALARI QAHRAMONLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada Abdulla Qahhor hikoyalari qahramonlar nutqi orqali ularning xarakteri, ruhiyatini ochib berish masalasi ilgari surilgan. Tadqiqot davomida Qahhor hikoyalari qahramonlarini xorijiy asarlar qahramonlari bilan solishtirish asar mohiyatini yana-da kengroq ochish imkonini berishi ta'kidlangan. Xususan, nobel mukofoti sovrindori Ernest Xemenguey hikoyalari qahramonlariga taqqoslab o'rganish masalasi ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Asar qahramoni, hikoya, ruhiyat, nutq, nutqiy xoslanish, taqqoslash, qahramon ichki dunyosi, holati, asar qiymati.

#### CHARACTERISTIC ASPECTS OF THE HEROES OF ABDULLAH QAHHOR AND HEMENGUEY'S STORIES

Annotation

In the article, the question of revealing the character and psyche of the characters in the stories of Abdulla Qahhor is put forward. In the course of the research, it was noted that comparing the heroes of the stories of Cairo with the heroes of foreign works allows to reveal the essence of the work more broadly. In particular, the issue of comparative study with the heroes of the stories of Nobel laureate Ernest Hemingway was put forward.

**Key words:** Hero of the work, story, mentality, speech, speech characteristic, comparison, inner world of the hero, situation, value of the work.

#### ХАРАКТЕРИСТИКА ГЕРОЕВ РАССКАЗОВ АБДУЛЛЫ КАХХОРА И ХЕМЕНГЮЭЯ

Аннотация

В статье ставится вопрос раскрытия характера и психики героев рассказов Абдуллы Каххора. В ходе исследования было отмечено, что сравнение героев каирских рассказов с героями зарубежных произведений позволяет шире раскрыть суть произведения. В частности, был выдвинут вопрос сравнительного изучения героев рассказов нобелевского лауреата Эрнеста Хемингуэя.

**Ключевые слова:** Герой произведения, рассказ, мышление, речь, речевая характеристика, сравнение, внутренний мир героя, ситуация, значение произведения.

**Kirish.** Asar qahramonlarini o'rganishda ularning ruhiyati tasviri anchadan buyon adabiyotshunoslar e'tiboridagi murakkab masalalardan biri hisoblanadi. U haqda ilk kuzatishlar olib borgan N. G. Chernishevskiy L. N. Tolstoy ijodida psixologizmning rang-barang shakllari mavjudligini ta'kidlab o'tgan edi[1].

L. S. Vigotskiy til va tafakkur, adabiyot va jamiyat, ijod va idrok psixologiyasining o'zaro munosabati bo'yicha qimmatli kuzatishlar qoldirdi. His-tuyg'ularning badiiy fantaziya obrazlariga aylanishi borasidagi qarashlari olimning "har qaysi davr san'at tomonidan saralab olinadigan o'z psixologik gammasiga ega"ligi haqidagi mulohazasida umumlashgan[1]. Asar qahramonlarining ruhiyati jiddiy tahlil qilinishi lozim bo'lgan masalalardandir.

Qahorning "Bemor" hikoyasi Hemengueyning "Dahshatli kutish" asariga qiyoslansa, ikkida ham bemor kishi bor, biroq bittasida ota o'g'lining sog'ayishini kutishi dahshatli bo'lsa, ikkinchisida er o'z xotinini tuzata olmay sarson bo'lishi dahshatli tasvirlangan.

Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi - bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi, betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi, baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin kelib, tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi. Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxonaga bor. Bu doktorxonaga to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va oq imorat: shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayin Abdug'aniboy omborida qulab ketgan qoplar ostida qolib uladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Sim'ga ketgan edi.

Doktorxonaga deganda Sotiboldining ko'zi oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi. Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'ldan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi. Devonai Baxovaddinga hech narsa ko'tardingimi? o'avsula'zamga-chi? Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb kilishga majbur

bo'ldi - har xil savatchalar to'kishni o'rgandi. U ertadan kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko'milib savat to'qiydi. To'rt yashar qizchasi qo'lga ro'molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xirra pashshalardan quriydi, ba'zan, qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hammayoq jim. Faqat pashsha g'ing'ilaydi. Bemor inkilaydi, har zamon yaqin - yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: «Xey do'st, shaydullo ba nomi Ollo, sadaqa raddi balo, ba qavli rasuli xudo...» Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingranda Sotiboldi chakkasiga biron solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo'shnisi - bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yoq bu yog'ini siladi, so'ngra ... o'tirib yig'ladi. Begunoh go'dakning saxarda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni! - dedi. Bola anchagacha uyqu g'ashligi bilan yig'ladi. Keyin otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rkib, kampir o'rgatgancha duo qildi:

- Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin... Bemor kundan kunga battar, oxiri usal buldi. «Ko'ngilga qolgan mushuk» hikoyasining deb «Chilyosin» xam qildirishga to'g'ri keldi. Sotiboldi to'kigan savatlarini ulgurji oladigan baqqoldan 20 tanga qarz ko'tardi. «Chilyosin»dan bemor tetik chiqqanday bo'ldi, shu kechasi hatto ko'zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

- Xudo qizimning saxarlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saxarlari uyg'otmang. Yana ko'zini yumdi, shu yumgancha qaytib ochmadi - saxarga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o'lik yonidan olib, boshga yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

- Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Hikoyada farzandi tomonidan tinmay duo qilinayotgan onaning bemorligi jamiyatdagi muammolari ochiq ifodalab beradi.

Q.lusupova "Yomg'irda qolgan mushuk" hikoyasining bosh qahramoni amerikalikayol ismsiz tarzda tasvirlanadi. Hikoya avvalida biz uni turmush o'rtog'i Jorj bilanItaliyadagi mehmonxonaga dam olgani kelganini ko'ramiz. Mehmonxonaga dengizgaqarata qurilgan, orqasida bog'i, ro'parasida esa urush sharafiga katta haykal o'rnatilgan maydoni bor. Butun hikoya davomida muttasil yomg'ir yog'ibturadi, shunday ekan, yosh juftlik tashqariga chiqolmay, xonalariga qamalib olishga majburbo'ladi. Amerikalik ayol yog'ayotgan yomg'irni tomosha qilib turarkan, to'satdanbog'dagi stol ostida yomg'irdan o'zini panalagancha qunishib o'tirgan mushukchagako'zi tushadi. Birdan ayolning himoyasiz mushukchaga

rahmi keladi va uni xonasigaolib chiqishni qattiq istab qoladi. Biroq u tashqariga chiqqanida mushuk qayoqqadir'oyib bo'ladi, umidi so'ngan ayol mehmonxonaga quruq qo'l bilan qaytib keladi. Shuyerda biz uning eri bilan kechgan suhbatidan erkakning ayolga nisbatanjudabeparvo, anchayin xudbin va boqibeg'am bir kimsa ekanligini ko'ramiz. Uxotini mushukni olgani tashqariga chiqib ketayotganida ham yotgan joyidanboshini ko'tarmaydi, quruqqina qilib "Yomg'irda ivib ketma", deb qo'yadi, xolos. Ayolning bu munosabatdan ancha yillardan beri ko'ngli o'ksigan, u o'zini butun umr yolg'iz, e'tiborsiz, mehrsiz holda his qilib yashagan. U o'sha mushukchani hamqalibini ayovsiz ezayotgan yolg'izlikdan, hasratlaridan qutqarish uchungina istagan, ubilandardu g'amlarini biroz bo'lsa-da unutishni, taskin topishni xohlagan edi. Chunki ayol yaxshi bilardiki, bundan buyon ham unga erining mehr, e'tibor berishi anchadargumon edi[3].

Q.Iusupova "Yomg'irda qolgan mushuk" hikoyasining yana bir muvaffaqiyati shundaki, o'quvchi unda ortiqcha ramzlarga, o'xshatish, metafora yoki troplarga duchkelmaydi. Biroq Xeminguey uslubi shundayki, u hamisha o'z kitobxoniga soddalikvalo'ndalik orqali o'zining murakkab va mukammal g'oyalari singdirishga erishibkelgan. "Unda (hikoyada) badiiy adabiyotda biz ko'nikkan sifatlar, tashbehlar, bo'rttirishlar, obrazli ifodalar uchramaydi – quruqqina yozilganday taassurot uyg'otadi. Lekin zohiran hishayajonsiz, ehtirosiz, quruq tuyilgan bilanbotinanto'laqonli, jo'shqin, ehtirosqa limmo-lim asar. Ta'bir joiz bo'lsa, aysberg –muzqoyaning asosiy qismi suv ostida, ya'ni bu o'rinda matn zamirida, bir uchiginasuvyuzasida ko'rinish beradi. Shu jihati bilan hikoya yozuvchi yaratgan "aysbergnazariyasi"ning barcha talablariga javob beradi"[4].

Xeminguey hikoyalari o'zining ixchamligi, lo'nda va ma'noli dialoglarga boyligi, muallifning ortiqcha izohsiz yozilganligi bilan boshqa yozuvchilar ijodidanajralibturadi. "Yomg'irda qolgan mushuk" hikoyasida ham biz yozuvchining hikoyayaratish mahoratiga qoyil qolsak, bir tomondan asardagi ayol obrazining imsishtarzda tasvirlanishiga qaramasdan, unga nisbatan o'quvchi qalbida xayrixohlik, rahm-shafqat uyg'ota olganligiga to'la iqror bo'lamiz. Go'yo Xemingueyning birginaayol obrazi orqali butun Amerika, butun dunyo ayollari hamisha mehr, ehtiro, hurmat va e'tiborga mutlaq loyiq ekanligini his qilish mumkin:

Matn:

"Cat in the Rain"

by Ernest Hemingway

There were only two Americans stopping at the hotel. They did not know any of the people they passed on the stairs on their way to and from their room. Their room was on the second floor facing the sea. It also faced the public garden and the war monument. There were big palms and green benches in the public garden. In the good weather there was always an artist with his easel. Artists liked the way the palms grew and the bright colors of the hotels facing the gardens and the sea. Italians came from a long way off to look up at the war monument. It was made of bronze and glistened in the rain. It was raining. The rain dripped from the palm trees. Water stood in pools on the gravel paths. The sea broke in a long line in the rain and slipped back down the beach to come up and break again in a long line in the rain. The motor cars were gone from the square by the war monument. Across the square in the doorway of the cafe a waiter stood looking out of the empty square.

Buni tarjimada quyidagicha bayon qilish mumkin:

Mehmonxona oldiga kelib tushgan amerikaliklar atiga ikkitagina kishi edi: er-xotin muhojirlar. Ular o'z xonalari tomon yo'l olishar ekan, yo'llarida, zinalarda uchratgan odamlaridan hech qaysisini tanimadilar. Muhojirlarning ko'm-ko'k dengiz tomon yuz tutgan xonasi ikkinchi qavatda joylashgandi. Yana katta bog' bilan bitta urush yodgorligi ham xonaga ro'baro' yerda edi. Bu ulkan bog' ichida o'sib yotgan bahaybat palma daraxtlari hamda yo'lkalar chetiga o'rnatilgan o'rindiqlar bog' ko'rkiga yana-da ko'rk bag'ishlab turardi. Havo soz bo'lgan chog'lar bu yerda kichkinagina ko'rgazma stendini ko'tarib olgan qandaydir rassom paydo bo'lib qolardi. Osmonga behadik bo'y cho'zib ketgan salobatli palma viqori hamda bepoyon bog' bilan dengizga yuzlanib turgan mehmonxona binosining yariqiroq ranglari bu rassomga juda manzur bo'lardi. Boyagi urush yodgorligini tomosha qilish uchun ham bu yerga uzoq-yaqindan ko'plab italiyaliklar kelib turishardi. Haykal bronzadan ishlangan bo'lib, yomg'ir ostida u yana-da yarqirab ko'rinardi. Ayni chog'da havo tund, sharros yomg'ir quyardi. Palma yaproqlari uchidan ham yomg'ir tomchilari bir-bir tomchilab tushardi. Bog'dagi shag'al yo'lak uzra yomg'ir suvlari katta-kichik halqoblar hosil qilgandi. Bir tomondan cheksiz dengiz betaskin to'lg'onib yotar, jala ostida qolgan asov

to'liqlar dam o'rindiqlargacha urilib kelar, dam o'tmay shashtlaridan qaytib, tag'in ortga chekinib ketishardi. Urush yodgorligi yonidagi maydon ichida turgan turli sayyohlarning yengil mashinalari ham bir zumda bu yerni tark etib jo'nab ketishdi. Maydon chetidagi qandaydir kafe ostonasida paydo bo'lib qolgan bitta ofitsiant kimsasiz qolgan maydon sathi uzra termulganacha turib qoldi.

The American wife stood at the window looking out. Outside right under their window a cat was crouched under one of the dripping green tables. The cat was trying to make herself so compact that she would not be dripped on.

"I'm going down and get that kitty," the American wife said.

"I'll do it," her husband offered from the bed.

"No, I'll get it. The poor kitty out trying to keep dry under a table."

The husband went on reading, lying propped up with the two pillows at the foot of the bed.

"Don't get wet," he said.

The wife went downstairs and the hotel owner stood up and bowed to her as she passed the office. His desk was at the far end of the office. He was an old man and very tall.

"I'll piove," the wife said. She liked the hotel-keeper.

"Si, si, Signora, brutto tempo. It is very bad weather."

He stood behind his desk in the far end of the dim room. The wife liked him. She liked the deadly serious way he received any complaints. She liked the way he wanted to serve her. She liked the way he felt about being a hotel-keeper. She liked his old, heavy face and big hands.

Liking him she opened the door and looked out. It was raining harder. A man in a rubber cape was crossing the empty square to the cafe. The cat would be around to the right. Perhaps she could go along under the eaves. As she stood in the door-way an umbrella opened behind her. It was the maid who looked after their room.

"You must not get wet," she smiled, speaking Italian. Of course, the hotel-keeper had sent her.

Qahhor hikoyalarida ham shunday holat kuzatiladi. Uning "Mayiz yemagan xotin" hikoyasida ayol obrazi tasvirlangan:

Ayol kishi erkakka qo'l berib so'rashdimi — bas!.. Ro'za tutgan kishi og'zini chayqasa, suv tomog'iga ketmasa hamki, ro'zasi ochiladi — shu og'iz chayqashdan bahra oladi-da! Abdulhakimning qiziga usta Mavlonning o'g'li bir hovuch mayiz berganini o'z qo'zim bilan ko'rganman. Hayo bormi shularda? Shariat yo'li — xo'p yo'l. O'n bir yasharida parangi yopinmagan qizdan qo'lni yuvib qo'ltiqqa ura bering. Parangi hayoning pardasi-da! Mulla Norqo'zi har kuni bozordan qaytib samovarga chiqadi va ko'ngli tortgan odamlarni atrofiga to'plab, yarim kechagacha shariatdan yuz o'g'irgan xotinarlar to'g'risida shunday vaysab o'tiradi; ba'zan panjasini yozib, o'zi bilgan oilalarni sanab chiqadi:

— Sotiboldining xotini dorixonada ishlaydi, har kuni mingta odam bilan javob-muomila qiladi: axir, bittasi bo'lmasa bittasi ko'z qisadi-da!

Ernest Hemengueyning "Yomgirda qolgan mushuk" hikoyasida ham qahramonning nutqi orqali uning xarakteri yorqin ochib berilgan:

With the maid holding the umbrella over her, she walked along the gravel path until she was under their window. The table was there, washed bright green in the rain, but the cat was gone. She was suddenly disappointed. The maid looked up at her.

"Ha perduto qualche cosa, Signora?"

"There was a cat," said the American girl.

"A cat?"

"Si, il gatto."

"A cat?" the maid laughed. "A cat in the rain?"

"Yes," she said, "under the table." Then, "Oh, I wanted it so much. I wanted a kitty."

When she talked English the maid's face tightened.

"Come, Signora," she said. "We must get back inside. You will be wet."

"I suppose so", said the American girl.

They went back along the gravel path and passed in the door. The maid stayed outside to close the umbrella. As the American girl passed the office, the padrone bowed from his desk. Something felt very small and tight inside the girl. The padrone made her feel very small and at the same time really important. She had a momentary feeling of being of supreme importance. She went on up the stairs. She opened the door of the room. George was on the bed, reading.

Qahhorning "Mayiz yemagan xotin" hikoyasida ham qahramonlar, xususan ayollar nutqi orqali ularning ichki dunyosi

tasvirlab berilgan, ammo Qahhor ayol qismati orqali xurofotga berilgan erni fosh qilmoqchi bo'ladi:

“Namoz o'qiydi, odatdagi ro'zadan tashqari ashir oyida ro'za tutadi, zavoddan chiqqan nonni, hozirgi kushxonalarda so'yilgan molning go'shtini yemaydi. U kelib turganda mulla Norqo'zi tashqarida — mehmonxonada yotib yuradi va uyini allaqanday nurdan munavvar bo'lgandek sezadi. Shuning uchun boshqa mehmonlarday sira uning «izzati uch kun» bo'lmaydi, necha kun tursa ham, tovuq go'shtini quymoqqa o'rab, qaymoqqa botirib yeydi. Uzoq turib qolgan vaqqlarida xotini: — Qurib ketsin, keta qolmaydi ham. Lablarim quruqshab ketdi. Sadqai erkaklik keting, xilvatga tortib o'pishni ham bilmaysiz! - deb chiqsa, mulla Norqo'zi urishib beradi: — O'zingga munosib gapni gapir! Yengil bo'lma! Mehmon - atoyi xudo. Mulla

Norqo'zi safarga ketadigan bo'lib qoldi; ketishidan bir kun ilgari xotiniga aytib, o'sha farishtani oldirdi va o'rta eshik oldiga borib qiyomatlik singlisidan iltimos qildi: — Singlim, men o'n kunda qaytib kelaman, kelgunimcha o'rtog'ingiz bilan birga bo'ling. Mana, o'zingiz ko'rgan joy, bemalol ayshlaringni qilinglar. Xo'pmi, singlim?

**Xulosa.** Ernest Hemenguey va Abdulla Qahhor hikoyalarda umumiy tomonlar ham yo'q emas, xususan, ulardagi ifodaning ixcham va ta'sirchanligi, real voqealarga asoslangani va boshqalar, ammo farqli jihatlari ko'p, ayniqsa, Hemenguey inson psixologiyasida bo'ladigan o'zgarishlarni, ruhiy kechinmalarni bayon qilishga urunadi, Qahhor esa, qahramonni u yashab turgan muhit, jamiyatdagi kamchiliklar bilan birga tasvirlaydi, muhimi, unda obrazlar ruhiyatini ochish oldingi planda turadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Чернышевский Н. Г. Детство и отрочество. Военные рассказы. Сочинения графа Л.Н. Толстого. Собр. соч.: В 15 т. Т. 2. – М.: 1949. – С. 505.
2. Выготский Л.С. Психология искусства. – СПб.: Азбука, 2000. – С. 93.
3. Iusupova Q. “Yomg'irda qolgan mushuk” hikoyasi tarjimasida yozuvchi uslubini saqlash masalasi // Zamonaviy tilshunoslik va tarjima shunoslikning dolzarb muammolari. Issue, 01/01/2023. <https://kelajakbunyodkori.uz/>
4. Отахон, О. Сархадлар. // Жахон адабиёти.- Тошкент, 2014. - №12. -Б127





Xosiyat NAVRUZOVA,  
ToshDO‘TAU tayanch doktranti  
E-mail: navruzovaxosiyat363@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori DSc, Professor v.b. K.M.Mavlonova taqrizi asosida

### THE EXPERIMENTAL STUDY OF TEACHING COMPOUND SENTENCES THROUGH SPEECH SKILLS.

Annotation

For the superiority of traditional grammar in mother tongue education, linguistic knowledge about sentence forms was given in high school textbooks. In this article, an experimental study of the teaching of 5th grade students with the help of speech skills is presented. It has been proved on the basis of experience that giving linguistic knowledge about speech forms in the system of spiral language teaching from simple to complex, not in the 8th-9th grade, but from the primary grade. From the results of the last experiment, it was found that the tasks and materials developed on the basis of 4 speech skills to develop students' knowledge of the connected sentence can help them to develop their linguistic skills. showed a secret.

**Key words:** Sentence forms, conjunction, comparison, contrast, traditional grammar, 4 speech skills.

### ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ОБУЧЕНИЯ КОМБИНИРОВАННОЙ РЕЧИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГОВОРНЫХ НАВЫКОВ

Аннотация

За превосходство традиционной грамматики в обучении родному языку лингвистические знания о формах предложений давались в школьных учебниках. В данной статье представлено экспериментальное исследование обучения учащихся 5 классов с помощью речевых умений. На основе опыта доказано, что предоставление лингвистических знаний о речевых формах в системе спирального обучения языку от простого к сложному происходит не с 8-9 класса, а с начальных классов. По результатам последнего эксперимента было установлено, что задания и материалы, разработанные на основе 4 речевых навыков для развития знаний учащихся о связном предложении, могут помочь им в развитии языковых навыков, показанных в секрете.

**Ключевые слова:** Формы предложений, союз, сравнение, противопоставление, традиционная грамматика, 4 разговорных навыка.

### QO‘SHMA GAPLARNI NUTQIY KO‘NIKMALAR YORDAMIDA O‘QITISHNING TAJRIBAVIY TADQIQI

Annotatsiya

Ona tili ta‘limida an‘anaviy grammatika ustunligi uchun gap shakllari haqidagi lingvistik bilimlar yuqori sinf darsliklarida berilgan edi. Ushbu maqolada bo‘lsa, esa so‘zlari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni nutqiy ko‘nikmalar yordamida 5-sinf o‘quvchilarida o‘qitishning tajribaviy tadqiqi keltirildi. Gap shakllariga oid lingvistik bilimlarni aynan 8 – 9-sinfda emas, boshlang‘ich sinfdan boshlab oddiydan murakkabga qarab spiralsimon til o‘qitish tizimida berish samarali natija berishi tajriba asosida dalillandi. So‘nggi tajriba-sinov natijalaridan shu ma‘lum bo‘ldiki, o‘quvchilarning bog‘langan qo‘shma gap haqidagi bilimlarini rivojlantirish uchun 4 ta nutqiy ko‘nikma asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar va materiallar ularning lingvistik ko‘nikmasini rivojlantirishga sezilarni ta‘sir ko‘rsatgan.

**Kalit so‘zlar:** Gap shakllari, qo‘shma gap, qiyoslash, zidlash, an‘anaviy grammatika, 4 ta nutqiy ko‘nikma.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida[9] “uzluksiz ta‘lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash”, “o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish” kabi vazifalarning belgilab berilishi barcha umumta‘lim fanlarini o‘qitishni va ta‘lim mazmunini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Bu esa o‘z navbatida til ta‘limidan ko‘zlangan asosiy maqsadni chuqur anglagan holda til o‘qitishga nisbatan metodik yondashuvlarni o‘zgartirishni, yangicha yondashuv asosida o‘quv-uslubiy majmualarni yaratishni, ilg‘or tajribalarni ommalashtirishni talab etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Gap shakllarini o‘qitish haqida metodist olimlardan H.Rustamov, M.Omilxonova, A.Sayfullayev, H.Shukrullayev, I.Toshev, T.Yusupova, K.Mavlonova, Y.Qurbonovlarning ilmiy-tadqiqot ishlari va metodik qo‘llanmalari, matbuot sahifalarida yoritilgan maqolalarida fikr yuritilgan.

“Bizning til o‘qitish metodikamizda shu paytgacha preskriptiv hamda an‘anaviy grammatika ustunlik qilgan. Shuning uchun ham qoidalar fonetika – leksikologiya – morfologiya – sintaksis – uslubiyat tarzidagi ketma-ketlikda o‘qitilishi kerak deb qaralgan. Til o‘zlashtirishning psixolingvistik tomonlari hisobga olinmagan. Bu shaklda o‘qitish tilni, uning asosiy vazifalarini emas, uning sxemasini o‘qitish hisoblanadi”[3].

Shu sababdan gap shakllari haqidagi bilimlar 8–9-sinf ona tili darsliklari orqali o‘qitilgan. 8-sinf darsligida sodda gap sintaksisi, 9-sinf darsligida esa qo‘shma gap sintaksisi berilgan.

“Bo‘lsa, esa so‘zlari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar” mavzusida berilgan mashqlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, mavzu bitta topshiriq, nazariy qoida, 6 ta mashq va takrorlash uchun savollardan iborat[6]. Topshiriq uchun jurnaldan olingan bitta gap berilgan va uni

ko‘chirish, qo‘shma gapni qismlarga ajratib, bo‘lsa so‘zining vazifasini aniqlash sharti berilgan. Mashqlar sharti gaplarni ko‘chirish, bog‘lovchi vositalarni izohlash (67-mashq), gaplarni o‘qish, bo‘lsa, esa so‘zlarining gapdagi vazifalarini tushuntirish (68-mashq), bo‘lsa, esa so‘zlari bog‘lovchi vazifasida kelgan to‘rtta gap yozish, qo‘shma gap qismlari o‘rtasida qanday mazmuniy munosabat mavjudligini aytish (69-mashq), qavs ichidagi berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib ko‘chirish, so‘zlarning gapdagi vazifasini aytish (71-mashq)dan iborat. Birgina 70-mashqda o‘quvchini mantiqiy fikrlashga undovchi vazifa berilgan. Mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarning javoblarini nazariy qoidaning tarkibidan to‘g‘ridan to‘g‘ri topish mumkin. Uygaz vazifa uchun berilgan mashq sharti badiiy asardan oltita bog‘langan qo‘shma gap topib ko‘chirish, bog‘lovchi vositalarni tushuntirishdan iborat. Bu mashq umumiy nazariy ma‘lumotga qaratilgan va gap shaklini o‘quvchi qanchalik o‘zlashtirganini tekshirmaydi. Umuman olganda, 9-sinf ona tili darsligi o‘quvchiga asosan nazariy olingan bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Biz ushbu tadqiqotda Bo‘lsa, esa so‘zlari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni nutqiy ko‘nikmalar yordamida 5-sinf o‘quvchilarida o‘qitishni tajribaviy tadqiq qildik. Dastlab o‘quvchilardan bo‘lsa, esa so‘zlari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar ishlatilishi mumkin bo‘lgan mavzuda matn yozish so‘raldi. Ushbu gap turi tinglab tushunish, o‘qib tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalari asosida turli mashq-topshiriqlardan foydalanib o‘qitildi va tajriba oxirida qayta matn yozdirildi. Tajriba natijalari tahlil qilindi.

Tajriba ishtirokchilari. 2022–2023-o‘quv yilida Toshkent shahar Sergeli tumani 351-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 5-“V” sinfidagi 25 nafar o‘quvchi ishtirok etdi.

**Tahlil va natijalar.** Tajribadan oldin yozdirilgan matnda 23 ta ishtirokchidan 4 tasi bo‘lsa, esa so‘zlari yordamida qiyoslash va

zidlash ma'nosini ifodalashga harakat qilgan. Bu tajriba ishtirokchilarining 16%ini tashkil etadi. Quyida o'quvchilar matnidagi gaplar keltirildi.

1. "Supermarket" do'konida oziq-ovqat, sut, qatiq, non, shirinliklar ham bor. "Ideal market"da esa uyga kerakli juva, supurgi kabi narsalar bor. 2. Bizning maktabimiz oldidagi do'konda G'anisher aka ishlaydilar. Xonobod marketda esa uch kishi ishlaydi: Fatxulla aka, Muhabbat opa va Toir akalar. Guzarda esa Zebo opa ishlaydi. 3. Birinchi muzlatgichda muzqaymoq soladilar, ikkinchisida esa ichimlik solishadi. 4. U yerdagi do'konlardan birini qarindoshimiz ochgan, uning yonida esa go'sht mahsulotlari do'koni ham bor.


Shakllantiruvchi topshiriqlardan so'ng tajriba ishtirokchilarining 8%i 4 tadan, 12%i 3 tadan, 8%i 2 tadan, 16%i 1 tadan bo'lsa, esa so'zlari yordamida qiyoslash va zidlash ma'nosi ifodalangani kuzatildi. Umumiy ko'rsatkich tajriba ishtirokchilarining 44%ini tashkil etadi. 14 ta tajriba ishtirokchisi ya'ni 56% o'quvchi o'z matnida bo'lsa, esa so'zlarini qo'llamagan.

Tinglab tushunish va gapirish uchun shakllantiruvchi topshiriqlar o'quvchiga turli yo'nalishlarni tushunish va ularni nutqida to'g'ri ifodalay olishga qaratilgan edi. Bu topshiriqlar ta'sirida o'quvchilar matnida do'konlarning yo'nalishi qiyoslangani kuzatildi. 1. Bizning mahallamizda ikkita do'kon bor. Bittasi uyimizdan chiqib chap tomonga burilsa, ikkinchisi esa o'ng tomonga burilsa chiqadi. 2. Bizning do'konlarga borish uchun biriga o'ngga, biriga esa chapga burilish kerak. 3. Maktabdan chapga yurib, o'ngga qayrilsa, bog'cha oldida do'kon bor, uning oldida esa yana bir do'kon bor. 4. Bizning mahallamizda do'konlar ko'p. Uydan chiqib, ariqdan o'tamiz, o'ng tomonga burilamiz, birinchi chap tomonda, ikkinchi esa ariq oldida. 5. Mahallamiz do'koni joylashuvi uydan chiqib chapga qayrilamiz, keyin esa ozgina yuramiz. 6. Yana bir do'kon bor, unga borish uchun esa uydan chiqib o'ngga burilamiz. 7. Birinchi do'kon chap tomonda, ikkinchi do'kon esa o'ng tomonda joylashgan. "Coke market" mening uyimga yaqin, "Surxon" esa uzoq.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili darslarida lingvistik bilimni o'rgatish samaradorlik darajasi ko'rsatkichlari

(1-jadval)

Baholash Parametrlari	Tajribadan oldin		Tajribadan keyin	
	23		25	
Qo'lladi	(17%)	4 ta	(44%)	11 ta
Qo'llamadi	(83%)	19 ta	(56%)	14 ta



**Xulosa va takliflar.** Tajriba jarayonida Bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplarni o'qitishda 4 ta nutqiy ko'nikmani shakllantirishga alohida e'tiborni qaratish, ularni shakllantirish bilan bog'liq amaliy ahamiyatga ega mashq va topshiriqlarning samarali ekanligi aniqlandi. Gap shakllariga oid lingvistik bilimlarni aynan 8-9-sinfda emas, boshlang'ich sinfdan

boshlab oddiydan murakkabga qarab spiralsimon til o'qitish tizimida berish samarali natija berishi tajriba asosida dalillandi. So'nggi tajriba-sinov natijalaridan shu ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarning bog'langan qo'shma gap haqidagi bilimlarini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan topshiriqlar va materiallar ularning lingvistik ko'nikmasini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

#### ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni // Xalq so'zi. – Toshkent, 2019-yil 30-aprel. № 88 (7318).
- Mavlonova K.M., Shokir Y. Ona tili ta'limida grammatik yondashuv mohiyati Lingvodidaktikaning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 17-22.
- Mavlonova K. Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini integratsiyalash asosida o'rganish metodikasi. Monografiya. – Toshkent, 2016.
- Omixonova M. Maktabda ona tili sintaksisini o'rganish. Ona tili o'qituvchilari uchun qo'llanma. Toshkent, "O'qituvchi", 1991, – 192 b.
- Омилхонова М. Мактабда содда гап синтаксисини ўргатиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 140 б.
- Ona tili. Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. N.Mahmudov, A. Nurmonov, A.Sobirov. – Toshkent: Tasvir, 2019. – 128b.
- Qodirov M., Nematov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: Cho'ipon NNMI, 2019.

8. Toshev I. Umumta'lim maktablarida qo'shma gapning yangicha talqini. Buxoro, 1999, – 152b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PF-5212-son Farmoni.



Munira NIYAZOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: munira.niyazova.81@inbox.ru

QarDU professori, f.f.d., D.To'rayev taqrizi asosida

### O'LMAS UMARBEOV VA GYOTE SENTIMENTAL

Annotatsiya

Irratsional oqimlar romantizm, sentimentalizm kabi yo'nalish va metodlar adabiyot maydoniga kirib keldi. Natijada adabiyot insonning reallikdan tashqaridagi tuyg'ular dunyosi, o'zga olam tasvirlarini ifodalab, inson tuyg'usini tahlil qilishga kirishdi. O'lmas Umarbekovning "Sevgim, sevgilim" qissasi va I.V.Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" romani o'zining ifoda usuli, pokiza tuyg'ularning tarannum etilishi, mazmuniy-g'oyaviy jihatdan adabiyotda va san'atda go'zallik, ezgulik ulashishi bilan o'zbek adabiyoti uchun qadrlidir. Maqolada ularning jo'shqin muhabbat, sof tuyg'ular, nafis insoniy fazilatlar ulug'langan "Sevgim, sevgilim" qissasi va "Yosh Verterning iztiroblari" romanining o'zbek - nemis adabiyotida sentimentallik xususiyatlarini qiyosiy tahlil etgan, umumiy xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** Tabiat, his, tuyg'u, ilk uchrashuv, xronotop, iztirob, tushkinlik, o'lim.

### SENTIMENTAL PROSE OF OLMAS UMARBEOV AND GOETHE

Annotation

Irrational currents such as romanticism, sentimentalism, directions and methods entered the field of literature. As a result, literature began to analyze the human feeling by expressing the images of the world of feelings outside of reality, the other world. O'lmas Umarbekov's short story "My Love, My Love" and I. V. Goethe's novel "The Sorrows of Young Werther" are distinguished by their way of expression, celebration of pure feelings, content-ideological sharing of beauty and goodness in literature and art. It is valuable for Uzbek literature. The article compares the characteristics of sentimentality in the Uzbek-German literature of the story "My Love, My Love" and the novel "The Sorrows of Young Werther", which glorifies their passionate love, pure feelings, and elegant human qualities, and draws general conclusions.

**Key words:** Nature, feeling, emotion, first meeting, chronotope, suffering, depression, death.

### СЕНТИМЕНТАЛЬНАЯ ПРОЗА УЛМАСА УМАРБЕКОВА И ГЁТЕ

Аннотация

В область литературы вошли иррациональные течения, такие как романтизм, sentimentalizm, направления и методы. В результате литература стала анализировать человеческое чувство, выражая образы мира чувств вне действительности, потустороннего мира. Рассказ Улмаса Умарбекова «Любовь моя, любовь моя» и роман И. В. Гете «Страдания юного Вертера» отличаются способом выражения, торжеством чистых чувств, содержательно-идейным разделением красоты и добра в литературе и искусстве. Это ценно для узбекской литературы. В статье сравниваются характеристики сентиментальности в узбекско-немецкой литературе повести «Любовь моя, любовь моя» и романа «Страдания юного Вертера», воспевающих их страстную любовь, чистые чувства, изящные человеческие качества, и обращается общие выводы.

**Ключевые слова:** Природа, чувство, эмоция, первая встреча, хронотоп, страдание, депрессия, смерть.

**Kirish.** Dunyo adabiyot maydonida keng yoyilgan sentimentalizm oqimidan o'zbek adabiyoti ham bebahra qolmagan. Ayniqsa, so'nggi davr milliy adabiyotimizda sentimentalizm elementlari yaqqol ko'zga tashlanadigan asarlar, ayni janr xususiyatlarini o'zida to'liq aks ettiradigan sentimental qissalar mavjud. Sentimental asarlar syujetidagi muhabbat liniyasi sentimentallikning asosiy ustuni hisoblanadi. Har qanday adabiyot namunasi muhabbatdan holi holda bo'lmaydi. O'zbek adabiyoti tarixini kuzatadigan bo'lsak eng qadimgi manbalari, xalq dostonlari, xalq og'zaki ijodiyoti, mumtoz adabiyot namunalarida, jadid adabiyotida, keyingi davr nasrida va poeziyada ishq, muhabbat, sevgi mavzulari turli poetik talqinlar voqelangan. O'zbek adabiyotining uzoq tarixidan bugungi davrigacha bo'lgan adabiy manbalarda muhabbat mavzusiga to'xtalib o'tish bir dissertatsiya yoki bir bob hajmiga sig'maydi. Shu bois, dissertatsiyamiz mazkur fasliga qo'yilgan muammodan chalg'imagan holda tadqiq qilish ma'qul ko'rinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Milliy adabiyotimizda muhabbat mavzusida eng sermahsul ijod qilgan jadid namoyandalardan keyin Oybek, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Odil Yoqubov, O'lmas Umarbekov, Asqad Muxtor, Pirimqul Qodirov, O'tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzaev, Tohir Malik kabi ko'plab adiblarimizning muhabbat mavzusiga bag'ishlangan asarlari mavjud.

O'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'lmas Umarbekovning "Sevgim, sevgilim", "Urush farzandi", "Qizimga maktublar" singari asarlarida ma'naviy azoblardan yurak-bag'ri alamga to'lib ketgan insonlar obrazi tasvirlanadi. Bunday xarakterlar insonni chuqur, nozik anglamoqni taqozo etadi. Odamni bilmoq - olamni anglamoqdir. Shu ma'noda O'lmas Umarbekov turli badiiy vositalardan mohirona foydalana oladigan katta ijodkor hisoblanadi.

O'lmas Umarbekov hikoyachilikda ham sermahsul ijod qildi. Adibning hikoyalarida inson ma'naviy go'zalligini namoyon etuvchi tuyg'ular mardlik, qahramonlik, oliyanoblik, samimiylik sari ilhomlantiruvchi kus ekanligi ko'rinadi. O'lmas Umarbekov hikoyalari bo'yicha alohida tadqiqot olib borgan adabiyotshunos Gulchehra Abdullaeva shunday yozadi: "O'lmas Umarbekovning sevgi mavzuidagi hikoyalarida qahramonlar o'z sevgisi yo'lida barcha hijron azoblarini yengib, sevgilisining muhabbatini qozona olgan qizlar, odamlarning gap so'zlaridan qo'rqmay, o'z sevgan qizini baxtior qilishni o'ylagan yigit, haqiqat tantanasini o'zining ornomusidan ham ustun qo'yib, yigitni qutqargan oliyanob va jasoratli qizlardir. Adibning sevgisi g'alabasiz tugagan qizning tushkunlikka tushmay, yana o'sha yerda qolib mehnat qilishi, oddiy ishchiga mensimay qaragan, ammo vaqt o'tishi bilan o'z xatosini tushungan qizlar, o'z husniga ishonib pand yegan go'zal qizlar haqida qator hikoyalarda yoki kichik shingil hikoyalardagi sevgi, muhabbat qadri yo'lidagi kishilarimizning mehrini, vafosini yozuvchi yorqin obrazlarda ko'rsata olganligini guvohi bo'lamiz."

**Tadqiqot metodologiyasi.** Adib mohir qissanavis sifatida ham kitobxonlarga yaxshi tanish. Uning o'nlab qissalari zamonaviy, tarixiy, ishqiy-sarguzasht va urush mavzularida yozilgan. Bu to'g'risida akademik Sobir Mirvaliyev quyidagini ta'kidlaydi: "O'lmas Umarbekov qissanavis sifatida ham o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan adiblar sarasiga kiradi. Uning o'nga yaqin qissalari adabiy jarayonda o'z o'rniga ega bo'lib, ularning ko'pchiligi adabiy tanqidchilik tomonidan yaxshi baholangan. Jumladan, "Sevgim, sevgilim", "Jo'ra qishloq", "Cho'li iroq", "Kimning tashvishi yo'q", "Urush farzandi", "Yoz yomg'iri" va so'nggi "Qizimga maktublar" essesi haliga dovr sevib o'qilmoqda. Uning "Sevgim, sevgilim" qissasi bu boradagi ilk tajribalari mevasi bo'lishiga qaramay, 60-yillar adabiy jamoatchiligining keng

bahslariga sabab bo'lgan edi. Buning boisi, qissadagi o'zgacha muammoning o'rtaga qo'yilgani edi." Uning o'zgaligi qissada tasvirlangan voqea va taqdirning fojiviyatiga ko'rinadi. Bu davrgacha yozilgan zamonaviy qissa, hatto romanlarda voqea va xarakterlar tasviri, ularning yechimi o'zgacha kechgan. Ya'ni, asarda tasvirlangan voqea va qahramonlar taqdiri har qancha fojiviy holatda bo'lmasin, oxir oqibatda, katta mag'lubiyatlar, qiyinchiliklardan so'ng "baxtli" kelajak "in'om" etilardi. "Sevgim, sevgilim"da esa ana shu "qoida" buzilib, o'zgacha tasvir usuli qo'llandiki, bu ifoda usuli adabiy tanqidchilikda ham, kitobxonlarda ham qiziqish uyg'otdi.

"Sevgim, sevgilim" qissasi muhabbat mavzusida bitilgan eng yaxshi asarlar jumlasiga kiradi. Muhabbat, shafqat, mehribonlik, saxovat, e'tiqod, din, odob-ahloq, izzat-ikrom, tavoze, muruvvat, g'ayrat-shijoat, bag'rikenglik, kibr va nafsi o'ldirish – hammasi odam bolasining ziynati, ko'ngil bezagi, boyligi. Aytish mumkinki, sanalgan xislat-fazilatlarining barchasi o'z ziddiga ega. Masalan, qaydagi muhabbat bor ekan, o'sha joyda nafrat ham mavjud. Qolaversa, biz ko'pincha muhabbat deb o'ylaydigan tuyg'u oniy, o'tkinchi, nafsoniy-hirsiy bo'lishi mumkin. Muhabbat zamirida ma'naviyat turgandagina, u o'lmasdir. E'tiqod zamirida ma'naviyat turgandagina, u oliyanobdir. Saxovat, mehr-shafqat zamirida ma'naviyat turgandagina, ular odamiylikning ulug'vor fazilatlariga aylanadi. Muhabbat insonning eng qudratli ruhoni, jismoniy dunyosini har tomonlama qamrab, chulg'ab olguvchi, o'ziga bo'yusundiruvchi hissiyot".

**Tahlil va natijalar.** O'lmas Umarbekovning "Sevgim, sevgilim" qissasi bosh qahramoni O'ktam endigina institutni bitirib, yosh agronom sifatida uzoq qishloqlardan biriga ishga yuboriladi. U yerda o'sha jamoa raisi Usmon akaning qizi Oypopuk bilan tanishib, chin ishq-muhabbat izhoridan mast bo'lishadi. Qissa quyidagi samimiy, haroratli satrlar bilan boshlanadi: "Yoshlik endigina qanot chiqargan uchirma qushga o'xshaydi. Hech narsadan tap tortmaydi, hech narsadan cho'chimaydi. Butun borliq unga yangicha, sirli bo'lib tuyuladi. Hamma narsani ko'rgisi, bilgisi, hamma narsada o'zidan qandaydir iz qoldirgisi keladi. Lekin bu izning qanday bo'lishini, unga sevinch baxsh etadimi, yo g'am keltiradimi, to'g'rirog'i, bilishni istamaydi. Agar shu istak unda hamma narsadan kuchli bo'lganda edi, o'zini bunchalik tutmasmidi?! Kim biladi, balki men xato qilayotgandirman. Rostini aytganda, buning hozir mendan boshqa hech kimga ahamiyati yo'q. Biroq men o'zimni uchirma qushdek his qilib, o'sha paytlar notanish joylarga ketib qolganimdan sira afsuslanmayman." [Y. Umarbekov. 2020:5]

Asar qahramoni butun hayot haqiqatini, eng muqaddas tuyg'ularni aynan shu Yakkachinor qishlog'ida, undagi odamlardan, so'lim tabiatdan, ayniqsa, butun hayotining mazmuniga aylangan Oypopuk bilan o'rtasidagi o'tli muhabbatdan, muhabbatning iztirobidan angladi. O'ktamda uyg'ongan bunday samimiyat, tabiiy fazilat faqat va faqat muhabbat, hissiyot, tuyg'ular orqali kechdi. Akademik S.Mirvaliev O'.Umarbekov to'g'risida shunday deydi: "O'lmas har kungi oddiy voqealar asosida kattaroq, muhimroq gapni aytishga urinadi, odamlarning yuksak ijodiy fazilatlarini oddiy, lekin jonli, takrorlanmas lavhalarda ochib berishga intiladi".

O'lmas Umarbekovning "Sevgim, sevgilim" qissasida, asosan, insonlardagi tabiiy tuyg'ular junbushga keladi. Bu to'lg'oq misol keladi, u bir makonda yashab turgan insonni teskari qutbga o'tkazib yuboradi. Shaharda o'sib-ulg'aygan, shahar ta'limini, tarbiyasini olgan O'ktam taqdir taqozosiga ko'ra olis Yakkachinor qishlog'iga yuboriladi. Shahardan chiqib, viloyat, tuman, qishloqlarni – so'lim tabiatni tomosha qiladi, kuzatadi, tafakkur qiladi. Sexrli Yakkachinor qishlog'i, undagi idilliya, odamlar turmush-tarzini ko'rib, uning ko'nglida ajib hislar uyg'onadi: "Men ko'p tonglarni ana shunday daryo yonida o'tkazganman. Quyoshning oltin nurlariga cho'milgan daraxtlar, kumush jilg'alarga tikilib, cho'pon nayining sirli sadolariga quloq solganman. Zarafshonning beshik-beshik to'liqinlanib, sekin oqishi meni maftun qilardi." [Y. Umarbekov. 2020:10]

Tabiat insonning tuyg'ularini, tabiiy sezgilari uyg'otadigan, dunyo tashvishlarini bir fursat unutib, uni o'zga olamga olib boradigan muhim vositadir. Shu bilan birga, bu parchada sentimental asarlarga xos eng asosiy xususiyat ham aynan tabiat bilan insonning uyg'unligi, bir butunligi aks etmoqda. Qissa qahramonining Yakkachinordagi hayoti, asosan, tabiat bilan hamnafas o'tadi, sevgilisi Oypopuk bilan uchrashuvi joyi ham tabiat qo'ynida, daryo bo'yida kechadi.

Adabiyotshunos Umida Rasulova ta'kidlaganidek, "qissada inson tuyg'ularining tabiiy hodisalariga parallel yoki kontrast keltirilishi vositasida borliqdagi yaratilgan aro qat'iy muvozanatni idrok aylash imkoni yuzaga keladi. Adiblar ayni shu muvozanatni me'yorlashtirish, oqilona hamda odilona yo'l tutish maqsadida ongli

insonga tabiat bilan hamnafas, bir butunlikni yodda saqlashni singdirib borayotgani ayonlashadi."

Shunda inson sezgilari tabiiy bo'ladi, u tabiiy ravishda kishi qalbida, shuuriida makon topadi. Uni biror tabiiy tashqi omil harakatga keltiradi, zamonaviy shaharsozlik, sivilizatsiya, texnikalashuv insonlardagi bu tabiiy tuyg'ularni bug'adi, qadriyatlarini o'ldiradi, degan falsafiy qarash sentimentalistlarning asosiy konsepsiyasi hisoblanadi. Inson faqat hissiyot, tuyg'ular orqali tabiat bilan sirli rishta bog'laydi, hissiy aloqada bo'ladi va o'zini uning bir parchasi deb hisoblaydi.

Y.V.Gyotening sevimli qahramoni Verter ham o'zini tabiatning oshig'i, uning bir bo'laki deb hisoblaydi. O'zini tabiatdan ayricha tasavvur ham eta olmaydi. Gyotening bu yondashuvi Sharq Islom tasavvuf ta'limoti bilan bog'lanadi. Roman matnida ayni holat ifodalangan shunday parcha keladi: "Bu o'lkada aldanchi ruhlar hukmronmi yoki butun borliqni ko'zimga bamisoli jannat qilib ko'rsatayotgan havoyi hissiyotlar qalbimni egallab olganmi, bilmayman. Shundoqqina shahar chetida bir buloq bor, bu buloqqa men xuddi Meluzina [Мелюзина – франг афсонасидаги ярим аёл, ярим балик шаклидаги сув париси (Таржимон)].va uning singillari singari bog'lanib qolganman. Kichik tepalikdan quyiroqqa tushsang, yigirmatacha zinapoya seni chuqur g'orga boshlab keladi. U yerdagi marmar qoyada zilol chashma qaynaydi. Bu joyni yuqoridan o'rab turgan pastakkinaga devor, ko'kka bo'y cho'zgan ulkan daraxtlar, salqin havo – bularning barchasida allaqanday jozibador va sirli kuch bor! Har kuni soatlab shu yerda o'tiraman."

Verter odamlarning shaharning olifta odamlari, shahar turmushidan ko'ngli ozurda bo'lganda, qalbi sevgidan iztirobga to'lib ketgan asosiy paytlarini shahardan uzoq, ovloq joylarda, tabiat qo'ynida o'tkazadi. Shu kezlarda o'zini tabiat bilan hamnafas sezadi. Butun qalbi bilan o'zini tabiatga tegishli deb biladi va u bilan hissiy bog'lanadi, hissiy muloqot qiladi. Verter ham xuddi O'ktam singari tabiat bilan muloqotdan quvonch topadi, baxtni his qiladi.

Shuningdek, asardan keltirilgan parchada hayotning turmush tashvishlariga o'ralashib qolgan insonga muallif tabiatni kontrast qo'yadi. Muhabbatdan azoblanayotgan qalblar iztirobga malham sifatida ham tabiatni ko'rsatadi. Dard-alamini to'kib soladi, yig'isini izhor etadi, taskinni tabiatdan topadi. Verter tilidan aytilgan "kichik tepalikdan quyiroqqa tushsang, yigirmatacha zinapoya seni chuqur g'orga boshlab keladi" deyilgan parchada badiiy parallelizmni kuzatiladi.

Parallelizm to'g'risida "Adabiyotshunoslik lug'ati"da yozilishicha, "Parallelizm tasvirlanayotgan narsa-hodisalar orasidagi o'xshashlik yoki ziddik tufayli obrazni jonli tasvirlash, his-tuyg'uni yorqin ifodalash imkonini beradi. Poetik usulan sifatida parallelizm ildizlari o'zini tabiatning uzviy bo'laki hisoblangan, uni ilohiylashtirib va sig'irib yashagan qadim zamonlarga borib taqaladi. Shu bois, xalq ijodida tabiat bilan inson hayoti (muayyan hayotiy vaziat, voqea, ruhiy holat va h.) manzaralarini parallel tarzda tasvirlash, ayniqsa, keng qo'llangan." [Kuronov D., Maмажонов З., Шералиева М. 2013:215]

Sentimental qahramon yuradigan yo'l ratsional kishi uchun o'ta xavfli yo'l hisoblanadi, bu yo'l yo'qlik (g'or) sari yetaklaydi. Tepalikdan pastga tushib g'orga tomon borishi Verterning roman suyetidagi bosib o'tadigan hayot yo'lidir. Bu qahramonning o'lim sari qadamba-qadam yurishi, bosqichma-bosqich borishi ifoda etilmoqda. Muallif buni badiiy parallelizm yo'li bilan metaforik sathda tasvirlaydi. O'.Umarbekov qahramoni tilidan aytilgan "Samarqanddan cho'zilib kelgan bu yo'l shu yerda toqqa tutashib yo'qolib ketadi" jumlada ham yuqoridagi singari badiiy parallelizm taqinini berish mumkin. Shahardan bitta, yakka katta yo'l Yakkachinor qishlog'igacha keladi, qishloqdan o'tib toqqa tutashib, keyin kichik irmoqlarga ajralib ketadi. Katta yo'l shunday yo'qolib ketadi. Shu yo'l orqali shahardan qishloqqa kelgan O'ktamning hayoti mazmuni, shu yerda topgan baxti ham shu yerda (Oypopukning qoyadan o'zini tashlab hayotdan abadiy ketganidek) yo'q bo'lib ketadi.

O'lmas Umarbekovning "Sevgim, sevgilim" qissasi va Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" romani tipologik jihatdan tahlil qilinganda har ikki asarda sentimentallikka xos ko'plab elementlar mushtarak holatda kelganini kuzatamiz. Jumladan, sentimentallikka xos safar, tush, ilk uchrashuv motivlari, maktublar, yolg'izlik, iztirob, yig'i, arzihol, o'zga olam istagi kabi unsurlarni o'z o'rnida shu va keyingi faslida qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi.

Jumladan, "Sevgim, sevgilim" qissasidagi O'ktamning Oypopuk bilan ilk uchrashuv, tanishuv sahnasini olaylik. Shahardan qishloqqa agranom qilib yuborilgan O'ktam xuddi o'zi singari shahardan shu qishloqqa shifokor bo'lib kelgan Mavlon bilan tanishadi, u bilan bir uyda yashay boshlaydi. Maktabda qishloq

bolalari, yoshlari yig'iladigan bazmga borishni maqsad qilishadi. Ular bu bazmni tomosha qilish uchun maktabga boradi. Bazm boshlanadi: "Hech qanday e'lonsiz, gapsiz raqs boshlanib ketdi. Men mahliyo bo'lib qoldim. Hozirgina to'polon qilib, betartib turgan qizlar gulxan atrofida tovusdek bir tekis suzib kelishdi... Men raqsdan ko'zimni uzolmadim. Gulxan atrofida doira bo'lib, boshlarini egganча oyoq uchida tebranyotgan qishlarni yigitlar o'rab olgan edi... o'yin tugab lapar boshlanib ketdi. Maydonni to'ldirib qo'ng'iroq ovozlari ovozlari yangradi. Keyin yana o'yin. Bu gal yakka o'yin bo'ldi. Hamma qator tizilib, keng doira tashkil etdi, chirmanda bilan rubob "Tanovar"ni kuylab yubordi. O'rta xon atlas kiygan qiz chiqdi. U boshidagi havorab peshonabog'ini yangitdan bog'lab, inkichka qo'llarini yozganicha sekin o'yinga tushib ketdi. Lovullab yonayotgan gulxandan qizarib ketgan nozik yuzlarida yengil tabassum o'ynay boshladi. Qiyiq qora ko'zlari olis-olisiga qadaldi... Nazarimda "Tanovar" – bu og'ir, ammo hayot muhabbati bilan to'lgan raqs uning uchungina yaratilgandek edi.

Kim bu? So'radim beixtiyor doktordan.

Oypopuk, - dedi u. – Usmon akani qizi. Usmon akani kimligini bilmasam ham so'ramadim." [Y. Umarbekov. 2020:18]

Bu bazmda tomoshaga kelgan O'ktamni butun tuyg'ulari junbo'shga keladi, bazmning butun tarovati, yigitlarning, qizlarning nozik harakatlari hayron qoldirdi. Ayniqsa, "Tanovar"da o'ynagan Oypopuk uning qalbiga ehtirosli muhabbat o'tini solib qo'yan edi. O'ktam Oypopukni shu taqlid sevib qoladi. Bu sevgi bizning ertaklarimizda, xalq dostonlarimizda bo'lgani kabi tushida ko'rib sevib qolish, suratidan yaxshi ko'rib qolish, bir ko'rishda sevib qolish holatlarida bo'lgani kabi bir lahzada sodir bo'ldi. O'ktamni allaqanday bezovtalik qiynamoqda, uning tuyg'ulari tug'yon ura boshlaydi: "Bilmayman, nima meni o'ziga tortdi? Nima meni bunchalar hayajonga soldi? Maydondagi o'yin-kulgiga tikilib o'tirgan bo'lsam ham hech nimani ko'rmasdim. Xayolim nimalar bilandir band edi. Lekin nima bilan? Bilmasdim. Ammo bir narsa aniq edi. Men xursand edim."

Muhabbat shunday tuyg'uki, qachon kelishi, nimadan uyg'onishini inson belgilay olmaydi. U har qanday kishini o'ychan, xayolparast, ozurlari ummon qilib qo'yishi, yoki afsus, malomat, arzihol, yig'i qilishga, yoki odamni tushkinlik, umidsizlik, yolg'izlik girdobiga ulotirishga sabab bo'ladigan kuchli tuyg'udir. U aql sarhadlariga bo'ysinmaydi. Bu to'la ma'noda mohiyat e'tibori bilan romantiklik yoki sentimentallikka xos xislatdir. O' Umarbekov qahramoni O'ktam avval hech qachon uchratmagan, to'qnash kelmagan mana shu muhabbat deb atalmish ulug'vor tuyg'u qarshisida qiz, karaxt bo'lib qoladi. Bu sof tuyg'u, bu ajib his, go'zal sevgi O'ktamni qalbidan abadiy joy oldi. O'ktamning Oypopukni yaxshi ko'rib qolishi, bu yaxshi ko'rishda g'araz maqsadning yo'qligi, sof muhabbat uyg'ongani, yuqorida ta'kidlangan, bazm paytida, raqs tushganda mahali sodir bo'ldi.

Y.V.Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" romanida Verter bilan Lottani ilk uchrashishi ham shunga o'xshash xronotop doirasida kechadi. Roman dan parcha: "Yoshlarimiz shahar tashqarisida bazm tashkil qilishdi, men ham unga bajonudil ishtirok etdim. Shu yerlik yaxshigina, istarasi issiq, umuman olganda, uncha ko'zga tashlanmaydigan bir qizni balga borishga taklif qildim. Kelishuvga ko'ra, men shu qiz va uning jiyani foytunda bazm bo'layotgan joyga eltishim, yo'l-yo'lakay Sharlotta S.ni ham olib o'tishim lozim edi. Biz haydalgan keng dala bo'ylab ovchilar saroyiga yaqinlasharkanmiz:

– Hozir go'zal bir qiz bilan tanishasiz, – dedi hamrohim.

– Ehtiyot bo'ling tag'in sevib qolmang! – qo'shib qo'ydi jiyani.

– Nega endi? – so'radim men.

– U oliyanob bir kishiga unashtirib qo'yilgan, – dedi u, – hozir u kishi bu yerda emas, otasi vafot etgach, ishlarini tartibga keltirish va tuzukroq mansabga o'rnatish uchun ketgan...

...Havo ancha dim, ufqda och qo'ng'ir tUSDagi yirik bulutlar to'planayotganidan, momaqaldiroq bo'lmasa edi, deb xonimlar tashvishlanishardi..."

Verter bu gapdan so'ng Lottani tezroq ko'rgisi keladi. Shunda 5-6 nafar yosh bolakaylar bilan sohibjamol, go'zal Lotta ko'rinadi. Romanda Lotta o'rta bo'lyi, yengi va ko'ylagiga pushti rang band qadalgan, odmignina oq ko'ylak kiygan qiz deb ta'riflanadi. Lottaning qomati, o'zini tutishi, yoqimli ovozi, uning go'zalligidan Verter lol qoladi. Verterning qalbini ham avvaldan kimnidir izlab yurganu, uni endi topgandek, allanechuk hislar bezovtalanayotgandek edi. Bazm boshlanib, suhbat raqsiga ko'chganda, Lotta aytadi:

"– Bunday ehtirosli qoralasalar ham mayli, – dedi Lotta, – lekin raqs tushishni hamma narsadan ustun qo'yishimni yashirmayman..."

Lotta o'z hamrohi bilan inglizcha raqsiga tusha tusha boshladi. Uning biz bilan bir davrada aylanishi men uchun qanchalik gashtli bo'lganini tasavvur qila olarsan! Uni raqs tushayotganida tomosha qilsang! Butun fikr-zikri bilan o'yinga berili ketadi, barcha harakatlari shu qadar erkin, bejirim, shu qadar tabiiyki, go'yo raqs uchun u butun olamdan voz kechgan, shundan boshqa narsani his etmayotgandek tuyulardi.

Men uni ikkinchi kontrdangsa taklif qildim; u uchinchisiga tushishga va'da berdi va nemischa valsni juda-juda yaxshi ko'rishini nihoyatda ochiq ko'ngillik bilan izhor qildi."

Verter Lottani ko'rganida uning jozibadorligi, go'zalligi ko'rib maftun bo'ladi, uni sevib qoladi. Verterning bu taqlid sevib qolishi O'ktamning Oypopukni birinchi ko'rganidagi uyg'ongan ehtirosli muhabbatiga o'xshaydi. "Sevgim, sevgilim" va "Yosh Verterning iztiroblari" asarlardan yuqorida keltirilgan parchalarda bir nechta o'xshash sentimental holatlar, epizodlarni qiyoslash mumkin:

Birinchi o'xshashlik: sof qalbli bu ikki juft oshiq-ma'shuqalarning ilk tanishuv, ilk uchrashiv joylari ham xronotop o'laroq bir badiiy makonda sodir bo'ladi. Har ikki asarda ham yoshlar yig'ilgan bazmda qatnashadi. O'ktam Oypopukni, Verter Lottani aynan shu xronotopda uchratadi, yaxshi ko'rib qoladi;

Ikkinchi o'xshashlik : har ikki asardagi qizlarning shu bazmda tushgan raqsida ham o'z milliy madaniyat, mentalitet aks etadi. Oypotuk "tanovar"da, Lotta esa nemischa valsga tushadi. Lotta nemischa valsni qanchalik jon dili bilan yaxshi ko'rsa, Oypopuk tanovarni undan-da, ko'p yoqtiradi;

Uchinchi o'xshashlik: raqsiga tushayotgan qizlarning nozik harakatlari, jozibador nigohi, o'zini tutishi, muloyim muomalasi har ikki oshiq yigitni birdek lol qiladi, maftun qiladi, ularning ehtiroslarini jo'nubushga keltiradi.

To'rtinchi o'xshashlik: bazmdagi uchrashuvdan so'ngi yigitlarni ruhiy ahvoli ham uyg'un ko'rinadi. Ya'ni Verterda ham, O'ktamda ham qalbida ehtirosli muhabbat paydo bo'ladi, tabiiy, pokiza tuyg'ulari harakatga tushadi. Xayollari parishon, sevgilisini, uning pok tuyg'ularini o'ylaydi, xayol suradi, bezovtalanadi, ammo har ikkisi ham bu bezovtalikdan mamnun bo'ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bu o'xshash epizodlarning barchasi qahramonlar sentimental holatlarining dastlabki bosqichlaridir. Keyingi jarayonlarda ishonchsizlikdan kelib chiqqan ayriliq, hayotning ratsional tartiblari sababli javobsiz muhabbat, undan chekilgan ozor, iztirob, yolg'izlik va hk jihatlar O' Umarbekov va Gyote sentimental qahramonlarini o'zaro yaqinlashtiradi.

"Sevgim, sevgilim" qissasi va "Yosh Verterning iztiroblari" romani qahramonlarining uchrashuv motivi qiyoslanganda quyidagi tipologik o'xshashliklar aniqlandi: a) tuyg'ulari musafot ikki oshiq-ma'shuqalarning ilk tanishuv, ilk uchrashiv joylari ham xronotop o'laroq bir badiiy makonda sodir bo'ladi; b) har ikki asardagi qizlarning bazmda tushgan raqsida ham o'z milliy madaniyat, mentalitetdan kelib chiqadi. Oypotuk "tanovar"da, Lotta esa nemischa valsga tushadi; g) raqsiga tushayotgan qizlarning nozik xatti-harakatlari, jozibador nigohi, xushmuomalaligi har ikki oshiq yigitni birdek maftun qiladi; d) bazmdagi uchrashuvdan so'ng yigitlarning kayfiyati ham uyg'un ko'rinadi. Ya'ni Verterda ham, O'ktamda ham qalbida ehtirosli muhabbat paydo bo'ladi, tabiiy, pokiza tuyg'ulari harakatga tushadi, ammo har ikkisi ham bu bezovtalikdan mamnun bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдуллаева Г. Ўлмас Умарбеков ҳикоялари. Монография. – Тошкент, 2007. – Б. 70.
2. Асадов М. Альбер Камю ва Хуршид Дўстмуҳаммад прозасида абсурд қаҳрамон муаммоси. "Сўз санъати" халқаро журнали, 2020 й., 2-сон, 3-жилд, 120-бет. <https://www.tadqiqot.uz/art/index.php/art/article/view/117>
3. ASADOV, M. (2024). "THE LONELY MOTIF" IN THE WORK OF CAMUS AND H. DOSTMUHAMMAD . News of the NUUZ, 1(1.7), 256-258.
4. Asadov M. Kamyu va X.do'stmuhammad asarida "yolg'izlik motivi". O'zMU xabarlar jurnali, 1 (17), 256-258.
5. Гёте И.В. Ёш Веретринг изтироблари: роман. Немис тилидан Я.Эгамова таржимаси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 6-7.

6. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронтоп. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриётматбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 309.
7. Мирвалиев С. Ўлмас Умарбеков: “Севгим-севгилим”дан “Қизимга мактублар”гача. –Т.: “Шарқ”, 2004. – Б.19.
8. Мирвалиев С. Истеъдоднинг қўш қаноти: (Ёзувчи Ўлмас Умарбеков ижодиган бир назар). – Т.: Ёзувчи, 1993. – Б. 30.
9. Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва таракқиёт тамойиллари). – Тошкент: “Qamar media” нашриёти, 2020. – Б. 210.
10. Sottiboyeva N. Qahramonning ruhiy tug'yoni // Sharq yulduzi jurnali, 2016-yil, 5-son. <https://malumot.ru/qahramonning-ruhiy-tug%CA%BBuyoni/>
11. Умарбеков Ў. Севгим-севгилим. / Энг сара муҳаббат қиссалари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – Б. 5.
12. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 215.



UDK:811.133

**Lolaxon SAIDOVA,**  
*Andijon davlat chet tillari instituti katta o'qituvchisi*  
*E-mail:lolaxon1973@mail.ru*

*FarDU dotsenti R.Axrorova taqrizi asosida*

### TURLI TIZIMLI TILLARDA KIYIM-KECHAK KOMPLEMENTLI FRAZEOLIGIZMLARNING O'ZIGA XOZ XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada turli tizimli tillarda kiyim-kechak komplementli frazeologizmlarning ifodalanish xususiyatlari, olimlar qarashlari va misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, frazeologizmlarning tasniflari va ular xususida fikrlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Frazeologiya, semantik tasnif, idiomatika, idiofrazeomatika, frazeomatika.

### ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ ВЕЩЕВОГО КОМПОНЕНТА В РАЗЛИЧНЫХ СИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье были рассмотрены особенности выражения фразеологизмов вещевого компонента в различных систематических языках, взгляды ученых и на примерах. Также были проанализированы классификации фразеологизмов и мнения о них.

**Ключевые слова:** Фразеология, семантическая классификация, идиоматика, идиофразеоматика, фразеоматика.

### FEATURES OF CLOTHING COMPONENT PHRASEOLOGISMS IN DIFFERENT SYSTEMATIC LANGUAGES

Annotation

This article deals clothing in various systematic languages on the basis of the features of expression of component phraseologisms, views of scientists and examples. Also, classifications of phraseologisms and opinions on them were analyzed.

**Key words:** Phraseology, semantic classification, idiomatics, idiophraseomatics, phraseomatics.

**Kirish.** Frazeologiya – bu tilshunoslik fanining tarixiy va zamonaviy rivojlanishidagi frazeologik tizimni o'rganadigan bo'lim sanaladi. E.M. Vereshchagin frazeologiyani tadqiq qilar ekan, uning ob'ekti frazeologik iboralar, ya'ni so'zlarning tayyor va yaxlit birliklari sifatida barqaror birikmalar deya ta'kidlaydi[1]. Frazeologizmlarga semanti jihatdan ekvivalentlar so'z birikmalari hisoblanadi. Lekin ular ko'chma ma'no hosil qilishiga ko'ra farqlanadi.

V.Vinogradov fikriga ko'ra frazeologizmlar tadqiqi lug'at tarkibi, so'z shakllanishi bilan munosabatlari hamda grammatik mutanosibliklari izchil o'rganishni taqozo etadi [2].

Frazeologiya masalasi lingvistik fan sifatida V.Vinogradov tomonidan o'rganilgan bo'lib, olim tadqiqotlarida frazeologik birliklar haqidagi ta'limotini shakllantiradi va ularni semantik guruhlariga ajratadi. Biroq, V.Vinogradov frazeologizmi leksikografiyaning bo'limi sifatida yoritadi. Frazeologizmlar zamonaviy yo'nalishlarda o'z tadqiqini kutayotganligini ta'kidlash mumkin. Shuningdek, V. Vinogradov izlanishlari katta ahamiyatga ega ekanligiga qaramay, frazeologiyaning lingvistik fan sifatida asosiy tushunchasi u tomonidan ishlab chiqilmagan [2].

A.V. Kunin, A.I. Efimov kabi olimlar tadqiqotlarida badiiy matnni frazeologik tahlil qilishning maqsad va vazifalari aniq shakllantirilgan, shuningdek, frazeologik materialni stilistik nuqtai nazardan tasniflash berilgan. A.V. Kuninning fikricha, "frazeologik birliklar to'liq yoki qisman qayta talqin qilingan ma'noga ega bo'lgan leksemalarning barqaror birikmalaridir" [4].

**Metodlar.** Olimlar frazeologik birliklarni tasniflashning yagona printsiptini ishlab chiqmaganlar. A.V. Kunin frazeologiya tarkibida uchta bo'limni ajratib ko'rsatadi: idiomatika, idiofrazeomatika va frazeomatika. Idiomatik bo'limga frazeologik birliklar yoki idiomalar, ya'ni qisman yoki to'liq qayta ko'rib chiqilgan ma'noga ega leksemalarning barqaror birikmalari kiradi. Frazeomatika bo'limiga frazeomatizmlar yoki idiomatik bo'lmagan, ammo murakkab ma'noga ega frazeologik birliklar kiradi. "Idiofrazeomatika bo'limiga idiofrazeomatik birliklar yoki idiofrazeomatizmlar, ya'ni barqaror iboralar kiradi, birinchi frazeomatik variantlarda tarkibiy qismlar so'zma - so'z, ammo murakkab ma'nolarga ega, ikkinchi va uchinchi idiomatik va idiofrazeomatik "[5]lar uchun qayta ko'rib chiqilgan ma'nolar xosdir.

Frazeologik birliklarning ko'plab tasniflari mavjud bo'lsa-da, T.Skorobogatova barcha frazeologik birliklarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi: 1. FBlarning semantik birlashishi nuqtai nazaridan. 2. FBlarning leksik tarkibi nuqtai nazaridan. 3. FBlarning tuzilishi nuqtai nazaridan. 4. FBlarning kelib chiqishi

nuqtai nazaridan. 5. FBlarning ekspressiv-stilistik xususiyatlari nuqtai nazaridan [6].

**Tahlillar.** Darhaqiqat, zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarni leksik-semantik jihatdan o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchaymoqda. Bunda ularning turli komponentlardan tashkil topishi umumiy va xususiy xususiyatlarni farqlashga va ularning ko'plab qirralirini kashf etsihsga undamoqda. G.G. Sokolova frazeologik birliklarni chuqur o'rganishda ukarni leksik-semantik guruhlariga bo'lish va ularning tarkibidagi so'zlarni aniqlash orqali tasniflar shakllantirilishini ta'kidlaydi. Har bir til tarkibidagi frazemalar milliy xususiyatlar kasb etishi bilan e'tiborlidir[7].

Fransuz tilida kiyim – kechak tarkibiy qismlari o'rganilar ekan, uni tilda belgilash uchun T.Skorobogatova, E.Nazarovalar idiosmes vestimentaires atamasini ishlatadilar[6]. Olimlar bunday iboralarga murojaat qilish va kontseptsiya nuqtai nazaridan ishlash qulayligi uchun vestimental frazeologik birliklar atamasidan foydalanishni maqul deb biladilar. Frazeologik birliklar tilning katta qismini tashkil etishi kuzatildi. Jumaldan, o'zbek millati kiyim-kechagi haqida gap borganda to'n, do'ppi, belbog', atlas yoki adras ko'ylak kabilar ko'z oldimizga keladi. Bu, albatta, millatni aks ettiruvchi jumalar sanaladi. Bunday kiyim nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklar tilimizda birqator uchraydi.

Bunday frazeologizmlarni tadqiq qilish borasida izlanishlar olib borilgan bo'lib, A.Yusupova o'zining "Kiyim-kechak realiya ishtirokidagi matn persepsiyasi" nomli ilmiy maqolasida "to'n, do'ppi, bo'rk, belbog', salla" so'zlari asosida hosil qilingan "doppisini osmonga otmog'", "sallani ol desa, kallani oladi", "Oq ko'ngilning oti ham ozmas, to'ni ham to'zmas", "Bosh yorilsa – do'ppi ostida", "Bo'zchi belbog'ga yolchimas, kulol mondiga" kabi ibora va maqollarga izoh berib, tasniflagan [8].

Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"[9]da milliy madaniyatimiz timsoli bo'lgan kiyim-kechak nomlari asosida hosil qilingan yaxlit ko'chma ma'noli birliklarga quyidagilar misol qilib keltirilgan[10]:

do'ppi tor kelganda – iloj-imkonsiz og'ir ahvolga tushmoq (77-b) boshiga fikr kelmay, qiyalib qolish; O'ylab qaragam, do'ppi tor ekan. Kattaroq ish qilishga qo'li-miz kalta ekan (I. Rahim, „Ixlos“).

do'ppisi yarimta – shod, xurram, beg'am, beparvo (77-b); Bizning "sartiya" juda beg'am.. hech nima bo'lmaganday, do'ppisi yarimta! Hal-qumigacha qarzga botganini o'zi sezmay qoladi. (Oybek, „Tanlangan asarlar“).

ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq(suqmoq) – o'z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq; juda qiyin ahvolga



tushirmoq (112-b) Otam uylantiraman deb, ikki oyog'ini bir etikka suqib olgan, hol-jonimga qo'ymaydi. (Said Ahmad, „Qadrdon dalalar“)

kavushini to'g'rilab qo'yimoq – haydab yubormoq (124-b) Kavushini to'g'rilab qo'yish kerak (A.Muxtor).

O'z navbatida og'zaki nutq doirasida o'zbek xalqining kiyim-boshi asosida

yaratilgan yana quyidagi frazemalarni kuzatish mumkin: paytavasi qurt tushmoq – bezovta bo'lmoq, o'zini qo'yarga joy topa olmaslik. G'ay-ratning yo'qligi ertalab ma'lum bo'ldi. Xamma tashvishga tushdi. Ayniqsa, o'qituvchilar-ning paytavasi qurt tushdi. (M. Hazrat-qulov, „Jur'at“).

Frazeologik birliklar rus olimlari tomonidan ham tadqiq etilib, aynana kiyim-kechak va uning qismlari bilan bir necha frazeologizmlar mavjudligi kuzatilgan. Bularga misol метр с кепкой, сесть в калошу, щи лаптем хлебать, шубы не сошьешь, тупой как сибирский валенок, по Сеньке и шапка, свинья в ермолке,

держи карман шире kabilarni keltirish mumkin[11]. Bu frazeologizmlarda ham tilning milliy ruhi sezilib turadi. Bunday frazeologizmlar tarjimada muammolarga sabab bo'lishi, bu ko'lamdagi tadqiqotlarni kengaytirishga sabab bo'ladi.

Fransuz frazeologik korpusida ham kiyim-kechak komponentli frazeologik birliklar ko'plab uchrashi aniqlandi. Fransuz tilida vestimental detallarning nomi bilan ifodalalanuvchi frazeologizmlarga tenir le pompon, examiner sur toutes les coutures, avoir qn dans sa manche, sous le talon de qn, s'attacher au pan de l'habit va boshqalar misol bo'la oladi. Kiyim insonning kundalik turmushi bilan bog'liq ekan, u bilan bog'liq iboralar nutqimizda qo'llanilishi ilmiy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Bunday ko'plab iboralarning paydo bo'lishi dunyoni umuminsoniy idrok etish mexanizmi bilan bog'liq.

-manger son chapeau o'zbek tilida biror ishni amalga oshmasligisa ishonchi bor holatda qo'llaniladi, agar shu ish amalga osha kallarni olib yuboram, kabi ma'noda, Masalan: Ces arbitrages du ministre de l'agriculture obligent sa collègue chargée de la transition écologique, Barbara Pompili, à manger son chapeau en justifiant des orientations qu'elle a longtemps combattues. — (Le Monde, Les abeilles, le gouvernement et l'avenir, Le Monde. Mis en ligne le 13 août 2020)

-mettre deux pieds dans un soulier o'zbek tilida ikki oyog'ini bir etikda bo'lmoq. Masalan: « (...) elle était revenue du périple en mer, avait acheté la plupart des maisons du coin, rebâti puis vendu plusieurs gîtes, car elle n'avait pas les deux pieds dans le même sabot, et tout marchait mieux pour elle, depuis qu'elle était seule.» (Marie Thenocent - Au-delà du souvenir ),

-il ne manque pas un bouton de guêtre – hech nima sedan chiqmadi ma'nosida: kabilar.

Fransuz tili farzeologizmlar qatlamini kiyimning funksional maqsadiga qarab beshta tematik guruhga bo'lish mumkin:

1. Tashqi kiyim nomi bilan ifodalanuvchi frazemalar;
2. Ichki kiyim va korset mahsulotlarining nomi bilan ifodalanuvchi frazemalar;
3. Poyafzal nomi komponenti bilan ifodalanuvchi frazemalar;
4. Bosh kiyimlarning nomi bilan ifodalanuvchi frazemalar;
5. Kiyim uchun aksessuarlarning nomi bilan ifodalanuvchi frazemalar.

Fransuz tilida mazkur funksional xususiyat kasb etuvchi frazeologizmlar quyidagilarni tashkil qildi.

- blouson (kurtka, bluzka, kofta): blousons noirs - bezori o'smiringa nisbatan,

- burnous (burnus): faire suer le burnous - qo'l ostidagilarni eksplutatsiya qilmoq,

- camisole (kofta): mériter la camisole de force – o'zini noma'qul tutgan,

- cape (plash): rire sous cape – sirli jilmayish,

- chemise (erkaklar ko'yilagi): mouiller sa chemise – biror ish ustida qattiq ishlamoq,

- costard (kostyum): tailler un costard – biror kim haqida g'iybat qilmoq,

- culotte (shim): se faire prendre les culottes baissées -paytini poylamoq kabilar.

Kiyim aksessuarlari komponentli frazeologizmlar alohida ahamiyat kasb etib, ular quyidagilardir:

- cravate (galastuk): cravate à Gaston / à Gustave – gigienik sochiqchalar,

- écharpe (sharf): changer d'écharpe – qarshi tomonga o'tib olmoq,

- gant (qo'lqop): avec des / les gants – extiyotkorlik bilan,

- mouchoir (ro'molcha): se laver comme un mouchoir – xamirdan qil sug'urganday oson kabilar.

A. V. Pershikova kiyim nomlari bilan ifodalangan iboralar "odamni turli xil xususiyatlar bilan tavsiflashga qodir" deya ta'kidlaydi [12]. Olib borilgan tadqiqotlar fransuz tilida quyidagilarni tavsiflashi mumkinligini aniqlashga imkon berdi:

a) insonning tashqi ko'rinishi: avoir le menton en galoche, avoir une casquette en peau de fesse;

b) inson yoshi: avoir la clef de ses chaussures, être encore à la bavette;

c) gender munosabatlari: porter la culotte, porter la jupe;

d) insonning moddiy ahvoli: n'avoir pas de souliers aux pieds, se retrouver en slip, n'avoir pas de chaussures, y laisser sa chemise, avoir un vieux bas quelque part, faire du pyjama, se serrer la ceinture,

e) shaxsning kasbiy holati yoki kasbi, ijtimoiy mavqei va jamoadagi shaxsning roli: homme de livrée, ceindre l'écharpe municipale, gros bonnet, avoir plusieurs casquettes;

g) diniy e'tiqodlar: prendre le voile, jeter son froc aux orties, prendre la soutane porter la culotte de zinc;

f) insonning intellektual layoqati: être bête à manger des chapeaux, en avoir sous la casquette, avoir la casquette à ras les paquerettes, bas du béret kabilar;

i) insonning psixo-emotsional holatlari: être à côté de ses pompes, rire à en pisser dans sa culotte, avoir Le moral dans les chaussettes, avoir la tête près du bonnet, être tendu comme un string;

j) insonning fiziologik jarayonlari va jismoniy holatlari: mettre les chaussettes à la fenêtre, son tablier lève, s'emplier le gilet, n'avoir rien dans le casaquin, se faire tailler un costume en bois, laisser ses guêtres;

Fransuz tilida kiyim-kechak atamallari va frazeologizmlarini keng qatlamli azaldan modaning mavjudligi va bu tizimning rivojlanishi bilan izohlanadi. Chunki fransuzlar nazarida moda muhim ijtimoiy-psixologik va madaniy hodisadir.

**Xulosa.** Hulosa qilsak, turli tizimli tillarda fransuz tili kiyim-kechak frazemalari ko'p sonli bo'lib, ularni semantik, sintaktir va uslubiy jihatlarini va tilshunoslikning yangi yo'nalishlarni kognitiv va lingvokultural xususiyatlarini ham yoritish hozirgi kunning dolzarb masalalarini tashkil etadi. Frazeologizmlar ham ma'lum ma'noda kodlar mazmunini kasb etishi ularni tasniflab tadqiq etishni taqozo etadi. Ularni tillararo taqqoslash esa tarjima nazariyasida va amaliyotida qo'l keladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура // Е. М. Верещагин, В. Г. Костомаров – М.: Русский язык, 1990 – 246 С
2. Виноградов В. В. Основные типы фразеологических единиц в русском языке // В. В. Виноградов – М.: Наука, 1947 – 284 С.
3. Виноградов В. В. Лексикология и лексикография: Избранные труды // В. В. Виноградов – М.: Наука, 1977– 312 С.
4. Кунин А. В. Английская фразеология // А. В. Кунин – М.: Высшая школа, 1970 – 343 С.
5. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка // А. В. Кунин – М.: Высшая школа, 1986 – 396 С.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/frantsuzskie-frazeologizmy-s-komponentom-naimenovaniem-odezhdy-vestimentarnye-fe-obschaya-harakteristika>
7. Соколова Г.Г. Курс фразеологии французского языка. М., 2010.
8. <https://www.openscience.uz>article>
9. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Тошкент, 1978. 408 б.
10. Назаров, Ж. (2022). О'zbek milliy kiyim-kechaklari asosida hosil qilingan paremiya va frazemalar tavsifi borasida. Современные лингвистические исследования: зарубежный опыт, перспективные исследования и инновационные методы преподавания языков, (1), 195–196. <https://doi.org/10.47689/linguistic-research-vol-iss1-pp195-196>
11. Ллой Цзинь Янь. Русские фразеологизмы с названиями одежды в аспекте лингвокультурологии (на фоне китайского языка): Автореферат дис. ... канд. филол. наук. Воронеж, 2008.

12. Першикова А.В. Предметные фразеологизмы с компонентом-наименованием одежды семантической субкатегории лица в русском языке // III Международные Бодуэновские чтения: И.А. Бодуэн де Куртенэ и современные проблемы теоретического и прикладного языкознания. Казань, 2006. Т. 2.



UDK: 82.1751

**Omirbek SAPARNIYAZOV,**  
Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: omirsaparniyazov943@gmail.com

Professor I.T.Rustamov taqrizi asosida

### COMPARATIVE ANALYSIS OF THE LITERARY LANDSCAPES OF MARK TWAIN AND MUQIMIY

Аннотация

In this article, the literary scenes in the works of the famous American writer Mark Twain and the classic Uzbek poet Muqimi are analyzed. In Mark Twain's "The Adventures of Huckleberry Finn" and "The Five Hundred Words" by Muqimi, scenes that reflect the reality of the natural environment, social strata, and humanity are explored. The article analyzes each author's unique style and methods of description, as well as their relationship with literary traditions and historical context. As a result of the analysis, the universal and modern significance of the scenes created by Mark Twain and Muqimi is shown, which helps to think about the relevance and interaction of their works even today. The article aims to understand the importance of landscape imagery in literature, as well as to identify similarities and differences between the two cultures and styles.

**Key words:** Literary analysis, identity, ethics, social criticism, cultural context, narrative technique, journey, transformation, character development, American literature, African literature, thematic research.

### СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПЕЙЗАЖЕЙ МАРКА ТВЕНА И МУКИМИЙ

Аннотация

В данной статье анализируются литературные сцены в произведениях известного американского писателя Марка Твена и классика узбекского поэта Мукими. В «Приключениях Гекльберри Финна» Марка Твена и «Пятьсот слов» Мукими исследуются сцены, отражающие реальность природной среды, социальных слоев и человечества. В статье анализируются уникальный стиль и методы описания каждого автора, а также их связь с литературными традициями и историческим контекстом. В результате анализа показано универсальное и современное значение сцен, созданных Марком Твеном и Мукими, что помогает задуматься об актуальности и взаимодействии их произведений даже сегодня. Целью статьи является понимание значения пейзажной образности в литературе, а также выявление сходств и различий между двумя культурами и стилями.

**Ключевые слова:** Литературный анализ, идентичность, этика, социальная критика, культурный контекст, техника повествования, путешествие, трансформация, развитие характера, американская литература, африканская литература, тематическое исследование.

### MARK TVEN VA MUQIMIY ADABIY MANZARALARINING QIYOSIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada mashhur amerikan yozuvchisi Mark Tven va o'zbek klassik shoiri Muqimiy asarlaridagi adabiy manzaralar qiyosiy tahlil etiladi. Mark Tvenning "Huckleberry Finning sarguzashtlari" va Muqimiyning "Besh yuz so'z" asarlarida, tabiiy muhit, ijtimoiy qatlamlar va insoniyatning haqiqatini aks ettiruvchi manzaralar o'rganiladi. Maqolada, har bir muallifning o'ziga xos uslubi va tasvirlash uslublari, shuningdek, adabiy an'analari va tarixiy kontekst bilan aloqasi tahlil qilinadi. Tahlil natijasida, Mark Tven va Muqimiy tomonidan yaratilgan manzaralarning universal va zamonaviy ahamiyati ko'rsatiladi, bu esa ularning asarlarining hozirgi kunda ham dolzarbligi va o'zaro ta'siri haqida fikr yuritishga yordam beradi. Maqola, adabiyotda manzara tasvirining ahamiyatini tushunishga, shuningdek, ikki xil madaniyat va uslubdagi o'xshashliklar va farqlarni aniqlashga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Adabiy tahlil, o'ziga xoslik, axloq, ijtimoiy tanqid, madaniy kontekst, hikoya qilish texnikasi, sayohat, transformatsiya, xarakter rivojlanishi, Amerika adabiyoti, Afrika adabiyoti, tematik izlanish.

2. Madaniy farqlar: Har bir madaniyatning nonverbal tilga bo'lgan munosabati o'zgachadir. Masalan, ko'z aloqasining ahamiyati, masofa saqlash, jestlarning ma'nosi, yuz ifodasi, intonatsiyani ishlatish har bir madaniyatda farq qiladi.

3. Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik: Til va madaniyat o'zaro bog'liqdir va nonverbal ifoda etish usullari ham shu bog'liqlikdan kelib chiqadi. Madaniy kontekst nonverbal muloqotni tushunish uchun juda muhimdir.

4. Nonverbal tilning ahamiyati: Nonverbal til muloqotda juda muhim rol o'ynaydi, chunki u so'zlar bilan ifodalash qiyin bo'lgan hissiyotlarni, g'oyalarni va ma'nolarni etkazadi.

5. O'ziga xoslik: Har bir shaxsning o'ziga xos nonverbal tilga ega bo'lishi mumkin. Shaxsiy tajriba, shaxsiyat xususiyatlari va madaniy ta'sir o'zining nonverbal ifoda etish uslubini shakllantiradi.

6. Muloqotning muvaffaqiyati: Nonverbal til muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishiga hissa qo'shadi. U muloqotning samaradorligini oshiradi, g'oyalarni aniqroq etkazishga yordam beradi va ishonchli munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqorida aytilgan xulosalar lingvokulturologiyaning hissiyotlarni ifoda etishda nonverbal tilning ahamiyati va madaniy xususiyatlari haqidagi bilimlarni kengaytiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Поливанов Е. Д. Статьи по общему языкознанию: Избр. работы : АН СССР. Ин-т народов Азии. Отд-ние литературы и языка. Комис. по истории филол. наук / Вступ. статья А. А. Леонтьева и др. — М.: Наука, 1968. — 376 с.
2. Морозов В. П. Занимательная биоакустика: Рассказы о языке эмоций в мире животных и человека. — М.: Знание, 1983. — 184 с.
3. Вежбицкая, А. Язык. Культура. Познание / А. Вежбицкая. - М.: Русские словари, 1997. - 416 с.
4. Клобуков П. Е. Метафора как концептуальная модель формирования языка эмоций // Язык, сознание, коммуникация. М., 1997. 122-с
5. Убайдуллаева, З. (2023, Декабрь). NONVERBAL HISSIYOT IFODALOVCHI VOSITALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI. На конференции Ферганского государственного университета (с. 154-154).
6. Qizi, Y. Z. H., & Qizi, Q. M. U. B. (2020). New directions of linguistics theory of speech acts. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(6), 165-171.



UDK:81'373.72 + 811.161.1'373.72 + 641.5

**Nigora URALOVA,**  
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi  
E-mail: [nigora.uralova026@gmail.com](mailto:nigora.uralova026@gmail.com)

PhD, dotsent A.Jabborova taqrizi asosida

## STUDY OF GASTRONOMIC PHRASEOLOGISMS IN WORLD AND RUSSIAN LINGUISTICS

Annotation

Although phraseologisms were studied somewhat later in linguistics than other areas of language, it was formed as one of the branches of science with its own object of investigation, research path and methods. Currently, the study of phraseology is a topical and controversial issue in linguistic and cultural studies.

## ИЗУЧЕНИЕ ГАСТРОНОМИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В МИРОВОЙ И РОССИЙСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

Хотя фразеологизмы стали изучаться в лингвистике несколько позже, чем другие области языка, они сформировались как одна из отраслей науки со своим объектом исследования, путем исследования и методами. В настоящее время изучение фразеологии является актуальным и дискуссионным вопросом в лингвокультурологии.

## JAHON VA RUS TILSHUNOSLIGIDA GASTRONOMIK FRAZEOLIGIZMLARNING O'RGANILISHI

Annotatsiya

Tilshunoslikda frazeologizmlar tilning boshqa soharlariga nisbatan bir qadar keyinroq o'rganilgan bo'lsa-da, u o'z tekshirish obyekti, tadqiq etish yo'li va usullariga ega fan tarmoqlaridan biri sifatida shakllandi. Hozirgi vaqtda lingvokulturologiyada frazeologiyani o'rganish dolzarb va munozarali masala hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida frazeologiyaning u yoki bu jihatlarini nazariy va amaliy o'rganilib, uning turli qirralariga bog'ishlangan monografik kuzatishlar, dissertatsion ishlar, lug'atlar, ilmiy maqolalar yuzaga keldi. Frazeologik birliklarni o'rganishning xilma-xil metodlari ham shakllandi. Bu esa tadqiq etish ishlarini yanada jadallashtirdi, ularni ilmiy-amaliy va sistem o'rganishiga imkoniyat yaratdi.

Tilshunoslar tomonidan frazeologik birliklarning shakllanish tezligi keng qamrovli kuzatish, yozib olish va o'rganishni talab qiladi, chunki nutq jarayoni madaniyat, til o'rgatish muammolari va umumiy muloqot muammolari sanaladi. Frazeologik birliklarning milliy-madaniy o'ziga xosligi masalasini hal qilishda shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda frazeologik materialning qamrovi va frazeologik birliklarning milliy-madaniy tarkibini aniqlashda turlicha yondashuvlar mavjud. Bu yerda ham individual, ham jamoaviy dunyoqarashdagi frazeologizmlar muhim o'rin tutadi. Tilshunoslik sohasida frazeologizmlarni mustaqil tadqiq etish yo'lidagi dastlabki qadamni fransuz tilshunosi Charl Ball, keyinroq rus tilshunoslari B.A.Larrin, A.V.Kunin, V.V.Kuninlar qo'yishgan. V.Vinogradov, N.N.Amosov bu sohaga chuqur yondashgan. [1].

Frazeologik birliklar o'zlarining semantik, funksional, uslubiy va sintaktik xususiyatlariga bog'liq bo'lib, unga ko'ra frazeologik birliklardagi sodd va murakkab gaplardan ajratilgan alohida tur, so'z, ibora va ma'lum ma'noda neytrallashgan gapning qarama-qarshi belgisini tashkil qiladi, dialektik birlashadi, yaxlit holda yuzaga keladi.

Frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib bering. Aytuvchining o'xshash tomonlarini, ayniqsa ularning kelib chiqishini aniq va xolisona ajratib ko'rsatish. Uning kelib chiqish tarixi va manbalarini, ya'ni etimologiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Milliy-madaniy xususiyatga ega frazeologizmlarning shakllanishida gastronomik frazeologiyalar alohida o'rin tutadi. Insoniyat bu dunyoga kelganda biz ularning hayotini oziq-ovqatsiz tasavvur qila olmaymiz. Demak, gastronomik frazeologizmlar tarixi insoniyatning ongli hayotidan boshlanadi. Gastronomik frazeologizmlarning shakllanishi har bir tilda o'z o'rniga ega. Avvalo, shuni qayd etish lozimki, oziq-ovqat bilan aloqador xilma-xil lisoniy assosiasiyalar shu kasb-kor egalarning ish jarayoni, qolaversa, ular tomonidan tayyorlangan taomlarning u yoki bu xususiyatlari muayyan obrazlarning shakllanishiga asos bo'lgan. Mana shu obrazlikka bog'liq holda ko'plab frazeologizmlar shakllangan.[2].

Gastronomik frazeologizmlar kundalik hayotda iste'mol qiladigan oziq-ovqat, ichimlik, xom meva va sabzavotlarning lisoniy

birliklaridir. O'zbek tilda ovqat nomini qo'llagan frazeologik birliklar bu xalqning qadimiy va haqiqiy madaniyati haqida ma'lumot beradi. Frazeologik birliklar muayyan aholining afsonalar, urf-odatlar, hikoyalar, urf-odatlar, an'analar, ma'naviyat, axloq va boshqalar haqidagi tushunchalarini, g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Mashhur rus tilshunosi B.A.Larin, frazeologik birliklar doimo bilvosita odamlarning dunyoqarashini, jamiyat tuzilishini va o'z davrining mafkurasini aks ettiradi. Sh Usmonova xalq madaniyatining uzoq davom etgan taraqqiyot jarayonini frazeologizmlar semantikasida aks ettiradi. Har bir tilning frazeologiyasida kishilar hayotidagi ijtimoiy-tarixiy voqealar, madaniyatning axloqiy-ma'naviy me'yorlari, diniy e'tiqodlari, milliy an'ana va urf-odatlari, avlodlar-avlodga o'tib kelayotgan madaniy qolip va arxetiplar o'z aksini topadi. F.I.Bulsayevning fikricha, frazeologizmlar o'ziga xos kichik olam bo'lib, bular har qanday milliy tilning ruhi, ajdodlar avlodlaridan meros bo'lib qolgan axloqiy qoidalar va to'g'ri g'oyalarni o'zida mujassam etgan qisqa hikmatli so'zlardir. Bu sohada rus tilshunosligida salmoqli ilmiy tadqiqot ishlar yuzaga kelgan.

L.K.Bobirsheva ilmiy-tadqiqot ishida rus va adigey tillarida frazeologizmlarning tarkibiy dinamikasi va vazifasini lingvokulturologik jihatdan tahlil qiladi. Ikki xalqning tafakkuridagi konseptlarning milliy-madaniy mentalitagini o'rganadi. Rus va adigey xalqlarining olamni lisoniy manzarasini ifodalashdagi kognitiv modellar, "inson", "taqdir", "qalb", "yurak" konseptlarining ekzistensial va milliy-madaniy xususiyatlarini yoritadi.[3].

I.V. Soxan monografiyasida oziq-ovqatga falsafiy, antropologik, psixoanalitik nuqtai nazardan madaniyat shakli sifatida qaraladi, oshpazlik va gastronomik xususiyatlar shakllanishning turli bosqichlarida hamda milliy variantlarda shakllanishi o'rganiladi. Totalitar tuzumda AQSh va Rossiyadagi gastronomik madaniyatning shakllanishi va rivoji, qiyosiy tahlili, oziq-ovqat siyosati, umumiy ovqatlanish tizimi haqida fikr yuritadi va taom kodlari, atamalariga ham to'xtaladi. Uning fikricha, o'sha davrda taom kodi ikkiga bo'linadi: 1) tabiat; tabiiy mahsulotlar; insoniyatniki; 2) madaniyat; tayyorlangan taom; insoniyatniki bo'lmagan; ayol-erkak; kundalik-bayramonona; dimlangan-qovurilgan; dudlangan- tez tayyor bo'ladigan. Biri - avlodlar avlodga o'tib kelayotgan, tabiiy; ikkinchisi - shakllantirilayotgan, madaniy.[4].

Ye.V.Dzyuba monografiyasida lingvokognitiv kategoriyalashtirish muammolari, kategoriyalashtirish jarayonlarining metodologiyasi va metodikasi, lingvokognitiv kategoriyalashtirishning turli tiplari (ilmiy, professional, sodd), kategoriyalarning shakllanish faktorlari haqida ma'lumotlar keltiradi. Bundan tashqari, "O'simlikdan olinadigan mahsulotlar" lingvomental sferasi

kategoriyalarining struktur-mazmuniy, funksional-pragmatik, etnospesifik xususiyatlariga to'xtaladi. Olamning ilmiy manzarasida sabzavotlar, mevalar, ziravorlar, donlar, yong'oqlar (ovoshi, fructi, yagodi, zlaki, orexi) kategoriyalarining botanika, tibbiyot, iqtisodiyot, agronomiya, gastronomiya kabi sohalardagi o'rmini o'rganadi va lingvomentamental subsfera sifatida tahlil qiladi. [5].

A.V.Baldova rus tilining obrazli leksikasi va frazeologiyasi, oziq-ovqat mahsulotlari, pazandachilik taomlari va mahsulotlar, ichimliklar, idishlar, anjomlar va gastronomik buyumlarning «Bir narsa - bu oziq-ovqat \ \ Нечто – это Еда» (oziq-ovqat metaforasi) kognitiv metaforik modelini tahlil qiladi. Tadqiqotchi rus tili lug'atidan 1116 ta obrazli so'zlar va jumlamani tanlab oladi. 346 ta metafora, 31 ta mualliflik metaforasi, 65 ta derivat metafora, 20 ikkikomponentli obrazli nominativlar, 181 ta komparativli qiyosiy elementlar, 12 tushum kelishikli qiyosiy oborot (o'ramlar), 34 ta o'rinpoy kelishikli qiyosiy oborot (o'ramlar), 53 ta mualliflik qiyoslamalar (авторские сравнения), 315 ta frazeologizm, 10 ta mualliflik jumlamalar, 21 maqol va 28 matalni tadqiqot obyekt sifatida o'rganadi. Olima oziq-ovqat metaforasining olamni modellashtirish funksiyasi sifatida qaraydi va voqelik hodisalarini turkumlashtirish va obrazli konseptualashtirish jarayonlarida oziq-ovqat konseptining ishtiroki beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Frazeologizmlarni lingvistik tahlil qilish usullaridan biri tizimlashtirishdir deb hisoblaydi. [6].

N.A.Jivago rus tili va matnlarida leksik va frazeologik obrazli birliklarning metaforazatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Olim diqqatini asosan, gastronomik faoliyatdagi 1292 ta obrazli so'z va birikmalarning kognitiv xususiyatlariga qaratadi. Jumladan, 771 ta metafora, 63 muallif metaforasi, 131 ta obrazli so'z, 26 ta oborot, 7 ta mualliflik solishtirmalar, 237 ta frazeologizmlar, 10 ta mualliflik frazeologizm, 9 ta maqol, 28 ta matal, 10 ta pretsedent jumlamalar tahlilga tortilgan. Muallif taom tayyorlashning bazoviy ssenariysining 5 qismini keltiradi: 1) mexanik ishlov berish (мяют), 2) tarkibni tayyorlash (месить), 3) mahsulotni shakllantirish (стряпать), 4) issiqlik bilan ishlov berish (варит), 5) kimyoviy ishlov berish (мариновать). Taomni yeyishning bazoviy ssenariysining 3 qismi: 1) qattiq taomlarni yeyish (yest); 2) suyuq taomlarni yeyish (хлебасть); 3) suyuqlikni ichish (пить). Freymli bazoviy ssenariy: a) taomni tayyorlaydigan subyekt; b) taom tanovul qilish subyekt; v) subyekt tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat; g) obyektini yetkazish bilan bog'liq transport; d) taom (obyekt gastronomik faoliyati); ye) gastronomik faoliyat asbolar; j) makon; z) vaqt; i) turli vaziyatlar. [7].

Gastronomik frazeologiyaning lingvistik va lingvokulturologik tahliliga bag'ishlangan maqolada mualliflar, ingliz var us tilidagi frazeologizmlarda qo'llangan gastronomik so'zlarni qiyosiy o'rganadi. Mualliflarning yozishicha, A.I.Fedorovanning «Rus adabiy tilining frazeologik lug'ati tahlili» (Analiz Frazeologicheskogo slovaryu russkogo literaturnogo yazyka. – M., 2008) va «Kollinz idiomalarining inglizcha lug'ati» (Collins Cobuild Dictionary of Idioms. L.: Harper Collins Publishers, 1997) larida eng ko'p qo'llanilgan gastronomik atamalar quyidagilar ekanligini ko'rsatib o'tadi: «хлеб» / «bread», «пирог» / «pie», «блин» / «pancake», «каша» / «porridge», «молоко» / «milk», «сыр» / «cheese», «масло» / «butter», «сливки» / «cream», «соль» / «salt», «перец» / «pepper», «сахар» / «sugar», «суп» / «soup», «мёд» / «honey», «яблоко» / «apple», «лимон» / «lemon», «апельсин» / «orange», «орех» / «nut», «ягода» / «berry», «плод» / «fruit», «бобы» / «bean», «горох» / «peas», «картофель» / «potato», «огурец» / «cucumber», «лук» / «onion», «рыба» / «fish», «чай» / «tea», «вино» / «wine».

Frazeologizmlarni tahlil qilish jarayonida gastronomik komponentli iboralar rus kishisining ideal qiyofasini yaratishda xizmat qilishini aytib o'tadi. Masalan, topqirlik, hozirjavoblik: проголодаешься, так хлеба достать догадаешься; tejamkorlik: ешь пироги, а хлеб вперед береги; sir saqlash: нем как рыба; mehmondo'stlik: не красна изба углами, а красна пирогами; mehnatsevarlik: без хорошего труда – нет плода; ma'naviy boylik: не хлебом единым жив человек. Bundan tashqari, salbiy xislatlarini ham hosil qilish mumkinligini ta'kidlaydi: qabihlik, pastkashlik: забыть хлеб-соль; dangasalik: хочется пирожок съесть, да не хочется в подполье лезть; yolg'onchilik: врет, что блины печет; ikkiyuzlamachilik: на устах медок, а на сердце ледок; foydasiz, keraksiz: как от козла молока; ahmoqona: как об стенку горох; o'rtachalik, qobiliyatsiz: ни рыба, ни мясо; o'g'ri: на чужой каравай рот не разевай; safsatabozlik: толочь воду в ступе; ichki va tashqi ko'rinishga mos emaslik: красна ягода, да на вкус горька; hayotdan norizolik: надутому, да сердитому и сахар не сладкий.

Turli tip insonlarning qiyofasini yaratishda qo'llaniladi: hayot tajribasiga ega shaxslar: третий калач; yosh va kundalik hayot tarziga o'ralashib qolgan kishilar: молоко на губах не обсохло; elita

kishilari: сливки общества; o'rta ma'lumotli: профессор кислых щей; kamgar, indamas: набрать в рот воды; o'zini ojiz ko'rsatadigan: горе луковое; hammaga kulgu bo'ladigan: пугало гороховое; charchagan: как выжатый лимон; sog'lom va baqquvat: кровь с молоком; jismonan kuchsiz va nosog'lom: мало каши ел; salbiy xususiyatli bir xil kishilarga nisbatan: одного поля ягоды.

Li Chi maqolasida olamning rus lisoniy manzarasida gastronomik kod tushunchasi haqida fikr bildirib, shunday deydi: «Har bir milliy madaniyatning tilidagi tasvirlar va belgilari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, til tashuvchilari ongida mustahkamlanib, saqlanib boradi va kodlar tizimini tashkil qiladi. Til tashuvchisi kodlardan foydalanib, nafaqat, tevarak-atrofdagi tashqi olamni obrazli tasvirlaydi, balki uni har tomonlama baholaydi, stilistik bo'yoq beradi». Maqolada muallif gastronomik kodga ta'rif beradi, «oziq-ovqatdan ko'ra kengroq va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, oziq-ovqat, pazandachilik kabi komponentlarni o'z ichiga oladi va gastronomik kod elementlari hisoblanadi. Natijada leksik va frazeologik tarkib gastronomiya asosini tashkil etuvchi «Gastronomiya» sohasining kodlari sifatida paradigmatic guruhlar bo'linadi. Bundan tashqari, gastronomik kodni inson ongida joylashuvining yadro-periferiya darajasini ko'rsatadi va quyidagi guruhlar bo'ladi:

Leksik-semantik guruhlar: «Taomning sifati va ta'mi»; «Pishirish jarayoni»; «Did bilan ovqatlanish»; «Oshxona anjomlari va asboblari»; «Taom tayyorlovchi yuzlar»; «Taom tayyorlash retseptlari».

«Hayvonot olamiga mansub mahsulotlar» mavzuviy guruhi, shu jumladan, leksik-semantik guruhlar: «Sut mahsulotlari»; «Go'sht, go'shtdan tayyorlanadigan mahsulotlar va yarim tayyor mahsulotlar»; «Baliq mahsulotlari»; «Qush va parrandachilik sanoati mahsulotlari».

«Tayyor taomlar» mavzuviy guruhi: «Unli mahsulotlar», «Don mahsulotlari»; «Tayyor go'sht mahsulotlari»; «Shirinliklar»; «Zakuskalar»; «Sho'rva».

«Taom tayyorlash» mavzuviy guruhi, shu jumladan, uning tarkibiga kiruvchi leksik-semantik guruhlar: «Pishirish», «Qaynatish», «Kvasit», «Qovurish», «Marinovka qilish», «Dimlash», «Idishlar».

«Ta'm qo'shimchalari» mavzuviy guruhi: «Ziravorlar» (qalampir, dafna yaprog'i, zanjabil, chinigullar, koritsa, anis va boshqalar); «Spetsii» (shakar, tuz, sirka, kraxmal, limon kislotasi, soda); «Pripravalor» (turli souslar, mayonezlar).

Muallif gastronomik kod juda keng tushuncha ekanligini ta'kidlab, leksik-semantik jihatdan yana bir necha guruhga bo'ladi: 1) yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat; 2) pazandachilik san'ati, pazandachilik; 3) go'sht va sut mahsulotlari (odatda iste'mol qilishga tayyor); 4) do'konda mahsulotlarni sotish bo'limi; 5) oshxona, restoranalarda xizmat qiluvchilar; 6) oshxona, taomlar bilan bog'liq barcha bilimlar ketma-ketligi; inson tanovuli bilan; 7) taomga nozik ta'm.

Yuqorida sanab o'tilgan gastronomik kodlarga asoslanib, inson xususiyatlariga oid frazeologik birliklarni tahlil qiladi:

Insoniy fazilatlar va shaxsiy xususiyatlari, xatti-harakatlariga oid frazeologik birliklar: Masalan, утра сахарные - shaxsiy yutuqlarga erishish maqsadida o'z qobiliyatlarini ishga solib, chiroyli va jozibali gapira oladigan, ayni paytda aytor odamga nisbatan; не даром ест хлеб – mashqaqtali mehnat qilish; ни рыба, ни мясо – na u yoqli, na bu yoqli, o'trasarson; мало каши ел - yetarlicha kuchli emas;

Insonlar o'rtasidagi munosabatlarga oid frazeologik birliklar: подливать масла в огонь — muammoli vaziyatni yanada qiyinlashtiradigan kishiga nisbatan; насыпать соли на хвост — kimgadir muammo keltirish, nomaqul xatti-harakatlarni fosh etish;

Kishining intellektual qobiliyatiga oid frazeologik birliklar: голова варит — fahmlash, topqirlik, zukkolik; работа кипит — faol va tezkor faoliyat. Недосол на столе, пересол на спине matali mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.

Gastronomik frazeologizmlar tadqiqida ularning semantik xususiyatlari ham alohida o'rin tutadi, bu muammo mutaxassislar tomonidan yetarlicha o'rganilmagan. Demak, har bir tilning gastronomik frazeologiyasi mahalliy xalqning madaniy xususiyatlarini aks ettiradi, ularning mentalitetini va boshqa xalqlardan o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

Gastronomik frazeologizmlar jahon tilshunoslari - L.K.Bobirshva, I.V.Soxan, A.V.Baldova, N.A.Jivago va boshqalarning tadqiqot obyekt bo'ldi. O'zbek tilidagi mavjud frazeologik birliklarning semantik nuqta nazaridan farqlanuvchi guruhlar hosil qilishida ular tarkibidagi leksemalarning yetakchi semalari muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, iboralarni semik tahlil qilish ham o'ziga xos samara beradi. Adabiyotlarni o'rgangan holda

gastronomik frazeologik birliklarni quyidagi leksik-semantik guruhlariga bo'lib tadqiq qilish mumkin:

«Pazandalik san'ati» leksik-semantik guruhlar: «Ovqatlanish madaniyati»; «Oshxona anjomlari va asboblari»; «Taom tayyorlovchi shaxslar».

«Hayvonot olamiga mansub mahsulotlar» mavzuviy guruhi, shu jumladan, leksik-semantik guruhlar: «Sut mahsulotlari»; «Go'sht, go'shtdan tayyorlanadigan mahsulotlar va yarim tayyor mahsulotlar»; «Baliq mahsulotlari»; «Qush va parrandachilik sanoati mahsulotlari».

«Tayyor taomlar» mavzuviy guruhi: «Unli mahsulotlar», «Don mahsulotlari»; «Shirinliklar»; «Zakuskalar»; «Sho'rva».

«Taom tayyorlash» mavzuviy guruhi, shu jumladan, uning tarkibiga kiruvchi leksik-semantik guruhlar: «Pishirmoq», «Cho'zmoq», «Chaynamoq», «Yemoq», «To'ymoq», «Achimoq», «Tuzlamoq».

«Ta'm qo'shimchalari» mavzuviy guruhi: «Ziravorlar» (qalampir, dafna yaprog'i, zanjabil, chinnigullar, koritsa, anis va boshqalar); «Spetsii» (shakar, tuz, sirka, kraxmal, limon kislotasi, soda); «Pripravalar» (turli souslar, mayonezlar).

«O'zbek mehmondorchiligi» mavzuviy guruhi: «Shaxsiy hayotdagi muhim voqealarga bag'ishlangan mehmondorchilik» (Qizlar majlisi, Nikoh to'yi, Kelinchak qo'lidan choy ichish, Chorlar, Beshik to'yi, Hovli to'yi, Tug'ilgan kun, Banket, Oltin to'y); «Ko'ngilli dam olishga bag'ishlangan mehmondorchilik» (Dala sayli, Gashtak, Choyxonada osh, Harifona); «Tabiatdagi o'zgarishlarga bag'ishlangan mehmondorchilik» (Qorxat, Navro'z bayrami, Sumalak sayli, Guli surx yoki Lola sayli, Archa bayram); «Hosildorlikka bag'ishlangan mehmondorchilik» (Uzum sayli, Anor bazmi, Qo'shchi oshi, Bog' sayli, Qovun sayli, Hashar).

#### ADABIYOTLAR

1. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – Москва: "Прогресс", 2000.
2. Mamatov.A.E. O'zbek tili frazeologizmlarning shakillanishi masalalari. Toshkent: O'zbekiston-1999.
3. Бобыршева Л.К. Фраzeологизмы как национально-культурная экзистенциальная картина мира (на материале русского и адыгейского языков): Автореф. дисс...канд.филол. наук. - Майкоп, 2009. – стр.23.
4. Дзюба Е.В. Лингвокогнитивная категоризация в русском языковом сознании: монография. - Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2015.
5. Дзюба Е.В. Лингвокогнитивная категоризация в русском языковом сознании: монография. - Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2015.
6. Балдова А.В. Миромоделирующая и аксиологическая функции пищевой метафоры в русском языке: Автореф. дисс. канд.филол. наук. – Томск, 2016.
7. Живаго Н.А. Метафоризация процессов гастрономической деятельности в русском языке: Автореф. дисс...канд.филол. наук. - Томск, 2018.
8. СклЯрова Н.Г., Косоножкина Л.В. Гастрономическая фразеология: лингвистический и лингвокультурологический аспекты // Филология. Гуманитарные и социальные науки. 2019, №2. -с. 211-220. DOI: 10.23683/2070-1403-2019-73-2-211-219.



UDK:8.17581

**Kishin XAJBOYEV,**

*Urganch innovatsion universiteti, "O'zbek va xorijiy filologiya" kafedrasida o'qituvchisi,*

*UrDU mustaqil tadqiqotchisi*

*E-mail: kishinxajboyev@gmail.com*

*PhD. Sarvar Atajonov (UrDU) taqrizi asosida*

### "DARYOSINI YO'QOTGAN QIRG'OQ" ROMANIDA FOLKLOR AN'ANALARI

Аннотация

Maqolada Xorazm farzandi Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanidagi folklor an'analar adabiy-estetik jihatdan taqin etiladi. Amudaryo suvining to'silishi natijasida kelib chiqqan ekologik muammolar, daryo biqinida joylashgan qadimiy Qirtepaning portlatilishi, Mazdubad tuz koni va Sulton Sanjar g'orining suv ostida qolishi haqida mulohazalar bildirilgan. Qirtepaning paydo bo'lishi, Mazdubad tuz konining kelib chiqishi, Naysonbuva va uning otlari haqida rivoyatlar mohiyati va tahlili ustida to'xtalangan.

**Kalit so'zlar:** Folklor materiallari, Qirtepa, Mazdubad tuz koni, Naysonbuva, otlar, Amudaryo.

### FOLKLORE TRADITIONS IN THE NOVEL "THE LAND THAT LOST ITS RIVER"

Annotation

The article interprets the folklore traditions in the novel "The Land That Lost Its River" by Erkin Samandar, a son of Khorezm, from a literary and aesthetic point of view. Comments were made on the ecological problems caused by the damming of the Amudarya water, the explosion of the ancient Kirtepa located on the riverbed, the flooding of the Mazdubad salt mine and the Sultan Sanjar cave. There are evidences about the appearance of Kirtepa, the origin of the Mazdubad salt mine, the essence and analysis of the narratives about Naysonbuva and his horses.

**Key words:** Folklore materials, Kirtepa, Mazdubad salt mine, Naysonbuva, horses, Amudarya.

### ФОЛЬКЛОРНЫЕ ТРАДИЦИИ В РОМАНЕ «ЗЕМЛЯ, ПОТЕРЯВШАЯ СВОЮ РЕКУ»

Аннотация

В статье с литературно-эстетической точки зрения интерпретируются фольклорные традиции в романе Эркина Самандара, сына Хорезма, «Земля, потерявшая свою реку». Прозвучали комментарии об экологических проблемах, вызванных запрудой воды Амударьи, взрывом расположенной на русле реки древней Киртепы, затоплением соляной шахты Маздубад и пещеры Султан Санжар. Имеются свидетельства о появлении Киртепы, происхождении Маздубадской соляной шахты, сути и анализе повествований о Найсонбуве и его лошадях.

**Ключевые слова:** Фольклорные материалы, Киртепа, Маздубадский соляной рудник, Найсонбува, лошади, Амударья.

Ijodkor va so'z badiiy ijod jarayonining asosini tashkil etadigan tushunchalardir. Erkin Samandar ushbu so'zlarni ham ijodkor ham jurnalist sifatida bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda idrok etgan. Uning uchun so'z – eng qudratli kuch. "To'g'ri, odam bolasi adabiyotsiz ham o'lmay yashashi, aniqrog'i, kun kechirishi mumkin. Biroq bunday tirikchilikka havas qilib bo'larmikan [1]?" – deb yozadi shoir Abdulla Oripov. Ma'lum bo'ladiki, ijodkor so'z san'atini tiriklikning mazmuni deb biladi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi yuksak iste'dod egalari uchun ilhom manbaidir. Haqiqiy ijodkor folklor materiallaridan ruh oladi, xalq dostonlari va ertaklarida mavjud obraz va timsollarni qayta ishlaydi, maqol va matallardagi oz so'zda teran mazmunni ifodalash usullaridan san'atkorona foydalanib, poetik jihatdan takomilga yetkazadi. Millatning teran fikrli, iste'dodli farzandi Erkin Samandar ijodining gultoji bo'lmish "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani, bu jihatdan, tadqiqotlar uchun boy material bo'la oladi. Romanda keltirilgan tarixiy obidalar, Qirtepa, Mazdubad tuz koni kabi joylar real ijtimoiy voqealar bilan birgalikda kelib chiqishi va paydo bo'lishi haqidagi rivoyatlar bilan uyg'unlik kasb etib, asarning qimmatini yanada oshiradi.

Romanda Aminov boshchiligidagi jamoa tabiatga zarar bo'lishini o'ylamasdan suv ombori qurish maqsadida Amudaryoning shundoq biqinida joylashgan necha asrlik Qirtepani portlatmoqchi bo'lganida Qurbon aka bunga qarshilik qiladi. Uning tarixiy, madaniy merosimiz ekanini ta'kidlaydi. Qurbon aka Naysonbuva qabristonini tozalab, ta'mirlagan uchun dindor, eskilik tarafdori deb ayblanib qamalgan, keyinchalik Qorayantoqqa GES qurilishiga olib kelingan edi. U shuncha traktor, mashinalarning kuchi yetmayotgan Qirtepaning qadimiy, sirli joy ekanligini, bundan olimlarni ogoh etish kerakligi, tariximizning qorong'u joylari ochilishini bot-bot takrorlasa-da, ruslar tomonidan manqurtga aylantirilgan rahbarlar bunga yo'l bermadi. Qurbon aka shu yerdagi ishchilarga turli ilmiy taxminlarni keltirib, Qirtepaning paydo bo'lishi haqidagi rivoyatni aytib berdi.

Emishki Bog'iston malikasi Torabekxonimga erishish uchun qarluq hokimi Sulton ularga boruvchi Jayhunni to'sish ilinjida yuzlab

ko'zalarning ichini to'ldirib, zanjirlar bilan bog'lab, monolitlab damba hosil qilgan, keyinchalik uni olishga majbur bo'lib, shundoq daryoning biqiniga joylagan. Jayhun suvini to'sgan Sulton xalq nafratiga uchrab, To'rabekxoniga ham erisha olmay nom-nishonsiz yo'qolgan, ba'zilar aytishicha, darveshlik yo'lini tutgan emish.

Qurbon aka bu rivoyatni keltirib, o'zga, begona yurt odamlarining yo'rig'i bilan o'zligini yo'qotgan, qadimiy merosini, tarixiy qadamjolarini saqlay olmagan, bunga harakat ham qilmayotgan "robot"larni insofga chaqiradi. Qarluq sultoni Jayhunni to'sib, yaxshilikka erishmaganligini ko'p takrorlaydi. Bugungi holimiz ham ana shu jaholatdan nishona, deya qichqiradi. Afsuski, uni hech kim eshitmaydi. Necha asrlik Qirtepa portlatilib, ona tabiat bir a'zosisidan ajraladi.

Bu rivoyat muallif uslubida roman tarkibida to'liq holda keltiriladi. Ushbu rivoyat Qirtepaning qanday paydo bo'lganligi bilan birga uning yonidagi Sulton Sanjar g'ori va Mazdubad tuz konining paydo bo'lishini ham o'zida mujassam etadi. "Sulton poygada To'rabekxonimdan yengilib, nomusga chiday olmay, lashkarlari bilan Mazdubad chuqurligiga tushdi. Otdan tushub cho'kkaladi va ko'z yoshi to'kdi. Lashkarlari-da ho'ng-ho'ng yig'ladi. Hisobsiz ko'zyoshlardan chuqurda sho'r paydo bo'ldi. Alamiga chiday olmagan Sulton boshini toshga urdi. Tosh yorilib g'or paydo bo'ldi. Sulton lashkarlariga aytib g'or ichiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi... Bandi Sulton g'ori va Mazdubad tuz koni ana shunday paydo bo'lgan, u ayovsiz kurashlardan yodgordir [2]..."

Muallif rivoyatda mubolag'a, o'xshatish, portret kabi badiiy san'atlardan unumli foydalangan. "...Duldulsoyda qir kecha-kunduz olishuv bo'ldi. Qon suv bo'lib oqdi" jumlasida mubolag'aning qo'llanilishini ko'ramiz.

"...Qiz yangi tug'ilgan oyday kun sayin to'lishdi", "To'rabekxonim ota o'g'itini qulog'iga sirg'a qildi" kabi gaplarda esa tashbehning go'zal namunalarini ko'ramiz.

Ushbu rivoyat negizida millat sifatida ham, musulmon sifatida ham o'zbekning fitratiga xos fazilatlaridan bo'lgan o'zlikni anglash, vatanparvarlik, tabiatni, ajdodlar merosini saqlash, o'zlikka

sadoqat kabilar kuylanadi. Qurbon aka bu xislatlarni odamlardan qidiradi, topolmagach, ularga buni singdirishga harakat qiladi. Biroq, har safargidek, bunisi ham befoyda edi.

Folklor an'analarni yaxshi bilish, ijod jarayonida qo'llash ijodkor badiiy-estetik tafakkuri takomilida alohida ahamiyatga ega. Chunki xalq og'zaki ijodi badiiy asardagi milliy ruh ifodasini kuchaytiradi. Badiiy ijod namunalarini mohiyatan xalqqa yaqinlashtiradi. Xalqni badiiyat sirlarini anglashga o'rgatadi.

Romanda yana bir ajoyib rivoyat Naysonbuva va uning otlari haqida ketadi. Asarda bu rivoyat chorrahada qurilgan G'irkovuk monumentining ochilishida qatnashib, lentani kesgan ijroqum buva tilidan hikoya qilinadi.

Bir zamonlarda Qorayantoqda o'zini o'ylaydigan podsho taxtga o'tiradi. Podsho, uning ketidan odamlari xalqqa og'ir-og'ir soliqlar soldi, o'lonlar yig'di. Mehnatkash xalqning qaddi dol bo'ldi. Xalqning baxtiga Naysonbuva bor ekan. Naysonbuva bir kuni yerga quloq tutib darada otlar dupurini eshitdi. Ular Oybuloqdan suv ichar edi. Buva darhol Raxshon botirga ularning omadi kelganini, xosiyatli otlar ekanligini aytib, saharda ularni yo'lga chiqaradi.

Raxshon botirbuloqqa borib pisib yotdi Burgut kabi osmondan uchib kelib yerga qo'ngan otlar suvini ichdi-yu qanotlarini yoyib uchib ketdi. Raxshon botir va yigitlari ularni yaqiniga ham borisha olmadi. Shunda Naysonbuva otlarni uxlatadigan dori tayyorlab buloqqa septirdi. Raxshon botir ular ushlab, tarbiya qildi. Ular qo'lga o'rganib omocho haydadi, chig'ir aylantirdi. Kunlarning Birida podsho bu uchar otlardan foydalanib dunyoni bosib olmoqchi bo'ldi. Podshoning qo'shni mamlakatni talaganidan jahli chiqib yurgan Naysonbuva buni eshitib, "uchar" deb qichqirgan edi otlar bir zumda tashga aylandi.

Bundan keyin podsho olamdan o'tdi. Xalq Naysonbuvadan otlarni tiriltirishni so'radi. Buva ikki otni tiriltira oldi. Lekin otlarning qanotlari harakatga kelmadi. Lekin yeldirimdek yugurar edi. Shuning o'zi bas, odamzodning nafsigacha chegara yo'q, dedi buva. Rivoyat quyidagi so'zlar bilan yakun topadi: "Otlar unib-o'saverdi. Alpomishning oti ham o'sha otlardan tarqagan. Go'ro'g'lining G'irkovugi ham o'sha otlarning avlodi. O'zimizning G'irkovuk ham shulardan [2]".

Romanda ushbu rivoyat Qorayantoqda yashovchi Naysonbuvaga o'xshatilgan Buva va uning otlariga nisbatan aytilgan.

Ma'lum bo'ladiki, Erkin Samandar folklor asarlaridagi motivlarni aynan takrorlamaydi. Ularni ijodiy qayta ishlaydi, individual falsafiy qarashlari bilan boyitadi, poetik talqin jihatdan mukammal darajaga yetkazadi. Shoir fikricha, har qanday kurash – hayot belgisi, har qanday bo'shliq – o'lim alomati. Rivoyatda ot obrazi faol qo'llangan. Erkin Samandar badiiy-estetik tafakkurining o'ziga xosligi shundaki, u muayyan hodisaga yoki ma'lum bir mavzuga kutilmagan tomondan yondashadi. Jumladan, xalq og'zaki ijodiga xos obrazlar talqinida ham hech bir ijodkorni takrorlamaydi.

Romanda Amudaryo suvini damba va to'g'onlar bilan to'sib, olti millaird kub suv sig'adigan to'rtta suv ombori qurilishi natijasida suv tagida qolgan har bir joyning kelib chiqish tarixi so'zlanadi, rivoyat keltiriladi. Bu kitobxonni voqeaning ichida o'zi g'oyibona

ishtirok etib, har bir maskan uchun kurash olib borilayotganini jonli tasavvur qilishga undaydi.

Bundan tashqari ijodkorning vatanparvarlik, millatini sevis, madaniy merosimiz, tabarruk qadamjolarimizga hurmat kabi axloqiy fazilatlarini yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bu borada professor Nurboj Jabborovning "Insonning insonligi qanday axloq sohibi ekani bilan belgilanadi. Uning kamoloti darajasini ko'rsatuvchi bosh omil ham axloqdir [3]" deganda haq edi.

Ushbu rivoyatlar roman ichiga shunday ustalik bilan joylashtirilganki, qanday o'qib o'tib ketganingizni sezmay qolasiz. Asar ichida asar keltirish san'ati "Ming bir kecha", "Xamsa" asarlaridan bizga ma'lum. "Ming bir kecha" kompozitsiyasi "ertak ichida ertak" tarzida tuzilgan bo'lib, undagi barcha ertak, hikoyat, masallar podshoh Shahriyor va vazirning oqila qizi Shahrizoda haqidagi ertak va hikoyatlar bilan o'rab olingan.

Malikaning xiyonatidan g'azablangan Shaxriyor har kecha yotog'iga yangi ma'shuqa keltirishni buyuradi va ertalab uni qatl ettiradi. Navbat Shaxrizodaga kelganda, qiz behuda qon to'kilishining oldini olish maqsadida shohga hikoya aytib bera boshlaydi va hikoya eng qiziq joyiga kelganda, tong otib, hikoya aytishni to'xtatadi. Hikoyaning davomiga qiziqib qolgan Shahriyor qatlni keyingi kunga qoldiradi. Shu tariqa ming bir kecha o'tadi. Shahrizodaning aql-u zakovatidan lol qolgan Shahriyor unga uylanadi [4]".

Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" dostoni ham "asar ichida asar" kompozitsiyasiga ega. Bu haqida Shahlo Hojiyeva shunday fikrlarni aytadi: "Sab' ai sayyor" yetti hikoyatdan tarkib topgani ma'lum. Bu hikoyatlar bir-biridan keskin farq qilishi barobarida bir-birini to'ldirib, asosiy qoliplovchi hikoyat Bahrom va Dilorom muhabbati voqealarini chuquroq tushinishda o'quvchiga yordam beradi. Bu asar "Xamsa"dagi boshqa dostonlardan ana shu xususiyatlariga ko'ra farq qiladi [5]".

Roman ichida xalq og'zaki ijodidan namuna keltirish san'ati Chingiz Aytmatov ijodida ko'p uchraydi. "Asrga tatigulik kun" romanida keltirilgan Nayman ona haqidagi Sario'zak afsonasi, aynan shu afsona orqali biz tanishgan manqurt atamasi har bir kitobxon xotirasida mangu qotgan. Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida shu an'anani ko'ramiz. Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasida insoniy go'zallik, ezgulik va hayot ziddiyatlari, ekologiya muammolari teran tadqiq etiladi. Ushbu qissa ichidagi Ona bug'u haqidagi ertak ham har qanday ilm egasining ma'naviy boyligidir.

Roman ichida xalq og'zaki ijodining go'zal namunalaridan foydalanish asar quvvatini oshiradi. Uni o'qigan kitobxon qalbiga milliylik, ma'naviy merosimizni avaylash va taraqqiy topdirish, ajdodlarga munosib avlod bo'lish kabi ezgu fazilatlar urug'ini sochadi. Erkin Samandarning adabiy-estetik qarashlarida xalq og'zaki ijodi zamin vazifasini o'tagan, yozuvchining mazkur romanida o'zbekning toza tiynati, pok ruhiyati samimiy va betakror aks etadi. Romanda keltirilgan Naysonbuva kabi tarixiy obidalar, Qirtepa, Mazdubad tuz koni kabi joylar real ijtimoiy voqealar bilan birgalikda kelib chiqishi va paydo bo'lishi haqidagi rivoyatlar bilan uyg'unlik kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Орипов А. Шоирнинг туғилиши. – Toshkent. Sharq. 2021. - B. 261
2. Самандаров Э. Ғайб қушлари. – Тошкент: Шарқ, 2009. – Б. 99
3. Жабборов Н. Маърифат надир. - Тошкент: Маънавият, 2010. - Б.15
4. Astanova G., Mirziyoyeva Y. O'zbek mumtoz adabiyotida sayyor syujet masalasi./Ogahiy ijodiy merosi va sharq adabiyotida adabiy an'ana masalasi. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Sharqshunoslik universiteti, 2022-yil 17-dekabr. 168 b.
5. Hojiyeva Sh. Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" dostoni muqaddimasiga oid ayrim mulohazalar. /Alisher Navoiy va XXI asr. Ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent: O'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2022-yil 5-fevral. 172 b.



УДК 8.1751

*Alla TSOY,*  
doctor of philosophy (Ph D), docent, Angren State University  
E-mail: allatsoy0203@gmail.com

На основе рецензии кандидата педагогических наук, доцента НУУз Ахмедовой Мукаддас Хадиметовны

#### О КОГНИТИВНЫХ МЕХАНИЗМАХ РЕАЛИЗАЦИИ КАТЕГОРИИ ОБРАЗА АВТОРА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация

В статье представлена когнитивная интерпретация категории образа автора в художественном тексте, основанная на теории диалогичности гуманитарного знания М. М. Бахтина. В диалогической модели образа автора выделяются четыре основных субъектных плана: план автора текста (Субъект<sup>1</sup>) ↔ план повествователя/рассказчика (Субъект<sup>2</sup>) ↔ план персонажа (персонажей) (Субъект<sup>3</sup>) ↔ план адресата (читателя (читателей)) (Субъект<sup>4</sup>). Особую значимость здесь имеет второй субъектный план – план повествователя / рассказчика (Субъекта<sup>2</sup> воздействия / Объекта<sup>2</sup> восприятия и оценки Субъектом<sup>4</sup> (читателем)), который, с одной стороны, сливаясь с реальным автором текста, выступает в роли Автора<sup>1</sup> текста (Субъекта<sup>1</sup> воздействия / Объекта<sup>1</sup> восприятия и оценки Субъектом<sup>4</sup> (читателем)). С другой стороны, повествователь / рассказчик выступает и в третьей своей ипостаси: «примекая» маску одного из персонажей, становясь в один ряд с другими персонажами, повествователь выступает в роли Субъекта<sup>3</sup> (персонажа) (Субъекта<sup>3</sup> воздействия / одновременно Объекта<sup>2</sup> и Объекта<sup>3</sup> восприятия и оценки Субъектом<sup>3</sup> (другим персонажем) и Субъектом<sup>4</sup> (читателем)). В художественном тексте функцию выражения точек зрения субъектных планов выполняют номинации персонажей. Следует подчеркнуть, что в процессе реализации образа автора объективно взаимодействуют два тесно взаимосвязанных и взаимообусловленных измерения – внутритекстовое и внетекстовое, так как при осмыслении некоторых языковых реалий необходимы знание и учёт этнографических и культурно-исторических особенностей языка. В качестве языкового материала для когнитивного анализа послужил текст детективной повести К. О. Синдарова «Тайна библиотеки Тимуридов».

**Ключевые слова:** Современная узбекская литература, проза, реализм, жанр детектива, художественный текст, категория образа автора, авторская точка зрения, образ повествователя / рассказчика, образы персонажей, номинация, когнитивные механизмы, оценочность, субъектные планы.

#### COGNITIVE MECHANISMS OF IMPLEMENTATION CATEGORIES OF THE AUTHOR'S IMAGE IN A LITERARY TEXT

Annotation

This article deals with the cognitive interpretation of the category of the author's image in a literary text, based on M.M.Bakhtin's theory of dialogicity of humanitarian knowledge. In the dialogical model of the author's image, four main subject plans are distinguished: the plan of the author of the text (Subject<sup>1</sup>) ↔ the plan of the narrator/storyteller (Subject<sup>2</sup>) ↔ the plan of the character(s) (Subject<sup>3</sup>) ↔ the plan of the addressee (reader(s)) (Subject<sup>4</sup>).

Of particular importance here is the second subjective plane – the plane of the narrator / storyteller (Subject<sup>2</sup> of influence / Object<sup>2</sup> of perception and evaluation by the Subject<sup>4</sup> (reader)), who, on the one hand, merging with the real author of the text, acts as the Author<sup>1</sup> of the text (Subject<sup>1</sup> of influence / Object<sup>1</sup> of perception and evaluation by the Subject<sup>4</sup> (reader)). On the other hand, the narrator / storyteller also acts in his third hypostasis: “trying on” the mask of one of the characters, standing in line with other characters, the narrator acts as the Subject<sup>3</sup> (character) (Subject<sup>3</sup> of influence / simultaneously the Object<sup>2</sup> and Object<sup>3</sup> of perception and evaluation by the Subject<sup>3</sup> (another character) and the Subject<sup>4</sup> (reader)). In a fictional text, the function of expressing the points of view of the subjective planes is performed by the nominations of the characters. It should be emphasized, that in the process of realizing the image of the author, two closely interconnected and interdependent dimensions – intra-textual and extra-textual, since when comprehending some linguistic realities it is necessary to know and take into account the ethnographic and cultural-historical features of the language. The text of the detective story by K.O.Sindarov “The Secret of the Timurid Library” served as linguistic material for the cognitive analysis.

**Key words:** Modern Uzbek literature, prose, realism, detective genre, fiction, category of the author's image, author's point of view, image.

#### MUALLIFNING ADABIY MATNDAGI OBRAZI KATEGORIYALARINI AMALGA OSHIRISHNING KOGNITIV MEXANIZMLARI

Аннотация

Ushbu maqola adabiy matndagi muallif obrazi kategoriyasining kognitiv talqiniga bag'ishlangan bo'lib, M.M.Baxtinning gumanitar bilimning dialogikligi nazariyasiga asoslanadi. Muallifning obrazining dialogik modelida to'rtta asosiy sub'ektiv rejalar ajratilgan: matn muallifi rejasi (Sub'ekt<sup>1</sup>) ↔ hikoyachi / hikoya qiluvchi rejasi (Sub'ekt<sup>2</sup>) ↔ qahramon(lar) rejasi (Sub'ekt<sup>3</sup>) ↔ oluvchi (o'quvchi(lar)) rejasi (Sub'ekt<sup>4</sup>). Bu yerda ikkinchi sub'ektiv reja - hikoyachi / hikoya qiluvchi rejasi (ta'sirning Sub'ekt<sup>2</sup> / Sub'ekt<sup>4</sup> (o'quvchi) tomonidan qabul qilish va baholash Ob'ekt<sup>2</sup>) alohida ahamiyatga ega. U, bir tomondan, matnning haqiqiy muallifi bilan birlashib, matnning Muallifi<sup>1</sup> (ta'sirning Sub'ekt<sup>1</sup> / Sub'ekt<sup>4</sup> (o'quvchi) tomonidan qabul qilish va baholash Ob'ekt<sup>1</sup>) sifatida namoyon bo'ladi. Boshqa tomondan, hikoyachi / hikoya qiluvchi uchining hipostazida ham harakat qiladi: qahramonlardan birining niqobini "kiyib ko'rib", boshqa qahramonlar qatoriga qo'shiladi, hikoyachi Sub'ekt<sup>3</sup> (qahramon) sifatida harakat qiladi (Sub'ekt<sup>3</sup>ning ta'siri / bir vaqtning o'zida Sub'ekt<sup>3</sup> (boshqa qahramon) va Sub'ekt<sup>4</sup> (o'quvchi) tomonidan qabul qilish va baholash Ob'ekt<sup>2</sup> va Ob'ekt<sup>3</sup>). Badiiy matnda sub'ektiv rejalarining nuqtai nazarlarini ifodalash funksiyasi qahramonlarning nomlari orqali amalga oshiriladi. Ta'kidlash kerakki, muallifning obrazini amalga oshirish jarayonida ikki o'zaro bog'liq va bir-biriga bog'liq o'lcham - intratekstual va ekstratekstual, chunki ba'zi til realiyalarini tushinishda tilning etnografik va madaniy-tarixiy xususiyatlarini bilish va hisobga olish zarur. K.O.Sindarovning “Temuriy kutubxonasining siri” detektiv hikoyasi matni kognitiv tahlil uchun lingvistik material sifatida xizmat qildi.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy o'zbek adabiyoti, nasr, realizm, detektiv janr, badiiy adabiyot, muallif obrazi kategoriyasi, muallifning nuqtai nazari, obraz.

**Введение.** Узбекская литература на современном этапе своего развития проходит сложный и самобытный путь, который характеризуется исследователями как «период становления неореализма» [4]. По мнению исследователей, об этом свидетельствуют вызвавшие общественный резонанс и интерес современных критиков произведения ряда таких современных

авторов, как: А. Юлдашева («Банкир», «Пуанкаре»), Х. Саттория («Соғинч» («Томление»), Зульфия Мисбах («Сўфитурғай» («Хохлатый жаворонок»), Шодмона Отабека («Агар ошқиклигим айтсам» («Если рассказать о накипевшем»)), К. Синдарова («Тайна библиотеки Темуридов», «Жада мести»), Д. Султанова («Мархумлар ороли» («Остров мертвых»)) и др. Такое



стремительное развитие современной узбекской литературы, характеризующейся разноплановостью изображения современной действительности, даёт возможность предположить, что реализм на сегодняшний день является одним из приоритетных художественных методов изображения окружающей нас жизни. Вместе с тем необходимо также отметить некоторые особенности узбекского неореализма, поэтика которого обусловила использование разных современных методов изображения существующей действительности.

Одним из феноменов современной узбекской литературы, представляющих особый интерес для филологов, являются произведения, в которых реализуются образы персонажей – людей определенного рода профессиональной деятельности. В этом аспекте особую значимость приобретают произведения детективного жанра, весьма скудно представленные в современной узбекской литературе.

**Основная часть.** В рамках данной статьи для рассмотрения особенностей претворения категории образа автора в художественном тексте, выявления механизмов воплощения авторской точки зрения на изображаемую действительность в качестве языкового материала был избран текст детективной повести К. О. Синдарова «Тайна библиотеки Темуридов», изданной на русском языке в переводе Р. Ахмада в 2020 году [7]. К. О. Синдаров – член Союза писателей Узбекистана, доктор юридических наук, юрист с большим опытом работы следователя.

Как известно, в современной лингвистике художественный текст рассматривается как особым образом организованная языковая индивидуальная система, обусловленная своеобразием мировоззрения и стиля автора. Выявление и описание механизмов использования системы языковых средств, выражающих индивидуально-авторское своеобразие прозаического художественного текста, неизменно приводит нас, как утверждал В. В. Виноградов, к категории образа автора – важнейшей определяющей категории структуры художественного текста. Следует подчеркнуть, что образ автора, как правило, не имеет внешних личностных примет и не тождествен личности автора. Для правильного понимания этой важнейшей категории важны следующие положения:

В художественных произведениях языковые средства служат одновременно и созданию, и выражению образа автора;

Особое значение при этом имеет заключенная в языковых средствах оценочность;

В структуре художественного произведения образ автора проявляется как точка видения (точка зрения), с которой изображается действительность [3].

Образ автора всегда присутствует в художественном произведении и в композиционной иерархии занимает высшую ступень, стоит над образом повествователя / рассказчика и образами персонажей. Безусловно, рассмотрение вопроса о соотношении понятий «образа автора», «образа повествователя / рассказчика» и «образов персонажей», о степени их сближения или отдаления, как важнейшего определяющего не только языка повествования, но и построения языка персонажей является одним из центральных вопросов филологического анализа прозаического художественного текста.

Вместе с тем необходимо отметить некоторую неопределённость, «размытость» границ в понимании и трактовке этих понятий. Так, в «Словаре литературоведческих терминов» Л. И. Тимофеева и С. В. Тураева образ повествователя и образ автора трактуются как идентичные друг другу понятия: «Образ повествователя, образ автора – носитель авторской (т. е. не связанной с речью к.-л. персонажа) речи в прозаическом произведении» [8, с. 248]. Однако образ рассказчика, отмеченный в данном словаре как «особый», трактуется широко и неоднозначно. Ср.: «... который выступает как отдельное от автора лицо (нередко автор прямо представляет его читателям)»; «рассказчик может быть близок автору, родствен ему (иногда даже, как, напр., в «Униженных и оскорбленных» Достоевского, <...> предельно родствен автору, являет собой другое «я») и может быть, напротив, очень далёк от него по своему характеру и общественному положению (напр., Р. в «Очарованном страннике» Лескова); «... может выступать и как всего лишь повествователь, знающий ту или иную историю (напр., гоголевский Рудый Панько), и как действующий герой (или даже главный герой) произведения (Р. в «Подрутке» Достоевского» [8]. Поэтому при рассмотрении этих понятий в структуре

повествования художественного произведения необходим учет таких важных категорий текста, как «повествовательная точка зрения, субъект речи, тип повествования» [6].

В работах по лингвистическому анализу художественного текста подчеркивается, что повествование может вестись с разных точек зрения, что образ повествователя, в отличие от образа автора, конкретен, имеет личностные черты, часто выступает как действующее лицо произведения, что в случаях, когда повествователь по каким-либо личностным приметам сближается с автором, возникает опасность их отождествления [9]. Следовательно, при чтении и анализе произведений важно не запутаться при определении указанных категорий. Как показывает практика, чаще всего путаница происходит при анализе произведений, в которых выступают два типа повествователя (два типа рассказчика). Например, в рассказе «Судьба человека» М.А. Шолохова, повести «Бэла» (в структуре романа «Герой нашего времени» М.Ю. Лермонтова), в которых «первого повествователя / рассказчика» ни в коем случае нельзя отождествлять с автором. В анализируемой нами повести «Тайна библиотеки Темуридов» образы автора и повествователя как бы нарочито слиты воедино. Такому восприятию, несомненно, способствует непосредственное обращение автора к нам, читателям, в части его книги – «Вместо предисловия». Разъясняя цели и обстоятельства создания книги, называя имена реальных лиц, причастных к описанным в повести событиям, автор подчеркивает единство категорий образа автора и повествователя.

Однако результаты проведённого анализа по выявлению механизмов воплощения авторской точки зрения и оценки позволяют утверждать, что образ автора и образ повествователя, при всей кажущейся, на первый взгляд, их идентичности, не тождественны друг другу, в том числе и образами персонажей. Это положение четко проявляется с первых страниц повести, в частности, в системе номинации её главных героев – следователей прокуратуры Фахриддина и Санжарбека: 1) Фахриддин – Фахриддин Каримович – Фахриддинджан – следователь – шеф – учитель – Фахриддин-ака – устоз – командир; 1) Следователь – Санжар Рахмонов – Санжарбек – ответственный работник авторитетного учреждения – квалифицированный юрист – ученик – шоғирд.

Представленная в произведении система номинаций персонажей наглядно отражает не только иерархию их взаимоотношений друг с другом (Субъект<sup>1</sup>/персонаж ↔ Субъект<sup>2</sup>/персонаж), их точек зрения и оценок, но и, несомненно, точки зрения и оценки Субъекта<sup>1</sup>/Автора<sup>1</sup> (автора текста) ↔ Субъекта<sup>2</sup>/Автора<sup>2</sup> (повествователя/рассказчика) по отношению к Субъектам<sup>2</sup>/персонажам и описываемым в произведении событиям. Рассмотрим подробнее номинации главных персонажей в соответствии с последовательностью разворачивания событий:

Завязка – ситуация «начало рабочего дня». Ср.:

Внутренний телефон зазвенел, когда Фахриддин зашел в свой кабинет. «Кто бы это с утра?» – подумал он и снял трубку:

– Слушаю.

– Фахриддин Каримович, привет! Как отдохнули? Срочно зайдите ко мне! – Тахир Гафурович был краток.

– Фахриддинджан, как домашние? Невестка, дети... хороши? – заместитель прокурора приветливо начал разговор.

– Спасибо, Тахир-ака. Как сами? – Фахриддин по тону голоса начальника понял, что предстоит серьезное задание. Обычно, когда начальнику предстояло поручить серьезное дело, он обращался к нему с «джан» [7].

<...> Короче, надо выехать на место, там и выяснить, что да как, да почему. Если выведет прокурорский верен, дело возьмете к своему производству. Действуйте по обстоятельствам. Одно из следователей, лучше Санжара Рахмонова, можете взять с собой [7].

В данном фрагменте текста представлены три формы имени главного персонажа – Фахриддин, Фахриддин Каримович, Фахриддинджан. В повествовательной структуре повествователя / рассказчика использована форма Фахриддин, однако в диалогической структуре субъектного плана персонажей начальник Фахриддина, Тахир Гафурович, сначала по служебному телефону обращается к нему подчеркнуто официально, по имени-отчеству – Фахриддин Каримович, а затем, в частной беседе, фамильно-тепло – Фахриддинджан.

Анализ приведенных фрагментов текста позволяет утверждать, что точки зрения автора текста, образа автора, образа

повествователя / рассказчика и образы персонажей произведения, пересекаясь друг с другом, создают сложную речевую структуру произведения, вступающую в конечном итоге в «вечный» диалог с нами, читателями.

**Заключение.** Таким образом, результаты проведенного нами анализа системы номинаций главных героев произведения как способ выражения авторской точки зрения позволяют утверждать, что рассмотрение языковых особенностей воплощения категории образа автора в структуре

художественного текста с позиции принципиальной установки ее на выражение субъектных планов позволяет интерпретировать категорию образа автора как механизм тексто- и смыслопорождения, имеющий аксиологическую природу. Такой взгляд даёт возможность понять сущность взаимообратимости субъекта оценивания и объекта оценки, объекта оценки и мерила оценивания, реализующиеся в субъектных планах автора, повествователя/рассказчика, персонажа (персонажей) и читателя (читателей).

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. М., 1963. – «Im-Werden-Verlag», 2002 // <http://www.imwerden.de> // [info@imwerden.de](mailto:info@imwerden.de)
2. Виноградов В. В. О языке художественной прозы. – М.: Наука, 1980. – 366 с.
3. Гореликова М. И., Магомедова Д. М. Лингвистический анализ художественного текста. – М.: Рус. яз., 1989. – 152 с.
4. Камилова С.Э. Современная узбекская литература: тенденции, сюжеты, лица // XVIII Виноградовские чтения: сб. науч. ст. Междунар. науч.-практ. конф. – Ташкент – Екатеринбург: УрГЭУ, 2022. – С. 16-20.
5. Одинцов В.В. Стилистика текста. – М.: КомКнига, 2006. – 264 с.
6. Синдаров К.О. Тайна библиотеки Тимуридов. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2020. – 320 с.
7. Тимофеев Л.И., Тураева С. В. Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – 510 с.
8. Цой А. П. Лингвистический анализ художественного текста. – Ташкент: Фан, 2012. – 112 с.



UDK:811.512

**Dilnoza SHARAFUTDINOVA,**  
Buxoro davlat universiteti nustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: dilnoza.sharafutdinova0506@gmail.com

**Mehrinigor AXMEDOVA,**  
Buxoro davlat universiteti filologiya fanlar doktori (DSc), dotsent

Buxoro davlat universiteti dotsenti, DSc N.Ataboyev taqrizi asosida

### INGLIZ TILIDA “KECHIRIMLIK/UZR” KONSEPTI: LEKSIKOGRAFIK VA SOTSIOLINGVISTIK TAHLIL

Annotation

Mazkur maqola ingliz tilidagi “kechirim/uzr” konseptini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Bu lingvistik madaniyatda real muloqotda kechirim so‘rash formulalarining ishlashini har tomonlama, ko‘p qirrali tavsiflash va nutqda kechirim so‘rashning og‘zaki harakatini amalga oshirish vositalarini tanlashga ta‘sir etuvchi pragmatik omillarni tahlil qilishdan iborat. Kechirim so‘rash shakllari ko‘plab ijtimoiy-madaniy jamoalarda tabiiy muloqotda keng qo‘llaniladi, ular juda muhim ijtimoiy funktsiyani amalga oshirish vositasi bo‘lib, kommunikativ o‘zaro ta‘sir ishtirokchilari o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarning uyg‘unligini ta‘minlaydi. Bu ularning so‘nggi yillarda tilshunoslik fanida jadal o‘rganishiga olib keldi. Zamonaviy bosqichda turli tillarda kechirim so‘rashning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq keng ko‘lamli masalalar xorijiy va mahalliy tilshunoslarning asarlarida o‘z aksini topgan.

**Kalit so‘zlar:** Kechirimlilik, uzr, keng qamrovli, ko‘p qirrali tavsif, til madaniyati.

### THE CONCEPT OF “FORGIVENESS/APOLOGY” IN ENGLISH: LEXICOGRAPHIC AND SOCIOCULTURAL ANALYSIS

Annotation

This article is dedicated to the analysis of English language formulas with the concepts of forgiveness and apology. This is to provide a comprehensive, multi-faceted description of the functioning of apology formulas in real-world communication in linguistic culture and to analyze the pragmatic factors influencing the choice of means of implementing the verbal act of apology in the discourse. Forms of apology are widely used in natural communication in many sociocultural communities, being a means of implementing an exceptionally important social function, ensuring the maintenance of harmony of interpersonal relationships between participants of communicative interaction. This has led to their intensive study within linguistic science in recent years. At the modern stage, a wide range of issues related to the peculiarities of expressing apologies in different languages have been reflected in the works of foreign and local linguists.

**Key words:** Forgiveness, apology, comprehensive, multi-faceted description, linguistic culture.

### КОНЦЕПТ «ПРОЩЕНИЕ/ИЗВИНЕНИЕ» В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ: ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЙ И СОЦИОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу англоязычных формул с семантикой прощения и извинения. Это делается с целью комплексного, многогранного описания функционирования формул извинения в реальном общении в лингвокультуре и анализа прагматических факторов, влияющих на выбор средств реализации речевого акта извинения в дискурсе. Формы извинения широко используются в естественном общении во многих социокультурных сообществах, являясь средством реализации исключительно важной социальной функции, обеспечивая поддержание гармонии межличностных отношений между участниками коммуникативного взаимодействия. Это обусловило их интенсивное изучение в лингвистической науке в последние годы. На современном этапе широкий круг вопросов, связанных с особенностями выражения извинений на разных языках, нашел отражение в трудах зарубежных и отечественных лингвистов.

**Ключевые слова:** Прощение, извинение, комплексное, многогранное описание, лингвокультура.

**Kirish.** Nutqda “kechirim/uzr” konseptining funksional xususiyatlari bilan bog‘liq bir qator muammolar, shu jumladan, boshqa nutq harakatlarini amalga oshirish uchun so‘z birliklarini “kechirim/uzr” konsepti semantikasi bilan ishlatish muammosi hali o‘rganilmagan. Alohida til shaklini o‘rganishga qaratilgan an‘anaviy tilshunoslik tahlili, qoida tariqasida, uning bevosita kontekst muhitini, foydalanish shartlarini, shuningdek, madaniy shartli interaktiv parametrlarni hisobga olmaydi va natijada, ushbu formulaning tabiiy o‘zaro aloqada haqiqiy kommunikatsion ma‘nosini aniqlashga imkon bermaydi.

Shu bilan birga, uzr so‘rashning semantik til shakllari ingliz tilida so‘zlashuvchi madaniyatlarda uzr so‘rash bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan ma‘nolarni ifodalash uchun keng qo‘llaniladi, masalan, pity, sympathy, anger va boshqalar. Shunga qaramay, ingliz tilidagi “forgiveness” konseptining qo‘llanish holatini o‘rganishning ancha uzoq an‘anasiga qaramay, na mahalliy, na xorijiy tilshunoslikda hozirgacha turli aloqa sharoitlarida kechirim so‘rashning ishlashini o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar bo‘lmagan va ulardan turli xil nutq harakatlarini amalga oshirish vositasi sifatida foydalanishdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** So‘rovnoma shaklida lingvistik tajriba o‘tkazish va ushbu materialdan foydalanib, til madaniyatida “forgiveness/apology” konseptining ishlash xususiyatlarini aniqlashda, masalan, “to forgive/to apologize” fe‘li asosiy ma‘nolari kechirim so‘rash va xatolarni tan olishni o‘z ichiga

oladi[1]. “Apology” so‘zi ko‘pincha uzr so‘rashning ko‘p sonli shaklida ishlatiladigan nom, xato yoki muvaffaqiyatsizlik uchun afsuslanish yoki pushaymon bo‘lishning og‘zaki yoki yozma ifodasi. Boshqa lug‘atlarda, bunday ta‘riflar odatda faqat “having sin” belgisini ko‘rsatadi va ushbu leksik birliklarning tegishli kontekstda ishlatilishini qayd etadi.

Butun dunyo bo‘ylab til o‘zgarishini kuzatuvchi tajribali Harper Kollinz leksikograf va til mutaxassisi tomonidan aytilgandek, uzr leksemasi ko‘pincha ma‘lum bir til birligi ma‘nosining quyidagi tarkibiy qismlarini ko‘rsatadigan ancha uzun ta‘riflar ro‘yxatiga ega: o‘zi uchun kechirim so‘rash, kechirish yoki kechirimlilik; kimgadir ruxsat so‘rash, xususan, ishdan bo‘shatish yoki ketishga ruxsat berish. YA‘ni, bu leksemaning ma‘nosi boshqa lisoniy shakllar orqali uzr, avf, kechirmoq, semantikasi bilan belgilanadi, bu ta‘riflarda bir tartibli birliklar sifatida berilgan va sinonim sifatida qo‘llangan. Shu bilan birga, aybni tan olish uchun emas, balki boshqa kommunikativ harakatlarni amalga oshirish uchun ishlatiladigan “Excuse me” iborasi ta‘riflar ro‘yxatining eng oxirida berilgan. Mazkur ta‘rifga ko‘ra, ushbu uzr so‘rash formulasi suhbatdoshning e‘tiborini jalb qilish, shuningdek, birovning suhbatiga aralashish yoki kelishmovchilikni bartaraf etishni bildirish uchun ishlatilishi mumkin[2].

Shu bilan birga, Albert Sidney Hornbi, ingliz tili grammatigi, leksikograf, yana bir zamonaviy ingliz tili lug‘atining muallifi, “I am sorry” iborasining ta‘riflari ro‘yxatini ancha kengroq taqdim etadi, unga ko‘ra, bu ibora turli kontekstlarda suhbatni boshlash uchun ham

ishlatilishi mumkin, shuningdek, subhatdoshni boshqa odam bilan gaplashishni xohlashi haqida xushmuomalali tarzda xabardor qilishdir [3].

Boshqa bir adabiy manbada, "forgiveness" iborasining tahlilini kuzatish mumkin, Kliv Staples Lyuis britaniyalik yozuvchi, adabiyotshunos olimning "The Chronicles of Narnia" asarida, u bolalarga axloqiy qadriyatlarini o'rgatishni istagan. Ushbu maqsadga erishish uchun, seriyadagi yetti kitobning har birida turli xil arzimmas dalillar mavjud, qasoskor rashk, dahshatli xiyonat va hayot-o'lim janglari [4].

Kognitiv nazariyotchilar (masalan, Gordon, Baucom va Snyder, 2005) gunohkorga nisbatan salbiy his-tuyg'ularning kamayishi kechirish uchun etarli bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Empatiya ta'sirini kechirishning muhim tarkibiy qismi sifatida tan olgan bo'lsa-da, ijobiy ta'sir salbiy ta'sir kamayganidan keyin rivojlanishi mumkin, ammo kechirim paydo bo'lishi uchun zarur emas. Agar huquqbuzarlik sodir bo'lsa, odam o'ch olishi, qasos olish yoki adolatni izlashi, jinoyatni inkor etishi, jinoyatchiga nisbatan ikkilanib turishi yoki kechirishi mumkin. Kechirimlilik motivlari huquqbuzarga yo'naltirilishi va o'zgarishi mumkin, bu esa qasos olishning kamayishiga olib keladi (McCullough, Fincham va Tsang, 2003).

Tuyg'u-motivatsiya munosabatlarini qo'llab-quvvatlovchilar (masalan, Malkolm va boshq., 2005) kechirimlilik jarayonida ijobiy va salbiy his-tuyg'ular bir-biriga bog'langanligini va jarayonning rivojlanishi bilan ijobiy his-tuyg'ular ustunroq bo'lishini ta'kidlaydi. Fincham, Hall va Beach (2005) kognitiv va hissiyot-motivatsiya nazariy farqlarini xulosa qilib, huquqbuzar bilan davomiy munosabatlarni saqlab qolish (aloqani saqlab qolish) salbiy his-tuyg'ularni kamaytirishni va ijobiy his-tuyg'ularni qo'shishni talab qiladi, deb ta'kidlashadi [11].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot metodologiyasi sifatida zamonaviy ingliz tili lug'atlari stilistik tahlili amalga oshirildi. Maqola tahlili uchun "Collins Concise Dictionary", "Oxford Advanced Learner's Dictionary" va "The Chronicles of Narnia" manbalari tanlab olindi, va undagi semantik, va leksik usullari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida "forgiveness/apology" konseptini tavsiflash, taqqoslash, kontekstual tahlil, hamda kontent tahlili usullaridan foydalanildi. Shuningdek, metodologik yondashuvlardan kelib chiqib, "forgiveness/apology" matndagi o'rni va ta'siri hamda ularni ifodalash uchun qo'llanilgan konseptual birliklarni aniqlash uchun kognitiv tahlil usuli ham qo'llanildi. Kommunikativ maqsadlarga erishish yo'llari inson ongida qanday tasvirlar paydo qilishini o'rganuvchi ushbu tahlil usuli matnlaridagi kechirimlilik/uzr so'rash semantik va leksik jihatlari ham aniqlab, ushbu vositalar orqali yetkazilayotgan ma'noni qanday qabul qilishni aniqlashga imkon beradi.

Natijada, adabiy manba matnlaridagi o'quvchiga ta'sir ko'rsatish strategiyalari va ularning samaradorligi haqida muhim xulosalar chiqariladi.

**Tahlil va natijalar.** Tahlil natijalariga ko'ra, Angliya bosma nashri hisoblangan "Collins Concise Dictionary" va "Oxford Advanced Learner's Dictionary" lug'atlarida semantik va leksik usullari ko'proq badiiylik va emotsionallikni oshirish uchun ishlatiladi. Ayniqsa, "The Chronicles of Narnia" asarida ushbu vositalardan keng foydalanilgan bo'lib, ular o'quvchining diqqatini o'ziga tortish va uni, asrarni o'qishga undash vazifasini bajaradi. Misol sifatida "The Chronicles of Narnia" asarini keltirish mumkin. "Then be off home as quick as you can . . . and—c-can you ever

forgive me for what I meant to do?"[5]. Bu yerda u bolalar o'zlarini anglash, kechirim so'rash va gunohkor so'zlar va ishlar uchun tavba qilishda qahramonlik salohiyatining namunalari sifatida nishonlanadi. Bu Klayv Staples Lyuisning yosh o'quvchilari ushbu fazilatlarini "bolalarcha imon"belgisi sifatida tan olishlari va amalda qo'llashlari istagiga mos keladi.

Shuningdek, adabiy matnlarida kechirimlilikni ifodalash uchun turli usullar qo'llaniladi. Bu usullar orqali mualliflar ushbu ifodani yumshoqroq va ta'sirchanroq qilib yetkazishga harakat qiladilar. Masalan: "Here is your brother," he said, "and—there is no need to talk to him about what is past [6].

Mazkur, "there is no need to talk to him about what is past" iborasida, kechirimlilik ifodasi yumshoq va ta'sirchanroq qilib etqazilgan.

... and thoughts of guilt flooded Jill's mind when she saw the Lion, and she "wanted to say "I'm sorry" but she could not speak [7] - ...arslonni ko'rgan Jillning xayolida aybdorlik haqidagi fikrlar paydo bo'ldi va u "meni kechir" demoqchi bo'ldi-yu, lekin u gapira olmadi.

Aslan's silence is so memorable to Edmund that the boy uses this technique when he hears Eustace's confession [8]. - Aslaning sukut saqlashi Edmund uchun shunchalik esda qolarliki, bola Yustasning e'tirofini eshitib, bu usuldan foydalanadi. Ushbu misrada yana bir chuqur ironiya mavjud: Edmund -Narniyaning eng mashhur va ulug'vor isloh qilingan xoini, Yustas - Narniyaning eng g'azablantiradigan bezovtaligi e'tirofini eshitadi.

Yuqoridagi misollar va tahlillar adabiy matnlarida kechirimlilik va uzr so'rash ifodasini qanday ishlatish mumkinligini ko'rsatadi. Bu usullar orqali mualliflar o'quvchilarga o'z nuqtai nazarlarini ta'sirli tarzda yetkazadilar.

**Xulosa va takliflar.** Adabiy manbalar kommunikativ vazifalarni bajarishda kechirimlilik/uzr so'rash usullardan samarali foydalanadi va shu orqali o'quvchi e'tiborini jalb qiladi. Ushbu maqola tahlili shuni ko'rsatdiki, leksik va semantik usullari adabiy manbalarda o'ziga xos stilistik rol o'ynaydi. "The Chronicles of Narnia" asarida bu usullar ko'proq siyosiy va ijtimoiy mavzularni yoritishda, matnga badiiy va emotsional ta'sir berish uchun ishlatiladi, "Collins Concise Dictionary" va "Oxford Advanced Learner's Dictionary" lug'atlarida semantik va leksik usullari ko'proq badiiylik va emotsionallikni oshirish uchun ishlatiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, "Collins Concise Dictionary" va "Oxford Advanced Learner's Dictionary" lug'atlarida kechirimlilik/uzr so'rash ifodasini oshirish usullari ko'pincha uslub va maqsadga qarab farqlanadi. "The Chronicles of Narnia" hissiyotlardan faol foydalanib, o'quvchini o'ylashga va munosabat bildirishga majbur qiladi.

Ushbu usullarni to'g'ri va mohirona qo'llash adabiy manbalarning o'qilishi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda "forgiveness/apology" konseptining milliy va madaniyatga xos xususiyatlarini yanada mukammalroq tadqiq etish va boshqa asar, maqola, jurnal va gazetalarning turini ham qo'shish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, keyingi ishlarda jurnal va gazetalarning internet versiyalarida ham aynan kechirimlilik/uzr sorash ifodasi o'rni va ro'lini o'rganish muhimdir, sababi, elektron matbuotning tili va stilistikasi biz o'rgangan bosma nashrlardan farq qilishi mumkin. Yuqoridagi vazifalarni chuqurroq o'rganish orqali hissiy ta'sir etuvchi stilistik vositalarning zamonaviy matbuotdagi rolini yanada to'liqroq ifoda etish imkoniga ega bo'lamiz.

#### ADABIYOTLAR

- Collins Concise Dictionary. 1995, 56.
- Collins Cobuild English Dictionary / J. Sinclair (ed.). London: Harper Collins Publishers, 1995, 446.
- Hornby A.S., Oxford Advanced Learner's Dictionary, Oxford University Press, Jan 1, 2005, 530.
- The Narnian Chronicles of C. S. Lewis. New York: Macmillan Publishing Co. pp. 41–44. ISBN 0-02-051970-2.
- Lewis, The Lion, the Witch, and the Wardrobe, Oct.16, 1950, UK, pp. 17-22.
- Lewis, The Silver Chair, 1953, UK, p. 236.
- Lewis, The Voyage of the Dawn Treader, 1952, UK, pp. 105-10.
- Macmillan English Dictionary for Advanced Learners: International edition.
- Oxford: Macmillan Publishers Ltd., 2006.
- Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1963.
- McCullough et al M.E. . Forgiveness, forbearance, and time: The temporal unfolding of transgression-related interpersonal motivations. Journal of Personality and Social Psychology, 2003.
- McCullough M.E. et al. Interpersonal forgiving in close relationships: II. Theoretical elaboration and measurement. Journal of Personality and Social Psychology, 1998.
- Bahodirovna, Akhmedova Mekhrinigor. "ANALYSIS AND DIFFERENT INTERPRETATIONS OF THE CONCEPT OF SPIRITUALITY." Indonesian Journal of Innovation Studies 18 (2022).

14. Islomov E.Y, Bahodirovna A.M.. The essence of spirituality in the uzbek language. xiii международная научно-практическая конференция "язык и культура", Челябинск, 2018. – P.12-15.
15. Bahodirovna, Akhmedova Mehrinigor. "Semantic Field of "Spirituality": Lexical Analysis and Psychological, Philosophical Features." (2023).



UDK:811.512

**Mahmudjon SHONIYOZOV,**  
UBS Til va adabiyot talimi kafedrası dotsenti  
E-mail: mshoniyofov73@mail.ru

O'zMU professori, filol. f.d. Rahmonov N.A. taqrizi asosida

### MAXTUMQULI VA QO'QON ADABIY MUHITI

Annotatsiya

Ushbu maqola qo'lyozma va toshbosma manbalar asosida o'zbek va turkman xalqlarining adabiy aloqalariga bag'ishlangan. Qo'lyozma va toshbosma manbalarning janr tarkibi o'zaro qiyosiy tahlil qilingan. Adabiy manbalarda uchraydigan ayrim matniy tofovutlar tadqiq qilingan. Maxtumquli va Qo'qon adabiy muhiti shoirlarining she'rlari qiyosiy o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Qo'lyozma, toshbosma, matn, manba, adabiy muhit, majmua, qiyos, matniy tofovut, tahlil.

### МАХТУМКУЛИ И ЛИТЕРАТУРНАЯ СРЕДА КОКАНДА

Аннотация

Данная статья посвящена литературным связям узбекского и туркменского народов на основе рукописных и литографических источников. Проведен сравнительный анализ жанрового состава рукописных и литографических источников. Изучены некоторые текстовые различия, встречающиеся в литературных источниках. Сравнительно изучаются стихи поэтов Махтумкули и Коканской литературной среды.

**Ключевые слова:** Рукопись, литография, текст, источник, литературная среда, комплекс, сравнение, текстуальное различие, анализ.

### MAKHTUMKULI AND KOKAND LITERARY ENVIRONMENT

Annotation

This article is devoted to the literary relations of the Uzbek and Turkmen peoples based on manuscript and lithographic sources. The genre composition of manuscript and lithographic sources was analyzed comparatively. Some textual differences found in literary sources are studied. Poems of poets of Makhtumkuli and Ko'kan literary milieu are studied comparatively.

**Key words:** Manuscript, lithograph, text, source, literary environment, complex, comparison, textual difference, analysis.

**Kirish.** Amir Umarxon (1810-1822) davrida Qo'qon adabiy muhiti har tomonlama kamol topdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki «Majmuai shoiron»da Fazliy Namangoniy adabiy muhitlar va shoirlarning yetishib chiqqan maktablari haqida masnaviy-tavsiif ma'umotlarni keltirgan. Xususan, o'zlari payravliq qilgan salaf shoirlarni ham alohida zikr qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qo'qon tarixi va adabiy muhiti o'rganish jarayonida «Majmuai shoiron» tazkirasiga ko'plab olimlar murojaat qilgan. Jumladan, ko'plab tadqiqot va ilmiy asarlarda iqtiboslar keltirilgan. Biroq, Qo'qon adabiy muhitining adabiy ta'sirlanish doirasini o'rganish uchun turkman shoiri Maxtumqulining ijodiga murojaat qilishga ehtiyoj tug'uldi. «Majmuai shoiron»dagi shoirlar ijodi va Maxtumquli asarlarini (Maxtumquli asarlarining qo'lyozmalari: O'zRFASHI saqlanadigan 5444, 2626, 1667 raqamlari va 1983-yil Ashxobodda nashr qilingan toshbosmasi) qiyosiy o'rganishni taqozo qildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodini yondosh manbalar asosida o'rganish adabiyotshunoslik va matnshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Xususan, qo'lyozma hamda toshbosma manbalardagi ma'lumotlarni tahlil qilib fanga olib kirish ilmiy sohani mustahkamlaydi

**Tahlil va natijalar.** Fazliy va Amiriy rahbarlik qilgan Qo'qon adabiy muhiti o'zidan oldingi XV asr Hirot adabiy muhitiga alohida baho bergan. Hattoki, «Majmuai shoiron»ning kirish qismida Navoiyga tanqidiy yondashgan. Sulton Husayn Mirzo davrinimansuxh bo'ldi deydi. Fikrimizning isboti sifatida «Majmuai shoiron»dan masnaviy keltiramiz:

Amiri falak taxti xurshid toj,  
Chunon dod bar ahli ma'ni rivoj.  
Ki az dilnavozi altofi shoh,  
Budand har yaki begardun kuloh.  
Bo in jumla dod on qadar zebu zin  
Ki mansux shud davri Sultoni Husayn [1].  
Mazmuni:  
Yuksak martabali amirning taxti quyoshga toj,  
Shu qadar donishmandlar ma'noga (so'zga) berdi rivoj.  
Har bir ko'ngilni ovlash shohning lutuflaridan,  
Har bir toj kiygan yuksakbo'lmadi.  
Sulton Xusayn davri hammansuh(bekor)bo'ldi.  
Bu jumla bilan shu qadar go'zallik berdi.

Demak, Hirot adabiy muhiti va Sultoni Husayn Mirzo hamda Alisher Navoiy davrini Amir Umarxon davri va Qo'qon adabiy muhiti mansux qildi. Bu, albatta, faxriyadir. Bulardan tashqari, «Majmuai shoiron» turkiy va forsiy adabiyotning nazariyasi haqida ma'lumot beruvchi manbalardan biri bo'lib, mumtoz janr lar jamlangan. «Majmuai shoiron»da mumtoz adabiyotda kam uchraydigan «mutassa» janrida bitta she'r bo'lib, faqat Fazliyning o'zi ijod qilgan xolos. Qo'lyozma va toshbosma manbalar ustida olib borgan izlanishlarimiz natijasida 1983-yil Ashxobodda arab imlosida nashr qilingan Maxtumqulining tanlangan asarlarida ikkita «mutassa»si borligi aniqlandi. «Judo bo'ldim» va «Dog'i hasratdin nishon». Maxtumqulining o'zbek xalqi ichida mashhur qo'shiqqa aylangan she'ri «oshiq bo'lmisham» radifli yetti banddan iborat muxammasi o'zbek xalqining sevimli hofizi Komiljon Otaniyozov tomonida qo'shiq qilib aytilgan. Mazkur radifda «Majmuai shoiron»da mashhur shoira Mahzuna va Xijlatning yetti banddan iborat muxammasi mavjud. Uchala muxammasdan bir banddan keltirib qiyoslaymiz:

Maxtumquli muxammasi:

Ey yoronlar, bir yuzi gul oya oshiq bo'lmisham,  
Barchalar maqsudi – gul ra'noya oshiq bo'lmisham.  
Bulbulam bog' ichra, bir g'avg'oya oshiq bo'lmisham,  
O'zi g'oyib, zulflari yaldoya oshiq bo'lmisham.  
Manzilam dog' ichradir, sahroya oshiq bo'lmisham [2].

Komiljon Otaniyozov tomonida yuqoridagi muxammasning 1, 3, 5, 6 va 7- bandlari ba'zi o'zgarishlar bilan qo'shiq qilib aytilgan. Birinchi banddagi beshinchi misradagi «dog» so'zi «bog», uchunchi banddagi to'rtinchi misrada «gechdi» so'zi «o'tdi», beshinchi misradagi «Ohi» cho'x, «afg'oni cho'x» so'zlari «Oh etib», «afg'on etib», beshinchi banddagi birinchi misrada «shuncha» so'zi «muncha», ikkinchi misradagi «qaydina» so'zi «qasdina», to'rtinchi misradagi «sendan» so'zi «chandon», oltinchi bandning birinchi misrasi asliyatda «Vasli yorimdan digarga intizorim yo'q mening», «Istamas yorim meni, ul yora zorim yo'q meni» ikkinchi misradagi «madorim» so'zi o'rniga «nigorim», beshinchi misra asliyatda «G'amzasi o'q, qoshlari ul yoya oshiq bo'lmisham», o'zgargani «Kecha-yu kunduz ul yoya oshiq bo'lmisham» shakllaridagi o'zgarishlarga uchrab qo'shiq matniga kiritilgan hamda ijro qilingan.

Adabiyotshunos olim B.Karimovning «Maxtumquli insoniyat shoiri» risolasidagi «Vamperi – maxtumqulishunos va tarjimon» bo'limida Maxtumquli she'riyatini yetarlicha matniy tafovutlarga

uchraganini ilmiy tahlilga tortgan. Maxtumquli devonining mavjud qo'lyozmalari, toshbosmalari va nashr nusxalari asosida qayta nashrga tayyorlash lozim.

Maxtumquli muxammasiga aynan hamohang muxammaslardan biri Mahzunaning muxammasi bo'lib, undan oldin Fazliy Namangoniy fors-tojik tilida to'rt baytdan iborat masnaviy keltirgan.

Mahzuna muxammasi:

Do'stlar, bir husni behamtoya oshiq bo'lmisham,  
Hur paykar bir malak siymoya oshiq bo'lmisham,  
Nutqi shirin, la'li ruhafzoya oshiq bo'lmisham,  
G'amzasi qotil, ko'zi shahloya oshiq bo'lmisham,  
Husn elini shohi bir mirzoya oshiq bo'lmisham [4].

Xijlat muxammasi:

Ohkim, bir tifi beparvoya oshiq bo'lmisham,  
Ul sihi sarvi chamanpiroya oshiq bo'lmisham,  
Husn avjidin ko'rungan oya oshiq bo'lmisham,  
Menki, ul ruxsori nurafzoya oshiqbo'lmisham,  
Zarra yanglig' bir quyosh siymoya oshiq bo'lmisham [5].

Maxtumquli xijlati haqidagi qarashlardan yana biri: "Maxtumquli o'zbek xalqining ham qoraqalpoq xalqining ham sevimli shoiridir. Turkman bilan o'zbeklarning yeri, madaniyati, uruf-odati, tarixi va tili bir-biriga juda yaqin. Hatto o'zbek tilini yaxshi bilgan Maxtumquli o'zining anchagina she'rlarini o'zbek tilida yozgan. Maxtumqulining "Baxtim qarodir", "Yoronlar", "Musofirlikda", "Oy kabi" va boshqa o'nlab she'rlari ayrim turkmancha so'zlarni e'tiborga olmaganida o'zbek tilida yozilganidir. Masalan:

Mardlar nomard bo'ldi, nomard mard bo'ldi,  
Gurtlar pesha bo'ldi, pesha gurtbo'ldi.  
Yurtlar vayron bo'ldi, zindon yurt bo'ldi.  
Shum falak lashkarin soldi, naylayin.

("Naylayin")

Yoki:

Vatanimda xon idim,  
Xonlarga farmon idim,  
Dardlarga darmon idim,  
Miskina do'kon idim,  
Jonsilarga jon idim,  
Naylay indi bechorayam.  
("Musofirlikda")

Maxtumquli she'riyatining til jihatidan o'zbek tiliga yaqinligi va bir qanchasini shu o'zbek tilida yozishi Uning asarlarini xalqimiz orasiga keng tarqalishiga olib keldi" [6].

O'zbek-turkman adabiy aloqalarini yaxshi o'rgangan adabiyotshunos olim Karimboy Quramboyevning fikri quyidagicha:

"O'zbek va turkman adabiy aloqalari o'zining uzoq solnomasiga ega. Turkiy xalqlarning ko'pgina mushtarak meroslarining yaratilishida turkman va o'zbek ota bobolari birga qatnashganlar. Turkman va o'zbek xalqlarining tashkil topishi bilan bu tillarda taraqqiy qilgan adabiyot muayyan mavzularining ishlanishida, obrazlar tanlash, uslub va bir qancha holatlarda bir-birining tajribasidan unumli foydalanib kelganlar. O'zbek adabiyotining Lutfiy va Navoiy, Bobir va Mashrab, Muqimiy va Furqat kabi namoyandalari turkman kitobxonlariga yaqin bo'lgani kabi Ozodiy va Maxtumquli, Andalib va Mulla Nafas, Kamina va Zeliliy singari turkman qalam sohiblarining asarlari o'zbek nazm muxlislari o'rtasida ham keng tarqalgan" [7].

O'zbek va tojik xalqlari adabiy aloqalarini o'rgangan adabiyotshunos olim E.Shodiyevning fikri ham K.Quramboyevning fikri bilan aynan mushtarak.

"XIX asrning birinchi yarmida o'zbek xalqi orasida Nizomiy Kishvari, Fuzuliy, Soib, Vidoiy kabi ozarbayjon shoirlari Amir Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Hiloliy, Bedil, Zebunniso, Mushfiqiy, Saido Nasafiy singari tojik shoirlari, Ozodiy, Maxtumquli, Saidiy, Zeliliy, Kamina singari turkman shoirlari asarlari keng tarqala bordi" [8].

Garchi Fazliy Namangoniy "Majmuai shoiron"da Maxtumqulini zikr qilmasa-da, va, hamda unga payravliq, tatabbu',

ergashish haqida hech narsa demasa-da, adabiyotshunos olimlar Ergashali Shodiyev va Karimboy Quramboyevlarning fikri va qarashlari haqiqatdan yiroq emas. Balki olimlar aytganidek, Qo'qon shoirlari she'r kimnikiligi bilmadan xalq orasida keng tarqalgani uchun muxammas yozgan bo'lishi mumkin degan xulosa qilsak xato bo'lmas. Maxtumquli Xiva shahridagi Sherg'ozixon madrasasida tahsil olganini hisobga olsak she'rlari o'zbek xalqi orasida tarqalganiga shubha yo'q. "Majmuai shoiron"da Muhammad Fuzuliy g'azallariga ko'p o'rinlarda tatabbu' qilingan. Biroq, Fazliy yoki boshqa shoirlar Fuzuliyning biror joyda tilga olmaydi. Majmuadagi she'rlarning tili ham aynan fuzuliyona. Bu davr Qo'qon adabiy muhiti va tili haqida adabiyotshunos olimlar Miyon Buzruk va Vadud Mahmudlar "Fuzuliy Qo'qon shoirlarini tarbiyaladi", deya baho berishgan. Mazkur muxammaslar Fuzuliyning:

Voy, yuz ming voykim, dildordan ayrilmisham,  
Fitna chashmi sohir-u xunxordan ayrilmisham,  
Bulbuli sho'ridayam, gulzordan ayrilmisham,  
Kimsa bilmazkim, na nisbat yordan ayrilmisham,  
Bir qadi shamshod-u gulruxsordan ayrilmisham [9].

shakldagi muxammasi ohangida yozilgan. Maxtumquli va Qo'qon shoirlarining Fuzuliydan ta'sirlangani yaqqol ko'rinib turibdi.

"Bu davrda Nizomiy, Sa'diy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy asarlari Xiva madrasalarida asosiy darslik sifatida o'qitilgan" [10].

Ammo Maxtumquli ham deyarli Amir Umarxon zamoniga juda yaqin davrda, ya'ni XVIII-XIX asrlarda yashagan. Fazliy ham payravga olingan she'r kimga tegishli, ya'ni kimga tatabbu' qilganligini keltirmagan. Fazliy she'ring aynan Maxtumquliga tegishli ekanligini bilmaganga o'xshayapti, xossatan, she'riyatda ayniqsa taxmislarda payravliq bo'lmasa vazn, qofiya va radif bu darjada yaqin bo'lishi mumkin emsa. Fuzuliyga payravliq til va qofiya jihatdanbo'lsa - da, Fazliy va boshqa shoirlar majmuada uni tilga olmaydi hamda biror ishora qilmagani kabi Maxtumquliga ham shunday munosabatda bo'lgan. Xijlat muxammasidan oldin besh baytli shiru shakar uslubida uch baytli fors-tojikcha va ikki bayti o'zbekcha quyidagicha masnaviy keltirgan:

Buvad Xijlat az foziloni zaman,  
Ba ilmu ba fan olimi har suxan.  
Dar ash'or az ro'yi donishvari,  
Garu barda az Sa'diyu Anvari.  
Hunarvar neku suxandon bud,  
Sanoxoni maddohi sulton bud.  
(U)shbu bir g'azalda o'shal nuqtadon,  
Bo'lub payravi Shahriyori zamon.  
Muxammas uchun to xayol ayladi.  
Bu so'z ichra arzi kamol ayladi [11].

Toshbosmada bu masnaviyning uchinchi bayti ikkinchi misrasidagi "maddohi" so'zi "yazdon" shaklda yozilgan bo'lib, o'zgarishga uchragan.

Hunarvar neku suxandon bud,  
Sanoxoni sultoni Yazdon bud [12].

Fazliyning "Bo'lub payravi Shahriyori zamon" baytiga asosan, Amir Umarxonning "Majmuai shoiron" va "Devon Amiri"da "oshiq bo'lmisham" radifdagi g'azali yoki muxammasini izladik, lekin uchratmadik. Demak, Qo'qon adabiy muhiti shoirlari faqat Amir Umarxonga ergashmasdan mustaqil ravishda boshqa ixtiyori bir Fuzuliy, Maxtumquli kabi turkiy iste'dodli shoirlarga ergashib ijod qilganligiga bir isbot.

**Xulosa va takliflar.** Maxtumquli muxammasi bilan "Majmuai shoiron"dagi Xijlat va Mahzuna muxammaslari yetti bandan, vazn, qofiya va radif jihatidan bir xil. Bu o'z navbatida o'zbek va turkman xalqlarining tili va adabiyoti bir-biriga mushtarak ekanligiga dalolat qiladi. Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Maxtumquli she'riyatiga matnshunoslik nuqtai nazarida ilmiy baho berish va nashr qilish davri keldi. "Majmuai shoiron"da zikr qilingan adabiy muhit va adabiy aloqalar ustida tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi. Maxtumquli va Qo'qon shoirlari haqidagi fikrlarimiz bu oxirgi xulosa emas. Navbatdagi amalga oshirilgan tadqiqotlarda adabiy aloqalar kengroq yoritiladi deb o'ylaymiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Fazliy Namangoniy "Majmuai shoiron" O'zRFASHI, № 7510 qo'lyozma, 2a - sahifa. [3. 323a - sahifa hoshiyada, 4. 323a - sahifa hoshiyada, 5. 322a - sahifa hoshiyada, 11. 322 a - sahifa hoshiyada. ]
2. Maxtumquli. tanlangan asarlar. Ashgabat. Ilim, 1983.- 161-162-betlar.
3. Mamajonov S, G'anieva S. Maxtumquli va o'zbek kitobxonlari // "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, 1960 yil, 26 noyabr.
4. Quramboev K. Adabiyotlarning o'zaro ta'siri va san'atkor ijodining o'ziga xosligi (o'zbek va turkman adabiy materiallari asosida): Fil. fan. nom...diss.T., 1972. - 11 - b.
5. Shodiev E. XIX asr Xo'jand shoirlari ijodida zullisonayinlik an'analari ( o'zbek-tojik adabiy aloqalari tarixidan). Fil. fan. dok...diss. Leninobod - Toshkent. 1971.- 101-bet.

6. Fuzuliy. Devon. T.: G'. G'ulom, 1968.- 336-bet.
7. Maxtumquli. Ustozingdan ayrilma. T.: O'zbekiston, 2012.- 5-bet.
8. Fazliy Namangoniy. Toshbosma. T.: "Il'n", 1900.- 465-bet.





Zebiniso ERDANOVA,  
O'zDJTU Ingliz tili nazariy aspektlari №3 kafedrasida o'qituvchisi, PhD  
E-mail: zebinisoerdanova.uz

O'zFinPI dotsenti X. Tojiyeva taqrizi asosida

### ANTROPOSENTRIZ – OLAMNI LISONIY ANGLASH OMILIDIR

Аннотация

Tilshunoslikdagi antroposentrik yo'nalish inson mohiyatini til bilan chambarchas bog'lab tahlil qiladi. Ma'lumki, til va inson o'rtasidagi ko'rinmas o'zaro aloqa buyuk olim, faylasuf, tilshunos Vilgelm fon Gumboldt g'oyalari bilan boshlangan. Til inson tomonidan qo'llaniladi, shuning uchun atrofdagi olam hodisalari lingvistik tasniflashni bajaradi, lekin olamdagi hodisalar va ob'ektlarning lingvistik nominatsiyasi bilan insonning idrok etish xususiyatlari o'rtasida bog'liqlik mavjud. Ushbu maqolada, til va inson ongi o'rtasidagi bog'liqliklarni dunyo tilshunoslarining ilmiy qarashlari va mulohazali fikrlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Antroposentriz, til paradigmasi, tafakkur, zamonaviy tilshunoslik, inson modeli, taxonomic yondashuv.

### ANTHROPOCENTRISM IS A FACTOR OF LINGUISTIC UNDERSTANDING OF THE WORLD

Annotation

The anthropocentric orientation in linguistics analyzes the human essence in close connection with language. It is known that the invisible interaction between language and man began with the ideas of the great scientist, philosopher, linguist Wilhelm von Humboldt. Language is used by man, so the phenomena of the surrounding universe perform linguistic classification, but there is a correlation between the linguistic nomination of phenomena and objects in the universe and human perceptual properties. This article explores the connections between language and the human mind in the scientific views and thoughtful opinions of linguists around the world.

**Key words:** Anthropocentrism, Language Paradigm, Thinking, Modern Linguistics, Human Model, Taxonomic Approach.

### АНТРОПОЦЕНТРИЗМ – ФАКТОР ЯЗЫКОВОГО ПОНИМАНИЯ МИРА

Аннотация

Антропоцентрическая направленность в лингвистике анализирует человеческую сущность в тесной связи с языком. Как известно, невидимое взаимодействие между языком и человеком началось с идей великого ученого, философа, лингвиста Вильгельма фон Гумбольдта. Язык используется человеком, поэтому явления окружающей Вселенной выполняют лингвистическую классификацию, но существует корреляция между лингвистической номинацией явлений и объектов во Вселенной и свойствами восприятия человека. В данной статье исследуются научные взгляды и размышления мировых лингвистов о связях между языком и человеческим разумом.

**Ключевые слова:** Антропоцентризм, языковая парадигма, мышление, современная лингвистика, модель человека, таксономический подход.

**Kirish.** Til va tafakkurning birligini muhokama qilib, tadqiqotchilar murakkab o'zaro bog'liqlikni: til–bu o'ylash va bilish deb tarif beradilar. Til va tafakkur bog'liqligiga yana bir rus tilshunosi A.V.Guliga shunday tarifi beradi: "...tillar tufayli millatlar asta-sekin o'ylashni o'rgandilar va fikrlash tufayli ular asta-sekin gapirishni o'rgandilar". Darhaqiqat, til mavjud ekan jamiyatda insonlar uni tahlil qiladi, o'rganadi va o'rgatadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki u inson tabiatini anglashning o'ziga xos kaliti, millat qadriyatlarini saqlash vositasi hamdir.

Til inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Inson dunyoga kelishi bilan, til aloqa vositasi sifatida insonning dunyoqarashini va atrofdagilar bilan o'zaro munosabati shakllanishida qatnashadi. V.A.Maslovaning ta'kidlashicha, til bizda yashiringan milliy qadriyat sohasiga kirib borishga yordam beradigan yagona vosita, chunki insonni dunyodagi ma'lum bir madaniyatda bo'lish yo'lini u belgilaydi [1].

**Adabiyotlar tahlili.** O'tgan asrning o'rtalarida taniqli fransuz tilshunosi E. Benvenist aytganidek, til o'lchov vositasi, bu o'lchov vositasi bilan insonni o'rganish mumkin, shuning uchun ham biz tilni o'rganamiz [2]. Demak, aynan tilshunoslik insonga ko'p narsani anglashga yordam berarkan. XX asrning nemis mutafakkirlaridan biri Martin Xaydigerning "...insonning mohiyati tilda yotadi",–degan fikriga akademik V.V.Vinogradov ham qo'shilgan [3]. Antroposentrik yondashuv insonni tilda tahlil qiladi. I.A.Boduen de Kurtene aytganidek, til faqat individual ongda, ruhda, shaxslarning ruhiyatida yoki lingvistik jamiyatni yaratuvchi shaxslarda mavjud [4]. Demak, zamonaviy tilshunoslikning asosiy g'oyasini antroposentrizm egallari ekan, lingvistik tahlilning maqsadi endi oddiy bo'lmaydi, balki til birliklarining turli xususiyatlarini aniqlash, tahlil qilish va o'rganish bo'ladi. Chunki til jamiyatdagi eng murakkab aloqa vositasi bo'lib, antroposentrizm orqali til va inson faoliyatini, uning mahsulini, ob'ektini, rivojlanishi va o'zini-o'zi boshqarishini o'rganamiz. Bu yo'nalish orqali biz tilning karakterlovchi murakkab tomonlarini va mohiyatini o'rganamiz.

XIX-XX asrlarda V.Gumboldtning g'oyalari keng tarqaldi va bu g'oyalar neogumboldtchilar tomonidan rivojlantirildi. A.A.Potebnya V.Gumboldtning g'oyalari qo'llab-quvvatlaydi. U tilni rivojlantirish haqida mulohaza yuritdi. Uning antroposentrizm haqidagi fikri aslida til jamiyatda rivojlanadi va til nafaqat insonning o'ziga tegishli, balki uning qabilasiga, xalqiga tegishlidir, degan mohiyatni keltirib chiqaradi. Olimning fikriga ko'ra, inson o'z muloqoti davomida o'z fikrini atrofdagilarga bayon qilish orqali o'zini anglaydi [5].

Darhaqiqat, V.Gumboldtning g'oyalari rus tilshunolari ham ilgari surdi. Jumladan, A.A.Potebnya (1989, 1990,1993), F.I.Buslayev (1977,1992), Afanasev (1995) va boshqalar tomonidan mazkur qarashlar rivojlantirildi.

Til tizimining leksik qatlamini o'rganishda antroposentrizm vazifalarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, ular orasida "dunyo sur'ati" leksik tizim orqali "inson modelini" bog'lab o'rganish asosiy xususiyatlardan biridir. Bu o'rganish, asosan, ikki yo'nalishga bo'linadi. Birinchisi ma'lum bir tildagi lingvistik keng ma'naviy stereotiplarga oid individual tushunchalarga bog'lab o'rganish, ikkinchisi tilga xos tushunchalar bilan olamni ilmiy yo'nalishda o'rganishdir [6]. Har ikkala taklif qilinayotgan tadqiqot yo'nalishlari ham leksikografik xususiyatga ega, chunki ularning asosini leksik birliklarni tahlil qilish, ularning mavjud xususiyatlarini anglash tashkil qiladi. Ammo aksariyat olimlar zamonaviy tilshunoslikning holatini ilmiy bilimlar paradigmasi va ilmiy inqilob tushunchalari bilan bog'lab tahlil qilishadi. Bu ikkala tushunchani amerikalik olim va faylasuf Tomas Samuel Kun (1922-1996) o'zining "Ilmiy inqiloblarning tuzilishi" kitobida oydinlashtirdi [7]. Uning konsepsiyasiga ko'ra, ilmiy bilimlar evolyusion tarzda rivojlanmaydi, balki to'plangan bilimlar ilmiy inqiloblar sodir bo'lishiga, rivojlanishiga turtki bo'ladi.

XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa, oxirlarida tildan foydalanish muammolariga tobora ko'proq e'tibor berildi. Antroposentrik yondashuv lingvistikani falsafa va psixologiyaga yaqinlashtirdi. Markaziy sistematik yondashuvda aniq va tabiiy fanlar

yo'nalishini ko'rsatib til bizdan mustaqil ishlaydigan tizim ekanligini namoyon qildi. Tilshunoslarning qonunlarini o'rganadi va inson ularga bo'ysunadi deb izoh berdi, tilshunos Ye.V.Raxilina [8].

Til hodisalarini ko'rib chiqishning yangi istiqboli – uni o'rganish va amalda qo'llash “tilda subyektivlik” (E.Benvenist) yoki “antropotsentrik prinsip” (Yu.S.Stepanov) fikrlariga ko'ra, so'zlovchining nutq jarayonida tilni o'zlashtirish qobiliyatini e'tirof etishdir [9]. Yu.S.Stepanov tilning antropotsentrik prinsipini tahlil qilishda shunday deb yozadi: “Til – bu semiotik tizim, uning asosiy yo'naltiruvchi nuqtalari so'zlovchi shaxs bilan bevosita bog'liqdir”. Demak, inson shaxsiyati tilda, u til orqali aks etiladi. Yu.S.Stepanovning lingvokulturologik konsepsiyasida [10] shaxs eng asosiy madaniy tushunchalardan biri sifatida talqin etadi. Inson shaxsi, asosan, uning boshqa shaxslar bilan muloqotida o'zini anglashi murakkab tizim bo'lib, olimning fikriga ko'ra, “inson” tushunchasi olamni lingvistik nuqtai nazardan ko'rishga xos muhim madaniy, ya'ni ijtimoiy konseptual mazmun, umuminsoniy va milliy qadriyatlar toifasiga kiradi.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrizm va funksionalizm xususiyatlarining birlashishi, tilshunoslikning umumiy ilmiy tamoyillari keng rivojlanishiga ko'p turtki bo'ldi va shu bilan birga, yangi ilmiy tadqiqotlarning maqsad va vazifalariga aylandi. Biroq zamonaviy tilshunoslikning funksionalizm yo'nalishida asosiy nuqtai nazar – bu tilni semantik funksiyasidan tortib, toki ularni amalga oshirish bosqichlarigacha o'rganish va tavsiflashdir. Shu sababli, funksionalizm tilda sodir bo'lgan turli xil yondashuvlarni hisobga oladi, til foydalanuvchisi nutqidagi roliga, ya'ni so'zlovchi va tinglovchiga ajratadi.

Antropotsentrizm ta'siri ostida individual til tizimlari, til sathi va ularning birliklarining tasniflarida noan'anaviy yondashuv vujudga keldi hamda lingvistik tadqiqotlarda inson omilining kiritilishi funksional yondashuvni (neofunksionalizm prinsipi) yaratilishiga sabab bo'ldi.

Tilshunoslikdagi bu kabi o'zgarishlar, birinchi o'rinda, tilni tavsiflashning qat'iy, kategorik sxemalarini rad etdi, balki til tizimini tahlil qilishni mutlaq taksonomik yondashuvga bog'ladi. Demak, taksonomik yondashuvda til tizimidagi yuqori darajali birliklar tarkibiga barcha subyektlarni kiritib yoki qo'shib o'rganadigan tizimdir.

Biroq, XIX asr tilshunosligini tahlil qilgan olim Boduen de Kurtene tilning kelib chiqishini tasnif qilar ekan, hech bir nazariya insonning tashqarisidagi til va tilning murakkabligini hisobga olmaydi, degan fikrni bayon qildi. Ushbu o'zgarmas nazariya asosida, antropologik paradigmaning predmet sifatida tan olinishi va uning nazariy hamda amaliy talqini subyektlar bilan bog'langanda, ketma-ket muammolarni yuzaga keltirdi.

Shubhasiz, tilshunoslikda “til va inson” tushunchasi muhokama markazida bo'lgan. Tilshunoslik tarixida mazkur masala ma'lum bir yo'nalish vakillari tomonidan o'rganilgan, lekin tilshunoslikda inqiloblar yuzaga kelar ekan, muammolar paydo bo'laveradi va doim ko'pdan ko'p tadqiqotlarga ehtiyoj seziladi. Shu

tarzda, antropotsentrik paradigma nuqtai nazardan, inson dunyoni o'z faoliyati orqali o'rganadi. Antropotsentrik paradigma – bu tadqiqotchining qiziqishlarini ilm-fan obyektlarida tahlil qilishdir, boshqacha qilib ta'kidlaganda, shaxsning tildagi va shaxsdagi tilning tahlil qilinishidir.

Til – bu shunday tizimki, inson faoliyatini bir-biriga bog'laydi, insonning jamiyatdagi mavqei belgilaydi. Inson o'zida mavjud bo'lgan til orqali munosabatga kirishadi. Tilning antropotsentrik nazariyasi zamonaviy tilshunoslikda yangi tendensiya emas. Bu kabi fikrlarni A.A.Potebnya, A.M.Peshkovskiy, I.A.Boduen Kurtene, A.A.Shaxmatov va boshqalarda ham kuzatish mumkin, ammo uning to'liq mazmuni V.Gumboldtning falsafiy-lingvistik konsepsiyasida taqdim etilgan [11]. Keltirilgan qarashlarning farqli jihatlari shunda ediki, birinchi navbatda, til tizimiga yondashuvda tadqiqot jarayonlarining qat'iy shakllantirilishi, ikkinchidan, bu tizimga tipologiya uchun asoslangan yondashuv zarur edi, chunki faqat shu usulda tilning tipologik xususiyatlarini umumiy lingvistik qonuniyatlardan ajratish mumkin edi [12].

N.Mahmudov o'z ilmiy tadqiqotida “antropotsentrizm paradigmasi” tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: “Bugun fanda, xususan tilshunoslik ilmida dastlab amerikalik olim T.Kun tomonidan (fizika faniga nisbatan) amaliyotga kiritilgan “ilmiy muammoni qo'yish va hal qilishning mutaxassislar e'tirof etgan yaxlit andozasi, fan obyektiga umumiy nazar, nazariy qoidalar, metodlar tizimi” ma'nosidagi “paradigma” termini urf bo'ldi...” demak, paradigma ma'lum bir soha, fan va yo'nalishning mazmun-mohiyatini nazariy va umumiy izohlab bera oladigan atamadir. Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi inson faoliyati bilan bog'liq. Chunki til va inson o'rtasidagi o'zaro munosabat zaminida subyektning faoliyati sezilarli darajada ortadi. Tilning ijtimoiy faollashuvi va takomillashuvi undan foydalanayotgan shaxslarning munosabatiga bog'liqdir. Tilning so'zlashuv vositasi sifatidagi o'rnini yo'qotishi uni o'lik tillar qatoriga kirib qolishi va rivojlanishdan to'xtashiga olib keladi. Tilshunos V.A.Maslova ta'kidlaganidek, inson ongini tili, nutqi va idrokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Antropotsentrik paradigmaning fanga kirib kelishi, til va undan foydalanuvchilar o'rtasida munosabatning yarialishiga turtki bo'ldi. Tilshunoslikda kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi yo'nalishlarning taraqqiy etishiga imkon berdi.

**Xulosa.** Xulosa qilsak, til va inson jamiyatda bir-biriga chambarschas bog'liq hodisalardir. Lisoniy faoliyat bilan inson shug'ullanib, uning mohiyatini ochib berishga va uni jamiyatda ijro etib hamda boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatga kirishadi. Antropotsentrik yondashuv talqinida til va undan foydalanuvchi shaxslar ijtimoiylashuvi, tilni nutqda ifodalinishi va mavjud tamoyillar asosida tilni anglash tushuniladi. Buni biz “olamni lisoniy anglash”, “olamning lisoniy manzarasi” kabi tushunchalar orqali aqliy ong yordamida tasvirlaymiz. Bilamizki, til, shaxs, olam tushunchalarini tafakkur bog'laydi. Tafakkur faoliyatida bilim shakllanadi, mavjud bilim (ilmiy yoki kundalik bilim) orqali real olam tahlil qilinadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Апресян Ю.Д. Избранные труды: В 2-х томах. Том 2 - М., 1995. - С. 350.
2. Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974.
3. Бодуэн де Куртэне И.А. Избранные труды по общему языкознанию. Т. 2. - М.: Изд-во АН СССР, 1963.
4. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. Избранные труды. М.: Наука, 1977.
5. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. - М.: Прогресс, 1984.
6. Эрданова З.А.. Замонавий лингвистикада инсон ва унинг фаолияти акс этилиши. Международный журнал искусство слова. Том 4, [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Ik\\_9\\_yQAAAAJ&citation\\_for\\_view=Ik\\_9\\_yQAAAAJ:2osOgNQ5qMEC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ik_9_yQAAAAJ&citation_for_view=Ik_9_yQAAAAJ:2osOgNQ5qMEC)
7. Кун Т. Структура научных революций. - М.: Прогресс, 1977.
8. Маслова В.А. Homo lingualis в культуре. М.: Гнозис, 2007.
9. Потебня А.А. Психология поэтического и прозаического мышления // Хрестоматия по истории русского языкознания. –М.:Высш. шк., 1973.
10. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры: опыт исследования. - М.: Школа «Языки русской культуры», 1997.
11. Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. - М., 2010.
12. Рахилина Е. В. Отношение причины и цели в русском языке //Вопр. язык о знания, 1989. - С.50.



*Azizbek ESANOV,*  
*O'zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: azizbekesanov97@gmail.com*

*O'zbekiston Milliy universiteti professori v.b., DSc Y.Arustamyan taqrizi asosida*

## PSIXOLINGVISTIKA FANI NIMANI O‘RGANADI YOXUD INSON PSIXOLOGIYASINI TIL ORQALI ANIQLASH MUMKINMI?

Annotatsiya

Psixolingvistika psixologiya va tilshunoslikni birlashtiruvchi fanlararo soha bo‘lib, bu sohaning asosiy masalalari tilning tushunilishi, hosil qilishi va o‘zlashtirilishi jarayonlarining asosini tashkil etuvchi kognitiv mexanizmlarni tushunishga qaratilgan. Ushbu maqolada psixolingvistikaning asosiy jihatlari ko‘rib chiqilgan va inson psixologiyasini til orqali aniqlash mumkinmi, degan savolga atroflicha javob berilgan. Bunda lisoniy tuzilmalar va kognitiv jarayonlarning o‘zaro ta‘siri masalasi muhokamaga tortilib, til va tafakkur munosabati haqidagi nazariy qarashlarni tahlil qilinadi, shuningdek psixologik xususiyatlarni lisoniy qoliplar bilan bog‘laydigan empirik tadqiqotlarni ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, til kognitiv jarayonlar va emotsional holatlar haqida qimmatli ma‘lumotlarni taqdim etsa-da, inson kognitiv qobiliyatining murakkabligi tufayli shaxsning butun psixologik portretini faqat til orqali aniqlash murakkab bo‘lib qolaveradi.

**Kalit so‘zlar:** Psixolingvistika, til, psixologiya, til va tafakkur, kognitiv jarayonlar, lingvistik namunalarni, emotsional holatlar, LIWC.

## WHAT DOES PSYCHOLINGUISTICS STUDY: IS IT POSSIBLE TO IDENTIFY HUMAN PSYCHOLOGY THROUGH LANGUAGE?

Annotation

Psycholinguistics, an interdisciplinary field that bridges psychology and linguistics, focuses on understanding the cognitive processes underlying language comprehension, production, and acquisition. This paper examines the foundational aspects of psycholinguistics and explores whether human psychology can be identified through language. We analyze the interaction between linguistic structures and cognitive processes, review theoretical perspectives on the relationship between language and thought, and examine empirical studies that connect psychological traits with linguistic patterns. Our findings suggest that while language provides valuable insights into cognitive processes and emotional states, identifying an individual's entire psychological profile solely through language remains challenging due to the complexity of human cognition.

**Key words:** Psycholinguistics, language, psychology, language and thought, cognitive processes, linguistic patterns, emotional states, LIWC.

## ЧТО ИЗУЧАЕТ ПСИХОЛИНГВИСТИКА: МОЖНО ЛИ ОПРЕДЕЛИТЬ ПСИХОЛОГИЮ ЧЕЛОВЕКА ЧЕРЕЗ ЯЗЫК?

Аннотация

Психолингвистика, междисциплинарное направление, объединяющее психологию и лингвистику, фокусируется на понимании когнитивных процессов, лежащих в основе понимания, воспроизводства и восприятия речи. В данной работе рассматриваются фундаментальные аспекты психолингвистики и исследуется, можно ли идентифицировать психологию человека через язык. Мы анализируем взаимодействие языковых структур и когнитивных процессов, рассматриваем теоретические взгляды на взаимосвязь языка и мышления, рассматриваем эмпирические исследования, связывающие психологические черты с языковыми закономерностями. Наши выводы показывают, что, хотя язык предоставляет ценные сведения о познавательных процессах и эмоциональных состояниях, определение целостности психологического профиля человека только через язык остается сложной задачей из-за сложности человеческого познания.

**Ключевые слова:** Психолингвистика, язык, психология, язык и мышление, когнитивные процессы, лингвистические шаблоны, эмоциональные состояния, LIWC.

**Kirish.** Psixolingvistika insonlarning tilni qanday hosil qilishi, idrok etishi va o‘zlashtirishini o‘rganadigan multidissiplinar sohadir. U psixologiya va tilshunoslik tamoyillarini uyg‘unlashtirgan holda, tilning tabiati va insonning u orqali muloqotga kirishishiga imkon beradigan kognitiv mexanizmlar haqidagi fundamental savollarga javob berishga harakat qiladi. Bu fan sintaksis, semantika, fonologiya va pragmatika kabi bir necha sohalarni qamrab oladi, bunda tilni qayta ishlashni kognitiv va neyron darajasida ko‘rib chiqadi.

Ushbu maqolaning asosidagi inson psixologiyasini til orqali aniqlash mumkinmi degan savol til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganishga undaydi. Til nafaqat muloqot vositasi, balki individual va jamoaviy bilish jarayonlarining in‘ikosi sifatida ham xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot insonning psixologik tuzilishini uning lisoniy xatti-harakatlaridan qanday xulosa chiqarish mumkinligi haqida ma‘lumot beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ma‘lumki, psixolingvistika miyaning tilni real vaqt rejimida qanday qayta ishlashini o‘rganadi, bu tilni hosil qilish, idrok etish va o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi. Psixolingvistikaning asosiy vazifalaridan biri insonlarga murakkab til tuzilmalarini tahlil qilish va hosil qilishga imkon beradigan kognitiv mexanizmlarni tushunishdan iborat. Masalan, atqoli tilshunos olim Noam Xomskiyning universal grammatika nazariyasi insonlarda tug‘ma til qobiliyati mavjudligini ta‘kidlaydi. Bu g‘oyani qo‘llab-quvvatlovchi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli madaniyatlardagi bolalar tilni o‘xshash bosqichlar orqali o‘zlashtiradilar, bu esa til o‘zlashtirishning ayrim jihatlari biologik jihatdan oldindan dasturlashtirilgan bo‘lishi mumkinligidan dalolat beradi [2]. Shu bois,

insonda til o‘rganishning o‘ziga xos kognitiv mexanizmlari mavjudligi haqida fikr yuritishimiz mumkin.

Boshqa tomondan, bog‘lanishli model (connectionist model) tarafdorlari til o‘zlashtirish jarayonini statistik o‘rganishga asoslangan jarayon, deb hisoblaydilar [3]. Bu modelda lingvistik tuzilmalarga takror-takror duch kelish miyaga qonuniyatlar va qoidalarni aniqlashga yordam beradigan asosiy omil sifatida tajriba va o‘rganishga e‘tibor qaratiladi. Ushbu holatda psixolingvistika fani keng miqyosda uchta asosiy sohaga bo‘linishini qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

1. Tilni o‘zlashtirish (Language Acquisition). Bu sohada asosiy savol quyidagicha: Insonlar, ayniqsa, bolalar tilni tushunish va hosil qilish qobiliyatini qanday egallaydilar? Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ona tilini o‘zlashtirish madaniyatlar o‘rtasida o‘xshash vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladi: bolalar odatda 12 oylik atrofida birinchi so‘zlarni aytadilar va ikki yoshga kelib so‘zlarni gaplarga birlashtira boshlaydilar [17].

2. Tilni hosil qilish va tushunish (Language Production and Comprehension). Bu sohaning dolzarb masalasi – insonlar qanday qilib o‘z fikrlarini nutqqa aylantirishadi va ma‘no hosil qilish uchun o‘zlari qabul qilayotgan nutqni qanday tushunib oladilar. Buni sodda tilda ko‘pincha ma‘lum bir tilda kodlangan belgilarni qanday qilib dekodlaydilar, degan savol qo‘yiladi. Mashhur psixolingvist Uilyam M.Levelt kabi yetakchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tilning hosil bo‘lishi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi: konseptualashtirish, shakllantirish va artikulyatsiya [8]. Xuddi shunday, tushunish kiruvchi lingvistik ma‘lumotlarni tahlil qilish va undan ma‘no olishni o‘z ichiga oladi,

bunda qayta ishlash modellari ham pastdan yuqoriga, ham yuqoridan pastga ishlash berishga qaratiladi.

3. Neyropsixolingvistika. Bunda asosiy masala miya tilni qayta ishlash jarayonini qanday qilib osonlashtiradi, degan savolga javob topishdir. Miyaning neyrotasvirlari asosida olib borilgan tadqiqotlarda miyaning til bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos sohalari, jumladan, nutq hosil qilish sohasi sifatida Broka hamda tilni tushunish sohasi bo'lgan Vernike sohalari aniqlangan [4]. Ushbu topilmalar tilning nevrologik asoslarini ko'rsatib beradi.

Psixolingvistikaning asosiy munozaralaridan yana biri – bu til va tafakkur o'rtasidagi munosabatdir. Ushbu munozaralarning zamoniaviy psixolingvistika fani yuzaga kelgandan keyingi dastlabki namunalari Sapir va Uorf kabi faylasuflarning ishlariga borib taqaladi, chunki ular o'z vaqtida, til tafakkurni shakllantiradi, deya qat'iy ta'kidlashgan. Sapir-Uorf gipotezasi yoki lingvistik nisbiylik nazariyasi deb nomlanuvchi bu nazariyaga ko'ra, odam gapirayotgan til uning dunyoni qanday qabul qilishi va tushunishiga ta'sir qilgan [13], [15], [18]. Misol uchun, atqili tilshunos olimlar Pol Key va Uilyam Kemptonlar tomonidan ingliz va tarahumara tilida so'zlashuvchilar o'rtasida rangni idrok etish bo'yicha tadqiqot o'tkaziladi va uning natijalari pirovardida Sapir-Uorf gipotezasini empirik jihatdan qo'llab-quvvatlash bilan xulosalanadi [7]. Bunda ingliz tilida so'zlashuvchi insonlarning Tarahumara tilida so'zlashuvchilarga qaraganda ko'proq ranglarni farqlay olishi empiric dalillar orqali ko'rsatib o'tiladi.

Ushbu nazariyaga qarama-qarshi ravishda, universalizm yondashuvini qo'llab-quvvatlovchi kognitiv olimlar, jumladan, Harvard universiteti professori Stiven Pinker tafakkur tildan mustaqil ravishda mavjud ekanligini ta'kidlaydi [11]. Ushbu nuqtayi nazarga ko'ra, insonda universal bo'lgan kognitiv qobiliyatlar mavjud bo'lib, til ushbu fikrlarni yetkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hali tili chiqmagan chaqaloqlar va hayvonlar ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, obyektning turg'unligi va raqamlarni tushunish kabi asosiy kognitiv funksiyalar tilga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanadi [15].

Bu munozaralar atrofida fikr yuritir ekanmiz, til va tafakkur o'rtasidagi munosabat psixolingvistikada muhim ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor chuqur anglaymiz, chunki bunda lisoniy xususiyatlar insonning psixologik holatini o'zida aks ettirish yoki ettirmasligi haqida fundamental savollar paydo bo'ladi, ushbu savolga quyida javob topishga harakat qilamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda, inson psixologiyasini uning nutqi, umumiy lingvistik xususiyatlari orqali aniqlash imkonini bor yoki yo'qligini o'rganish uchun deduktiv yondashuvdan foydalanilgan. Ma'lumotlar mavjud empirik tadqiqotlar va psixolingvistik jarayonlarga qaratilgan nazariy adabiyotlarni tahlil qilib, ulardan olingan xulosalar asosida jamlangan. Bizning tadqiqotimiz lingvistik namunalar va psixologik holatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tahlil qilishga qaratilganligi sababli sifat xarakteriga ega. Shuningdek, turli tillar va madaniyatlar o'rtasida nutq namunalar, emotsional ifoda va kognitiv mexanizmlarga qaratilgan empirik tadqiqotlarni misol sifatida keltirilgan. Ushbu tadqiqotlar tilning psixologik xususiyatlarini qay tarzda aks ettirishi haqida aniq tasavvurga asos bo'ladi.

Tahlil usullariga kelsak, turli psixologik holatlar (masalan, ruhiy tushkunlik, xavotir yoki kirishuvchanlik kabi sifatlar) bilan 1-jadval

Lingvistik birlik	Psixologik holat	Manba
Birinchi shaxs birlik olmoshlari («I», «me»)	Ruhiy tushkunlik va o'z-o'ziga e'tibor	Pennebaker, Booth, & Francis (2007)
Salbiy emotsional so'zlar	Hayajon va asabiylik	Rude, Gortner, & Pennebaker (2004)
Ijoiy emotsional so'zlar	Kirishuvchanlik va xursandlik	Hirsh & Peterson (2009); Schwartz et al. (2013)

Odatiy lingvistik belgilar va unga monand psixologik holatlar

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar va bloglar kabi onlayn muloqot orqali shaxsiyatni o'rganish uchun til tahlilining ushbu vositalaridan foydalanilgan. Misol uchun, bir tadqiqotda olimlar Facebook ijtimoiy tarmog'ida foydalanuvchilarning statuslaridagi yangilanishlarini tahlil qilish uchun LIWCdan foydalanishgan. Bunda muayyan til namunalaridan foydalanish chastotasi, ya'ni, ularning ma'lum ruhiy holatlarida ba'zi so'zlarning takrorlanish holatlari yuqorida biz ko'rib o'tgan besh xil shaxsiyat xususiyatlariga mos tushgan, va bu ma'lum so'zlar ma'lum psixik holatlarni anglatishini, buni ma'lum darajada oldindan aytib berish mumkinligini aniqlashgan [14].

Yuqoridagi tadqiqotlar ma'lum ma'noda insonning nutqi, ayni vaziyatda ishlatayotgan til birliklari uning muvaqqat psixologik holatini o'zida namoyon etishi mumkinligini ko'rsatadi. Lekin bu yerda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ikkita katta masala bor:

bog'liq takrorlanuvchi lingvistik xususiyatlarni toifalash uchun tematik tahlil o'tkazdik. Xususan, bunda insonlarning ma'lum bir emotsional holatlari yoki individual sifatlarini ko'rsatuvchi lingvistik belgilarni tahlil qilish uchun Linguistic Inquiry and Word Count (LIWC) dasturiy ta'minoti kabi vositalar ko'rib chiqildi [16]. Ushbu metodologiya psixolingvistik sohasida mavjud tadqiqotlarni triangulatsiya qilish, ya'ni bir tizimga solish va tilidagi qonuniyatlar muayyan psixologik xususiyatlar yoki kognitiv jarayonlar bilan izchil bog'liq bo'lishi yoki bo'lmashligini aniqlash imkonini yaratadi.

**Tahlil va muhokama.** Til vositasida inson psixologiyasini aniqlash mumkinmi, degan savolga javob izlar ekanmiz, atroflicha o'rganilishi lozim bo'lgan bir qator masalalar mavjud.

Birinchidan, til haqiqatan ham ko'p hollarda shaxsning ma'lum vaziyatdagi psixologik holatini o'zida aks ettirishi mumkin. Ma'lum bir so'zni tanlash, gapni muayyan usulda qurish, hatto o'ziga xos ohangda nutqni hosil qilish ham insonning ma'lum bir hissiy holati, kognitiv moyilligi va psixologik belgilarini ochib berishi mumkin. Masalan, sentimental tahlil bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatib beradiki, kishilik olmoshlaridan, turli zamonlardan foydalanish, emotsional so'zlarning chastotasi kabi lingvistik belgilar shaxsning kayfiyati va hissiy holatini ko'rsatishi mumkin. Pennebaker va uning hamkasblari hissiy holatlar va psixologik xususiyatlarini aniqlash uchun tildan foydalanishni tahlil qiladigan Linguistic Inquiry and Word Count (LIWC) deb nomlangan algortmik dasturni ishlab chiqdilar [9], [10]. LIWC yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ruhiy tushkunlikka tushgan odamlar ko'proq birinchi shaxs birlik olmoshlarini (masalan, "I" "me") va kamroq ikkinchi shaxs yoki uchinchi shaxs olmoshlarini (masalan, "you" "they") ishlatadilar, bu orqali ular o'z-o'ziga e'tiborni jalb qilishni nazarda tutadilar. Bundan farqli o'laroq, yaxshi kayfiyatdagi insonlar esa ko'proq ijobiy his-tuyg'u so'zlarini ishlatishga moyil bo'ladilar (masalan, "happy", "joy") [12].

Bundan tashqari, klinik sharoitlarda psixologik kasalliklarni aniqlash maqsadida ham nutq namunalaridan foydalanilgan. Masalan, tartibsiz nutq shizofreniyaning o'ziga xos belgisi bo'lishi mumkin, chunki bu kasallik ko'pincha noaniq va tarqoq gaplar bilan xarakterlanadi [1]. Shunga o'xshash, tez va tinimsiz gapirishni o'z ichiga olgan asabiy bosim ostidagi nutq, bipolar disfunktsiyasi bo'lgan odamlarda vasvasa kasalligi simptomi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi [5].

Ikkinchidan, psixolingvistik tadqiqotlarda tildan foydalanish va shaxs xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlik ham tadqiq etilgan. Tobora ko'payib borayotgan adabiyotlarda «Katta beshlik» (Big Five "OCEAN" – openness (muloqotga ochiqlik), conscientiousness (xolislik), extraversion (kirishuvchanlik), agreeableness (xushmuomalalik), and neuroticism (asabiylik)) kabi modellarni bilan o'lchanadigan shaxsiyat o'lchovlari qanday qilib lingvistik fe'l-atvor bilan bog'liqligi ko'rib chiqilgan. Masalan, olimlar Xirsh va Peterson tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ekstraversiya (kirishuvchanlik) bo'yicha yuqori ball to'plagan shaxslar o'z nutqlarida ko'proq ijobiy emotsional tildan va ijtimoiy muloqotga ishora qilishdan foydalanadilar. Aksincha, nevrotizm (asabiylik) yuqori bo'lgan shaxslar salbiy his-tuyg'ularga e'tibor qaratishni aks ettiruvchi salbiy hissiy iboralarni ko'proq ishlatishga moyildirlar [6].

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar va bloglar kabi onlayn muloqot orqali shaxsiyatni o'rganish uchun til tahlilining ushbu vositalaridan foydalanilgan. Misol uchun, bir tadqiqotda olimlar Facebook ijtimoiy tarmog'ida foydalanuvchilarning statuslaridagi yangilanishlarini tahlil qilish uchun LIWCdan foydalanishgan. Bunda muayyan til namunalaridan foydalanish chastotasi, ya'ni, ularning ma'lum ruhiy holatlarida ba'zi so'zlarning takrorlanish holatlari yuqorida biz ko'rib o'tgan besh xil shaxsiyat xususiyatlariga mos tushgan, va bu ma'lum so'zlar ma'lum psixik holatlarni anglatishini, buni ma'lum darajada oldindan aytib berish mumkinligini aniqlashgan [14].

Yuqoridagi tadqiqotlar ma'lum ma'noda insonning nutqi, ayni vaziyatda ishlatayotgan til birliklari uning muvaqqat psixologik holatini o'zida namoyon etishi mumkinligini ko'rsatadi. Lekin bu yerda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ikkita katta masala bor:

til kontekstga bog'liq bo'lib, unga madaniyat, ijtimoiy me'yorlar, vaziyatga doir holat kabi tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, odamlar ijtimoiy kutilmalarga mos kelish yoki o'zlarining haqiqiy his-tuyg'ularini yashirish uchun ongli ravishda yoki ongsiz ravishda o'z nutqini o'zgartirishi mumkin. Bundan tashqari, lingvistik belgilar ba'zi hissiy va psixologik holatlarni aks ettirishi mumkin bo'lsa-da, ular shaxs yoki kognitiv jarayonlarning to'liq murakkabligini qamrab olmaydi. Masalan, kimdir ma'lum bir vaziyatda xavotir yoki his-hayajonning lingvistik belgilarini ko'rsatishi mumkin, ammo buning uchun unda albatta xavotir yoki his-hayajon bo'lishi shart emas.

**Xulosa.** Psixolingvistika til va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi aloqalarni o'rganish uchun keng qamrovli asos yaratadi. Inson psixologiyasining ayrim jihatlarini, ya'ni hissiy holatlar va shaxslararo munosabatlar lingvistik xatti-harakatlardan kelib chiqib xulosa chiqarish mumkin bo'lsa-da, inson kognitiv faoliyatining murakkabligi va tildan foydalanishning kontekstual tabiati shaxsning butun psixologik portretini faqat til orqali aniqlashda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Boshqacha aytganda, birgina nutqimiz orqali butun boshli psixologiyamizni ochib berish masalasi cheklangan bo'lib qolaveradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Barch, D. M., & Ceaser, A. (2012). Cognition in schizophrenia: Core psychological and neural mechanisms. *Trends in Cognitive Sciences*, 16(1), 27-34.
2. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the Theory of Syntax*. MIT Press.
3. Elman, J. L., Bates, E. A., Johnson, M. H., Karmiloff-Smith, A., Parisi, D., & Plunkett, K. (1996). *Rethinking Innateness: A Connectionist Perspective on Development*. MIT Press.
4. Friederici, A. D. (2011). The Brain Basis of Language Processing: From Structure to Function. *Physiological Reviews*, 91(4), 1357-1392.
5. Goodwin, F. K., & Jamison, K. R. (2007). *Manic-Depressive Illness: Bipolar Disorders and Recurrent Depression*. Oxford University Press.
6. Hirsh, J. B., & Peterson, J. B. (2009). Personality and Language Use in Self-Narratives: The Importance of Conscientiousness and Neuroticism. *Journal of Research in Personality*, 43(3), 524-527.
7. Kay, P., & Kempton, W. (1984). What is the Sapir-Whorf Hypothesis? *American Anthropologist*, 86(1), 65-79.
8. Levelt, W. J. M. (1989). *Speaking: From Intention to Articulation*. MIT Press.
9. Pennebaker, J. W., Booth, R. J., & Francis, M. E. (2007). *Linguistic Inquiry and Word Count (LIWC) [Computer software]*. Austin, TX: LIWC.net.
10. Pennebaker, J. W., & King, L. A. (1999). Linguistic Styles: Language Use as an Individual Difference. *Journal of Personality and Social Psychology*, 77(6), 1296-1312.
11. Pinker, S. (1994). *The Language Instinct: How the Mind Creates Language*. William Morrow.
12. Rude, S. S., Gortner, E. M., & Pennebaker, J. W. (2004). Language Use of Depressed and Depression-Vulnerable College Students. *Cognition and Emotion*, 18(8), 1121-1133.
13. Sapir, E. (1929). The Status of Linguistics as a Science. *Language*, 5(4), 207-214.
14. Schwartz, H. A., Eichstaedt, J. C., Kern, M. L., Dziurzynski, L., Ramones, S. M., Agrawal, M., Shah, A., Kosinski, M., Stillwell, D., Seligman, M. E., & Ungar, L. H. (2013). Personality, Gender, and Age in the Language of Social Media: The Open-Vocabulary Approach. *PLOS ONE*, 8(9), e73791.
15. Spelke, E. S., & Kinzler, K. D. (2007). Core Knowledge. *Developmental Science*, 10(1), 89-96.
16. Tausczik, Y. R., & Pennebaker, J. W. (2010). The Psychological Meaning of Words: LIWC and Computerized Text Analysis Methods. *Journal of Language and Social Psychology*, 29(1), 24-54.
17. Tomasello, M. (2003). *Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition*. Harvard University Press.
18. Whorf, B. L. (1956). *Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf*. MIT Press.
19. Vygotsky, L. S. (1962). *Thought and Language*. (E. Hanfmann & G. Vakar, Eds. and Trans.). MIT Press. (Original work published 1934).
20. Bruner, J. (1983). *Child's Talk: Learning to Use Language*. Oxford University Press.



UDK: 82-1751

*O'g'iloy ESHPULATOVA,*  
Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti  
E-mail:ugiloyeshpulatova@gmail.com

*Ilimiy rahbar dotsenti Sh.Rustamova taqrizi asosida*

#### PREVIOUS STUDIES ON METAPHORS AND ALLEGORIES IN THE DIVINE COMEDY WORK OF DANTE ALGERI

Annotation

This research work is about several scholars who have analyzed and researched the metaphors and allegories presented in Dante Aligieri's "Divine Comedy", and the work samples examples of the metaphor and allegory they analyzed. This research work serves as a desirable resource for those who are doing research on the same subject.

**Key words:** Allegory, metaphor, plot, Paradise, hell, nobility, philosophical view, sin, rebuke, struggle, God.

#### ПРЕДЫДУЩИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МЕТАФОР И АЛЛЕГОРИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ БОЖЕСТВЕННОЙ КОМЕДИИ ДАНТЕ АЛДЖЕРИ

Аннотация

Эта исследовательская работа посвящена нескольким ученым, которые проанализировали метафоры и аллегории, представленные в "Божественной комедии" Данте Алжери, и в работе приведены примеры метафор и аллегорий, которые они проанализировали. Эта исследовательская работа служит полезным ресурсом для тех, кто занимается исследованиями по той же теме.

**Ключевые слова:** Аллегория, метафора, сюжет, Рай, ад, благородство, философский взгляд, грех, упрек, борьба, Бог.

#### DANTE ALGERINING ILOHIY KOMEDIYA ASARIDAGI METAFORA VA ALLEGORIYALAR BO'YICHA OLDINGI TADQIQOTLAR

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot ishi Dante Algerining "Ilohiy Komediya" asarida keltirilgan metafara va allegoriyalarni tahlil qilib, tadqiqot olib borgan bir nechta olimlar haqida bo'lib, asarda ularning tahlil qilgan metafara va allegoriyaga doir misollaridan namunalar keltirilgan. Ushbu tadqiqot ishi shu mavzuda tadqiqot olib borayotganlar uchun kerakli manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Allegoriya, metafara, syujet, jannat, do'zax, a'rof, falsafiy qarash, gunoh, tovba, kurash, Xudo.

**Kirish.** Dante Aligieri – italyan shoiri, kech o'rta asrlar madaniyatining sintezi berilgan "Ilohiy komediya" asarining yaratuvchisi. Qadimiy dvoryan naslidan. Dastlabki "Yangi hayot" asari sevgilisi Beatrichega bag'ishlangan sonetlardan va nasriy lavhalardan iborat. 1290-yillar oxirida hukmron gvelflar partiyasi "oqlar" va "qoralar"ga ajralib chiqqach, Florensiyada hokimiyat "qoralar" qo'liga o'tadi, o'sha paytda Rimda bo'lgan "oqlar" vakili Dantening mol-mulki musodara etilib, o'zi o'linga hukm etiladi. Shundan keyin Dante Florensiyadan chiqib ketadi va umrining oxirigacha darbadarlikda yashaydi, siyosat bilan shug'ullanmaydi. Dante falsafiy ruhdagi "Bazm", "Monarxiya haqida", "Yer va suv haqida" risolalarida gumanistik qarashlarni ilgari suradi, davrning muhim ijtimoiy-axloqiy muammolariga javob izlaydi. Jumladan, "Monarxiya haqida" asarida Dante butun jahon monarxiyasini yer yuzidagi odamlarning farovonligini ta'minlaydigan adolatli davlat shakli sifatida himoya qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** "Komediya" Dante ijodining cho'qqisidir (1307-1321). Keyinchalik Boccaccio unga "Ilohiy" epitetini bergan. Dante vafotidan so'ng qo'shilgan ilohiy so'zi shoir ijodi muxlislari tomonidan asarning badiiy jihatdan yuksakligini ifodalash uchun qo'llangan. Doston 3 qism ("Do'zax", "A'rof", "Jannat") dan iborat. Har bir qismda 33 ta qo'shiq bor. Doston Dantening shoir Vergiliy yetakchiligida u dunyoga sayohati tarzida yozilgan. Bu shakl Sharq obidasi "Me'rojnomasi" syujetini eslatadi. "Komediya" an'anaviy diniy syujet asosida bo'lsada, undagi gumanizm mag'zini real dunyodagi insonlar hayoti tashkil etadi. Dante asarda insoniyat tarixining turli davrlarida yashagan kishilarning murakkab falsafiy qarashlariga munosabatini bildiradi. "Komediya"ning "Do'zax" qismidagi 4-qo'shiqda jahonning buyuk donishmandlari Demokrit, Fales, Geraklit, Evklid, Ptolemey, Gippokratlar qatorida Sharqning ulug' mutafakkirlari Ibn Sino va Ibn Rushdlar tilga olingan. Qo'shiqda qadimiy Turon podshosining qizi, afsonaviy baliq tanli sarkarda ayol Semiramida, Misr malikasi Kleopatra faoliyatiga munosabat bildiriladi. "a'rof"da massagetlar malikasi To'maris qahramonligi tasvirlangan. "Ilohiy komediya" badiiy yuksak bo'lishi bilan birga, kishilik jamiyati taraqqiyotida yig'ilgan bilimlarning boy xazinasidir. Dante Sharq va G'arb tafakkuri mevalarini omuxta etgan. Muallif Sharq donishmandlari Ibn Sino, al

– Farg'oniy, abu Mash'ar, Muhammad al – Xorazmiy va boshqalarning asarlaridan foydalangan.

**Muhokama.** Dante italyan adabiy tilining yaratuvchisi hisoblanadi. Uning dostoni uslubida oddiy xalq tili oliy tabaqa kishilari tiliga xos tantanavorlik, rangbaranglik va drammatizm bilan uyg'unlashib ketgan. Dante o'z davridagi ijodkorlardan farqli o'laroq butun italyan millati nomidan gapirib, uning asriy orzu-armonlarini ifodalagan. Shuning uchun ham uni o'rta asrning so'nggi shoiri va ayni paytda, yangi davrning birinchi shoiri, deyishadi. Dante ijodi italyan adabiyoti va butun Yevropa madaniyati taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shoir ijodi adabiyotshunos olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Dante asarlari jahon xalqlarining ko'pgina tillariga tarjima qilingan. "Ilohiy komediya" dostonining "Do'zax" qismi o'zbek tilida Abdulla Oripov tarjimasida nashr etilgan.

Dante Aligierining "Ilohiy Komediya" asarini bir qancha olimlar tahlil qilib o'rganishgan. Asarda keng badiiy san'atlardan foydalanilgan, ayniqsa metafara va allegoriyaga doir turli xil misollar keltirilgan. Quyida mashhur olimlardan biri bo'lmish Rustam Ibragimovning Dante Aligieri (1265-1321) qalamiga mansub "Ilohiy komediya" dostonining "Do'zax" kantikasidagi obrazlar turli jihatlariga ko'ra tahlil etilganligini ko'rib chiqamiz.

O'rmon (foniy dunyo) va uning atributlari. Aksar diniy ta'limotlarning nuqtai nazari bo'yicha inson umri foniy va boqiy deb atalmish ikki dunyo – ikki bosqichdan iborat. Shunga ko'ra barchamiz qachondir albatta ikkinchi dunyoga – dorulbaqoga rihlat qilamiz. Ana shundagina qanday yashaganimiz, aslida kim bo'lganimizni o'zimiz to'la anglab etamiz. "Komediya"ning dahshatli changalzor changaliga tushib qolgan bosh qahramoni Dante ham bundan mustasno emas edi:

Nel mezzo del cammin di nostra vita...

Tarjimasi: Umrimiz sarhadin o'rta sahnida...

Shoir yorug' olamni tark etish arafasida. Lekin bu vaqtinchalik holdir. Chunki Dantega ruhi tanasini tark etmay turib qorulbaqoga borish imkoni berilgan, shuning uchun u o'zga bandalardan farqli tarzda mazkur "sayohat"dan yana bu dunyoga qayta olardi. Ammo qaytishi va so'ngra haqiqatda jon taslim qilishidan keyingi hayoti umrining uchinchi hamda to'rtinchi pallasi bo'lmaydi. Boisi har ikki olamning eng umumiy mohiyatini anglaydigan Dante uchun ular shunchaki takror, xolos[1].

Roviy Dante avvaliga zamon to'g'risida ma'lumot bergach, tersinaning qolgan misralarida makonga to'xtaladi:

... mi ritrovi per una selva oscura  
ché la diritta via era smarrita

Tarjimasi:

Zimiston o'rmonga yuzlashdim nogoh,  
Nechukkim rost yo'l ham yitmishdi bunda.

Shoir zaminiy umri adog'ida shunday joyga keldiki, u yer qop-qorong'i, yurishga yo'li yo'q changalzor edi. Bu aslida yovuzlikdan tun tusini olgan, gunohlardan, razolatdan to'lib, Haq manzili bekilgan o'tkinchi dunyoning majoziy tasviri bo'lib, dorulfano – quyuq o'rmonzorni, undagi kechmishini

o'ylashning o'zi Dante uchun maholdir[1].

“Andin so'zlamak-ku dushvordir, evoh,

Shu mudhish, yovvoyi, shu bo'g'iq o'rmon

Yana dahshat solur xayoln andog'!”

deya nola qiladi shunda jafokash:

Ahi quanto a dir qual era è cosa dura

esta selva selvaggia e aspra e forte

che nel pensier rinova la paura!

“Qorong'i” [“Oscuro”] va “Yovvoyi” [“Selvaggio”]

changalzor xotirasi bugun ham dilni xuftonu kishini odamovi qiladi. Chunki besh kunlik dunyoning eng mudhish, eng chirkin timsoli bo'lmish o'sha ma'vo uchun aynan zim-ziyo va yovvoyilarcha xudbinlik xosdir. O'z navbatida “Selva” [“O'rmon”]ning bunda xususiyatlari Dantening yaqin-orada adog'iga etguchi zaminiy umri haqida xulosalar chiqarishni taqozo etardi. Shu xulosalardan dastlabkisi esa birgina metaforada ifodalangan – “La Paura”, ya'ni “Dahshat”! “Komediya” muqaddimasi aynan shunday dahshatdan, shunday tragediyadan iborat[1].

Mazkur qo'rqinch timsol ijodkor tashxisi jarayonida yana bir qirrasini ayon qildi: “Ajaldan qolishmas zahri ham chunon; Lek bunda uchrashib xayr vasfi-chun bo'lak ko'rganlarim so'ylayin shu on”, deyiladi navbatdagi tersinada:

Tant'è amara che poco è più morte;

ma per trattar del ben ch'i' vi trovai,

9 dirò de l'altre cose ch'i' v'ho scorte.

Endi “Dahshat” [“Paura”]ning uchinchi, asosiy funksiyasi shakllandi – “Qorong'ilik” va “Yovvoyilik” “Amaro”ni keltirib chiqardi. Shunday qilib, bizga “O'rmon”ning quyidagi uch atributi ma'lum: “Oscuro” [“Qorong'i”], “Selvaggio” [“Yovvoyi”] hamda “Amaro” [“Zahri qotil”, “Zulmkor”].

Shunga ko'ra, zulmat hayvoniy tamaga sabab, u esa o'z navbatida zolimlikka doyadir:

“Qora” — “Yovvoyi” — “Zulmkor”[1]

Natija: “Ilohiy komediya” yozuvchining boshqa asarlari kabi aniq, puxta o'ylangan kompozitsiya asosida yaratilgan. Poema asosiy uch qism (“kantik”)dan iborat, ya'ni u boqiy dunyoning uch makoni – “Do'zax”, “A'rof” va “Jannat”ga bo'linadi. Har bir bo'lim 33 qo'shiqdan iborat. Darvoqe, poe-maning “Do'zax” qismida “Prolog” o'rnida birinchi qo'shiq o'r'in olgan. Qo'shiqlarning jami miqdori 100 taga boradi. Ulardagi satrlar uch misrali band (tersina) rumumida joylashtirilgan. Asarning matnida boshidan oxirigacha 3 va 9 ramziy raqamlarning qo'llanishi uning syujetiga nasroniy dididagi “troitsa”, ya'ni uch ilohiy kuch g'oyasini singdirish hamda foniy dunyo voqeligiga nisbat berish alomatidir. Yana bir muhim jihat, har uchala kantik bir so'z, ya'ni “yulduz” so'zi bilan yakun topadi. Bu esa payg'ambar Iso Masih nomining faqat o'zi bilan o'zi qofiyalanib kelishiga ishoradir. Umuman, asarning “Do'zax” qismida Iso Masih va Bibi Maryam ismlari tilga olinmaydi, ular yulduzlar timsolida namoyon bo'ladi[5].

Asardagi yana bir muhim jihat, aslida zamon ruhiyatini aks ettirish g'oyasi bo'lsa-da, uning mazmunida O'rta asr sxolastik ta'limot va ilohiy kuch-qudratning ta'siri katta bo'lgani sezilib turadi. Sababi, O'rta asr Sharq va G'arb teologiya ilmi va badiiy adabiyotida boqiy dunyoning mavjudligini ulug' avliyolar tushida vahiy bo'lgan voqealar bilan uyg'unlikda ta'riflash odati yetakchi an'ana tusini olgandi. Shu bois, danteshunos olimlar “Ilohiy komediya”ning yaratilishida muallif avvalo o'rta asr sharq adabiyotidagi “tushda ayon bo'lish”, ya'ni, boqiy dunyoning Do'zax, A'rof va Jannatida kechayotgan hayot manzaralarining tasviri asosiy turki bo'lgan, degan fikrni bildiradilar[5].

Dante Aligyerining “Ilohiy komediya” asari she'riyat, ilohiyot va falsafa bilan bog'lanib ketadigan adabiyotning durdonasidir. Bu ramziy ma'noga boy asar bo'lib, unda metafora va

allegoriyalar o'zaro bog'lanib, asrlar davomida kitobxonning diqqatini jalb qiladigan chuqur ma'nolar manbaya bo'lib xizmat qiladi.

Dantening o'zi Cangrande maktubida o'z ishingun allegorik tabiati haqida ba'zi maslahatlar bergan bo'lsa-da, olimlar uning ko'p qirrali ma'no qatlamlarini ochish uchun son-sanoqsiz soatlarni bag'ishladilar. Ta'kidlash joizki, Jon Freccero, taniqli Danteshunos olim, she'ning allegorik o'lchamlarini keng o'rganib chiqdi va so'zma-so'z va ramziy talqinlarning o'zaro ta'sirini ta'kidlab o'tadi. Yana bir nufuzli olim Charlz Singleton she'ning teologik kontekstining uning allegoriyalarini tushunishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Robert Hollander va Reychel Jacoff kabi boshqa olimlar Dante tomonidan ishlatiladigan o'ziga xos metafora va allegorik metodlarni o'rganib, asar ma'nosini kitobxoniga chuqurroq tushuntirish uchun tadqiqotlar olib boradi.

Metafarik misollar:

“Midway upon the journey of our life I found myself within a dark wood for the straight way was lost”[1]. Berilgan parchada yozuvchi metaforadan mahorat bilan foydalangan. Dantening sayohati “dark wood” da yo'qolib qolish bilan boshlanadi, ya'ni bu uning gunoh va insoniy chalkashliklarini ifodalab keladi. John Freccero o'zining “Dante: The Poet of the Commedia” asarida ifodalashicha bu yog'och ilohiy inoyatga duch kelishdan va najot yo'lini topishdan oldin insonning mavjudligini anglatadi.

“A she-wolf, gaunt with hunger, seemed so fierce that she made me tremble in my very soul, and her appearance was so abject that she appeared to be a beast that makes all others cowardly”[1]. Keyingi misolda bo'ri ochko'zlik va ochko'zlikni ifodalaydi, bu Dantening sayohatiga tahdid soladigan illatlardan biridir. Charlz Singleton o'zining “Dante Studies: I. Commedia: Elements of Structure” asarida leopardni navsni va sherni mag'rurlikni ifodalovchi sifatida belgilaydi. Bu hayvonlar insoniyatning najotga erishishiga to'sqinlik qiladigan vasvasalar va gunohlarni ifodalaydi.

“A river of fire, which all the waves of blood did boil” [1].

Dante do'zaxga kirish uchun kesib o'tgan Acheron daryosi hayotdan o'limga o'tishni va jismoniy dunyo va ruhiy olam o'rtasidagi ajralishni anglatadi. Robert Hollander o'zining “A Concise Encyclopedia of The Divine Comedy” (2001) ilmiy ishida bu daryo Xudodan uzoq yo'lni tanlaganlarni kutayotgan zulmat va azob-uqubatlarni qanday ifodalashini ta'kidlaydi.

Allegoriyaga doir misollar:

Dante's Journey Through Hell: Dantening Hell orqali butun sayohati inson qalbining gunoh bilan kurashining metaforasidir. Jahannamning turli doiralari turli xil gunohlarni anglatadi va la'natlanganlar bilan uchrashuvlar Xudodan uzoq yo'lni tanlash oqibatlarini ochib beradi. Jon Freccero Dantening do'zax orqali tushishi o'zini kashf qilish va axloqiy hisob-kitob qilish sayohati ekanligini ta'kidlaydi[2].

Beatrice: “She is the one who is my guide, my salvation, my hope, and my refuge. She is the one who led me out of the dark wood and brought me to the light of God”[1].

Beatrice ilohiy inoyat va imon kuchini anglatadi. U Danteni Jannat bo'ylab boshqaradi, bu najot sari sayohatni va Xudo bilan birlashishni anglatadi. Charlz Singleton beatrisning ilohiy sevgi va yo'l-yo'riq ramzi sifatidagi rolini ta'kidlaydi[6].

Virgil: “The wise one who has given me a guide, my master and my author”[1].

Virgil aql, donolik va inson bilimini anglatadi. U Danteni do'zax va poklik orqali boshqaradi, bu dunyoni tushunishda va Xudoga yaqinlashishda inson aqlining rolini ifodalaydi. Robert Hollander Virgilning axloqiy va ma'naviy sayohatni boshqarishda inson bilimlarining vakili sifatida muhimligini ta'kidlaydi[3].

The Three Realms of the Commedia:

Inferno: gunoh va la'natni ifodalaydi.

Purgatorio: tavba va poklanishni anglatadi.

Paradiso: Xudo bilan abadiy baxt va birlikni anglatadi.

**Xulosa.** Ilohiy komediyaning uchta sohosi ruhning najot sari sayohati bosqichlarini anglatadi. Ushbu allegorik sayohat insonning gunoh, tavba qilish va ilohiy inoyatga intilish tajribasini ta'kidlaydi. Reychel Jacoff she'ning tuzilishi ushbu allegorik asosni qanday aks ettirganligini ta'kidlaydi[4].

Ushbu misollar Dantening metafora va allegoriyani mohirona birlashtirib, ko'p qatlamli va chuqur ta'sirli asar yaratishini namoyish etadi. Ushbu ramziy qatlamlarni ochish orqali o'quvchilar Dantening badiiyligi, uning diniy tushunchalari va inson holatini o'rganish haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'ladi.

## ADABIYOTLAR

1. Dante. Ilohiy komediya. Do'zax & Rustam Ibragimbekov. Dantening «Ilohiy komediya»sida timsollar talqini

2. Freccero, J. (1986). Dante: The Poet of the Commedia.\* Princeton University Press.
3. Hollander, R. (2001). A Concise Encyclopedia of The Divine Comedy.\* University of Chicago Press.
4. Jacoff, R. (2004). The "Divine Comedy" of Dante Alighieri: A Study Guide. Greenwood Publishing Group.
5. Muhammadjon Xolbekov, filologiya fanlari doktori, professor "Jahon adabiyoti", 2013 yil, 5-son
6. Singleton, C. S. (1970). Dante Studies: I. Commedia: Elements of Structure. Harvard University Press.





**Halima YULDASHEVA,**

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi, PhD*

*E-mail: Halimaxonim@gmail.com*

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori N. Jabborov taqrizi asosida*

### RESPONSIBILITY OF WALKING TOWARDS PERFECTION

Annotation

The article analyzes the issues of tradition and literary succession in Uzbek classical literature on the example of Erkin Vahidov. In Erkin Vahidov's poetry, the traditionalism of the individual and society is studied on the basis of the poet's work and classical poetry.

**Key words:** Poetry, national spirit, criticism of virtues, vices, artistic interpretation.

### ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ИДТИ К СОВЕРШЕНСТВУ

Аннотация

В статье проанализированы вопросы национального духа в лирических произведениях Эркина Вахидова. Произведения поэта воплотили в себе своеобразные традиции, мечты народа, его заветные желания.

**Ключевые слова:** Поэзия, национальный дух, национальный характер, анализ, литературный проповедь, поэтическое выражение.

### KOMILLIK SARI YURISH MAS‘ULIYATI

Annotatsiya

Maqolada Erkin Vohidov lirikasida milliy ruh ifodasi masalasi tahlil etilgan. Shoir she‘rlari millat ruhini mujassam etgan o‘ziga xos an‘analar, qadriyatlar, millatning orzulari, armonlari talqini misolida tadqiq qilingan.

**Kalit so‘zlar:** She‘riyat, milliy ruh, milliy xarakter, tahlil, badiiy talqin, poetik ifoda.

**Kirish.** So‘z yo‘li...Uzoq va mashaqqatli yo‘l...Olohning buyuk elchilaridan tortib ulug‘ allomayi davronlarni manziliga eltgan yo‘l...Bu yo‘ldan qanchadan-qancha nafasi o‘tkir, kalomi tarozida tosh bosadigan so‘z zargarlari o‘tgan...

Ana shunday yuksak tafakkur egalardan biri, donishmand shoir Erkin Vohidov ijodini o‘rganish insonga shoiringning mustahkam va sobit qarashlar egasi ekanini anglatadi. Sho‘rolar siyosati ham egolmagan qat‘iy iroda sohibi bo‘lmish Erkin Vohidov qalamidan to‘kilgan quyma satrlar samimiyligi, latifligi, o‘z o‘rnida aytilgan va jasoratga to‘laligi, avvalo, shoir shaxsining shunday fazilatlariga egaligi boisidandir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** “To quyosh sochgayki nur...” kitobida berilgan go‘zal xotiralardan Erkin Vohidov chinakamiga o‘z xalqining fidoyi farzandi, ona tilimizning sofligi uchun haqiqiy kurashchi ekanini tushunish qiyin emas. Shoir fidoyilikni Hazrat Mir Alisher Navoiydan o‘rgandi, deb ishonch bilan aytish mumkin. Navoiy g‘oyalari muayyan davr uchungina emas, mangulikka xizmat qiladigan g‘oyalardir.

Shoir Erkin Vohidov ustoz NAVOIY kabi qalb erkinligi uchun kurashdi, o‘z baxtini millati va xalqining baxtidan ayro tasavvur qila olmadi. Erkin Vohidovni haqli ravishda “maoniy ahli sohibqironi”[8] ning sodiq navkari deyish mumkin.

Shoir ulug‘ Navoiy asarlarini shunchaki o‘qish emas, bu ummon qar‘idan gavharlar izlash, undan zavq ola bilish bilangina munosib avlod maqomiga erishish mumkin deb hisoblaydi. “Navoiy ijodini tushunish, anglash uchun fors, arab, eski o‘zbek tillarini o‘rganish bilan bir qatorda Qur‘oni Karim, hadis, tasavvuf ilmidan boxabar bo‘lish, undan keyin Navoiy davrini, u yashagan muhitni bilish lozim. Navoiyni bilsak, ijodiga chuqur kirib borsakkina, “Men o‘zbekman, Navoiyning avlodiman!” deya olamiz”, - deb ta‘lim beradi shoir. Bugunning o‘quvchisi Navoiyni o‘qimasligi, tushunmasligi esa E.Vohidov nazdida “oltin boshning kalla bo‘lgani” dir. Shoir yurak-yurakdan, qalbining tub-tubidan iztirob chekib, ummon qarshisida tashna gumroh bandalarga “dod demoqqa palla bo‘lgan”ini izhor qiladi:

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,  
Oltin boshning kalla bo‘lgani shudir.  
Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa,  
Qora sochning malla bo‘lgani shudir.  
O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,  
Dod demoqqa palla bo‘lgani shudir.  
Ma‘rifatdan ayri o‘ynasa, kulsa,

Aza chog‘i yalla bo‘lgani shudir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** “Buyuk ajdodlarning umumbashariyat taraqqiyotiga qo‘shgan benazir hissasi, ilm-u irfondagi olamshumul muvaffaqiyatlari bilan faxrlanish yaxshi. Lekin bu faxr ulug‘larimizning asarlarini chuqur o‘rganish, ulardagi umrboqiy g‘oyalarni hayotga tatbiq etish bilan chambarchas bog‘lanmas ekan, millatning qanoti qayrilib qoladi”[8], - deb yozadi adabiyotshunos olim, professor Nurboiy Jabborov.

Shoir Erkin Vohidov inson farzandi dunyoga ulug‘ bir mas‘uliyat bilan keladi, bu mas‘uliyat - BILISHga INTILISH mas‘uliyati, KOMILLIK sari YURISH mas‘uliyati ekan, g‘afolat botqog‘iga botishga haqqi yo‘qligini, xalqning gumrohligi “Yulg‘ich aziz bo‘lib, bilgich xor” bo‘lishiga sabab bo‘lishini, qalb qoraymasligi uchun millat o‘z-o‘zini, ulug‘larini qadrlashi, shundagina “Qalb to‘la nur xalqning rizqi ham to‘lug‘” bo‘lishini ulug‘ Navoiy oldida xalqimizning ulkan qarzi – mas‘uliyati sifatida e‘tirof etadi.

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,  
Aldangani, alla bo‘lgani shudir.  
Yulg‘ich aziz bo‘lib, bilgich xor bo‘lsa,  
Paytavanning salla bo‘lgani shudir.  
El komil bo‘lmasa, yurt emas ulug‘,  
Beqadr mahalla bo‘lgani shudir.  
Qalb to‘la nur xalqning rizqi ham to‘lig‘,  
Ombor to‘la g‘alla bo‘lgani shudir.  
O‘zbek o‘zligini anglasa beklam,  
Uning “Barakalla” bo‘lgani shudir.  
Olamga Navoiy nasliman degan  
Ovozi barilla bo‘lgani shudir.

Shoir Erkin Vohidov inson qalbi shunday bir xilqatki, uning nimalarga qodiriligini bilish, ko‘rish uchun uni g‘afolatdan uyg‘otmoq lozim, shunda u o‘zini qanday qudratli kuch ekanini namoyon qilishini ushbu to‘rtlikda ta‘riflaydi:

Qalb shunday ummonki, uning bag‘rida  
Dahshatli dolg‘alar silsilasi bor.  
Qalb shunday zaminki, otash qa‘rida  
Vulqonlar otguvchi zilzilasi bor.

**Tahlil va natijalar.** Erkin Vohidovning “Ota-bobolarimiz so‘zning qadriga yetgan. Ularning suhbatlari hikmatlarga to‘la va shoirlarning baytlari bilan muzayyan bo‘lgan. Navoiydan kamida ming bayt yod bilmagan kishi o‘zini ziyoli hisoblashga haqqi yo‘q, deb o‘ylayman. Nafaqat ziyoli sanash, balki men o‘zbekman, Navoiy

mening bobom deb aytmogqa haqsiz deb hisoblayman” degan fikrlari millatimiz, xalqimiz, ayniqsa, bugungi avlod – yoshlarimiz oldiga ulkan mas’uliyat qo’yadiki, bu yukni ma’rifatli, ma’naviyatni yuksak ziyolilar ajdodlardan ibrat olib, uddalashga intilmog’i zarur.

Shoir “O‘zbek bo‘lish oson emasdir” she‘rida ayni fikrlarni davom ettiradi go‘yo. Inson bolasi har ishning uddasidan chiqishi mumkin, buning uchun g‘ayrat va qunt qilsa bo‘lgani, uning qonida “bor fe‘l – himmati baland, fayz-baraka shu fe‘lga monand...fanda ustoz, hunarda komil”. Biroq unda qator qusurlar ham borki, bu millatning taraqqiyotiga g‘ov bo‘lib, orqaga tortib turadi. Bu xalq “bolasiga makka, mosh berib, doshqozonda yurtga osh berib, yeguvchimas, yediruvchi xalq” bo‘lgani uchun ham “o‘zbek bo‘lish oson emas”.

Og‘iz ochmas kam-u ko‘stidan,  
Hasadgo‘y ko‘p lekin do‘stidan.  
Oshini yeb kular ustidan,  
O‘zbek bo‘lish oson emasdir.  
Albatta, bu holga tushmaslik uchun  
Millat hissi borki, kurashar,  
Millatman deb jam bo‘lib yashar.  
O‘z yo‘lini tanlagan bashar  
O‘zbek bo‘lish oson emasdir.  
Vatanida yangi bir vatan  
Quraytir o‘zbek qaytadan,  
Oson emas, tabor aytaman,  
O‘zbek bo‘lish oson emasdir.

Erkin Vohidov har bir she‘rini, har bir satrini yurak amri bilan, qalb ehtiyoji o‘laroq qog‘ozga to‘kib-soladi. Millat ruhini mukammal aks ettirish uchun, avvalo, shoir shaxsida milliy qarashlar yuksak darajada shakllangan bo‘lmog‘i zarur. Erkin Vohidov shaxs sifatida ham, shoir sifatida ham o‘zbekka xos barcha fazilatlarini o‘zida mujassam etgan ijodkor. U o‘zi chuqur his etgan, ko‘ngil ko‘zgidan o‘tkazgan tuyg‘ularinigina qalamga oladi. Shoir tabiatida hajvga moyillik kuchliligi bois aksar asarlarining zuvolasi mutoyiba bilan yo‘g‘rilgan. Shunday she‘rlardan biri “Boshindadir” (“Kulgi mushoiralari”dan) sarlavhasi bilan g‘azal janrida bitilgan bo‘lib, hazrat Alisher Navoiyning mashhur “O‘n sakiz ming olam oshubi agar boshindadir...” deb boshlanuvchi g‘azaliga tazmin qilingan. Buyuk salafidan farqli ravishda Erkin Vohidov g‘azali hajviy ruhda yozilgan. Aruziy she‘rlarning, asosan, muhabbat mavzusida yozilishiga ko‘nikkan o‘quvchiga bu she‘riy tizimda kamalak ranglaridek xilma-xil mavzular ifoda etilgan g‘azallar insho etdi. Lirik qahramon - Ota o‘zi sezmaganda holda “boshga chiqarib olgan” o‘g‘lining o‘n sakkiz yoshda ham undan tushishni xayoliga keltirmayotgani tasvirini berar ekan, bu orqali shoir millat taqdirida tarbiyaning tutgan o‘rniga alohida e‘tibor qaratadi. Ijodkor bunda kinoyaviy talqin usulidan foydalanadi. “O‘g‘ilcha”ning “nay misol shim kiyib, sandiqdayin tufli bilan” yurishi, “hurpayib turgan savatdek sochi”, “necha badfe‘l bo‘lsa, bari ushbu beboshinda” jam ekani sababi she‘rda quyidagicha talqin etiladi:

Yo‘q ajab, yoshlikda o‘g‘lin  
Ota ardoqlab, suyib,  
Erkalab boshiga qo‘ydi,  
Ul hamon boshindadir.

Umuman, ushbu she‘rda hazil va kinoya vositasida farzandning shu holga tushishida otaning asli o‘zi bosh aybdor ekani va dardu fig‘onining tub ildizlari ochib beriladi. Professor Abdug‘afur Rasulov ta‘biri bilan aytganda, “Erkin Vohidov hazillarida fikr va ifoda, fitrat va qiyofa mutanosibligi bor... Mehr – ko‘zda, sehr – so‘zda, degan gap bor. Aqlli odamlar achchiq gapni ham, jiddiy talabni ham, iydirishni ham, o‘ldirishni ham hazil-mutoyiba, ochiqko‘ngillik bilan amalga oshiradilar. Aqlli, dono fikrning ulovi hazil, kulgu, samimiylik”[9]. Darhaqiqat, shoir insoniyatni tubsiz jarlikka qulatuvchi ham o‘z qo‘li bilan yetishtirgan “hosili umri” ekani, hamma zamonlarda ahamiyatini zarracha yo‘qotmaydigan abadiy mavzu – tarbiya masalasi insoniyat qarshisida ko‘ndalang turishini, “hazrati inson” ekanini o‘rajagi muhaqqaq ekanini navoiyona shaklga singdirib yuboradi.

Erkin Vohidovning 6+5 turoqda bitilgan “Zamona zayli” she‘ri abab tarzida qo‘fiyalangan. Ushbu poetik shakl va unga mutanosib mazmun vositasida shoir bir paytlar zo‘r kitobxon bo‘lgan millat farzandlarining bugungi ahvolidan qattiq iztirib chekadi va ilma-ma’rifat sari intilishga, olimu fozillar yurtida tug‘ilib, butun olamni lol qilgan Buxoriylar, Ibn Sinolar, Xorazmiylar izlarini bosuvchi millat bo‘lishga undaydi:

O‘g‘lim oshno bo‘ldi “Boni-Em” bilan,  
Ranjidim, maqomni tinglamaydi, deb.  
Endi xafa bo‘lar o‘g‘lim o‘g‘lidan,

Nodon “Boni-Em”ni anglamaydi, deb.

Shoir aytmogchi, “Boni-Em”ni anglash zarurati, chet tillarni bilish ehtiyoji oshib bormoqda. Biroq bu milliy madaniyatimiz durdonalari bo‘lgan mumtoz maqomlarni, ularning asosi sanalgan g‘azallarni unutish hisobiga bo‘lmasligi zarur. Mumtoz maqomlar – inson ruhiyatini poklovchi beqiyos omil. Erkin Vohidov she‘riyatida mumtoz adabiyotning ulkan ta‘sirini sezamiz. Bu, avvalo, shoirning ulug‘ ustozlardan olgan saboqlari samarasidir.

Erkin Vohidov bolalik xotiralaridan birida shunday yozadi: “...O‘ylasam, ustozlardan omadim kelgan ekan. Yettinchi-sakkizinchi sinfdayoq G‘ayratiy to‘garagiga borib, bu donishmand ustoz saboqlarini eshitdim. U kishi bizni yosh bo‘la demay, Sa‘diy, Hofiz, Bedil, Navoiy, Fuzuliy g‘azallarini forsiy, turkiy tillarda yoddan o‘qib berar va biz ularni anglab yetmasak-da, yuksak she‘riyatni his qilardik, bilishga intildik. Keyinchalik Mirtemir seminari, Abdulla Qahhor suhbatlari bizga dorilfunun bo‘ldi. Alixonto‘ra Sog‘uniy hikmatlarini ul zotning o‘z tillaridan eshitish menga nasib qildi”[9].

Erkin Vohidovning ustozlari domla G‘ayratiy o‘g‘itlarida mumtoz adabiyotga e‘tibor xususida shunday deyiladi: “O‘tmishda yaratilgan she‘riyatni bilmay, uning qonuniyatlarini o‘rganmay adabiyotga qadam qo‘yish kishini sharmanda qilishi mumkin. Bunday “shoir”ning ijod maydonidagi harakati suzishni bilmagan odamning hovuz shaloplatishi kabi kulgilidir”[2].

Shunday ekan, tomirlarida ulug‘lar qoni oqayotgan vorislar ham bobolarga munosib avlod bo‘lmog‘i shart. Yo‘qsa, shoirning Zavqiy g‘azaliga o‘xshatmasi – “Qo‘lingni pardalar qilding...” she‘rida aytilganiday:

Mumtoz shoir qaytsa tirilib,  
O‘zga baytlar aytib ketardi.  
Qo‘lni yuzga pardalar qilib,  
Zamoniga qaytib ketardi.

Adabiyotshunos olim Akbarali Sabirdinov Erkin Vohidov she‘rlari tahlilida yosh avlodning ajdodlar merosiga munosabati borasida shunday deydi: “Tezkor davr o‘zgarishlarining yosh avlod dunyoqarashiga ta‘siri va ushbu ta‘sirning turli avlodlar tafakkurida yuzaga keltirgan ayirmasi – otalar va bolalar muammosini vujudga keltirganligini shoir “Hozirgi yoshlar” (1973) she‘rida yengil yumor va beozor ifodalarda yuz yoshlardagi qariya tilidan bayon etadi. Qariya o‘tgan asrning 70-yillari yoshlariga nazar tashlar ekan, ular tutumlaridagi chuqur va nuqsonlarni tahlil etib, bobolar mehnatini qadrlashga chaqiradi. Qariyaning tanbehi quyidagi satrlarda yuqori nuqtaga chiqadi:

Yana der:  
Bo‘sh qolsak tunlar bo‘lib jam  
Chordarvesh o‘qirdik qurshab tanchani.  
Bular tanimaydi Huvaydoni ham,  
Erta-yu kech o‘ylar kino, tansani.  
Aqli kirarmikan bularga bir kun.  
Kim biladi qachon quyila boshlar!  
Og‘ir kun ko‘rmadi  
Balki shuning-chun  
Yengilroq o‘sdimi hozirgi yoshlar?–

tarzida she‘r bandlari davomida kinolar buzayotgan kapalak mijoz, bordi-keldi odatidan yiroq bemehr, og‘ir kun ko‘rmay, yengil o‘sgan ba‘zi yoshlar tanqidi-beozor yumor vositasidagi ifodalarda aks eta boradi”[10].

Millatning axloqi, ma’naviy butunligi ajdodlardan meros fazilatlar tufaylidir. Modomiki, hayot davom etayotgan ekan, shoir – nurday pok, ishqday bezavol avlod yetishmog‘ini orzu qiladi va “Kamolot” she‘rida mukammallikning bosqichlarini shunday ta‘riflaydi:

Kamolotning bosqichi bisyor:  
Maktab, litsey, so‘ng dorilfunun...  
Yigirma yil jon chekmoq darkor  
O‘rgatmoqni o‘rganmoq uchun.

To‘rtlikda aks etgan fikrga ko‘ra, kamolot bosqichlari ko‘p nuqtalarda davom etadi. Aslida, dorilfunundan so‘ng ko‘p nuqta qo‘yilishi bejiz emas. Chunki kamolot doimiy o‘qib-o‘rganishda, inson o‘zini muttasil ravishda isloh etishidir. She‘r tagmatniga shoir qalbining tub-tubida yotgan badiiy-estetik ideal – o‘z millatini dunyoning taraqqiy etgan xalqlari darajasida, kelajak avlodlarni komillik maqomida ko‘rish orzusi singdirib yuborilgani uning ma’rifiy qimmatini oshirib yuborgan. Komillik esa xayrli amallarni ko‘paytirish bilan yuzaga chiqadigan darajadir. Shoir o‘zi aytganidek:

Yaxshi ish, yaxshi so‘z va yaxshi farzand –  
Qolari – shu. O‘tdi-ketdi qolgani.

Ijodkor dard bilan ulg‘aygan dil izhorlari yurak qoni bilan lolagun bo‘lib, o‘quvchini ham beixtiyor o‘zining g‘amiga – millat va

xalq g'amiga sherik qiladi. Undan sizib chiqayotgan ohanglar - iztiroblar mevasi. Taniqli shoir Sirojiddin Sayyid yozadi:

Ulug' shoirlarning qalbi siyohdon bo'lgan,  
Yoza, yurak qoni bilan yozgan, siyoh – qon bo'lgan[11].

Erkin Vohidovning “Og'riqli savollar” she'rida zamondoshlari karakteridagi loqaydlik, moddiylikka o'chlik, dunyoni faqat huzur-halovatdan iborat deb bilish, tirikchilik g'amini hayotining asosiy ma'nosiga aylantirish kabi illatlar o'yg'a toldirib, millatning ertasi haqida tashvish uyg'otadi.

Choyxonada oshxo'rlikni baxt deb bilgan og'ayni,  
Shu bir kunlik halovatni naqd deb bilgan og'ayni,  
Qumursqadek tiriklikdan o'zga g'ami bo'lmagan,  
Dil olami, ishq olami, ruh olami bo'lmagan,  
Imonni ham, Vijdonni ham qurbon qilgan halqum deb,  
S e n i xayol qildimmi men kuyganimda xalqim deb?  
...S e n i deya tiladimmi yuraklarga hurriyat?  
...S e n i n g uchun istadimmi yurtimga men istiqloq?

Bu kabi savollar bilan to'lib-toshgan bezovta yurak ning alamlari she'r so'ngida hayqiriqqa aylanadi:

G'ofil xalqim! Tinglarmanmi sening na'ra- uningni,  
Ko'rarmanmi zuluklardan ozod bo'lgan kuningni?

Oradan ko'p ham o'tmay, shoir elining istiqloq nashidasidan sarmastligini ko'rish baxtiga muyassar bo'ldi. Biroq ayrim insonlarning fe'lida inqilob yuz berishi mushkul. Shoir yozadi: “...Yashagan yurtimiz o'chgan ovozlarni mamlakati bo'ldi. Ozod va mustaqil bo'lib ham ichki hadikdan to'la forig' bo'lmadik. Darhaqiqat, shahar qurish oson-u ongni o'zgartirish qiyin ekan”.

“Odamlarda tafakkur kuchi ortgani sari tasavvur kuchi kamayib bormoqda. Zavq-shavq o'rnini sovuq hisob-kitob egallamoqda. Aql va yurak bahsida hissiyot yengilib, quruq mantiq g'alaba qilmoqda. Bu jamiyat uchun xatarli hol. O'zbek askiyani

unutsa, do'stona hazillarni esdan chiqarsa, so'zning latofatini anglamay qolsa, bu – falokatdir”.

Qulluq qil, demasman,  
Yurt tuprog'in o'p.  
Unga qullar emas,  
Fidolar kerak.

Uning sen-u mendek  
Shoirlari ko'p.  
Buyuk elga endi  
Daholar kerak

Shoir o'zi tug'ilib o'sgan vatanning shunday bir fidoyi o'g'lidirki, boshda do'ppisi bilan qalbida o'zi mansub el farzandi ekanidan g'urur tuyg'usini yuksaltiradi, ona yurt tuprog'ini shunday e'zozlaydiki, kim bu TUPROQ qadrini tuproqqa teng qilsa, uning ko'ziga shu tuproq bilan urmoqni istaydi.

Kimki bu tuproq qadrin istar  
Aylamoq tuproqqa teng,  
Ko'ziga tuproq bilan  
Urmoqni istaydir ko'ngil.

Shoirning nozik fahmi ila terilgan bayt misralarida birgina “tuproq” so'zi “ulug' sajdagoh - VATAN tushunchasini ham, “xorlik” tushunchasini ham bera olgan. Bu esa she'r zavqini, so'z o'yini bilan hosil qilingan ma'no kengligini oshiradi. E.Vohidov qalamidan to'kilgan durlar shu usulda shoir shaxsining samimiyatini, latofatini namoyon qiladi. Samimiyat va badiiyatning bu darajada uyg'unlashuvi nazmiy ijoddagi noyob hodisa”, - deb yozadi professor Nurboy Jabborov.

**Xulosa va takliflar.** Darhaqiqat, Erkin Vohidov she'riyatidan shoiming samimiy qalb egasi, latif va zukko tafakkur sohibi ekanini sezish qiyin emas. Uning ishq-muhabbatni, sadoqatni, poklik va halollikni ulug'lagan satrlari she'riyatning ulug'vorligini yanada yuqori ko'tardi.

#### ADABIYOTLAR

1. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq HMAK, 2016. -694 б.
2. Воҳидов Э. Алишер Навоий – иккинчи минг йиллик даҳоси. // Тафаккур. – Тошкент, 2001. – №1. – Б. 66-67.
3. Воҳидов Э. Озодлик қайғуси. // Тафаккур. – Тошкент, 2008. – №1. – Б. 48-49.
4. “То қуёш сочгайки нур” [Матн]: Эркин Воҳидов: ҳаёти ва ижоди замондошлари нигоҳида // Нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир И.Ғафуров; тўпловчилар: Р.Мирзоҳид, Т.Мирзаев. – Тошкент: O‘zbekiston НМИУ, 2016. – 512 б.
5. Vohidov E. Shoiru she'ru shuur. T., 1987.
6. Эркин Воҳидов сабоқлари. Сўзбоши. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2016. 145-б.
7. Жабборов Н. “Ўткан кунлар”да миллий рух ифодаси. // Филология масалалари. – Тошкент, 2020. – №2.
8. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Адабиёт, 2021. – 304 б.
9. Расулов А. Шеър қолур, шоир қолур...// Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.255.
10. Сабирдинов А. Эркин Воҳидов шеърларида даврнинг долзарб муаммолари талқини. // Республика онлайн илмий-амалий конференция материаллари. – Гулистон, 2020 йил. – Б. 22.
11. S.Sayyid. “G'afur G'ulom siyohdoniga”. So'z yo'li., T., 2008.



*Durdona YUNUSOVA,*  
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti v.b., PhD  
E-mail: [durdonayunusova3@gmail.com](mailto:durdonayunusova3@gmail.com)

PhD, dotsent M.Raximova taqrizi asosida

#### HOLLI BIRIKMALARDA METAFORALARNING IFODALANISHI (SHAVKAT RAHMON SHE'RLARI MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada Shavkat Rahmonning so'z qo'llash mahorati, she'rlarida qo'llanilgan metaforalar haqida so'z yuritilgan, she'r tarkibida hol-hollanmish munosabatidagi metaforalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Lisoniy birlik, metafora, denotat, hol-hollanmish, realiya, frazeologik obraz.

#### ВЫРАЖЕНИЕ МЕТАФОРОВ В СЛУЧАЙНЫХ СОЕДИНЕНИЯХ (ПРИМЕР СТИХОВ ШАВКАТА РАХМАНА)

Аннотация

В данной статье рассказывается о мастерстве Шавката Рахмана в использовании слов, метафор, использованных в его стихах, а также анализируются метафоры, связанные с ситуацией в стихотворении.

**Ключевые слова:** Языковая единица, метафора, денотат, ситуация, реальность, фразеологический образ.

#### EXPRESSION OF METAPHORS IN RANDOM CONNECTIONS (EXAMPLE OF POEMS BY SHAVKAT RAHMAN)

Annotation

This article talks about Shavkat Rahman's skill in using words, metaphors used in his poems, and also analyzes the metaphors associated with the situation in the poem.

**Key words:** Linguistic unit, metaphor, denotation, situation, reality, phraseological image.

Adabiyotning so'z san'ati ekanligi haqidagi haqiqat juda qadim zamonlardan beri takrorlanib kelinadi. Demakki, adabiyotning bosh unsuri so'z, umuman, tildir. Adabiy asarning abadiy asar darajasiga ko'tarila bilishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balog'atiga bog'liq ekanligi shubhasiz. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o'ziga xosligi tahlil etilmog'i lozim. Har bir ijodkorning she'riyati izchillik bilan kuzatilsa, ma'lum poetik so'zlarining nisbatan faol qo'llanilganligi ajralib ko'rinadi. Til va shoir o'rtasidagi munosabatni shaxmat va shaxmatchi o'rtasidagi munosabatga qiyoslash mumkin. Shaxmatda har bir donaning mavqeyi, darajasi, shaxmat taxtasi ustidagi harakatlanish qoidalari avvaldan belgilangan. Ana shu qoidalarni tugal egallash oqibatida yuzaga kelgan yuksak mahorati tufayli shaxmatchi tamoman yangi, kutilmagan yurishlar qiladi, betakror kombinatsiyalar yaratadiki, bu unga raqibini mag'lub va muxlisini maftun qilish imkonini beradi. Tilda ham har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlar mavjud. Ana shu qonuniyatlardan mukammal boxabar bo'lgan, badiiy didi, so'z sezgisi va mahorati yuksak shoir betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, so'z chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon shoirming nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi. Bunda shoir umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma'nolar hal qiluvchi rol o'ynaydi[1]. Badiiy asarda ijodkor so'zga alohida ma'no yuklashi, ijodkorning individual mahorati ana shu nuqtada ochilishidan, o'z kuch-qudratini ko'rsatishidan dalolat beradi. Aslida tildagi har bir so'zning cheklanmagan darajada poetik imkoniyati mavjud. Faqat bu yashirin imkoniyatni ochish ijodkor iste'dodiga bog'liq.

She'riyatni metaforasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Olimlar tomonidan bu hodisa chuqur va atroflicha o'rganilgan, biroq har bir ijodkor metaforadan o'ziga xos tarzda foydalanadi. Shavkat Rahmonning ham so'zga munosabati va she'rlarining boshqa ijodkorlar she'rlaridan ajratib turuvchi jihatlardan biri, bu shoirming – badiiy obraz va san'atlarini qo'llashdagi mahoratida aniq namoyon bo'ladi. Shoirming o'xshatish va metaforalari u aytmoqchi bo'lgan fikr-g'oyalarning badiiy ifodasi sifatida o'quvchini o'zining badiiy olamiga birdan olib kiradi. Shoir dardi, ko'ngil armonlari va orzulariga oshno etadi. Uni bevosita favqulodda noodatiy o'xshatish va metaforalar olamiga ro'baro' qiladi [2]. Ayniqsa, borliqni o'zgacha tasavvur qilishi, tabiat hodisalari bilan so'zlasha olishi, she'rlarida so'zlarning ma'no tovlanishlariga, turli lisoniy vositalarning uslubiy xoslanishlariga e'tibor qaratishi shoirming mahoratining o'ziga

xosligini belgilab beradi. Masalan, "shamol"ning kezish holatini "zerikib", "uflab" tushunchalari orqali ifodalab, sintaktik jihatdan hol-hollanmish metoforik bog'lanishini vujudga keltirgan.

"Tabiat realiyalarini nomlovchi metafora uni umumiy va xususiy belgilariga ko'ra ta'riflaydi, tasniflaydi. Ayrim o'rinlarda bundayin metaforik nomlar olamning fizik manzarasiga taalluqli ba'zi detallarnigina ajratib, insonning xos belgisini tasvirlash uchun qo'llaniladi. Mazkur belgilar denotati anglatgan ma'noning salbiy yoxud ijobiylikiga qarab, tasvir uchun shunga mos obraz tanlanadi. Bunda taqqoslanayotgan referent belgilari bir-biriga semantik muvofiq bo'lishi shart. Matni tashkil etuvchi koreferent birliklar esa ana shu metaforik nomning bosqichma-bosqich ochilishiga xizmat qiladi" [3]. Aksariyat ijodkorlar tabiat manzaralarini tasvirlashda oddiy o'quvchiga ham ma'lum bo'lgan metaforalardan, o'xshatishlardan foydalanadi. Shavkat Rahmon ijodida esa tabiat realiyalarini nomlovchi she'rdan-she'rga tomon yangi metaforalarga duch kelaverasiz.

//Bulutlar o'tlagan adirda  
chiroyli kunduzdan kechaman.  
Sharobday totimli bu tunni  
tomchilab, tomchilab ichaman [4]

Muallifning tunni maroqli o'tkazish haqidagi fikrni sharob kabi "ichmoq" ma'nosida qo'llashi hol va hollanmish o'rtasida sodir bo'layotgan metaforani ifoda etib turibdi.

//Tong ochar ko'zlarin erinib,  
sevinchdan yig'laydi qiyochlar,  
chechaklar jilmayar sevinib,  
shamolda cho'milar giyochlar.  
O'ynoqi shu'lalar – bolalar  
jimgina tarqalar sayhonga,  
o'rgimchak to'qiydi tolalar,  
xonqizi boradi mehmonga.//

Haqiqiy she'r tushuntirmaydi, balki tasvirlab beradi. Shu ma'noda Shavkat Rahmon ham o'z ijodida aytmoqchi bo'lganlarini tabiat hodisalari yoki inson xatti-harakatlari orqali tasvirlab beradi. Bunday jarayonda mo'yqalam surtayotgan ranglar vazifasini metaforalar bajaradi. Shoir tongning ko'zlarini erinib ochishi, qiyochlarning sevinchdan yig'lashi, chechaklarning sevinib jilmayishini bejizga inson harakatlariga o'xshatmagan.

//O'tib ketar halloslab shamol,  
behilarning xush bo'yi anqir.  
Qizlar o'tar – ko'zlari armon,  
durralarda sochlarin tang'ib.  
Tong ko'ylagi unsiz yirtilar,  
chaq nab ketar oftob tig'lari,

it huradi, hangraydi eshak,  
qay hovlida go'dak yig'ladi.//  
Tilshunoslikda metafora, asosan, aniqlovchi va aniqlanishga bog'lab tahlil qilinadi. To'g'ri, mazkur sintaktik birlik bu borada boshqalaridan ancha faol metafora hosil qiladi, biroq bu hol va hollanmish munosabatidagi so'z birlimlari doirasida metaforik ma'no ifodalangan degani emas. Jumladan, "O'tib ketar halloslab shamol", "Tong ko'yilagi unsiz yirtilar" yoki quyidagi misradagi "Xabar berib shamol yugurdi" kabi ifodalar sintaktik jihatdan harakat holatini ifodalovchi birliklar ham metafora hosil qilish jarayonida ishtirok etishini ko'rsatadi.

//Xabar berib shamol yugurdi  
bu diyorga kelganim haqda,  
uzlatdagi tog'lar qo'zg'aldi,  
sarosima qo'pdi har yoqda.//  
Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Shavkat Rahmonning quyidagi she'ri yosh yurakning sof tuyg'ulari tabiat manzaralariga qiyoslanib tasvirlangan. Undagi jozibadorlikni qanday unsurlar ta'minlab berganini tekshirib ko'rish lozim.

//G'ichir-g'ichir,  
g'ichir-g'ichir,  
aylanasan – joning halak,  
aylanasan azal-abad,  
charxipalak,  
charxipalak.//  
Misralarda, asosan, ko'chma ma'no hukmron. Fe'llar ishtirokidagi metaforalar she'rning ta'sirchanligini oshirmoqda. "Charxipalak" so'zining misra so'ngida takror kelishi "aylanasan azal-abad" jumlasiga grammatik jihatdan bog'lanmasa-da, mazmunan aloqadorlikda. Zero, bu so'zlar undalma bo'lib kelmoqda. Aslida undalmaning mazkur murojaat shakli bo'yicha so'zlar misra boshida kelishi kerak edi, biroq shoir bu o'rinda ham metaforadan unumli foydalangan.

Uning dard-u armonlari, iztiroblari xalqning dardi, millatning dardi bilan, jamiyatning muammolari bilan chambarchas bog'lanib ketgandi. U boshqa she'rlarida metaforalarni shunday joylashtiradiki, beixtiyor ruhiyat tasviri, holat ifodasi birinchi planga chiqib qoladi:

//Yashamog'im zarur har daqiqani  
g'azab bilan, sevgi bilan to'ldirib,  
dunyodagi barcha qora narsani  
yorug' lahzalarda o'ldirib.//  
Ikkinchi darajali bo'laklardan holni mantiqiy urg'u orqali gap oxiriga keltirib qo'yadi. Ayni paytda xalqning, millatning butun fojiasi, birinchi navbatda, shu xalqning o'z yutug'i kamchiliklariga borib taqalishi uni o'yga toldirdi, millat boshiga tushgan fojialarning sabab va ildizini metaforalar orqali ro'yi rost aytishga, millatni uyg'otishga shoshildi. Chunki bunday yashash tarzi hali ham davom etardi:

//Tosh ham gullarmi deb,  
minglab kaltabin  
gurzisin do'layib yiqilgan paytda,  
mardona iljayib, ko'rasiz, dedim,  
bir kun gullaydi bu tosh, albatta.  
Balki tosh hoziroq  
gullayotgandir,  
ming rangli jiloda yashnab, o'zgarib,  
balki bu gullarni ko'rmayotgandir  
hattoki shoirning o'tkir ko'zlari...//  
"Turkiylar", "Kenglik sog'inchi", "Bo'rilar" singari she'rlarida ona yurtning, millatning dardi, ularning taqdiri haqidagi shoir qayg'usi ham majoz, ham ochiq ifodalarda beriladi. Jumladan:  
//Armonim ulg'aydi...  
kecha so'ylardim –  
Qaniydi bo'lsa deb birorta mard do'st.

Bugun qon yig'larman –  
dengiz bo'lsaydi,  
bo'lsaydi ulug'vor ummonlarga yo'l.//

Xalqimiz hayotida kechayotgan voqealarning hech biri Shavkat Rahmon nazariidan chetda qolgan emas. U har doim she'rga xos jasorat bilan birinchilardan bo'lib yaqinlashib kelayotgan har qanday xavfdan elni ogoh qildi, har qanday zulmga, jaholatga qarshi kurashdi.

Shoir she'rlarida "leksik va frazeologik obrazli, ko'chma ma'noli mikrosistemalar ichidagi paradigmatic bog'lanishlar va munosabatlarni yaxlit birlik sifatida yangi semantik ma'noni yuzaga keltiradi. Harakat-holat ma'nosini anglatuvchi fe'llar birlimlari shaklda obrazli ko'chma ma'no hosil bo'lishida asosiy vosita sanaladi"[5].

Shavkat Rahmon yosh o'zbek shoirlariga murojaat qilib, bitgan bir she'rida ham sifat va fe'l turkumiga xos bo'lgan bitishuvli munosabatni quyidagi metaforalar orqali shunday ifoda qiladi:

//So'zlarni qayraylik,  
tag'in qayraylik,  
tokim keskir bo'lsin bamisli olmos,  
O'tkir so'z qolmasa shoirlaridan,  
o'tkir so'z qolmasa...  
Hech narsa qolmas.//

Chindan, shoirand faqat so'z qoladi. Dilni o'rtaydigan, borliqni kuydirib-kul qiladigan, – ruhni kamolotga elta biladigan so'z qoldi. Bu so'z vaqtning shamollarida qaddini tutdi, isyon-otashlarda o'zini tobladi – o'lmadi, balki yashardi – yashadi. Chunki bu so'z mangulikka daxldor edi. Insonning azaliy va abadiy dardlari, muammolarini anglash va anglatishga uringan qalbning o'z-o'zini namoyish qilishi edi. Shavkat Rahmon ham so'z qudratini shunday his etdi. Takrorlanmas metaforalar asosida bayon qildi.

Shavkat Rahmon she'rlari o'zi mansub bo'lgan avlod she'riyat kabi vatan ichida vatanni sog'inib yashagan she'riyat edi. Shoir umri davomida o'zini anglash yo'lida nechog'li harakat qilgan bo'lsa, bosgan har bir qadamida vatanni anglashga urindi. Shu bois xalq, jasorat, kurash singari muhim mavzu va g'oyalarni yonida Vatan, uning tarixi va taqdiri haqidagi o'yalar, qalbdagi cho'ng og'riqlar ifodasi she'rxonni ham o'zligi, vatani haqida o'ylashga undaydi, uning mudrab yotgan ruh-u yuragini uyg'otadi. Haqiqiy she'rning vazifasi ham shu aslida shoirning vatan haqidagi quyidagi she'rida kulminatsion nuqtani tashkil etuvchi so'zlarda biri ham ko'chma ma'no orqali ifoda qilingan, ya'ni "Sochim oqarganda angladim, Vatan!" Buni keksayganda, yoshim o'tganda, qariganda kabi ko'plab birlimlarni bilan ifodalash mumkin edi. Ammo Shavkat Rahmon quyidagicha ifodaladi:

//Hali biror ishni uddalamadim,  
Hali hech kimsani qilmadim rozi  
Behuda o'tibdi go'zal umrimning  
Qanchalab chiroyli bahori, yozi.  
Farog'at borligin unutib qo'ydim,  
bag'rimga chaqinlar tegdi daf'atan.  
Sendan ulug'roq narsa yo'qligin  
sochim oqarganda angladim, Vatan.//

Ma'lumki, har qanday hayot hodisasi, inson qalbiga doir har qanaqa fikr- tuyg'u she'riyatda obraz orqali, bevosita obrazli tilda aksini topadi.

Umuman olganda, she'riyatda metaforalarning lisoniy imkoniyatlarini aniqroq, teranroq bilish uchun uning hosil bo'lish jarayonlarini, ya'ni so'zlarning bir-biri bilan turli kontekstda, turli maqsadlarda birikish usullarini tahlil qilish lozim. Shavkat Rahmon she'rlarida ham boshqa ijodkorlarda deyarli uchramaydigan hol-hollanmish munosabatidagi original metaforalar borligi, o'zbek she'riyatida lisoniy vositalardan eng samarali foydalangan ijodkorlardan biri sifatida qarash mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Т, "Фан". 2006. –Б.31.
2. Муллаҳўжаева Р. 80-йиллар ўзбек шеъринида поэтик тафаккурнинг янгиланиши ва Шавкат Раҳмон ижоди: Фил.фан.бўйича фал.д-ри (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2020. – 26 б.
3. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентриқ тадқиқи (номинатив аспект): Филол. фан. док. (DSc) дисс. – Самарқанд, 2020. – Б. 161-162.
4. Раҳмон Шавкат. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 382 б.
5. Суярова Н. «Белги» денотатив семали метафораларнинг таснифи, когнитив структураси ва лексикографик талқини: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2021. – Б.20.



UDK:801.8.

*Shaxnoza YUSUPALIEVA,*  
*Oriental University, Western languages Department Senior teacher*  
*E-mail: uyshaxnoza@gmail.com*

*Reviewer: Doctor of Samarkand State University, professor M. Abdiev*

#### METHODS OF INTEGRATING COMMUNICATIVE COMPETENCE OFFOREIGN LANGUAGE LEARNERS FOR SPECIFIC PURPOSES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation

This article devotes to multifaceted approach required to effectively nurture communicative competence within this educational context. Enhancing communicative competence in teaching foreign languages in higher education institutions is crucial for preparing students to effectively use the language in real-world contexts. Integration of language skills with communicative skills using a variety of authentic materials, such as podcasts by encouraging students to listen for different purposes: extracting specific information, understanding the main idea, or recognizing tone and intention. It allows students to understand how language functions in real-life situations and to adapt their communication strategies accordingly. Organizing debates around themes in a systematic way, giving students practice in expressing their opinions, posing queries, and giving thoughtful answers to others.

**Key words:** Communicative competence, enhance, proficiency, approach, to integrate, activity, engage, to participate, effective, context, coherence, cohesion.

#### OLIV TA'LIM MASSALARIDA MAXSUS MAQSADLARDA CHET TILI O'RGANUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI INTEGRARIYA QILISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ma'lum bir ta'lim sharoitida kommunikativ kompetensiyani samarali shakllantirish uchun zarur bo'lgan ko'p qirrali yondashuv asosida oliy o'quv yurtlarida maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan chet tillarini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani oshirishga qaratilgan. Shuningdek, talabalarni turli xil real sharoitda tildan samarali foydalanishga tayyorlash uchun juda muhimdir. Talabalarni turli chet tilida maqsadlarda muloqot qilishga undash orqali podkastlar kabi turli xil haqiqiy materiallardan foydalangan holda til ko'nikmalarini muloqot qilish kompetensiyalari bilan birlashtirishga holda matn g'oyasini va maqsadini og'zaki nutqda qo'llashga qaratilgan. Bu talabalarga tilning hayotiy vaziyatlarda qanday ishlashini tushunishga va ularning aloqa strategiyalarini mos ravishda moslashtirishga imkon beradi. Shuningdek, talabalarga o'z fikrlarini bildirish, savollar berish va boshqalarga mulohazali javob berish bilan shug'ullanish imkoniyatini berib, turli mavzular bo'yicha munozaralarni muntazam ravishda tashkil etishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Kommunikativ kompetensiya, takomillashtirish, samaradorlik, yondashuv, integratsiya, faollik, jalb qilish, ishtirok etish, kontekst ma'no - mazmun, mohiyat, izchillik.

#### МЕТОДЫ ИНТЕГРАЦИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ИЗУЧАЮЩИХ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ ДЛЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЦЕЛЕЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В данной статье рассматривается многогранный подход, необходимый для эффективного формирования коммуникативной компетенции в данном образовательном контексте. Повышение коммуникативной компетенции при преподавании иностранных языков в высших учебных заведениях имеет решающее значение для подготовки студентов к эффективному использованию языка в реальных условиях. Интеграция языковых навыков с коммуникативными навыками с использованием различных аутентичных материалов, таких как подкасты, путем поощрения студентов к прослушиванию с различными целями: извлечению конкретной информации, пониманию основной идеи и намерений. Это позволяет учащимся понять, как язык работает в реальных ситуациях, и соответствующим образом адаптировать свои коммуникационные стратегии. Также, систематически организовывать дебаты по различным темам, давая студентам возможность попрактиковаться в выражении своего мнения, постановке вопросов и даже вдумчивых ответов другим.

**Ключевые слова:** Коммуникативная компетентность, повышение, профессионализм, подход, интеграция, активность, вовлечение, участие, эффективность, контекст, согласованность.

**Introduction.** In the higher education, the development of communicative competence in teaching foreign languages stands as a fundamental pillar for fostering linguistic proficiency and cultural understanding among students. This article delves into the multifaceted approach required to effectively nurture communicative competence within this educational context. Furthermore, creating role-playing exercises where students act out scenarios such as job interviews, travel situations, or social gatherings. This helps students practice language in context and develop appropriate responses and strategies. Ensure that role-plays cover a range of situations and characters, allowing students to practice various registers and speech acts (e.g., making requests, giving opinions, negotiating) [1]. Organize debates on current events or controversial topics relevant to students' interests. This encourages critical thinking and allows students to use persuasive language and argumentation.

Teaching foreign languages, including English as a second language, has been a significant issue for decades. Numerous approaches and methods have been proposed by scholars to promote language learning and enhance students' skills. Some of these hypotheses have proven their utility through practical application, while others are still being explored in educational contexts.

Today, research is increasingly focused on specific branches of English language teaching, particularly English for Specific Purposes (ESP), as the demand for learning English continues to grow. Language instructors are now tasked with developing learners' proficiency within a limited scope relevant to their professional fields, rather than promoting proficiency across all areas of language learning[2].

Therefore, ESP practitioners must tailor the teaching process to align with learners' specific needs to achieve success. In other words, they must understand the purpose behind students' study of English and the desired outcomes by the end of the course.

**Literature review.** It is clear that learning how to give oral speeches has become necessary in today's world. Even though they know and express the same in their native tongue, modern young frequently struggle to appropriately convey their thoughts and ideas in English due to a lack of communication skills[3].

The key factor of achieving an intended result at the end of ESP courses is to choose appropriate materials for teaching. Careful selection of sources is very important because learners are exposed to grasping needed data with the help of them. Indeed, the best approach suggested by a number of scholars is to use authentic materials that

are defined as non-class intended sources. They are very important to enable learners to experience real English situations because they are not adapted or refined for teaching purposes [4]. Although the opinions concerning the importance of authentic sources in ESP teaching are diverse, most scholars firmly believe that these kinds of materials should be brought into ESP classrooms as they really assist in improving students' language proficiency. Regarding authentic materials as one of the crucial tools of ESP classes, Zorica Antic (2007), a teacher at the University of Nis, cites that "In ESP, the authentic world must be brought to the students, and they must learn to interact with the language as it is spoken and written in target situation"[5]. However, even though there are many textbooks believed to be appropriate for ESP courses, Johns (1981) claims that no textbook can fulfill all demands of a specific situation. For this reason, teachers must rely on their own empirical knowledge while assessing the appropriateness of the material to develop language skills[6]. In fact, not only teaching materials but also the place where the course is conducted is very crucial in teaching ESP. Various authors mention about conducting ESP courses as close to the workplace as possible. Moreover, to design activities where students have different pieces of information and must communicate to fill in the gaps[7]. For example, one student might have a map with certain locations marked, while another has a list of landmarks to find. During the sessions, create problem-solving tasks that require students to share information and work together to find solutions, such as planning a trip or solving a mystery.

Integration of language skills with communicative skills using a variety of authentic listening materials, such as podcasts, radio programs, or interviews. Encourage students to listen for different purposes: extracting specific information, understanding the main idea, or recognizing tone and intention. Incorporate activities where students listen and then respond or discuss what they heard. For example, after listening to a conversation, students could role-play a follow-up conversation or summarize the main points. Design tasks that require students to use language interactively, such as group discussions, debates, or role-plays. Focus on fluency, pronunciation, and the ability to convey meaning effectively. Having students prepare and deliver presentations on various topics. Furthermore, encourage students to engage with texts through summarizing, analyzing, and discussing content in groups. Incorporate activities where students read and then discuss or respond to texts [8]. For example, students could read an article and then participate in a discussion or write a response.

**Research methodology.** Likewise, emphasizing communicative competence contextual practice teach students to understand and use language appropriately in different contexts. For example, practice formal and informal registers, politeness strategies, and cultural norms. It requires students to use language pragmatically. For instance, students might practice making requests, giving feedback, or apologizing in various social situations[7]. Furthermore, cultural awareness in integrating cultural education into the lessons. Discuss cultural norms, values, and idiomatic expressions to help students understand and use language appropriately in different cultural contexts. Enhancing communicative competence in English for Specific Purposes (ESP) classes involves a focus on practical language use tailored to students' specific fields. Here are some strategies to consider:

Assess students' specific language needs related to their professional fields. Establish clear learning objectives based on the analysis;

**Contextualized Learning. Authentic Materials:** Use real-world documents (e.g., reports, emails, manuals) relevant to students' fields. Implement scenarios that students might encounter in their professional contexts;

**Task-Based learning:** Simulate workplace situations (e.g., meetings, presentations) to practice language in context. Encourage group work on projects that require the use of specific vocabulary and structures;

Authentic language use is a cornerstone of effective language learning and teaching in higher education institutions. It involves exposing students to real-world language contexts, interactions, and materials that reflect the natural use of the target language in its

cultural context. Authentic language use goes beyond traditional textbook exercises and scripted dialogues, providing learners with opportunities to engage with language in meaningful and purposeful ways [9]. Incorporating authentic language use helps students develop communicative competence by exposing them to the nuances of language usage, including idiomatic expressions, colloquialisms, and cultural references. It allows students to understand how language functions in real-life situations and to adapt their communication strategies accordingly.

**Analyses and results.** Coherence and cohesion is an important tool to teach students how to structure their speech and writing to ensure coherence and cohesion. Focus on linking ideas logically, using appropriate transition words, and maintaining a clear argument or narrative. Practice real-time interactions through simulations of conversations, negotiations, or meetings. This helps students develop the ability to manage turn-taking, repair communication breakdowns, and maintain conversation flow. Teach strategies for overcoming communication difficulties, such as using circumlocution (talking around a word), asking for clarification, or using context clues to infer meaning. Implement activities that require students to use strategic competence, such as role-playing a negotiation where they must find solutions to conflicts or misunderstandings.

Emphasizes interaction as the primary means of learning. The goal is to develop students' ability to communicate effectively and appropriately in real-life situations. **Role Plays:** Simulate real-life scenarios where students practice using the language in context. With the help of engaging students in meaningful tasks, such as planning a trip or solving a problem, that require the use of language skills. **Centers on completing meaningful tasks** that require using the language to achieve a specific goal. Assign projects that involve research, planning, and presentation. For example, students might create a travel brochure or design a product. Present students with problems to solve collaboratively, such as planning an event or negotiating a deal. **Content and Language Integrated Learning (CLIL).** Integrates language learning with content from other subjects (e.g., textile, design). The goal is to teach the language through the study of academic subjects[8]. **Emphasize teaching language through immersion and direct interaction,** avoiding translation and focusing on everyday language use. Moreover, conduct lessons in the target language, using direct, everyday language in interactions. **Inductive Grammar Teaching:** Present grammatical structures through examples and usage rather than explicit rules. In order to use repetition and drills to teach language patterns and structures. The emphasis is on speaking and listening skills. Practice specific language structures through repetitive exercises. Use scripted dialogues and role-plays to practice language patterns and improve pronunciation[9]. In addition, focusing on both all language skills and communicative skills is essential for developing comprehensive communicative competence in foreign language learners.

**Conclusion.** By implementing these strategies, ESP classes can effectively enhance students' communicative competence, preparing them for real-world professional interactions. Creating a dynamic learning environment not only fosters engagement but also ensures that students acquire the specific language skills relevant to their fields. This comprehensive approach equips learners with the tools necessary for academic success and effective communication in their professional careers, ultimately leading to greater confidence and competence in their respective industries[10]. Through a focus on practical application, collaboration, and continuous improvement, ESP education can significantly contribute to students' overall readiness for the challenges they will face in their professional lives.

In order to embracing this comprehensive and integrated approach, educators can effectively address the multifaceted nature of language acquisition, catering to the diverse needs and learning styles of students. This approach not only enhances language proficiency but also promotes critical thinking, cultural sensitivity, and lifelong learning skills. Ultimately, it empowers students to communicate confidently and competently in the target language, equipping them with the linguistic and intercultural competencies needed to thrive in an increasingly globalized world.

## REFERENCES

1. Jonassen H. Constructing learning environments on the web: Engaging pupils in meaningful learning. EdTech 99: Educational Technology Conference and Exhibition 1999: Thinking Schools, Learning Nation. 1999 – PP. 45-46.

2. Alijonovna M.M., YusupalievaSh.K., Sattorova S.T. Syntactic functions and patterns of combinability of adverbs. – India: Novateur publications. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal\ ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 7, ISSUE 1, January 2021. – PP. 176-178.
3. YusupalievaSh, Sattorova S. The importance of speaking in EFL classes classes. – Indoneziya: International journal of discoveries and innovations in applied sciences\Volume 1 Issue 4, 2021. – PP.63-65
4. Constant L. Convivial communication: recontextualizing communicative competence. International Journal of Applied Linguistics. 2005. – PP. 43-44.
5. Shohobudinova D., Djuraeva N., Tolipova A., Muminova M., and Yusupalieva Sh. Aesthetic and linguistic characteristics of comedy in a foreign language. <https://tnu.tj/index.php/ru/e3s-web-of-conferences/>.
6. Aldohon H.I. English for Specific Purposes (ESP) for Jordanian workplace: Needs and problems. International Education Studies, 7(11), 2014. – PP. 56-67.
7. Yusupalieva Sh.H. “Methods of effective use of communicative competence in the organization of foreign language classes in technical higher educational institutions” FSU scientific posts 1-2023, 85-87 p
8. LDCE: Longman Dictionary of Contemporary English. Pearson Education Limited. Fourth Edition, 2005. 1950 p.
9. Longman Dictionary of Contemporary English /electronic resource
10. Komarova, A.B. Subject-language integrated learning. //Fundamental andapplied research in the modern world. 2013. Vol.3. No. 4 (04). pp. 143-146